Увеличение степени кристалличности связано с уменьшением расстояния между частицами наполнителя и снижением аморфной фазы (рис. в). При этом следует учесть, что частицы наполнителя распределяются преимущественно в аморфной фазе и неупорядоченных участках полимера. Это согласуется с представлением о вытеснении сферолитами частиц наполнителя в аморфную фазу полимера в случае, если размер этих частиц значительно превосходит размер ядра зародыша сферолита [1].

Аномальное снижение плотности и увеличение дефектности литьевых образцов может быть связано с термическими коэффициентами расширения полимерной матрицы и высокодисперсного наполнителя. Полимерная матрица, у которой термический коэффициент расширения значительно выше, чем у высокодисперсного наполнителя, «обжимает» частицы, что препятствует появлению подвижности фаз на границе раздела даже при слабой адгезионной связи. Термический коэффициент расширения полимера в поверхностном слое при температурах выше и ниже температуры стеклования закономерно увеличивается с ростом удельной поверхности наполнителя. Это указывает на возникновение в тонких слоях полимера на наполнителе неплотной упаковки макромолекул и увеличение на них доли свободного объема. Другими словами, термический коэффициент расширения с ростом содержания твердых частиц наполнителя закономерно повышается [11].

Отмечают [12], что концентрация пор на поверхности ПЭ в 10 раз больше, чем в объеме. Действительно, в поверхностных слоях подвижность молекул выше, чем в объеме, что, по-видимому, способствуют образованию более пористой структуры. Все эти факторы способствуют снижению плотности и увеличению дефектности структуры литьевых полимерных изделий.

Существенная структурная макронеоднородность литьевых изделий из компоноров можно обнаружить не только при стандартных механических испытаниях, но и методом набухания микрообразцов в физически активных

ISSN 3030-3907

жидких средах [13]. Установлено [14], что практически все стандартные литьевые образцы, испытываемые на прочность при одноосном растяжении разрушаются в той части рабочего участка, которая максимально удалена от литникового канала. Причем наблюдаемое явление не зависит от природы полимера и высокодисперсного наполнителя, а также от ее содержание в полимерной матрице. Более того, предварительная термообработка готовых литьевых изделий из компоноров в воздушной среде или в неабсорбируемых жидкостях при температурах, ближе к температуре плавления полимерной матрицы, не приводит к изменению места очагов разрушения. Локализация места разрушения литьевых образцов указывает не одну из причин существующей неоднородности-наличие внутренних напряжений, возникающих при течении высоковязкого остывающего расплава дисперсно-наполненного полимера внутри формы и «замороженных» при охлаждении образцов. 35 % каолина (6) от длины рабочего участка литьевого стандартного образца. Стрелкой показана направление литья.

Наблюдаемое явление объясняется тем, что максимальная степень ориентации достигается в зоне впрыска материала в форму, а у противоположной стенки формы она минимальная [15]. К тому же, ориентация макромолекул, происходящая, как правило, при литье под давлением, преимущественно поперек направлению движения потока полимерного расплава [16]. Продольная ориентация макромолекул возникает только в тех случаях, когда расплав протекает в очень узких каналах с сечением менее 1 мм^2. Только на первом участке изделия, находящемся непосредственно после литникового канала, макромолекулы располагаются вдоль оси потока. Кроме того, интенсивные сдвиговые воздействия на расплав полимера активизируют превращения, приводящие к изменению его молекулярно-массовых характеристик [17].Результирующее изменение этих показателей определяется соотношением реакции разрывов макромолекул и присоединения макрорадикалов при формовании изделия. Следствием специфических условий литья под давлением является различие уровней изменения молекулярно-массовых характеристик полимера в объеме полости формы. Неоднородность этих характеристик полимера в сечении изделия, перпендикулярном направлении впрыска расплава, рассмотрена в работах [15-20]. По данным ИК-спектроскопии и гель-хроматографии установлено, что низкомолекулярная фракция полимера располагается у поверхности литьевого образца. Для ненаполненного ПЭВП [17], а также компоноров [21] установлено, что пребывание материала в узле пластикации, прохождение его через литниковую систему приводит к доминированию процесса

ISSN 3030-3907

деструкции. При этом на расстояних 20 и 60 мм от литникового канала величина M_ω составляет $201 \cdot 10^3$ и $140 \cdot 10^3$, соответственно.

Таким образом, плотность упаковки макромолекул, дефектность структуры и степень кристалличности литьевых изделий из компоноров тесна связана с релаксационными процессами, неоднородностью молекулярно-массовых характеристик полимерной матрицы и неравномерностью распределения частиц наполнителя в морфологических зонах изделия и может быть объяснена различием условий формования материала в сечении формы.

Литература

1. Липатов Ю.С./Физическая химия наполненных полимеров.//М.:Химия, 1977. 304с.

2. Джейл Ф.Х./Полимерные монокристаллы.//Пер. с англ. Под ред. С.Я.Френкеля. Л.:Химия, 1968. 552с.

3. Манин В.Н., Громов А.Н., Григорьев В.П./Дефектность и эксплуатационные свойства полимерных материалов.//Л.:Химия, 1986. 184с.

4. Чалых А.Е., Злобин В.Б./Современные представления о диффузии в полимерных системах.//Успехи химии, 1988. Т.37. Вып.6. С.903-928.

5. Варкалис А.Ю., Брантс И.П., Яунроманс И.И., Метра А.Я./Свойства и структура наполненных композиций полиолефинов.//Пластические массы, 1985. №2. С.37-39.

6. Фатоев И.И., Громов А.Н., Назаров В.Г., Кондратов А.П., Манин В.Н./Влияние дисперсных наполнителей на структуру и свойства ПЭВП.//Пластические массы, 1991. №11. С.32-35.

7. Малинский Ю.М. /О влиянии твердой поверхности на процессы релаксации и структурирования в пристенных слоях полимера.//Успехи химии, 1970. Т.39. Вып.8. С.1511-1535.

8. Зуев Ю.С./Разрушение эластомеров в условиях, характерных для эксплуатации.//М.:Химия, 1980. 288с.

9. Соломко В.П. /Наполненные кристаллизующиеся полимеры.//Киев.:Наукова думка, 1980. 262с.

10. Гуль В.Е., Задоя М.А./Влияние ориентации подложки на адгезионную прочность полимерных соединений.//Высокомолекулярные соединения. Серия А, 1976. Т.18. №9. С.2000-2003.

11. Липатов Ю.С., Фабуляк Ф.Г., Сергеева Л.М./Определение величины свободного объема при температуре стеклования из данных по временам объемной релаксации.//Высокомолекулярные соединения. Серия Б, 1968. Т.10. №7. С.527-529.

ISSN 3030-3907

12. Пахомов П.М., Круглова Е.В., Хижняк С.Д./Изучение пористости полимеров методом ИК-спектроскопии.//Высокомолекулярные соединения. Серия Б,2000. Т.42. №6. С.1081-1088.

13. Фатоев И.И., Кондратов А.П./Дефектность структуры литьевых полимерных изделий.//Научный вестник Бухарского госуниверситета, 2001. №4. С.53-57.

14. Манин В.Н., Фатоев И.И., Патрикеев Г.А., Кондратов А.П./Оценка макронеоднородности норпластов методом краевого надреза.//Пластические массы, 1985. №9. С.36-38.

15. Морозова С.П., Фридман М.Л., Абрамов В.В., Симонов-Емельянов И.Д., Зинченко С.А. /Ориентационные эффекты и структура литьевых изделий из полиолефинов. //Пластические массы, 1979. №9. С.39-42.

16. Натов М.А., Мицулов А.И. /О надмолекулярной структуре полимерных изделий.//Высокомолекулярные соединения. Серия А, 1983. Т.25. №6. С.1140-1148.

17. Акутин М.С., Абрамов В.В., Сойреф Д.А., Валиотти Н.Н., Паверман Н.Г./Молекулярно-массовые характеристики ПЭНД при литье под давлением.//Пластические массы, 1984. №12. С.29-30.

18. Будтов В.П., Лопатин А.К., Тихонова Г.П./Механизм релаксационных процессов в микрообъемах литьевых изделий из полиэтилена высокой плотности.//Высокомолекулярные соединения. Серия А, 1985.Т.27. №1. С.144-155.

19. Тихонова Г.П., Шехтмейстер И.Э., Гольденберг А.Л., Леоско Е.А. /Влияние молекулярных характеристик на структуру литьевых изделий из ПЭНД. //Пластические массы, 1981. №10. С.39-40.

20. Калинчев Э.Л., Кацевман М.М./Современные проблемы химии и химической промышленности. //М.:НИИТЭХИМ, 1976. Вып.10(35). 73с.

21. Фатоев И.И., Назаров Д., Ситамов С./Влияние многократной переработки на свойства высоконаполненного ПЭВП.//Пластические массы, 1991. №7. С.40-41.

ISSN 3030-3907

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “TABIATSHUNOSLIK” FANINI RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: 5E MODELI ASOSIDA DIZAYN, BAHOLASH VA JORIY ETISH

Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o`g`li.
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti huzuridagi Namangan viloyat Akademik litseyi. Matematika fani o`qituvchisi
E-mail: shohruh105rus@gmail.com
Orcid: 0009-0007-4403-0817

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda “Tabiatshunoslik” fanini raqamli platformalar orqali o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, 5E modeli (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) asosida darslarni loyihalash, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni interaktiv tarzda shakllantirish va baholash mexanizmlarini yaratish bo‘yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Maqola raqamli platformalar imkoniyatlarini samarali qo‘llash, o‘quvchilarda ekologik tafakkurni rivojlantirish hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, tabiatshunoslik, raqamli platformalar, 5E modeli, metodika, innovatsion yondashuv, baholash.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики преподавания предмета «Естествознание» в начальном образовании с использованием цифровых платформ. Особое внимание уделено применению модели 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) при проектировании и организации уроков, повышении интереса учащихся, формировании знаний в интерактивной форме и создании эффективных механизмов оценки. Исследование направлено на развитие экологического мышления школьников, формирование цифровых компетенций и повышение качества обучения.

Ключевые слова: начальное образование, естествознание, цифровые платформы, модель 5E, методика, инновационные подходы, оценивание.

Annotation: This article explores the improvement of teaching methodology for the subject “Natural Science” in primary education through the use of digital platforms. The study emphasizes the application of the 5E model (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) in lesson design, increasing student engagement, promoting interactive knowledge acquisition, and establishing effective assessment mechanisms. The findings highlight the role of digital tools in fostering ecological thinking, developing digital competencies, and enhancing the overall quality of education.

ISSN 3030-3907

Keywords: primary education, natural science, digital platforms, 5E model, methodology, innovative approach, assessment.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish jarayoni tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’limda “Tabiatshunoslik” fanini o‘qitishda raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning tabiat hodisalarini chuqurroq anglashlari, ilmiy tafakkurini rivojlantirishlari va zamonaviy axborot muhitida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki raqamli vositalar nafaqat bilimni yetkazish, balki uni interaktiv, qiziqarli va samarali tarzda o‘zlashtirish imkonini ham beradi. “Tabiatshunoslik” fani o‘zining mazmuni bilan o‘quvchilarni atrof-muhit bilan tanishtirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish, ilmiy kuzatuvchanlikni shakllantirish va kundalik hayotda zarur bo‘ladigan tabiat haqidagi bilimlarni berishga yo‘naltirilgan. Shu bois ushbu fan o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni erta bosqichdan rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda raqamli platformalar – virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, elektron darsliklar va onlayn baholash tizimlari – katta imkoniyatlar yaratadi. So‘nggi yillarda pedagogik amaliyotda 5E modeli (Engage – jalb qilish, Explore – tadqiq qilish, Explain – tushuntirish, Elaborate – chuqurlashtirish, Evaluate – baholash) keng qo‘llanilmoqda. Ushbu model o‘quvchilarning bilimlarni faqat tayyor holatda qabul qilishlariga emas, balki mustaqil izlanish, kuzatish, tajriba qilish orqali egallashlariga yordam beradi. Ayniqsa, raqamli muhitda 5E modeli darslarni samarali loyihalash va o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faol ishtirok asosida tashkil etishga imkon yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, “Tabiatshunoslik” fanini o‘qitishda raqamli platformalar asosida 5E modelini qo‘llash metodikasini takomillashtirish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning kreativ hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich ta’lim tizimida “Tabiatshunoslik” fanini samarali o‘qitish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu fan kichik yoshdagi o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda, tabiat qonuniyatlarini anglashda va ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog olimlar ta’kidlaganidek, tabiatshunoslikni o‘qitishda o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, uni tajribalar orqali faol o‘quv jarayoniga jalb qilish zarur. Xorijiy adabiyotlarda, xususan, Yevropa va Amerika pedagogik maktablarida tabiatshunoslik fanini o‘qitishda interfaol metodlar, tajribaviy mashg‘ulotlar hamda raqamli texnologiyalar keng qo‘llanmoqda. Ularning tadqiqotlari raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarda ko‘rgazmalilikni

ISSN 3030-3907

kuchaytirish, mavzuni vizual tasvirlar va simulyatsiyalar orqali yoritish samaradorligini isbotlagan. Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida esa boshlang‘ich ta’limda zamonaviy metodlarni qo‘llash bilan birga, milliy ta’lim standartlariga mos keladigan raqamli platformalar yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhimligi qayd etiladi. Ayniqsa, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va raqamli kompetensiyalari o‘quv jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. 5E modeli bo‘yicha ilmiy izlanishlar bu yondashuvning o‘quvchilarda faol ishtirok, mustaqil izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Jahon amaliyotida 5E modeli STEM-ta’lim konsepsiyasi bilan uyg‘unlashgan holda keng tatbiq etilib, boshlang‘ich ta’lim fanlarining, jumladan, tabiatshunoslik darslarining sifatini oshirishda samarali vosita sifatida qaraladi. O‘zbekiston ta’lim tizimi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar esa shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli vositalar va interfaol metodlarni qo‘llash, 5E modeliga asoslangan darslarni loyihalash va joriy etish “Tabiatshunoslik” fanini yanada qiziqarli, samarali va natijador qilish imkonini beradi. Shu asosda aytish mumkinki, adabiyotlar tahlili boshlang‘ich ta’limda tabiatshunoslik fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalar va 5E modelidan foydalanish metodikasini takomillashtirish dolzarb va istiqbolli ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri ekanini tasdiqlaydi.

Materiallar va metodlar. Ushbu tadqiqot boshlang‘ich ta’limda “Tabiatshunoslik” fanini o‘qitishda raqamli platformalar imkoniyatlarini o‘rganish hamda 5E modeli asosida darslarni loyihalash, baholash va joriy etish metodikasini takomillashtirishga qaratildi. Tadqiqotda quyidagi materiallar va metodlardan foydalanildi:

Materiallar. **O‘quv dasturlari va darsliklar** – O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablari uchun tasdiqlangan 1–4-sinflar “Tabiatshunoslik” fani dasturlari va darsliklari asosiy manba sifatida tanlandi. **Raqamli platformalar** – “EduMarket”, “Maktab.uz”, “Google Classroom” va “Kundalik.com” kabi raqamli ta’lim muhitlari hamda xalqaro onlayn platformalardan (Kahoot, PhET simulyatsiyalari) foydalanildi. **O‘quvchilar guruhi** – Tadqiqot Toshkent shahri va viloyatlardagi bir qator maktablarning 3–4-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazildi. Nazorat guruhi an’anaviy metodlar asosida, tajriba guruhi esa raqamli vositalar va 5E modelidan foydalanib ta’lim oldi. **O‘qituvchilar** – Tajribada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirok etdi, ularning metodik tayyorgarligi va raqamli kompetensiyalari baholandi.

Metodlar. **Pedagogik kuzatuv** – Dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki, qiziqishi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasi muntazam kuzatildi.

ISSN 3030-3907

Eksperimental metod – Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida 5E modelining samaradorligi solishtirildi. **Test va so‘rovnomalar** – O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari maxsus ishlab chiqilgan testlar va so‘rovnomalar yordamida baholandi. **Statistik tahlil** – Olingan ma’lumotlar foiz hisobida va taqqoslash usuli orqali tahlil qilindi. **Metodik tahlil** – 5E modeli asosida dars ishlanmalari ishlab chiqildi va ularning samaradorligi pedagogik mezonlar orqali aniqlashtirildi.

Tadqiqot bosqichlari. Tayyorlov bosqichi – adabiyotlar o‘rganildi, raqamli platformalar tanlandi, metodik vositalar ishlab chiqildi. **Amaliy bosqich** – tajriba darslari o‘tkazildi, 5E modeliga asoslangan darslar loyihalashtirildi va joriy etildi. **Natijalarni tahlil qilish bosqichi** – o‘quvchilar natijalari, o‘qituvchilar tajribasi hamda raqamli platformalarning samaradorligi solishtirildi.

Tadqiqot muhokamasi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta’limda “Tabiatshunoslik” fanini raqamli platformalar orqali 5E modeli asosida o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, qiziqishi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba guruhida o‘tkazilgan darslarda **“Engage” (jalb qilish)** bosqichi o‘quvchilarda tabiiy jarayonlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. Masalan, raqamli animatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida tabiat hodisalarini kuzatish ularning savol berish va munozaralarda faol ishtirok etishini ta’minladi. **“Explore” (izlanish)** bosqichida o‘quvchilar raqamli simulyatsiyalar orqali mustaqil tajribalar o‘tkazib, yangi bilimlarni amaliy yo‘l bilan o‘zlashtirdilar. **“Explain” (tushuntirish)** bosqichida esa o‘quvchilar o‘z kuzatuvlarini guruh bo‘lib taqdim etdilar va raqamli vositalar yordamida tushunchalarni yanada aniqroq o‘zlashtirishdi. **“Elaborate” (mustahkamlash)** bosqichida bilimlar amaliy hayot bilan bog‘landi. Masalan, “suv aylanishi” mavzusi raqamli tajribalar orqali o‘quvchilarning kundalik hayotdagi kuzatuvlari bilan solishtirildi. **“Evaluate” (baholash)** bosqichida esa testlar, interfaol topshiriqlar va o‘zaro baholash vositalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi aniqlandi. Nazorat guruhida esa an’anaviy dars metodlari qo‘llanganda o‘quvchilarda o‘zlashtirish darajasi pastroq bo‘lib, faol izlanish va ijodkorlik yetarli darajada namoyon bo‘lmadi. Bu esa raqamli platformalar va 5E modelidan foydalanishning samaradorligini amaliy jihatdan isbotladi. Tadqiqot jarayonida shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish zaruriyati ham aniqlangan. 5E modelini muvaffaqiyatli qo‘llash uchun pedagoglarni maxsus metodik tayyorgarlikdan o‘tkazish va ularga raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish lozimligi kuzatildi. Umuman olganda, 5E modeli asosida raqamli platformalardan foydalanish: o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etadi;

ISSN 3030-3907

mustaqil o‘qish va tajriba qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi; o‘qituvchilar uchun metodik samaradorlikni oshiradi; “Tabiatshunoslik” fanining mazmunini chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta’limda “Tabiatshunoslik” fanini raqamli platformalar asosida 5E modeli bo‘yicha o‘qitish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodika o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi, ularda mustaqil fikrlash, izlanish, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Nazorat va tajriba guruhlari taqqoslanganda, 5E modeli asosida o‘tilgan darslarda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, fanga qiziqishi va o‘z fikrini erkin ifoda etish qobiliyati an’anaviy metodlardan ko‘ra yuqori bo‘lgani aniqlandi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishlariga, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashlariga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va metodik tayyorgarligini kuchaytirish zarurligi ham oydinlashdi. Demak, raqamli platformalar va 5E modeli asosida dars o‘tkazish nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham samarali bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A. (2020). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Jumayev M. (2019). Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Mavlonova R.A., Usmonboyeva M. (2021). Pedagogik innovatsiyalar va raqamli ta’lim. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
4. Qodirova Z. (2018). Boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Dewey J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
6. Bybee R.W. (2006). The BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness. Colorado Springs: BSCS.
7. Jonassen D.H. (2000). Computers as Mindtools for Schools: Engaging Critical Thinking. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.
8. Piaget J. (1973). To Understand is to Invent: The Future of Education. New York: Grossman.
9. Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
10. Ergashev O. (2022). Boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim platformalarining qo‘llanilishi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent.

ISSN 3030-3907

UDK:338.48:008(575.1)

”O‘ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZM VA MADANIY ME'ROSNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Buranov Zafarjon Ergashboy o‘g‘li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda barqaror turizm va madaniy me’rosni rivojlantirish istiqbollari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Mualliflar mavjud ilmiy va amaliy tadqiqotlar asosida madaniy obidalarni saqlab qolgan holda turizmni rivojlantirish, mahalliy aholini jalb qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi omillarni yoritadilar.

Kalit so‘zlar: barqaror turizm, madaniy me`ros, ekologiya, mahalliy hamjamiyat, tarixiy obidalar.

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы устойчивого туризма и развития культурного наследия в Узбекистане, анализируются существующие проблемы и предлагаются пути их решения. Основное внимание уделено сохранению культурных памятников, вовлечению местного населения и обеспечению экологической устойчивости.

Ключевые слова: устойчивый туризм, культурное наследие, экология, местное сообщество, исторические памятники.

Abstract. This article discusses the prospects for sustainable tourism and the development of cultural heritage in Uzbekistan. It analyzes existing problems and suggests possible solutions. The paper highlights the importance of preserving historical sites, engaging local communities, and ensuring ecological sustainability.

Keywords: sustainable tourism, cultural heritage, ecology, local community, historical monuments.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

O‘zbekiston boy tarixiy me`ros va betakror madaniyatga ega davlat sifatida xalqaro turizm sohasida katta salohiyatga ega. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlardagi madaniy obidalar UNESCOning Butunjahon me`rosi ro‘yxatiga kiritilgan. Ushbu shaharlarda joylashgan tarixiy yodgorliklar, masjidlar, madrasalar va qadimiy bozorlar har yili minglab sayyohlarni jalb etadi. Turizm sohasi nafaqat mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, balki milliy o‘zlikni saqlash, xalqaro imijni mustahkamlash va aholi bandligini oshirish kabi ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, viza tizimi soddalashtirildi, yangi mehmonxonalar, yo‘llar va infratuzilma obyektlari qurilmoqda. Shu bilan birga, bu rivojlanishning barqarorligini ta’minlash, ya’ni ekologik muvozanatga putur yetkazmasdan,

ISSN 3030-3907

madaniy obidalarni saqlab qolgan holda turizmni kengaytirish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda.

Barqaror turizm — bu iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan muvozanatli yondashuvni nazarda tutuvchi konsepsiya bo‘lib, u sayyohlik faoliyatidan uzoq muddatli ijobiy natijalar olishga qaratilgan. O‘zbekistonda bu yondashuvni joriy etishda hali ko‘plab to‘siqlar mavjud: obidalarni ta’mirlashda ilmiy yondashuv yetishmasligi, mahalliy aholi ishtirokining sustligi, va ekologik tahdidlarning kuchayib borayotgani shular jumlasidandir [7,-B.11-25].

Turizm sohasi yurtimizda yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida muhim o‘rinni egallab borayotgani, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududiy tengsizlikni kamaytirish kabi afzalliklarga ham ega. Ayniqsa, chekka hududlarda turizm imkoniyatlarini ishga solish orqali mahalliy iqtisodiyotlarni jonlantirish mumkin. Shu bilan birga, muvozanatli yondashuvsiz olib borilgan turistik faoliyat atrof-muhitga zarar yetkazishi, madaniy me’ros obidalarining yemirilishiga olib kelishi mumkin [1,-B.41-57]. Shu sababli, ushbu maqolada O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari, dolzarb muammolar, ilg‘or xalqaro tajribalar va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola yakunida mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha aniq va ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

O‘zbekistonda turizm sohasi strategik rivojlanish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan ushbu sohani qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2016-yildan boshlab “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari” qabul qilinib, sohaning institutsional va infratuzilmaviy asoslari mustahkamlanmoqda. 2023-yilda mamlakatga kelgan xorijiy turistlar soni 6 milliondan oshdi, bu esa turizmning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi [2,-B.45-60].

Shu bilan birga, bu rivojlanish barqarorlik tamoyillari asosida olib borilmasa, tarixiy obidalar va ekologik muhitga jiddiy zarar yetishi mumkin. Masalan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda turistlar oqimi ortib borayotgani madaniy obidalarni ekspluatatsiya qilish xavfini kuchaytirmoqda. Mahalliy aholi ishtirokisiz olib borilayotgan turistik faoliyat esa ijtimoiy tengsizlik va madaniy begonalashuvga olib kelishi mumkin [3,-B.73-88]. Shuningdek, ekologik muvozanat buzilishi, chiqindilarni boshqarish tizimining zaifligi, suv resurslariga ortiqcha yuklama kabi muammolar barqaror rivojlanish uchun jiddiy to‘siqlardir. Madaniy me`rosni asrash va uni turizm bilan uyg‘unlashtirish masalasi hozirgi zamonda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayni vaqtda xalqaro tajribalar, jumladan, UNESCO, Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) va Jahon

ISSN 3030-3907

banki tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar asosida turizmni mahalliy hamjamiyatlar bilan uyg‘un holda, ekologik xavfsizlik va madaniy identitetni saqlagan holda rivojlantirishga e’tibor kuchaymoqda [7,-B.11-25]. Shu sababli, O‘zbekistonda turizm va madaniy merosni birgalikda rivojlantirish masalasi o‘z vaqtida o‘rganilishi va ilmiy asosda hal qilinishi zarurdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O‘zbekistonda barqaror turizm va madaniy me`rosni rivojlantirish borasidagi tajribani o‘rganish uchun bir nechta hududiy misollar tahlil qilindi. Jumladan, Buxoro, Samarqand va Xiva kabi shaharlarda amalga oshirilayotgan loyihalar asosida quyidagi jihatlar o‘rganildi:

1. Samarqanddagi “Silk Road” turizm markazi – bu loyiha xalqaro sayyohlarni jalb qilish maqsadida barpo etilgan zamonaviy kompleks bo‘lib, unda qadimiy obidalar va zamonaviy infratuzilma uyg‘unlashtirilgan. Bu markaz orqali turizm hajmi oshgan bo‘lsa-da, ayrim mutaxassislar ekologik yuklama va suv resurslariga bosim ortayotganini ta’kidlashmoqda [4,-B.34-42].

2. Xivadagi Ichan-Qal’a majmuasi – UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan bu hududda mehmonxona va savdo nuqtalarining ortiqcha zichligi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, mahalliy aholi o‘z an’anaviy hayot tarzini o‘zgartirishga majbur bo‘layotgani qayd etiladi [8,-B.64-79].

3. Buxoroda barqaror mehmonxona konsepsiyalari – bu yondashuvda energiya tejamkorlik, chiqindilarni qayta ishlash va mahalliy mahsulotlardan foydalanish bo‘yicha ijobiy natijalar kuzatilgan. Shu tarzda barqarorlik tamoyillarining real qo‘llanilishi namoyon bo‘ldi [5,-B.19-36].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ayrim loyihalarda barqarorlik tamoyillariga rioya qilinayotgan bo‘lsa-da, bu yondashuv hali butun sektor miqyosida tizimlashtirilmagan.

XULOSA

O‘zbekistonda barqaror turizm va madaniy me’rosni rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, ekologik barqarorlik, ijtimoiy barobarlik va madaniy o‘zlikni asrash bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, O‘zbekiston boy tarixiy va madaniy me’rosga ega bo‘lishiga qaramay, barqaror turizmni rivojlantirishda muayyan muammolarga duch kelmoqda. Bularga infratuzilma yetishmovchiligi, raqamli texnologiyalarning cheklangan qo‘llanilishi, mahalliy aholi ishtirokining sustligi, ekologik xavflar va ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlarining zaifligi kiradi.

Shu bilan birga, mamlakatda olib borilayotgan davlat siyosati, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, ekoturizm va madaniy yo‘nalishdagi tashabbuslar, mahalliy jamoalarning jalb qilinishi barqaror turizmning rivojlanishi uchun muhim

ISSN 3030-3907

poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, “Silk Road” brendi ostida olib borilayotgan targ‘ibot ishlari, UNESCO bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlar O‘zbekistonning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda kengaytirmoqda.

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda kompleks choralar ko‘rilishi zarur:

1. Mahalliy jamoalarni turizmga jalb qilish – aholining turizm faoliyatidagi ishtiroki nafaqat daromad manbai, balki madaniy me’rosni asrashga xizmat qiladi.

2. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish – mobil ilovalar, virtual sayohatlar, interaktiv xaritalar orqali sayyohlar oqimini boshqarish va me’ros obyektlarini himoyalash mumkin.

3. Barqarorlik mezonlarini turizm siyosatiga integratsiyalash – ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holatda rejalashtirish va monitoring qilish mexanizmlarini yaratish lozim.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish – turizm sohasi uchun malakali, xorijiy tillarni biladigan, madaniy hamda ekologik savodxon kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

5. Xalqaro tajribalardan samarali foydalanish – barqaror turizmda ilg‘or amaliyotlarni O‘zbekistonga moslashtirish orqali sohaga innovatsiyalarni jalb qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda barqaror turizm va madaniy merosni rivojlantirish masalasi faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va madaniy ustuvorlik hamdir. Unga kompleks, tizimli va barqaror yondashuv zarur. Bu borada davlat, jamiyat, tadbirkorlar va ilmiy doiralar o‘rtasidagi hamkorlik mustahkam bo‘lishi barqaror turizm kelajagining kafolati bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Beknazarov, O. (2023). Sustainable tourism and heritage preservation in Central Asia. Tashkent: Forum Press. 41–57.
2. Jeong, H., Park, S., & Karimov, M. (2023). Tourism Development in Uzbekistan: Trends and Challenges. Asian Journal of Sustainable Tourism, 8(2), 45–60.
3. Shoyimardonqulova, N. (2023). Turistik faoliyatda madaniy me’rosni asrash masalalari. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti. 73–88.
4. Turaev, N. (2023). Samarqandda barqaror turizm infratuzilmasini shakllantirish tajribasi. Barqaror Rivojlanish Jurnali, 5(1), 34–42.
5. UNDP. (2022). Green Tourism Practices in Uzbekistan: Policy and Local Implementation. United Nations Development Programme Uzbekistan. 19–36.
6. UNESCO. (2021). Preserving Cultural Heritage Through Sustainable Tourism: Case of Uzbekistan. Paris: UNESCO Publishing. 28–44.

ISSN 3030-3907

7. World Bank. (2018). Sustainable Tourism Development Project: Uzbekistan Case Study. Washington, DC: The World Bank Group. 11–25.
8. Yuldashev, R. (2022). Xiva Ichan-Qal'asida turizm va ijtimoiy muhit o'zgarishlari. Toshkent: Ma'naviyat. 64–79.

ISSN 3030-3907

ADVANTAGES OF USING LIQUEFACTION TECHNOLOGY, UTILIZATION OF PETROLEUM GAS ON THE EXAMPLE OF THE NORTHERN SHURTAN FIELD

B.M.Abdullaev
Karshi state technical university
E-mail: bakhtishod.abdullaev@gmail.com
S.F.Mirzayev
Shurtan Gas Chemical Complex
E-mail: Saidolim123@yandex.ru

Abstract: Petroleum gas is a mixture of light hydrocarbons accompanying oil both in a free state in the form of bubbles and in a dissolved form. It consists of saturated hydrocarbons - methane, ethane, propane, butane, isobutane. According to preliminary estimates, about 1.2 - 1.5 billion m^3 of associated gas per year are burned at the operating fields of the Uzneftegazdobycha NHC Uzbekneftegaz. The use of the method of liquefying petroleum gases in oil field conditions suggests the use of new technologies.

Key words: oil gas, associated gas, field, pressure reduction, liquid fuel, hot pipe, gas-reducing, throttled, vortex tubes.

Annotatsiya: Neft gazi - bu neft bilan birga erkin holatda ham pufakchalar, ham erigan holda bo‘lgan engil uglevodorodlar aralashmasi. U to‘yingan uglevodorodlar - metan, etan, propan, butan, izobutandan iborat. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, “O‘zbekneftgaz” MXK “O‘zneftgazdobicha” MKKning ishlayotgan konlarida yiliga 1,2-1,5 milliard m3 ga yaqin qo‘shma gaz yoqiladi. Neft konlari sharoitida neft gazlarini suyultirish usulidan foydalanish yangi texnologiyalardan foydalanishni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: neft gazi, qo‘shma gaz, kon, bosimni pasaytirish, suyuq yoqilg‘i, issiq quvur, gazni kamaytiruvchi, drosselli, vorteks quvurlari.

Аннотация: Попутный нефтяной газ (ПНГ) представляет собой смесь лёгких углеводородов, сопутствующих нефти как в свободном состоянии в виде пузырьков, так и в растворённом виде. Он состоит из предельных углеводородов – метана, этана, пропана, бутана, изобутана. По предварительным оценкам, на действующих месторождениях НХК «Узбекнефтегаз» сжигается около 1,2–1,5 млрд м3 попутного нефтяного газа в год. Использование метода сжижения нефтяных газов в нефтепромысловых условиях предполагает применение новых технологий.

Ключевые слова: нефтяной газ, попутный нефтяной газ, месторождение, редуцирование давления, жидкое топливо, горячая труба, газоредукционный, дросселируемый, вихревые трубы.

Introduction

ISSN 3030-3907

During oil production, the gas dissolved in the oil (the so-called associated gas) is released from it when the pressure decreases. From one ton of oil in the field gas separations, up to 350 m^3 or more of petroleum gas are obtained, consisting of methane, ethane, propane, butane, etc. At first, associated gas was released into the atmosphere and burned in flares, and only a small part of it was used as fuel. In recent years, the LNG sector has been actively developing in the world.

In addition, small-scale LNG production is of considerable interest in the development of low-resource natural gas fields, since about 80% of natural gas fields in the world are low-resource fields. To develop low-resource fields, the global economy and energy sector need new, more efficient low-tonnage processes for liquefying natural gas. The introduction of fundamentally new technologies for liquefying hydrocarbon gases is especially important for modern Uzbekistan. The creation of such technologies can help solve the problem of energy supply to gas-rich regions at the local level, where large quantities of petroleum liquid fuel are imported annually, and increase the energy security of both individual regions and the country as a whole. Small-scale production of liquefied natural gas makes it possible to supply energy not only to the area where the mini-LNG plant is located, but also to other regions, including LNG exports.

Table 1

Characteristics of small-scale LNG plants

№	Customer	Liquefaction capacity	Объем хранения, $м^3$	Liquefaction process	Commissioning, year
1	BayerwerkAG, Gablen (Germany)	45 kmol/h (6700nm^3/h)	60	Condensation of CH_4 with liquid N_2	1998
2	AGA Company, Tjeldbergodlen (Norway)	58 kmol/h (6700nm^3/h)	200	Condensation of CH_4 with liquid N_2	1997
3	EnergyEquityCorp.Ltd. AliSpringe(Australia)	58 kmol/h (6700nm^3/h)	200	Nitrogen cycle with turboexpander	1989
4	InlusrtyandCommereeGrupCo.Ltd Tuha deposit, Chang Chang, Hin-Yang (China)	58 kmol/h (6700nm^3/h)	30000	Closed loop cooling implemented in MRI	2004

Currently, gas from the Northern Shurtan oil field is pumped to a gas processing plant using a compressor station for the utilization and processing of

ISSN 3030-3907

associated gases.

Table 2

Composition and parameters of associated petroleum gas from the Severny Shurtan field sent for compression to the BCS

Composition of PNG S.Shurtan		CH_4	C_2H_6	C_3H_8	iC_4H_{10}	nC_4H_{10}	iC_5H_{12}	nC_5H_{12}	C_6H_{14}	N_2	CO_2	H_2S	Total
%		**84,94**	**7,15**	**2,47**	**0,63**	**0,87**	**0,29**	**0,23**	**0,34**	**0,81**	**2,19**	**0,08**	**100**
year	m^3/year												
2016	17,41	14,7881	1,2448	0,4300	0,0027	0,1515	0,0505	0,0400	0,0592	0,1410	0,3813	0,0139	**17,30**
2017	14,965	12,7113	1,0700	0,3696	0,0023	0,1302	0,0434	0,0344	0,0509	0,1212	0,3277	0,0120	**14,87**
2018	14,215	12,0742	1,0164	0,3511	0,0022	0,1237	0,0412	0,0327	0,0483	0,1151	0,3113	0,0114	**14,13**
2019	9,856	8,3717	0,7047	0,2434	0,0015	0,0857	0,0286	0,0227	0,0335	0,0798	0,2158	0,0079	**9,80**
2020	8,151	6,9235	0,5828	0,2013	0,0013	0,0709	0,0236	0,0187	0,0277	0,0660	0,1785	0,0065	**8,10**

Technological parameters of gas:

- pressure 0.05-0.1 MPa;
- temperature – 10-40 °C.

To utilize associated petroleum gas from the Severny Shurtan field, it is necessary to provide a gas transportation system to the Shurtan gas compressor station. Due to the fact that the pressure of the utilized gas is very low, it is proposed to build a booster compressor station (BCS) located on the Severny Shurtan joint venture site for its transportation to the Shurtan gas compressor station.

Associated petroleum gas from the joint venture with a pressure of 0.1 MPa enters the gas compression system of the Severny Shurtan BCS.

Compressed gas from the DKS Severny Shurtan with a pressure of 1.0 MPa is sent to the DKS GS Shurtan, located in the area of GS Shurtan. Preliminary hydraulic calculation of the gas pipeline-collector "DKS Severny Shurtan - GS Shurtan" was performed for a capacity of 47.7 thousand m^3/day. The pressure and

ISSN 3030-3907


temperature of the gas at the beginning of the gas pipeline are 0.5 MPa and 50 °C, respectively. The length of the gas pipeline-collector is 17.0 km.

Table 3

Total loads

Name	Estimated power, kW	Annual electricity consumption thous. kWh
Main area	219,67	1460,43
Auxiliary purpose area	33,60	152,71
Total for DKS	253,27	1613,14

This technology is most advantageous for use in northern fields, and since the vortex tube produces heat in addition to cold, it is possible to use free arctic cold to cool hot gas, which, intensively cooling in a hot heat exchanger, also goes to liquefaction, which in practice allows doubling the liquefier's productivity. And this creates the possibility of obtaining a significant economic effect. That is, with this technology for producing liquefied natural gas, the used arctic cold also becomes a commodity. In natural gas liquefaction units (NGLU) for small-scale LNG production, liquefied natural gas is used as a refrigerant. In this case, liquefaction CYCLES are used: with throttling, expander, vortex tube. In these units, the liquefaction coefficient does not exceed 0, and natural gas must be pre-compressed



by a compressor or use the pressure of the main gas pipeline.


Figure 1. Proposed flow chart for utilization of associated gas from the Northern Shurtan field

A vortex tube can be used as a liquefaction unit instead of an expander. A vortex tube is a short section of a conical metal pipe with one inlet and two outlet pipes. Between these pipes there is a so-called "snail" - a gas guide, made according to the Archimedes spiral.

ISSN 3030-3907

When a gas flow is fed to such a spiral, it spins around the geometric axis of the pipe, is compacted under the action of centrifugal forces and forms a peripheral vortex, moving in its rotation along the inner wall of the cone towards the hot end. Having reached the end of the pipe, part of the flow exits through the throttle, and the other part, having reflected from the rear wall (reflector), forms a reverse axial flow. During rotation, the gas flow is subjected to very intense centrifugal accelerations reaching several thousand g (g = 9.81 m / sec^2 - acceleration of gravity), leading to the appearance of powerful inertial forces that initiate the occurrence of an intensive (but still unclear to researchers) process of energy exchange between the counter-moving flows. As a result, the peripheral flow is heated and in a hot state exits through the branch pipe of the hot end, and the axial flow is cooled and in the cold end.

When compressed gas with a temperature of +200 C is supplied to the inlet pipe, gas with a temperature of -35 ^{0} C emerges from the cold pipe (in Fig. 4.37, you can see how the pipe freezes intensively), and from the hot pipe - with a temperature of +500 C. Although vortex tubes have been known since 1931, they have not yet found wide application as refrigeration devices.



A) B)

Figure 2. Vortex tubes. A) "Snail" B) Vortex body

But time goes by, and new types of vortex tubes with increased efficiency appear. At the same time, it becomes clear that the economic efficiency of their use is not always limited to efficiency, and if all technological, operational, environmental and other aspects are taken into account, then such very simple refrigeration devices often turn out to be the most suitable for widespread use, including for creating original gas liquefiers. Such liquefiers are mounted on gas-reducing stations (GRS) and use the “free” pressure drop when distributing gas to consumers for their work.

CONCLUSION

The conducted studies have shown that liquefiers with a vortex tube instead of an expander have the following main advantages:

- less sensitivity to changes in gas composition;

ISSN 3030-3907

- less sensitivity to the appearance of liquid droplets (a centrifugal expander can suffer a serious accident because of this);
- very short start-up time (the vortex tube has low inertia and reaches operating mode within a few seconds);
- simple design and no requirements for highly qualified service personnel - the liquefier is capable of operating for a long time in autonomous mode without qualified maintenance;
- no need for external load devices (electric generator, etc.);
- high service life due to the absence of moving parts and determined only by the wear resistance of the materials used and the degree of gas purification from abrasive particles;
- the possibility of more flexible regulation for continuous optimization of operation with changing input pressure, changing gas composition, etc. That is, the same liquefier can operate in different fields without significant modifications;
- very low cost.

REFERENCES

1. Рачевский Б.С. Сжиженные углеводородные газы. -М.: Изд-во «Нефть и газа», 2009.
2. **Бузником В.М. И**новационные технологии переработки и использования попутного нефтяного газа.-М.: Изд-во «Оригинал-макет», 2010.
3. Кисленко Н.Н., Мурин В.И. Сурков Ю.В. Технология переработки природного газа и конденсата. //Справочник. М. «Недра-Бизнесцентр» 2002.
4. Bakhtishod, A., & Abdurasul, B. (2025). NATURAL GAS PURIFICATION FROM HIGH HYDROCARBONS IN A VORTEX TUBE. Universum: технические науки, 11(5 (134)), 29-32.
5. Abdullaev, B. M., & Sayfullaev, T. K. (2023). Analysis of the causes of accidents in gas pipelines transport, national economy and main pipelines. journal of multidisciplinary bulletin, 6(4), 123-126.
6. Torayevich, K. M. (2023). Determination of the influence of the composition of catalysts on the catalytic characteristics. journal of multidisciplinary bulletin, 6(5), 8-15.
7. Torayevich, K. M. (2023). Development of hybrid catalyst and synthesis of liquid hydrocarbons based on them. journal of multidisciplinary bulletin, 6(5), 1-7.
8. Karshiev, M. T., Kh, S. T., & Abdullaev, B. M. (2023). Purification of natural gas from co2 by adsorption method. journal of multidisciplinary bulletin, 6(5), 62-76.

ISSN 3030-3907

9. Xayrulla o‘g‘li, S. T. (2022). Yo‘ldosh gazlarni qayta ishlash zavodlaridagi korroziya bilan bog‘liq muammolarni yechishda ingibitorlardan foydalanish. Journal of new century innovations, 10(4), 20-22.
10. Rahmatovich, C. N., & Xayrulla o‘g‘li, S. T. (2022). Yo‘ldosh gaz-kondensatlarini barqarorlashtirish qurilmalarida ingibitorlardan foydalanish. Journal of new century innovations, 10(4), 23-25.
11. Abdullaev, B. M., & Sayfullaev, T. K. (2024). Cobalt fischer–tropsch catalyst regeneration. journal of multidisciplinary bulletin, 7(1), 105-113.
12. Kh, K. S., & Abdullaev, B. M. (2025). EFFECT OF PROMOTER METALS ON CATALYST ACTIVITY IN PROPANE-BUTANE FRANCOATION. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(6), 453-461.
13. Boboniyozovich, R. X., Mengliqulo‘G‘Li, A. B., Ulug‘Beko‘G‘Li, U. E., & Rustemuli, M. B. (2025). KREMNIYLI SEOLITLARDA N-GEKSANNI AROMATLASH. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 3(1), 186-189.

ISSN 3030-3907

ORGANIK KIMYODA SPEKTROSKOPIYA USULLARINING QO‘LLANILISHI

Ochilova Farida Bekmurodovna
Qashqadaryo viloyat, Ko‘kdala tumani, 93- maktab
E-mail: Faridaochilova228@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada organik kimyoda spektroskopiya usullarining qo‘llanilishi haqida so‘z boradi. IR, NMR, UV-Vis va mass-spektrometriya usullari yordamida organik molekulalarning tuzilishi, funksional guruhlari va kimyoviy xossalari aniqlanadi. Maqolada spektroskopiya usullarining ilmiy tadqiqotlar va amaliyotdagi ahamiyati, shu jumladan dori-darmonlar ishlab chiqarish, yangi materiallar yaratish va ekologik monitoringda qo‘llanilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: organik kimyo, spektroskopiya, IR spektroskopiya, NMR spektroskopiya, UV-Vis spektroskopiya, mass-spektrometriya, molekula, funksional guruh.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение спектроскопических методов в органической химии. С помощью ИК, ЯМР, УФ-Вид и масс-спектрометрии определяются структура органических молекул, функциональные группы и химические свойства. В статье освещается значение спектроскопии в научных исследованиях и практике, включая производство лекарств, создание новых материалов и экологический мониторинг.

Ключевые слова: органическая химия, спектроскопия, ИК-спектроскопия, ЯМР-спектроскопия, УФ-Вид спектроскопия, масс-спектрометрия, молекула, функциональная группа.

Annotation: This article discusses the application of spectroscopic methods in organic chemistry. Using IR, NMR, UV-Vis, and mass spectrometry, the structure, functional groups, and chemical properties of organic molecules are determined. The article highlights the importance of spectroscopy in scientific research and practical applications, including pharmaceutical production, development of new materials, and environmental monitoring.

Keywords: organic chemistry, spectroscopy, IR spectroscopy, NMR spectroscopy, UV-Vis spectroscopy, mass spectrometry, molecule, functional group.

Kirish

Organik kimyo fanida molekulalarning tuzilishi, funksional guruhlari va kimyoviy xossalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Molekulalarni aniq tahlil qilmasdan, ularning reaksiyalardagi xatti-harakatlarini tushunish va yangi

ISSN 3030-3907

birikmalar yaratish deyarli imkonsiz bo‘ladi. Shu sababli organik kimyoda turli ilmiy usullar, xususan spektroskopiya keng qo‘llaniladi. Spektroskopiya – bu moddalarning elektromagnit nurlanish bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganishga asoslangan usullar majmui bo‘lib, molekulalarning tarkibi va tuzilishini aniqlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu usullar yordamida organik birikmalar tarkibi, molekuladagi bog‘lanish turlari, funksional guruhlar va hatto molekulalarning uch o‘lchamli tuzilishi haqida batafsil ma’lumot olish mumkin. Organik kimyoda spektroskopiya usullarining qo‘llanilishi nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki dori-darmonlar ishlab chiqarish, yangi materiallar yaratish, qishloq xo‘jaligi va ekologik monitoring sohalarida ham keng ahamiyatga ega. Masalan, dorivor birikmalarni aniqlashda, organik moddalarni tozalash va sifat nazoratida, shuningdek, yangi molekulalarni sintez qilish jarayonida spektroskopiya usullari ajralmas vosita hisoblanadi. Shu bois, organik kimyoda spektroskopiya usullarini o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llash, molekulalarning xossalarini chuqur tushunishga yordam beradi va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshiradi. Maqolada IR, NMR, UV-Vis va mass-spektrometriya kabi asosiy spektroskopiya usullarining organik kimyoda qo‘llanilishi va ularning afzalliklari batafsil yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Organik kimyoda spektroskopiya usullari molekulalarning tarkibini aniqlash, tuzilishini o‘rganish va reaksiyalar mexanizmini tushuntirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, IR, NMR, UV-Vis va mass-spektrometriya usullari organik kimyoda molekulalarning tuzilishi va kimyoviy xossalarini aniqlashda keng qo‘llaniladi. **Infraqizil (IR) spektroskopiya** IR spektroskopiyasi organik birikmalardagi funksional guruhlarni aniqlashda keng qo‘llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir kimyoviy bog‘lanish o‘ziga xos chastotada tebranadi va bu tebranishlar IR spektrda aks etadi. Masalan, karbonil guruhining tebranishi yuqori chastotada seziladi, gidroksil guruh esa keng va kuchli signal beradi (Pavia va boshq., 2015). Shu usul yordamida molekuladagi bog‘lanish turlari va funksional guruhlar aniq identifikatsiya qilinadi. **Yadro magnit-rezonans (NMR) spektroskopiya.** NMR spektroskopiyasi organik molekulalarning atom darajasidagi tuzilishini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, proton va uglerod atomlari spektrda o‘ziga xos signallar beradi, bu orqali atomlarning kimyoviy muhitlari, bog‘lanishlar va ularning o‘zaro ta’siri aniqlanadi (Claridge, 2016). NMR spektroskopiyasi murakkab organik birikmalarni tiklashda va dori vositalarini sintez qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ultrabinafsha-ko‘rinadigan (UV-Vis) spektroskopiya. UV-Vis spektr-skopiya konjugatsiyalangan sistemalarga ega organik birikmalarni o‘rganishda

ISSN 3030-3907

keng qo‘llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aromatik uglevodorodlar va konjugatsiyalangan alkenlar π-elektron tizimlarining optik xususiyatlarini aniqlash uchun UV-Vis spektroskopiyasi samarali vosita hisoblanadi (Harris, 2016). Shu usul yordamida organik moddalarni miqdoriy tahlil qilish ham mumkin. **Mass-spektrometriya** Mass-spektrometriya molekulalarning massasini va fragmentatsiya naqshini aniqlashda ajralmas vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mass-spektrometriya yordamida organik moddaning tarkibi va tuzilishi haqida ishonchli ma’lumot olish mumkin (Gross, 2017). Ko‘pincha bu usul boshqa spektroskopik usullar bilan birgalikda ishlatiladi va molekulalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. **Spektroskopiya usullarining ilmiy va amaliy ahamiyati**. Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, spektroskopiya nafaqat laboratoriya tadqiqotlarida, balki dori-darmon ishlab chiqarish, yangi materiallar yaratish va ekologik monitoringda keng qo‘llaniladi (Silverstein va boshq., 2014). Masalan, farmatsevtik preparatlarda molekulaning to‘g‘ri tuzilishi davolash samaradorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, spektroskopiya yordamida polimerlar, nanomateriallar va ekologik muhitdagi moddalar tahlil qilinadi.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqotda organik kimyoda spektroskopiya usullarining qo‘llanilishi tahlil qilindi. Asosiy e’tibor IR, NMR, UV-Vis va mass-spektrometriya usullariga qaratildi.

Tadqiqotda organik birikmalar, funksional guruhlarni aniqlash uchun sintez qilingan standart moddalar va laboratoriyada mavjud spektroskopik qurilmalar ishlatildi. IR spektroskopiya uchun organik moddalar qattiq va suyuq shaklda tayyorlandi. NMR spektroskopiyasi uchun organik birikmalar mos erituvchilarda eritildi. UV-Vis spektroskopiya uchun konjugatsiyalangan organik moddalardan eritmalar tayyorlandi. Mass-spektrometriya uchun esa modda namunasi yuqori tozalikka ega bo‘lishi talab etildi.

- **IR spektroskopiya** yordamida molekuladagi bog‘lanish turlari va funksional guruhlar aniqlandi. Spektrlar orqali har bir bog‘lanishning o‘ziga xos tebranish chastotasi kuzatildi.
- **NMR spektroskopiya** yordamida atomlar va ularning molekuladagi kimyoviy muhitlari o‘rganildi. Proton va uglerod atomlarining spektrdagi signallari tahlil qilindi.
- **UV-Vis spektroskopiya** yordamida konjugatsiyalangan tizimlar va π-elektronlar o‘rganildi. Spektrdagi absorbtsiya maksimal qiymatlari aniqlanib, organik birikmalarning optik xususiyatlari baholandi.
- **Mass-spektrometriya** yordamida molekulalarning molekulyar massasi va fragmentatsiya naqshi aniqlandi. Bu usul boshqa spektroskopik usullar bilan birgalikda molekulalarning tuzilishini tasdiqlashda ishlatildi.

ISSN 3030-3907

Olingan spektroskopik ma’lumotlar literaturadagi ma’lumotlar bilan taqqoslandi. Har bir usulning afzalliklari va cheklovlari baholandi, shuningdek, molekulalarning kimyoviy va fizik xossalarini aniqlashdagi samaradorligi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalarini muhokamasi. Organik kimyoda spektroskopiya usullarining qo‘llanilishi molekulalarning tuzilishi, funksional guruhlari va kimyoviy xossalarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, IR, NMR, UV-Vis va mass-spektrometriya usullari bir-birini to‘ldiruvchi vosita sifatida ishlatiladi va molekulalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. IR spektroskopiya yordamida molekuladagi bog‘lanish turlari va funksional guruhlar aniqlanadi. Har bir bog‘lanishning o‘ziga xos tebranish chastotasi mavjud bo‘lib, u molekuladagi strukturani aniqlashga yordam beradi. Shu usul organik birikmalarni tezkor va samarali identifikatsiya qilish imkonini beradi. NMR spektroskopiyasi molekuladagi atomlar va ularning kimyoviy muhitini aniqlashda eng samarali vositalardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, spektrdagi signallar yordamida atomlarning joylashuvi, bog‘lanishlar va molekuladagi strukturalar aniqlanadi. Bu usul murakkab birikmalarni to‘liq tiklash va ularning reaktsiyadagi xatti-harakatlarini tushunishga imkon beradi UV-Vis spektroskopiyasi konjugatsiyalangan tizimlarga ega organik birikmalarni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, π-elektron tizimlarining optik xususiyatlari spektrda aniq aks etadi. Bu usul molekulalarning xususiyatlarini o‘rganish va ularni miqdoriy tahlil qilishda keng qo‘llaniladi.

Tadqiqot davomida organik kimyo sohasida qo‘llaniladigan asosiy spektroskopiya usullari – UV-Vis, IR (infraqizil), ^{1}H NMR (proton yadroviy magnit rezonansi), ^{13}C NMR, va mass-spektrometriya – tahlil qilindi va ularning molekulyar tuzilmani aniqlashdagi samaradorligi baholandi.

1-Jadval.

Organik kimyoda spektroskopiya usullarining qo‘llanilishi

Spektroskopiya usuli	Asosiy qo‘llanilishi	Afzalliklari	Olingan natijalar
IR (infraqizil)	Funksional guruhlarni aniqlash	Tez va aniq aniqlash, oddiy preparat tayyorlash	Karbonil, gidroksil, amin va boshqa guruhlar chastotalari aniqlandi
^{1}H NMR	Protonlarning kimyoviy muhiti	Molekulaning ichki strukturasi haqida chuqur ma’lumot	Protonlarning joylashuvi va muhitiga

ISSN 3030-3907

			asoslangan strukturaviy tahlil qilindi
^{13}C NMR	Uglerod atomlari holatini o‘rganish	Detallashgan uglerod skeleti analizi	Molekulaning uglerod asosli tuzilmasi aniqlashtirildi
Mass-spektrometriya	Molekulyar massa va fragmentatsiya	Juda sezgir, notanish moddalarda ham qo‘llaniladi	Molekulyar massa aniqlandi, fragmentatsiya yo‘llari xaritalashtirildi
UV-Vis	Elektron o‘tishlarni o‘rganish	Kon’yugatsiyalangan va aromatik sistemalarda foydali	Aromatik va ikki bog‘ tizimlarida elektron spektrlari olindi
Kombinatsiyalangan yondashuv	To‘liq strukturaviy tahlil	Har tomonlama va aniqligi yuqori	Murakkab organik birikmalar to‘liq aniqlik bilan identifikatsiya qilindi

Mass-spektrometriya esa molekulalarning massasini aniqlash va fragmentatsiya naqshini o‘rganish orqali molekulani to‘liq tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu usul boshqa spektroskopik usullar bilan birgalikda ishlatilganda molekulalarni aniqlash va ularning xossalarini baholash samaradorligini oshiradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, spektroskopiya usullarining ilmiy va amaliy ahamiyati katta. Ular nafaqat molekulalarning tuzilishini aniqlashga yordam beradi, balki farmatsevtik sanoat, yangi materiallar yaratish, qishloq xo‘jaligi va ekologik monitoringda ham keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, spektroskopiya usullari molekulalarni chuqur tushunishga, ularning xossalarini bashorat qilishga va yangi birikmalarni yaratishda sifatli natijalarga erishishga imkon beradi.

Xulosa. Organik kimyoda spektroskopiya usullari molekulalarning tuzilishi, funksional guruhlari va kimyoviy xossalarini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, IR, NMR, UV-Vis va mass-spektrometriya usullari bir-birini to‘ldiruvchi tarzda ishlatiladi va molekulalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. IR spektroskopiya molekuladagi bog‘lanish turlari va funksional guruhlarni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. NMR

ISSN 3030-3907

spektroskopiyasi atomlarning joylashuvi va molekuladagi kimyoviy muhitni aniqlash imkonini beradi. UV-Vis spektroskopiyasi konjugatsiyalangan tizimlarni o‘rganish va molekulalarning optik xususiyatlarini baholashda qo‘llaniladi. Mass-spektrometriya molekulalarning massasini aniqlash va fragmentatsiya naqshini o‘rganish orqali molekulani to‘liq tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, spektroskopiya usullarining amaliy ahamiyati katta. Ular dori-darmon ishlab chiqarish, yangi materiallar yaratish, qishloq xo‘jaligi va ekologik monitoringda keng qo‘llaniladi. Spektroskopiya yordamida molekulalarni chuqur tushunish, ularning xossalarini bashorat qilish va yangi birikmalarni yaratishda sifatli natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pavia, D. L., Lampman, G. M., Kriz, G. S., Vyvyan, J. R. Introduction to Spectroscopy. Boston: Cengage Learning, 2015.
2. Claridge, T. D. W. High-Resolution NMR Techniques in Organic Chemistry. Oxford: Elsevier, 2016.
3. Harris, D. C. Quantitative Chemical Analysis. New York: W.H. Freeman, 2016.
4. Gross, J. H. Mass Spectrometry: A Textbook. Berlin: Springer, 2017.
5. Silverstein, R. M., Webster, F. X., Kiemle, D. J., Bryce, D. L. Spectrometric Identification of Organic Compounds. New York: Wiley, 2014.
6. Bruice, P. Y. Organic Chemistry. Boston: Pearson, 2017.
7. Carey, F. A., Sundberg, R. J. Advanced Organic Chemistry: Structure and Mechanisms. New York: Springer, 2016.
8. Voet, D., Voet, J. G. Biochemistry. Hoboken: John Wiley & Sons, 2015.
9. Stryer, L. Biochemistry. New York: W.H. Freeman, 2015.
10. Alberts, B., Johnson, A., Lewis, J., et al. Molecular Biology of the Cell. New York: Garland Science, 2016.

ISSN 3030-3907

UDK 547.46.054

PROPOLIS YOG‘LARI TARKIBIDAGI FLAVONOIDLARNI YUQORI SAMARALI SUYUQLIK XROMATOGRAFIYASI YORDAMIDA MIQDORIY TAHLILI

Saidova Xurshida Azimovna
O‘zR FA akad. O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti mustaqil izlanuvchi
E-mail: saidovax671@gmail.com
Tel (90)9719582
Asqarov Ibrohim Rahmonovich
Andijon Davlat Universiteti k.f.d., professor.
Islomov Akmal Xushvaqovich
O‘zR FA akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti etakchi ilmiy xodimi k.f.d.
E-mail: islomovakmal1972@gmail.com, islomov-72@mail.ru,
Tel:(97)7487694

Abstract. In this study, flavonoid compounds (gallic acid, rutin, quercetin, kaempferol, and apigenin) in propolis were determined and quantitatively analyzed by high-performance liquid chromatography (HPLC). 96% ethyl alcohol was used to extract flavonoids, and the samples were mixed for 75 minutes at 30°C. The resulting extracts were centrifuged at 12,000 rpm and passed through 0.45 µm filters. A Perkin Elmer C18 column, a gradient phase consisting of 0.5% acetic acid and acetonitrile, a flow rate of 0.8 ml/min, and a temperature of 40°C were used for analysis. Flavonoids were detected at wavelengths of 254, 265, and 371 nm. The results indicated the presence of bioactive flavonoids in propolis, confirming their potential for use in the pharmaceutical and food industries.

Keywords: Propolis, flavonoids, HPLC, rutin, gallic acid, quercetin, kaempferol, apigenin, liquid chromatography, bioactive compounds

Аннотация. В данном исследовании флавоноидные соединения (галловая кислота, рутин, кверцетин, кемпферол и апигенин) в прополисе были определены и количественно проанализированы методом высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ). Для экстракции флавоноидов использовали 96% этиловый спирт, образцы перемешивали в течение 75 минут при 30 °C. Полученные экстракты центрифугировали при 12 000 об/мин и пропускали через фильтры с размером пор 0,45 мкм. Для анализа использовали колонку Perkin Elmer C18 с градиентной фазой, состоящей из 0,5% уксусной кислоты и ацетонитрила, скоростью потока 0,8 мл/мин и температурой 40 °C. Флавоноиды детектировали при длинах волн

ISSN 3030-3907

254, 265 и 371 нм. Результаты свидетельствуют о наличии биоактивных флавоноидов в прополисе, что подтверждает их потенциал для использования в фармацевтической и пищевой промышленности.

Ключевые слова: прополис, флавоноиды, ВЭЖХ, рутин, галловая кислота, кверцетин, кемпферол, апигенин, жидкостная хроматография, биологически активные соединения

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda propolis tarkibidagi flavonoid birikmalari (gall kislota, rutin, kversetin, kaempferol va apigenin) yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usuli orqali aniqlanib, ularning miqdoriy tahlili amalga oshirildi. Flavonoidlarni ekstraksiya qilish uchun 96% li etil spirti ishlatilib, namunalar 30°C da 75 daqiqa davomida aralashtirildi. Olingan ekstraktlar 12 000 ayl/min tezlikda sentrifugalanib, 0,45 mkm filtrlardan o‘tkazildi. Tahlil uchun Perkin Elmer C18 kolonka, 0,5% sirka kislotasi va atsetonitrildan iborat gradient faza, 0,8 ml/min oqim tezligi va 40°C haroratda ishlatildi. Flavonoidlar 254, 265 va 371 nm to‘lqin uzunliklarida aniqlandi. Natijalar propolisda biofaol flavonoidlar mavjudligini ko‘rsatib, ularning farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida qo‘llanilish imkoniyatlarini tasdiqladi.

Kalit so`zlar: Propolis, flavonoidlar, (YSSX) rutin, gall kislota, kversetin, kaempferol, apigenin, suyuqlik xromatografiyasi, biofaol birikmalar

Kirish

Propolis - asalarilar tomonidan daraxt kurtaklari, qobig‘i va boshqa qatronsimon qismlardan yig‘ilib, o‘z fermentlari bilan qayta ishlangan tabiiy moddadir. Propolis - sariq yoki jigarrang smolali modda bo‘lib, uning tarkibi atrof-muhit sharoitlariga qarab o‘zgaradi va asosan qatronlar (40-50%), mum (10-30%), muhim birikmalar (2-6%), gulchanglar (2-5%), polifenollar (2-20%), vitaminlar va shakarlar kabi komponentlardan iborat bo‘lib, bu tarkibiy qismlar uning antibakterial, antioksidant va boshqa sog‘liq uchun foydali xususiyatlari bilan qadrlanadi. Bu xususiyatlar, asosan, propolis tarkibidagi flavonoidlar va fenolik birikmalar bilan bog‘liqdir [1].Propolisning tarkibi murakkab bo‘lib, u joylashgan hudud, o‘simlik manbai, yig‘ish mavsumi va asalarining biologik faoliyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Aynan flavonoidlar - kversetin, apigenin, pinosembrin, galangin kabi birikmalar -propolisning asosiy farmakologik komponentlari hisoblanadi [2]. Propolis tarkibidagi flavonoidlar va fenolik kislotalar prostaglandinlar sintezini bostirib, yallig‘lanish mediatorlarini kamaytiradi. Bu xususiyati tufayli u artrit, dermatit, gingivit va boshqa yallig‘lanishli holatlarda samarali .

ADABIYOTLAR TAHLILI

ISSN 3030-3907


Propolis asosidagi dorivor mahsulotlar sifatini baholashda muhim ahamiyatga ega.Bugungi kunda flavonoidlarni aniqlashda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) eng samarali analitik usul sifatida qo‘llanilmoqda. Bu usul yuqori sezuvchanlik, aniqlik va takrorlanuvchanlik kabi afzalliklarga ega [3]. YSSX orqali flavonoidlarning aniqlanishi usulning puxta optimallashtirilgan sharoitlarida, ya’ni kolonkalar turi, harakatlanuvchi faza, UV-detektor to‘lqin uzunligi kabi omillarga bog‘liq [4]. Bundan tashqari, namunani tayyorlash bosqichi ham flavonoidlarni aniqlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Propolisdan flavonoidlarni ajratib olishda odatda metanol, etanol yoki ularning suvli eritmalari ekstragent sifatida qo‘llaniladi. Ekstraksiya, filtratsiya, sentrifugatsiya va quritish kabi bosqichlar flavonoidlarning maksimal ajralishini ta'minlash uchun to‘g‘ri bajarilishi lozim [5]. Mahalliy (O‘zbekiston) sharoitida ishlab chiqarilgan propolis yog‘li ekstraktlarining flavonoid tarkibini miqdoriy baholash orqali ularning farmakologik faolligini aniqlash mumkin. Mazkur maqolada YSSX yordamida flavonoidlar aniqlangan, va natijalar ilgari chop etilgan ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilib tahlil qilinadi [6-7]. Propolis tarkibidagi flavonoidlar, fenolik kislotalar, aromatik aldegidlar va terpenoidlar uning yuqoridagi biologik faolligini ta’minlovchi asosiy komponentlar hisoblanadi. Aynan shu tarkib uni xalq tabobatida har xil kasalliklarga qarshi ko‘p yillardan beri foydalanish imkonini bergan. Propolis ekstraktlari asosida tayyorlangan ba’zi preparatlar antibiotiklarga chidamli bakteriyalarga qarshi ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.[8] Ayniqsa, xalq tabobatida propolis ichki va tashqi kasalliklarni davolashda, masalan, nafas yo‘llari yallig‘lanishlari, teri shikastlanishlari, oshqozon-ichak muammolari, va shamollashda tez-tez tavsiya etilgan. Zamonaviy tibbiyotda propolisning farmakologik faolligi keng o‘rganilgan. Propolisdan tayyorlangan preparatlar turli sohalarda quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi: Propolis Gram-musbat (masalan, Staphylococcus aureus) va Gram-manfiy (masalan, Escherichia coli) bakteriyalarga, shuningdek, zamburug‘ va ayrim viruslarga qarshi faol ta’sir ko‘rsatadi. U mikroorganizmlarning hujayra membranasiga ta’sir qilib, ularning o‘sishiga to‘sqinlik qiladi. Propolisning biologik faolligi va sifati uning kimyoviy tarkibiga bevosita bog‘liq bo‘lib, aynan shu moddalarning nisbiy miqdori propolisning terapevtik qiymatini belgilaydi. [9-10-11.].

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O‘tkazilgan tadqiqot davomida propolis moyi ekstrakti tarkibidagi flavonoid birikmalar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usuli yordamida muvaffaqiyatli aniqlab olindi va miqdoriy baholandi. Natijalar flavonoidlarning turli hildagi turlari propolis ekstraktida sezilarli darajada mavjudligini ko‘rsatdi.Standart flavonoid namunalari xromatogrammalari quyidagi saqlanish

ISSN 3030-3907

vaqtlarida aniq piklarni ko‘rsatdi: gallik kislota (4,2 min), rutin (6,8 min), kversetin (8,5 min) va kaempferol (10,1 min).Propolis moyi ekstrakti gallik kislota (pik maydoni: 715,146 ± AU) va kversetin (pik maydoni: 549,894 ± AU) uchun sezilarli piklarni namoyon etdi, bu ularning yuqori konsentratsiyasini tasdiqlaydi. Shuningdek, propolis tarkibida rutin (pik maydoni: 468,568 ± AU) va kaempferol (pik maydoni: 439,920 ± AU) ham aniqlangan bo‘lib, ularning miqdori o‘rtacha darajada qayd etildi. Propolis tarkibida apigenin (pik maydoni: 298,482 ± AU) ham mavjud bo‘lib, bu moddalar majmuasi ekstraktning biologik faolligini ta’minlaydi. Pik tozaligi UV spektrlarni standartlar bilan taqqoslash orqali tasdiqlandi, bu usulning spesifikligini ta'minladi.



1-rasm. Flovanoidlarning standart namunalar asosida olingan xromatogrammasi.

2-jadval.

Flovanoidlarning yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli asosida kalibrofka egrisi olingan natijalari

Propolis yog`i tarkibidagi birikmalar	Korrelyatsiya koeffitsienti R2	Qayta tiklash,%	Aniqlanish chegarasi LOD, µg/ml	LOQ miqdoriy chegarasi, mg/L
Gall kislota	R^2=0,9997645	97.18	155	920
Rutin	R^2=0,9982900	95.08	125	740
Keversiten	R^2=0,9999856	98.98	85	520
Apigenin	R^2=0,9995998	91.53	45	260
Kaempferol	Rr=0,9995311	92.02	60	370

Ekstraksiya qilib aratilgan namuna tarkibidagi flavanoidlar miqdori (quruq massada mg/kg) 3- jadvalda keltirilgan.

ISSN 3030-3907

3-jadval.

Turli barg namunalari tarkibidan yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli asosida olingan flovanoidlarining miqdoriy ko‘rsatkichlari.

Flovanoidlar nomi	Gall kislota (mg/kg)	Rutin (mg/kg)	Quercetin (mg/kg)	Apigenin (mg/kg)	Kaempferol (mg/kg)
Propolis moyi	135,459	104,810	37,189	13,199	28,467

Miqdor chegaralari (LOQ) va aniqlash chegaralari (LOD) har bir namuna uchun uch nusxada hisoblab chiqilgan. Kalibrlash egri chiziqlari ketma-ket kontsentratsiyani tepalik maydoniga solish orqali olingan. Kalibrofka egrisining o‘rtacha qiymati (S) va kesishishning standart og‘ishi (s) uchta takroriy standart egri chiziqdan hisoblab chiqilgan. Har bir standartning tiklanish foizi (YSSX) dan keyin va undan oldingi standart konsentratsiyaning nisbati asosida hisoblab chiqilgan.

Har bir tashqi standart uchun standartning kontsentratsiyasini (mg/L) ma'lum bir to‘lqin uzunligidagi tepalik maydoniga solishtirish orqali standart egri qurilgan. Barcha tashqi standartlar va namunalar nol nuqtalar orqali deyarli chiziqli kalibrlash egri chiziqlarini berdi.Usulning chiziqliligi kalibrlash egri chiziqlarini olish uchun (A) analit konsentratsiyasiga (mg/L dagi C) maksimal maydon nisbatini tuzish orqali hisoblab chiqilgan.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda propolis moyidagi flavonoid birikmalar (YSSX) usuli yordamida muvaffaqiyatli aniqlanib, ularning miqdoriy tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalari propolis moyining tarkibida rutin (137,784 mg/L), gallik kislota (160,893 mg/L), kversetin (85,823 mg/L), kaempferol (56,624 mg/L) va apigenin (42,805 mg/L) kabi flavonoidlarga boy ekanini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Bankova, V. S., De Castro, S. L., & Marcucci, M. C. (2000). Propolis: recent advances in chemistry and plant origin. Apidologie, 31(1), 3–15.
2. Ahn, M. R., Kunimasa, K., Kumazawa, S., Nakayama, T., Kaji, K., & Uto, Y. (2007). Antioxidant activity and constituents of propolis collected in various areas of Korea. Journal of Agricultural and Food Chemistry, 55(16), 7130–7136.
3. Kumazawa, S., Hamasaka, T., & Nakayama, T. (2004). Antioxidant activity of propolis of various geographic origins. Food Chemistry, 84(3), 329–339.
4. Harborne, J. B. (1998). Phytochemical Methods: A Guide to Modern Techniques of Plant Analysis. Chapman & Hall, London.

ISSN 3030-3907

5. Scalbert, A., Johnson, I. T., & Saltmarsh, M. (2005). Polyphenols: antioxidants and beyond. The American Journal of Clinical Nutrition, 8,215S–217S.
6. Manach, C., Scalbert, A., Morand, C., Rémésy, C., & Jiménez, L. (2004). Polyphenols: food sources and bioavailability. The American Journal of Clinical Nutrition, 79(5), 727–747.
7. Kumar, S., Pandey, A. K. (2013). Chemistry and biological activities of flavonoids: An overview. The Scientific World Journal, 2013, Article ID 162750.
8. Salomão, K., et al. (2004). Comparison of the in vitro antifungal activity of propolis from different geographic origins. Mycoses, 47(9-10), 400-405. https://doi.org/10.1111/j.1439-0507.2004.01041.x
9. Kujumgiev A. et al. Antibacterial, antifungal and antiviral activity of propolis of different geographic origin. Journal of Ethnopharmacology, 1999, 64(3): 235-240.
10. Sforcin J.M. Propolis and the immune system: a review. Journal of Ethnopharmacology, 2007, 113(1): 1-14.
11. Ansorge S., Reinhold D., Lendeckel U. Propolis and some of its constituents down-regulate DNA synthesis and inflammatory cytokine production. Planta Med., 2003; 69(10): 895-899.

ISSN 3030-3907

УДК: 66.094.3:628.5:620.193

«ОТРАБОТАННЫЕ КАТАЛИЗАТОРЫ ПЕРВОЙ СТУПЕНИ КОНВЕРСИИ ОКСИДА УГЛЕРОДА КАК ПОТЕНЦИАЛЬНЫЙ ИСТОЧНИК ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ОПАСНОСТИ И ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСНЫХ КОМПОНЕНТОВ»

Дадаходжаев А.Т.

Ташкентский государственный технический университет имени И.А.Каримова, г Ташкент, Узбекистан.

Кадыров С.У.

Ферганский государственный технический университет, Фергана, **Узбекистан**

Бобомуродова М.С.

Университет Геологических Наук, г Ташкент, Узбекистан.

Аннотация: Отработанные катализаторы производство аммиака представляют собой важную категорию техногенных отходов, обладающих высоким потенциалом экологической опасности ввиду содержания широкого спектра токсикантов — тяжёлых металлов, оксидов редкоземельных элементов, сульфидов и органических остатков. В условиях глобальной интенсификации аммиачного производства и износа катализаторных систем (на основе железа, кобальта, молибдена и др.) проблема безопасного обращения с данными отходами приобретает особую актуальность.

Настоящая статья посвящена всестороннему анализу процессов деградации катализаторов в синтезе аммиака, механизмов миграции и трансформации их компонентов в биосфере, биоаккумуляции и токсикокинетике загрязняющих агентов. Рассматриваются современные и перспективные технологии регенерации, утилизации и вторичной переработки отработанных катализаторов с целью минимизации экологических рисков и рационального использования вторичных ресурсов в рамках концепции циркулярной экономики. Особое внимание уделено вопросам совершенствования нормативно-правового регулирования и разработке инновационных, низкоотходных технологических решений в сфере промышленной экологии..

Ключевые слова: отработанные катализаторы, переработка, тяжёлые металлы, утилизация, токсичность, экология, биоличинг, регенерация, зелёная химия.

Annotatsiya: chiqindi katalizatorlar ammiak ishlab chiqarish turli xil toksikantlar — og‘ir metallar, noyob tuproq elementlari oksidlari, sulfidlar va organik qoldiqlar tufayli yuqori ekologik xavf potentsialiga ega bo‘lgan texnogen chiqindilarning

ISSN 3030-3907

muhim toifasidir. Ammiak ishlab chiqarishning global intensivlashuvi va katalizator tizimlarining aşınması (temir, kobalt, molibden va boshqalar asosida) sharoitida ushbu chiqindilar bilan xavfsiz ishlash muammosi alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqola ammiak sintezidagi katalizatorlarning degradatsiyasi jarayonlarini, biosferadagi ularning tarkibiy qismlarining migratsiya va transformatsiya mexanizmlarini, ifloslantiruvchi moddalarning bioakkumulyatsiyasi va toksikokinetikasini har tomonlama tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ekologik xavflarni minimallashtirish va aylanma iqtisodiyot kontseptsiyasi doirasida ikkilamchi resurslardan oqilona foydalanish maqsadida chiqindi katalizatorlarni qayta tiklash, utilizatsiya qilish va qayta ishlashning zamonaviy va istiqbolli texnologiyalari ko‘rib chiqilmoqda. Sanoat ekologiyasi sohasida normativ-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va innovatsion, kam chiqindili texnologik yechimlarni ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratildi..

Kalit so‘zlar: chiqindi katalizatorlar, qayta ishlash, og‘ir metallar, utilizatsiya, toksiklik, ekologiya, bioliching, regeneratsiya, yashil kimyo.

Annotation: waste catalysts ammonia production is an important category of man — made waste with high environmental risk potential due to various toxicants-heavy metals, rare earth element oxides, sulfides and organic residues. Of particular importance is the problem of safe handling of these waste in conditions of global intensification of ammonia production and wear of catalyst systems (based on iron, cobalt, molybdenum, etc.). This article is devoted to the comprehensive analysis of the processes of degradation of catalysts in ammonia synthesis, migration and transformation mechanisms of their components in the biosphere, bioaccumulation and toxicokinetics of pollutants. In order to minimize environmental risks and rationally use secondary resources within the framework of the concept of a circular economy, modern and promising technologies for the recovery, disposal and processing of waste catalysts are being considered. In the field of industrial ecology, special attention was paid to the issues of improving regulatory regulation and developing innovative, low-waste technological solutions..

Keywords: waste catalysts, recycling, heavy metals, disposal, toxicity, ecology, bioliching, regeneration, green chemistry.

Введение

Синтез аммиака посредством процесса Габера-Боша является одним из фундаментальных процессов современной химической промышленности, обеспечивающим производство стратегически важного соединения для аграрного сектора, фармацевтики, взрывчатых веществ и многих других отраслей. Центральным звеном данного процесса являются катализаторы на

ISSN 3030-3907

основе железа с добавками промоторов (алюминий, калий, кальций, магний и др.), которые обеспечивают высокую селективность и производительность при синтезе аммиака из водорода и азота.

Однако в ходе эксплуатации катализаторы подвержены постепенной деградации вследствие ряда деструктивных процессов: агломерация активных частиц, коксование поверхности, сульфидное отравление, накопление механических и химических примесей, изменяющих текстуру и фазовый состав материала. В результате эффективность катализаторов падает, и они переводятся в категорию отработанных, превращаясь в опасные техногенные отходы.

По данным международных мониторинговых организаций, ежегодно в мире образуется более 200 000 тонн отработанных катализаторов различных технологических систем, в том числе порядка 15–20% приходится на аммиачное производство. Учитывая, что срок службы катализаторов синтеза аммиака в промышленных условиях варьируется от 3 до 10 лет, актуальность проблемы утилизации и переработки отработанных катализаторов возрастает по мере интенсификации мирового производства азотных соединений. [1,2,3] Особую экологическую тревогу вызывает тот факт, что состав отработанных катализаторов включает в себя не только остаточные активные компоненты, но и целый спектр токсичных соединений, обладающих высокой степенью персистентности, биокумуляции и потенциальной мутагенности. Они могут поступать в окружающую среду при несанкционированном захоронении, утечках или аварийных выбросах, нарушая устойчивость экосистем, влиять на здоровье человека, биоразнообразие и качество почвенно-водных ресурсов.

Состав и токсикологическая характеристика отработанных катализаторов синтеза аммиака.

Катализаторы синтеза аммиака, подвергшиеся износу, характеризуются сложным поликомпонентным составом, который включает:

1) Металлические компоненты: остаточное железо, кобальт, молибден, никель, медь, ванадий, редкоземельные элементы.
2) Минеральные носители: γ-оксид алюминия, цеолиты, оксиды кремния, магния, титана.
3) Токсичные примеси и контаминанты: сульфиды, нитриды, карбиды, углеводородные остатки, полициклические ароматические углеводороды (ПАУ), фенольные соединения, оксиды азота, кокс.

Токсикологическое действие данных компонентов проявляется через следующие механизмы:

ISSN 3030-3907

1)Генотоксичность и канцерогенность (никель, ванадий, кобальт, молибден): повреждение ДНК-клеток, индукция мутаций, развитие опухолевых процессов.

2) Биоаккумуляция и системная токсичность: накапливаются в почвах, водоёмах, пищевых цепях, вызывают хронические заболевания печени, почек, иммунной и эндокринной систем.

3) Нанотоксикология (платина, палладий): в нанофазе металлы обладают повышенной реакционной способностью, индуцируя оксидативный стресс и воспалительные процессы.

4) Высокотоксичные органические остатки: при разложении или сжигании высвобождают диоксины, фураны, бензопирен — мощнейшие канцерогены и нейротоксиканты. [4,5,]

Экологические последствия неправильной утилизации отработанных катализаторов.

1. Почвенные экосистемы. Поступление тяжёлых металлов приводит к долговременному загрязнению и угнетению почвенной биоты — микроорганизмов, червей, насекомых — что дестабилизирует круговорот веществ и плодородие.

2. Гидросфера. Попадание растворимых и коллоидных форм тяжёлых металлов в грунтовые и поверхностные воды изменяет биохимический баланс водных сообществ, нарушая гомеостаз водных организмов, вызывая гибель планктона, рыб и биоценотические сдвиги.

3. Атмосфера. При несанкционированном сжигании катализаторов высвобождаются аэрозоли металлов, летучие органические соединения и канцерогенные газы, повышающие риск бронхолёгочных и онкологических заболеваний среди населения.

4. Биологическая. Мелкодисперсная пыль катализаторов может проникать в респираторную систему, вызывая пневмофиброз, хроническую обструктивную болезнь лёгких (ХОБЛ), аллергические реакции, воздействовать на обмен кальция и нарушать гормональный баланс. [6]

Методы переработки и утилизации отработанных катализаторов производство аммиака.

Рациональная переработка отработанных катализаторов синтеза аммиака приобретает ключевое значение в контексте устойчивого управления техногенными отходами и извлечения вторичных ресурсов. Особое внимание уделяется глубокой переработке железосодержащих катализаторов, которые после деградации представляют собой источник ценных неорганических соединений.

ISSN 3030-3907

1. Хлоридно-гидрометаллургическая переработка с получением железа (III) хлорида ($FeCl_3$). В рамках разработанной технологии переработки железных катализаторов осуществляется их предварительная активация и растворение в соляной кислоте с последующим окислением, в результате чего образуется высокочистый раствор железа (III) хлорида. $FeCl_3$ представляет собой ценное сырьё для последующего производства высококачественных пигментов, коагулянтов для очистки сточных вод, а также реагентов для органического синтеза и полимеризации.

2. Производство пигментных материалов. Полученный хлорид железа после соответствующей обработки применяется в синтезе антикоррозионных пигментов, обладающих высокой стабильностью к ультрафиолетовому излучению и агрессивным средам. Такие пигменты применяются в защитных лакокрасочных покрытиях для строительных конструкций, судостроения и трубопроводного транспорта.

3. Синтез коррозионно-стойких комплексных ингибиторов на основе хлоридов цинка и монофосфатов. Параллельно с извлечением железа, в процессе комплексной переработки осуществляется получение растворов хлорида цинка ($ZnCl_2$), который далее комбинируется с фосфатными соединениями для синтеза цинк-монофосфатных ингибиторов коррозии. Данные составы эффективно применяются в антикоррозионной защите стальных конструкций, обеспечивая длительную пассивацию металлических поверхностей в агрессивных промышленных условиях.[7]

4. Пирометаллургическая утилизация остаточных компонентов. Остаточные шламы, образующиеся после химического извлечения, проходят термическую обработку с целью дополнительного извлечения металлов, стабилизации шлаков и минимизации токсичного остатка для последующего экологически безопасного захоронения.

5. Регенерация катализаторного материала для повторного промышленного применения. Отдельным направлением в области комплексной переработки железосодержащих катализаторов является технология селективного извлечения и очистки активной фазы с последующим синтезом среднетемпературных катализаторов (300–400 °C), применяемых в процессах паровой конверсии оксида углерода и других промышленных реакциях. Полученные катализаторы характеризуются высокой механической прочностью, устойчивостью к агрессивным средам и продлённым сроком активного действия. Реализация данной стратегии позволяет не только минимизировать потребность в природных сырьевых источниках, но и существенно сократить объёмы опасных промышленных отходов, формируя

ISSN 3030-3907

замкнутый технологический цикл с высоким уровнем экологической и ресурсной эффективности.

Совершенствование технологий утилизации отработанных катализаторов синтеза аммиака включает разработку инновационных технологических решений, направленных на максимальное вовлечение отходов в хозяйственный оборот и снижение экологических рисков:

1. Интегрированные многокомпонентные перерабатывающие комплексы. Разработанная технология переработки железных катализаторов с параллельным получением $FeCl_3$, $ZnCl_2$, ингибиторов коррозии и восстановленных катализаторных материалов позволяет создать практически безотходный перерабатывающий цикл с высоким экономическим потенциалом.
2. Комбинированные биогидрометаллургические технологии. В дополнение к кислотному выщелачиванию применяются биокаталитические методы с использованием ацидофильных бактерий, повышающих выход целевых продуктов при низких затратах энергии и минимальном воздействии на окружающую среду.
3. Индустриальное внедрение пигментов и антикоррозионных покрытий собственного производства. Разработанные материалы успешно внедряются в качестве активных компонентов для высокоэффективных лакокрасочных систем, способствующих повышению эксплуатационного ресурса промышленных и строительных объектов.
4. Перспективы в рамках циркулярной экономики. Создание замкнутых производственно-экологических систем, в которых катализаторная переработка не только минимизирует объёмы опасных отходов, но и формирует устойчивую цепочку добавленной стоимости с вовлечением широкого спектра вторичных продуктов в промышленный оборот.

Результаты и обсуждение

Отработанные катализаторы синтеза аммиака, в частности железосодержащие системы на основе Fe_3O_4, Fe_2O_3, Al_2O_3 и K_2O, применяемые в промышленных масштабах, представляют собой техногенные отходы I класса опасности. Эти материалы, по окончании срока службы, содержат остаточные количества активных металлов (Fe, Ni, Mo, Co, Zn, Cu), продуктов коксования, сернистых соединений и оксидов, что делает их потенциально опасными для окружающей среды и здоровья человека.

В условиях Республики Узбекистан, характеризующейся высокими температурами, малым количеством осадков и активной ирригацией, миграция тяжёлых металлов из неутилизированных катализаторов может

ISSN 3030-3907

быть ускоренной. Полевые и лабораторные исследования, проведённые в Чирчикском, Ферганском и Навоийском индустриальных узлах, подтвердили превышение ПДК следующих компонентов:

- Никель (Ni^{2+}): до 8,5 мг/кг в почве (ПДК: 4,0 мг/кг);
- Железа (Fe^{3+}): до 110 мг/кг (ПДК: 40 мг/кг);
- Кобальт (Co^{3+}): в водных пробах — до 0,021 мг/л (ПДК: 0,01 мг/л);
- Молибден (Mo^{6+}): до 0,035 мг/л (ПДК: 0,01 мг/л).

Такие концентрации обусловливают острую и хроническую токсичность для биоты: ингибируются функции почвенных бактерий (Azotobacter spp., Bacillus spp.), нарушается трофическая цепочка водных организмов и происходит биоаккумуляция в сельскохозяйственной продукции. В частности, в Зарафшанской зоне содержание никеля в клубнях картофеля достигало 2,1 мг/кг при допустимом уровне 0,7 мг/кг. Токсикологическое воздействие на человека. Металлы, такие как Ni^{2+}, Co^{2+} и Fe^{3+}, проявляют канцерогенную, мутагенную и аллергенную активность. Они нарушают работу ферментных комплексов, таких как цитохром-оксидазы и супероксиддисмутазы, индуцируя окислительный стресс, воспалительные процессы и иммунодефицитные состояния. Хроническая экспозиция особенно опасна для детей и беременных женщин.

С точки зрения циркулярной экономики, отработанные катализаторы не только отходы, но и вторичные техногенные ресурсы, способные обеспечивать стабильное сырьё для получения новых функциональных материалов.

Проведённые исследования и пилотные испытания показали высокую эффективность извлечения Fe^{3+} из отработанных катализаторов с последующим получением раствора железа (III) хлорида — $FeCl_3$, который широко используется:

- В качестве коагулянта в системах водоподготовки;
- Для синтеза антикоррозионных пигментов;
- В производстве лакокрасочных покрытий с ингибирующими свойствами.[8,9]

Одновременно извлекается хлорид цинка ($ZnCl_2$), который может быть использован для синтеза цинк-монофосфатных антикоррозионных систем ($Zn(H_2PO_4)_2$), демонстрирующих высокую эффективность в защите сталей и алюминиевых сплавов от коррозии в агрессивных средах.

Экономическая и экологическая эффективность переработки отработанных катализаторов.Внедрение интегрированных технологий переработки отработанных катализаторов синтеза аммиака обеспечивает

ISSN 3030-3907

многокомпонентный синергетический эффект, объединяющий экономические, экологические и научно-технологические преимущества:

Экономическая эффективность.

1) Снижение зависимости от импорта антикоррозионных реагентов и функциональных материалов;
2) Формирование внутренней добавленной стоимости за счёт локального использования техногенных ресурсов;
3) Развитие химико-технологического сектора с созданием высококвалифицированных рабочих мест и стимулированием инновационной промышленной инфраструктуры.

Экологическая устойчивость:

1) Сокращение объёмов захоронения опасных отходов до 80–90% посредством извлечения ценных компонентов;
2) Предотвращение выщелачивания токсичных металлов в подземные и поверхностные водные системы;
3) Снижение эмиссии тяжёлых металлов в атмосферу за счёт отказа от неконтролируемого термического обезвреживания и несанкционированного сжигания.

Научно-методическое и международно-правовое соответствие:

1) Соответствие процессу утилизации стратегическим целям устойчивого развития ООН (ЦУР 12 — ответственное потребление и производство, ЦУР 13 — борьба с изменением климата);
2) Поддержание обязательств в рамках международных соглашений, включая Базельскую конвенцию о контроле трансграничной перевозки опасных отходов и Парижское соглашение по вопросам климата;
3) Содействие развитию передовых технологий вторичной переработки и регенерации техногенных отходов.

Нормативно-правовой и институциональный аспект:

1) Строгое соблюдение экологических и санитарно-гигиенических норм при переработке;
2) Обеспечение эффективного контроля качества технологических процессов со стороны государственных регулирующих и надзорных органов.

Таким образом, только комплексный и научно обоснованный подход к переработке отработанных катализаторов позволяет минимизировать их негативное воздействие на окружающую среду, одновременно превращая их в стабильный источник стратегического вторичного сырья.

Заключение

ISSN 3030-3907

Анализ научных, технологических и экологических аспектов обращения с отработанными катализаторами синтеза аммиака демонстрирует, что данные техногенные отходы одновременно являются источником серьёзной экологической опасности и ценным вторичным ресурсом. Присутствие в их составе стратегически важных металлов (Fe, Ni, Mo, Co, Zn) требует применения интегрированных подходов, основанных на принципах циркулярной экономики и "зелёной химии".

В условиях Республики Узбекистан, где активно развиваются химическая и агропромышленная отрасли, неправильное обращение с такими отходами приводит к загрязнению почв, водных объектов и биоценозов тяжёлыми металлами, что влечёт за собой риск нарушения экологического баланса и увеличения заболеваемости населения. Эмпирические данные подтверждают актуальность проблемы и необходимость внедрения систематизированного мониторинга.

Разработка и реализация эффективных методов переработки, в том числе кислотно-гидрометаллургических и хлоридных технологий, обеспечивают извлечение ценных компонентов в виде хлорида железа ($FeCl_3$), хлорида цинка ($ZnCl_2$) и иных соединений, пригодных для производства антикоррозионных пигментов и функциональных материалов. Применение таких подходов позволяет не только снижать техногенную нагрузку, но и формировать новые направления импортозамещающей и экспортноориентированной химической продукции.

Таким образом, переработка отработанных катализаторов синтеза аммиака представляет собой стратегически важное направление устойчивого промышленного развития, объединяющее экологическую безопасность, научную инновационность и экономическую целесообразность. Будущее лежит в интеграции замкнутых циклов использования материалов с высоким уровнем регенерации и минимизацией образования опасных отходов.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Zhang X., Li Y., Wang H. Recovery of valuable metals from spent hydrotreating catalysts: A review // Journal of Hazardous Materials. – 2021. – Vol. 405. – P. 124200. DOI: 10.1016/j.jhazmat.2020.124200.

2. Chmielarz L., Rutkowska M., Kaczmarek A., et al. Environmental impact and recycling technologies for spent catalysts // Catalysis Today. – 2022. – Vol. 383. – P. 45–57. DOI: 10.1016/j.cattod.2020.06.014.

3. Basu M., Bhattacharya S. Bioleaching as a sustainable technology for metal recovery from spent catalysts // Environmental Technology & Innovation. – 2020. – Vol. 17. – P. 100577. DOI: 10.1016/j.eti.2019.100577.

ISSN 3030-3907

4. Rahman M.A., Kim K.-H., Brown R.J.C., et al. Green recovery of metals from spent catalysts: current trends and future prospects // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2019. – Vol. 112. – P. 302–320. DOI: 10.1016/j.rser.2019.05.061.
5. Rastegar S.O., Mousavi S.M. Microbial leaching of cobalt and nickel from spent ammonia synthesis catalysts // Bioresource Technology Reports. – 2023. – Vol. 21. – P. 101171. DOI: 10.1016/j.biteb.2023.101171.
6. United Nations Environment Programme (UNEP). Guidelines for environmentally sound management of used catalysts. – Nairobi: UNEP, 2013. – 67 p. URL: https://www.unep.org (дата обращения: 24.06.2025).
7. Dadaxodjayev A.T., Kadirov S.U. Studying the technology for obtaining zinc chloride from spent supporter waste in ammonia production // Chemical Technology. Control and Management. – 2025. – № 2 (122). – P. 5–9.
8. Дадаходжаев А.Т., Мураткулов О.К., Якибова Д.Х., Собитов О.С., Бобомуродова М.С., Кодиров С.У. Локализация производства газохимических катализаторов в Узбекистане и комплексная переработка отработанных // Республиканская научно-техническая конференция “Перспективы развития композиционных материалов”. – Ташкент, 19–20 сентября 2024 г.
9. Кодиров С.У., Дадаходжаев А.Т., Дехканов З.К. О возможности рекуперации отработанных железохромовых катализаторов // Современные технологии в области защиты окружающей среды и техносферной безопасности: материалы конференции. – Ташкент, 16–17 апреля 2024 г.

ISSN 3030-3907

UDK 621.3.072.6:621.3.049.77

YIGIRISH AGERGATLARI ELEKTR YURITMALARINING TEXNOLOGIK ISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Aripov Nazirjon Mukaramovich
Toshkent davlat transport universiteti, t.f.d., professor,
E-mail: aripov1110@gmail.com
Tojiyev Bekmurod Maxmudovich
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, doktorant,
E-mail: bekmurodtojiyev02@mail.com

Annotatsiya. Maqolada yigirish jarayonlarining optimal sharoitlarini topish masalalari yigirish agregatining elektr yuritmasi ishlash samaradorligiga bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu texnologik jarayonlarni optimal darajada saqlab, ularni tartibga solish imkoniyatini beradi. Yigirish agregati elektr yuritmalarining ish sharoitlarida maqsad funksiyasining ekstremumini topishning eng optimal usuli – simpleks usuli ko‘rib chiqilgan bo‘lib, u faktor fazosidagi tekis simpleksning cho‘qqilarini ketma-ket tasvirlash orqali bosqichma-bosqich harakat asosida optimumni topish imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: yigirish agregati, elektr yuritmaning ish rejimlari, texnologik rejimlarni optimallashtirish, tajriba rejalashtirish, simpleks usuli, elektr dvigatelining nosozliklari yo‘qligi, aylanish tezligini oshirish, yigirish mashinasining unumdorligini oshirish.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы нахождения оптимальных условий протекания процессов прядения в зависимости от эффективности работы электропривода прядильного агрегата, что дает возможность регулировать технологические процессы, поддерживая их на оптимальном уровне и рассмотрен наиболее оптимальный метод нахождения экстремума целевой функции в условиях работы электроприводов пря-дильного агрегата симплекс-методом, который позволяет находить оптимум на основе шагового движе-ния путем последовательного отображения вершин плоского симплекса в факторном пространстве.

Ключевые слова: прядильный агрегат, режимы работы электропривода, оптимизация технологических режимов, планирование эксперимента, симплекс-метод, отсутствия отказов электродвигателя, повышения скорости вращения, увеличение производительности прядильной машины.

Annotation. The article examines issues of finding optimal conditions for spinning processes depending on the efficiency of the spinning unit's electric drive operation, which makes it possible to regulate technological processes by maintaining them at an optimal level. The most optimal method for finding the

ISSN 3030-3907

extremum of the objective function under the operating conditions of spinning unit electric drives using the simplex method is considered, which allows finding the optimum based on step-by-step movement through sequential mapping of vertices of a flat simplex in the factor space.

Keywords: spinning unit, electric drive operating modes, optimization of technological modes, experiment planning, simplex method, absence of motor failures, increase in rotation speed, increase in spinning machine productivity.

Kirish

Yigirish agregati samaradorligiga bog‘liq bo‘lgan yigirish jarayonlarini o‘tishning optimal sharoitlari joylashgan faktorli (omil)lar fazo sohasini topish va ushbu sohada javob funksini ifodalash kerak bo‘ladi [1,2,4].

Bu texnologik jarayonlarni optimal darajada ushlab turish orqali ularni tartibga solish imkonini beradi [3,5,7].

Eksperimentni rejalashtirish nazariyasida javob funksiyasining ekstremumlarini topish uchun bir qator usullar mavjud: tik ko‘tarilish usuli (Boks–Uilson usuli) evolyutsion rejalashtirish usuli, simpleks-usul, relaksatsiya usuli va boshqalar [6,8,9] .

Yigiruv elektr yuritmalarining ishlash sharoitida maqsad funksiyasining ekstremumini topish uchun simpleks usul eng maqbul usul ekanligi aniqlangan [11,10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Simpleks usuli deganda, faktor fazoda tekis simpleks uchlarini ketma-ket aks ettirish orqali qadamli harakat asosida optimumni topish nazarda tutiladi.

K o‘lchovli simpleks – bu qirralar bilan tekshirishga K+1 cho‘qqiga ega K–o‘llovchi geometrik shakldir.

Ikkita o‘zgaruvchan omil mavjud bo‘lganda o‘zgarayotgan holat uchun yassi uchburchak ikki o‘lchovli to‘g‘ri simpleks hisoblanadi.

Demak, umumiy holda koordinatalari U_1, U_2,..., U_k bo‘lgan K–o‘lchovli fazoda uchlarining koordinatalari quyidagi matritsa satrlarida yozilgan boshlang‘ich simpleks tanlanadi:

$$A_k = \sqrt{\frac{2(K+1)}{K}} \begin{vmatrix} m_1 & m_2 & \dots & m_{l-1} & m_l \\ -P_1 & m_2 & \dots & m_{l-1} & m_l \\ 0 & -P_2 & \dots & m_{l-1} & m_l \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & m_{l-1} & m_l \\ 0 & 0 & \dots & -P_{l-1} & m_l \\ 0 & 0 & \dots & 0 & -P_M \end{vmatrix} \quad (1)$$

Matritsaning birga teng bo‘lgan A_k qatorlari, simpleksni tashqi doirasida chizilgan, doira radiusi bilan va markazi koordinat boshidan, to‘g‘ri simpleksni

ISSN 3030-3907

tashkil qiladi. Haqiqiy A_k matritsa, kodlangan o‘zgaruvchanlar maydonida qator tajribalar rejasini ifodalaydi.

$$\left.\begin{aligned} P_i &= \sqrt{\frac{i}{2(i+1)}}; \\ m_i &= \sqrt{\frac{1}{2i(i+1)}}, \end{aligned}\right\} \qquad (2)$$

bunda i = 1, 2, . . . , п.

Hozir kunda chiqindi iPE kompozitsiga to‘ldiruvchi sifatida noorganik to‘ldiruvchi moddalarini o‘z ichiga olgan polimer kompozitli kompozitlar yaxshi mexanik xususiyatlar, issiqlikka chidamlilik, kimyoviy qarshilik xususiyatlari va boshqalar foydali xususiyatlari tufayli etiborli. Ushbu xususiyatlar polimer kompozitli kompozitlarni turli sohalarda, jumladan, avtomobilsozlik, qurilish va qadoqlash sanoatida qulay material sifatida yaratadi. Hozirda shisha, $CaCO_3$, talk va kabi noorganik to‘ldiruvchi moddalari keng qo‘llaniladigan to‘diruvchilar qatoriga kiradi [2].

Ushbu noorganik to‘ldiruvchi moddalariga tashqari yani bir to‘ldiruvchini etibordan qoldirmaslik kerak, polimerik kompozitlarda muqobil noorganik to‘ldiruvchi sifatida shishasimon amorf vulkanik jins bo‘lgan perlit ham katta ahamiyatga ega [3].

1-jadval.

Perlitning kimyoviy va fizik xususiyatlari [4]

SiO_2 (%)	Al_2O_3 (%)	K_2O (%)	MgO (%)	CaO (%)	Fe (%)	G‘ovoklik (%)	O‘rtacha zarracha kattaligi (mkm)	Maxsus sirt maydoni ($m^2\ g^{-1}$)
74,0	14.3	5.0	0.3	0,5	1.0	85	34.4	2.1

Shuni etiborga olish kerakki perlit 600-1000 °C harorat oralig‘ida qizdirilganda, uni boshlangich hajmidan 7-16 martagacha kengaytirish mumkin. Perlit past zichligi ega va nisbatan past narxi tufayli ko‘plab soxalarda juda keng ishlatiladi. Perlit ishlab chiqarish va qurilish sohalarida izolatsiya material xususan, engil gips va ohaklarda, izolyatsiyalashda va plitkalarida qo‘llanilsa, kengaytirilgan perlit qurilish va boshqa sanoat sohalarida qo‘llaniladi. Turkiya, jami 7700 million tonna perlitga ega bo‘lgan dunyo zahirasini, jami perlit zaxirasining 74 foiziga egalik qiladi [4].

ISSN 3030-3907

Hozirda uzbekistonda turkiyadan xom ashyo tosh keltirilib uzimizda maxus pichlarda perlit shakliga keltiriladi va u ishlab chiqarish sohasida turli maxsatlar uchun ishlatish uchun beriladi.

2. Materiallar va usullar

2.1 Tadqiqot obyeklarini tayorlash

Tadqiqotda xom ashyo sifatida yuqori zichlikdagi polietilen chiqindi (iPE) ishlatilib, uning zichligi 0,950 g/sm³ va eritish oqimi indeksi 0,4–0,8 g/10 min oralig‘ida edi. Perlit ishlab chiqaruvchi tavsiyasiga binoan 100 °C da 1,5 soat quritildi. Kompozit material laboratoriya termokinetik mikserda tayyorlandi: iPE va perlit dastlab fizik aralashuvdan o‘tdi, so‘ng 2000 r/min tezlikda 25 soniya aralashtirildi. Perlit og‘irlik fraktsiyalari 5, 10, 15 va 25 % tanlandi. Gidravlik issiq va sovuq press yordamida kompozit plitalar shakllantirildi. Issiq press 180 °C va 40 bar bosimda 60 soniya davomida qo‘llanilib, keyin sovuq pressda 120 bar va xona haroratida 120 soniya o‘tkazildi.

2.2 Kompozitlarning fizik-kimyoviy va strukturaviy xossalarini tahlil qilish

Perlit bilan to‘ldirilgan iPE kompozit namunalarining spektrlari o‘tkazuvchanlik rejimida qayd etilib, to‘lqin soni funksiyasi sifatida tahlil qilindi. X-nurlarining diffraksion tahlili Bruker D2 Phaser qurilmasida amalga oshirildi, u Ni-filtrlangan mis K nurlanishi (λ = 1,54 Å) bilan jihozlangan bo‘lib, 45 kV va 40 mA da ishladi. Difraksiyalangan nurlar 5° dan 80° gacha bo‘lgan oraliqda qayd etildi, qadam o‘lchami 0,02° etib olindi. Kompozit yuzalari plazma purkash usuli bilan tayyorlanib, FEI Quanta FEG 250 skanerlovchi elektron mikroskopida 4 kV kuchlanishda tahlil qilindi. Shuningdek, kompozitsiyalarning issiqlik o‘tkazuvchanligi C-Therm Technologies analizatori yordamida 25 °C da o‘lchandi.

2.3 Dinamik va mexanik tahlil

Kompozitlarning saqlash moduli DMA Q800 yordamida 25–130 °C haroratda o‘lchandi. iPE-perlit namunalar ASTM-D638 ga muvofiq tayyorlanib, Shimadzu SHIMAD-AGT-X mashinasida 50 mm/min cho‘zish sinovidan o‘tkazildi. Egilish moduli va kuchi DIN 178 bo‘yicha 1 mm/min tezlikda aniqlanib, natijalar o‘rtacha qiymat va standart og‘ish bilan qayd etildi.


3. Natija va muhokamalar

3.1 FTIR (Fourier Transform Infrared spektroskopiya) tahlili

PE chiqindisi asosidagi kompozitning funksional guruhlar va kimyoviy o‘zgarishlarini aniqlash maqsadida **FTIR** o‘tkazildi (1-rasm). Chiqindi uchun CH_2 deformatsion tebranishlari taxminan 1472 sm^{-1} va CH_2 tashqi aylanish tebranishi esa 718 sm^{-1} da aniqlangan. Bu tebranishlar iPE polimer zanjiriga xos bo‘lgan odatiy belgilardir. Perlit qo‘shilgan namunalar uchun 1030 sm^{-1} atrofida yangi cho‘qqi paydo bo‘ldi. Bu cho‘qqi perlit tarkibidagi Si–O–Si (silikat) assimetrik

ISSN 3030-3907

cho‘zuvchi tebranishi bilan bog‘liq. Perlit miqdori ortgan sari ushbu 1030 sm^{-1} dagi cho‘qqining intensivligi oshgani kuzatildi.



1-rasm. FTIR spektri orqali iPE va perlit aralashmasida qanday funksional aniqlash

Bu esa perlitning iPE kompozitsiga bir tekis taqsimlanganini va uning mavjudligini tasdiqlaydi.

3.2 XRD (rentgen diffraksion) tahlili

Materialida taxminan 22,3° va 24,6° da kuchli cho‘qqilar aniqlangan, bu cho‘qqilar (110) va (200) kristall panjara tekisliklariga mos keladi, demak iPE kristalli tuzilishga ega va tartiblangan molekulyar qatlamlar mavjud. 5% va 10% perlit qo‘shilgan kompozitlarning XRD profillari iPEnikiga deyarli o‘xshash, ya’ni kristall tuzilma katta o‘zgarishga uchramagan. Ammo 15% va 25% perlit qo‘shilganda (200) tekislik cho‘qqisi 24,6° dan 24,5° ga siljiydi, bu esa biroz strukturaviy o‘zgarish borligini bildiradi.


Umuman olganda, iPE kristalli tuzilmasi barqaror va perlit qo‘shilishi bilan keskin buzilmaydi, bu esa kompozit materialning strukturaviy mustahkamligini saqlab qolishga yordam beradi.

3.3 SEM (skanerlovchi elektron mikroskop) tahlili

Perlit bilan to‘ldirilgan iPE kompozitlarining valentlik sinovidan so‘ng olingan singan sirtlari SEM yordamida tahlil qilindi. 4-rasmda berilgan SEM mikrograflarida turli perliti og‘irlik ulushlaridagi namunalar yuzasining morfologik tuzilishi tasvirlangan (2-rasm). Bu tadqiqotda 5% perlit qo‘shilgan iPE namunasi nanometr diapazonida tarqalgan zarrachalarga ega bo‘lib, ular kompozit bilan yaxshi dispersiyalangan. Zarrachalar o‘lchami kichikligi va interfeys kuchlarining yuqoriligi tufayli materialning mexanik xususiyatlari, xususan kuchlanish kuchi yaxshilanadi. Biroq, perlit ulushi 10%, 15% va 25% ga oshganda, zarrachalar mikrometr o‘lchamiga yetib, tarqalishi bir tekis bo‘lmaydi. Masalan,

ISSN 3030-3907

15% namunada eng kichik zarracha 4,08 µm, 25% da esa 17,07 µm bo‘lib, bu aglomeratsiyaning oshishini ko‘rsatadi.



2-rasm. (a) iPE + 5% P, (b) iPE + 10% P, (c) iPE + 15% P va (d) iPE + 25%P perlit kompozitlarining SEM yordamida olingan mikrograflar

Past konsentratsiyada perlit kompozitda mustahkamlikni oshirsa, yuqori konsentratsiyada mexanik xususiyatlarning, ayniqsa kuchlanish kuchi va mustahkamlikning pasayishiga olib keladi. Shu tarzda, perlit miqdori va tarqalishi kompozitning samarali mexanik ishlashini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

3.4 Issiqlik O‘tkazuvchanligi

Kompozit materiallarning issiqlik o‘tkazuvchanligi perlit qo‘shish bilan kamayishi mumkin. Perlit ning g‘ovak tuzilishi, materialning izolyatsion xususiyatlarini oshiradi, bu esa kompozit materiallarning issiqlik izolyatsiyasi sifatini yaxshilaydi (2-jadval).

2-jadval.

PE chiqindisi va perlit bilan to‘ldirilgan kompozitlarining issiqlik o‘tkazuvchanligi


N°	Namunalar	Issiqlik o‘tkazuvchanligi (Vt $(mK)^{-1}$)
1	iPE	0.560
2	iPE + 5% P	0.529
3	iPE + 10% P	0.525
4	iPE + 15% P	0.519
5	iPE + 25% P	0.515

Bu yerda 5% perlit qo‘shilganda, issiqlik o‘tkazuvchanlik 5,5% ga kamayishi mumkin shunningdek 25% perlit qo‘shilganda, issiqlik o‘tkazuvchanlik 8% ga kamayadi, bu esa yuqori izolyatsion xususiyatlarga ega kompozit materiallarni yaratishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

3.5 Dinamik mexanik tahlil (DMT)

DMT yordamida kompozitlarning mexanik javobi haroratga qarab o‘rganildi. Tahlil saqlash moduli (E') va yo‘qotish moduli (E") ga asoslanadi. E' materialning qattiqligini va elastik energiyani saqlash qobiliyatini, E" esa molekulalar harakati natijasida energiyaning issiqlikka aylanishini bildiradi. Harorat oshishi bilan E' kamayadi, lekin perlit miqdori oshganda (5–25%) E' ortadi, chunki zarralar molekulalar harakatini cheklab, kompozitni mustahkamlaydi va materialni qattiqlashtiradi (3-rasm).



3-rasm. iPE va uning kompozitlarini saqlash modullarining harorat bilan o‘zgarishi

Har bir namuna uchun **a-relaksatsiya cho‘qqisi** (materialning harakatchanlikka o‘tish nuqtasi) taxminan **49–56 °C oralig‘ida** joylashgan. Bu nuqtada iPE segmentlarining harakati kuchayadi. Shu bilan birga, **segmental harakatlanish cheklanadi**, bu esa **yo‘qotish modulining ortishiga** va **moslashuvchanlikning kamayishiga** olib keladi. Juda yuqori 25% perlitli materialning ichki harakati jiddiy darajada.

3.6 Mexanik xususiyatlari

Perlit bilan to‘ldirilgan iPE kompozitlarining cho‘zilish kuchi va Young moduli perlit tarkibiga qarab o‘zgaradi. 5%, 10% va 15% perlit qo‘shilgan kompozitlar PEga nisbatan yuqori cho‘zilish kuchiga ega bo‘ldi, ammo 25% perlit qo‘shilganda cho‘zilish kuchi taxminan 7% kamaydi, bu perlitning yomon tarqalishi bilan bog‘liq. Young moduli taxminan 760 MPa ni tashkil qiladi, ya’ni perlit polimer kompozitsini mustahkamlab, materialning qattiqligini oshiradi, ammo yuqori perlit miqdori elastiklikni kamaytiradi (3-jadval). Young moduli taxminan 760 MPa ni tashkil qiladi, ya’ni perlit polimer kompozitsini mustahkamlab, materialning qattiqligini oshiradi, ammo yuqori perlit miqdori elastiklikni kamaytiradi.

ISSN 3030-3907

3-jadval

Perlit bilan to‘ldirilgan iPE kompozitlarining mexanik xossalari

Perlit tarkibi (%)	Cho‘zilish kuchi (MPa)	Young moduli (MPa)	Egilish kuchi (MPa)
0 (PE)	25,7	700	25,7
5	27,0	740	28,5
10	28,5	760	32,0
15	30,0	780	36,9
25	23,9	760	33,0

Egilish kuchi 25,7 MPa bo‘lib, 15% perlit qo‘shilgan kompozitlarda eng yuqori 36,9 MPa ga yetadi, 25% va undan ortiq perlit esa egilish kuchini pasaytiradi. Shuning uchun, perlitni yaxshi tarqatish mexanik xossalarni optimal darajada saqlash uchun muhimdir.

Xulosa

Chiqindi iPE asosidagi kompozitlarning funksional guruhlari va kimyoviy o‘zgarishlarini aniqlash uchun FTIR tahlili o‘tkazildi. Perlit miqdori ortgani sari 1030 $см^{-1}$ dagi cho‘qqi intensivligi oshishi kuzatildi, bu perlitning kompozitda bir tekis taqsimlanganini va uning mavjudligini tasdiqlaydi. Kompozitlarning mexanik xususiyatlari perlit tarkibiga va tarqalishiga bog‘liq bo‘lib, 5–15% perlit aralashmasi material kuchini oshiradi, lekin 25% dan ortiq perlit qo‘shilishi yomon dispersiya va aglomeratsiya tufayli mexanik xususiyatlarni pasaytiradi. Shu sababli perlitning yaxshi dispersiyasi muhimdir. 5% perlit qo‘shilganda issiqlik o‘tkazuvchanlik 5,5% ga, 25% perlitda esa 8% ga kamayadi, bu yuqori izolyatsion xususiyatga ega material yaratishga yordam beradi. Harorat oshishi bilan iPE va kompozitlarning qattiqligi kamayadi, E' moduli pasayadi, ammo perlit miqdori oshganda E' ortadi, chunki zarralar molekulalar harakatini cheklab, kompozitni mustahkamlash orqali qattiqlikni oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Hopewell, J., Dvorak, R., & Kosior, E. (2009). Plastics recycling: challenges and opportunities. Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences, 364(1526), 2115-2126.
2. Siddiqui, J., & Pandey, G. (2013). A review of plastic waste management strategies. Int. Res. J. Environ. Sci , 2 (12), 84-88.
3. Singh, Narinder, et al. "Recycling of plastic solid waste: A state of art review and future applications." Composites Part B: Engineering 115 (2017): 409-422.
4. Garcia, J. M., & Robertson, M. L. (2017). The future of plastics recycling. Science, 358(6365), 870-872.

ISSN 3030-3907

5. Al-Salem, S. M., Lettieri, P., & Baeyens, J. (2009). Recycling and recovery routes of plastic solid waste (PSW): A review. Waste management , 29 (10), 2625-2643.

ISSN 3030-3907

SHARTLI EHTIMOLLIK YORDAMIDA FIZIKA VA TEXNIKAGA OID MASALALARNI YECHISH

Imomnazarova Nurjaxon Toktaboyevna
University of business and science matematika fani o‘qituvchisi
Boydadayev Islomjon G‘anijon o‘g‘li
University of business and science matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Berilgan maqolada matematikaning asosiy bo‘limlaridan biri ehtimolliklar nazariyasi tushunchalari va formulalari orqali texnika va fizikaga masalalarni yechish usullari ko‘rsatib berilgan. Ehtimollar nazariyasi orqali iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va oldindan prognozlashtirishi haqida so‘z yuritiladi. Yechimi ko‘rsatilgan masalalar oliy ta`lim talabalariga fizikada, tibbiyot sohasida va texnikada ehtimollar nazariyasini qo‘llash orqali natijalarni oldindan prognozlashtirish yo‘llarini o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: ehtimollar nazariyasi, shartli ehtimollik, fizika,texnika, formula,masala,tahlil,prognoz.

Аннотация: В статье представлены методы решения задач по инженерии и физике с использованием понятий и формул теории вероятностей, одного из основных разделов математики. Рассматриваются вопросы анализа и прогнозирования экономических процессов с использованием теории вероятностей. Задачи с решениями обучают студентов высших учебных заведений прогнозированию результатов в области физики, медицины и техники с использованием теории вероятностей.

Ключевые слова: теория вероятностей, условная вероятность, физика, инженерное дело, формула, задача, анализ, прогноз.

Abstract: The article presents methods for solving problems in engineering and physics using the concepts and formulas of probability theory, one of the main branches of mathematics. It discusses the analysis and forecasting of economic processes using probability theory. The problems with solutions teach higher education students how to forecast results in physics, medicine, and engineering using probability theory.

Keywords: probability theory, conditional probability, physics, engineering, formula, problem, analysis, forecast.

Kirish

Masala 1. Yashikda 1-zavodda tayyorlangan 12 ta detal, 2-zavodda tayyorlangan 20 ta detal va 3-zavodda tayyorlangan 18 ta detal bor. 1- zavodda tayyorlangan detalning a`lo sifatli bo‘lishi ehtimoli 0,9 ga teng, 2- va 3-zavodda tayyorlangan detallarning a`lo sifatli bo‘lishi ehtimoli mos ravishda 0,6 va 0,9 ga teng. Tavakkaliga olingan detalning a`lo sifatli bo‘lishi ehtimolini toping.

ISSN 3030-3907

Masalaning yechilishi:

1- zavod 12 ta detal tayyorladi.

2- zavod 20 ta detal tayyorladi.

3- zavod 18 ta detal tayyorladi.

Jami tayyorlangan detallar

$$12 + 20 + 18 = 50$$

SHartlar:

1- Zavoddagi detal alo sifatli bo‘lish ehtimoli 0.9
2- Zavoddagi detal alo sifatli bo‘lish ehtimoli 0.6
3- Zavoddagi detal alo sifatli bo‘lish ehtimoli 0.9

Zavodlardan detalni olish ehtimoli:

1- zavod $\frac{12}{50} = 0.24$

2- zavod $\frac{20}{50} = 0.40$

3- zavod $\frac{18}{50} = 0.36$

To‘liq ehtimollik funksiyasidan foydalansak.

$$P(A) = P(Z_1) * P\left(\frac{A}{Z_1}\right) + P(Z_2) * P\left(\frac{A}{Z_2}\right) + P(Z_2) * P\left(\frac{A}{Z_2}\right)$$

Bu yerda

Z_i- detallaning qaysi zavodga tegishli ekanligi

A -detalning alo sifatli bo‘lish ehtimoli.

$$P(A) = 0.24 * 0.9 + 0.40 * 0.6 + 0.36 * 0.9 = 0.216 + 0.24 + 0.324 = 0.78$$

Demak javob: $P(A) = 0.78$

Masala 2. Ixtisoslashtirilgan kasalxonaga bemorlarning o‘rta hisobda 30% K kasallik bilan, 50% i L kasallik bilan, 20% i M kasallik bilan qabul qilindi. K kasallikni to‘liq davolash ehtimoli 0,7 ga, L va M kasalliklar uchun bu ehtimollik mos ravishda 0,8 va 0,9 ga teng. Kasalxonaga qabul qilingan bemor butunlay sog‘ayib ketganligi ma‘‘lum bo‘ldi. Bu bemor K kasallik bilan og‘rigan bo‘lishi ehtmolini toping.

Masalani yechish uchun Bayes formulasidan foydalanamiz:

ISSN 3030-3907

$$P(S) = P(K) * P\left(\frac{S}{K}\right) + P(L) * P\left(\frac{S}{L}\right) + P(M) * P\left(\frac{S}{M}\right)$$

Qabul qilingan kasallar

$$P(K) = 0.3, \qquad P(L) = 0.5, \qquad P(M) = 0.2$$

Kasallarning sog‘ayish ehtimoli

$$P\left(\frac{S}{K}\right) = 0.7, \qquad P\left(\frac{S}{L}\right) = 0.8, \qquad P\left(\frac{S}{M}\right) = 0.9$$

Formula orqali

$$P(S) = 0.3 * 0.7 + 05 * 0.8 + 0.2 * 0.9 = 0.79$$

natijaga ega bo‘lamiz.

K kasallik bilan kasallanganlarning sog‘ayish ehtimoli:

$$P\left(\frac{K}{S}\right) = P\left(\frac{S}{K}\right) * \frac{P(K)}{P(S)} = 0.7 * \frac{0.3}{0.79} = \frac{0.21}{0.79} \approx 0.2658$$

ga ega bo‘ldik . Demak javob $P\left(\frac{K}{S}\right) = 0.266$ (yani 26.6%)

Masala 3. Sexda tayyorlanadigan detallar 2 ta nazoratchi tomonidan tekshiriladi. Detallarni tekshiruvdan o‘tkazish uchun birinchi nazoratchiga tushishi ehtimoli 0,6 ga, ikkinchi nazoratchiga tushishi ehtimoli 0,4 ga teng. Yaroqli detalning birinchi nazoratchi tomonidan yaroqsiz deb topilishi ehtimoli 0,06 ga, ikkinchi nazoratchi uchun esa bu ehtimollik 0,02 ga teng. Yaroqsiz deb topilgan detallar tekshirilganda ular ichidan yaroqli detal chiqib qoldi. Bu detalni birinchi nazoratchi tomonidan tekshirilgan bo‘lishi ehtimolini toping.

Masalaning yechilishi:

N_1:1-nazoratchi tekshirgan,

N_2: 2-nazoratchi tekshirgan,

G: detal yaroqli edi.

D: detal yaroqsiz deb topildi.

$$P(N_1) = 0.6, \qquad P(N_2) = 0.4$$

$$P\left(\frac{D}{G, N_1}\right) = 0.06, \qquad P\left(\frac{D}{G, N_2}\right) = 0.02$$

Shart: yaroqsiz deb topilgan detallar ichidan yaroqli detal chiqishi.

ISSN 3030-3907

Hodisa G ∩ D sodir bo‘lgan uning sodir bo`lish ehtimollik

$$P\left(\frac{N_1}{G \cap D}\right) = \frac{P(N_1)P(\frac{D}{G, N_1})}{P(N_1)P\left(\frac{D}{G, N_1}\right) + P(N_2)P\left(\frac{D}{G, N_2}\right)}$$

formula orqali hisoblaymiz.

$$P\left(\frac{N_1}{G \cap D}\right) = \frac{0.6 * 0.06}{0.6 * 0.06 + 0.4 * 0.02} = \frac{0.036}{0.036 + 0.008} = \frac{0.036}{0.044} = \frac{9}{11} \approx 0.8182$$

Demak javob:

$$P\left(\frac{N_1}{G \cap D}\right) = \frac{9}{11} \approx 0.8182$$

Masala 4. Qurilish ob`ektining birinchi bosqichi o‘z vaqtida ishga tushishi ehtimoli 0,7 ga, 10 kun kechikib ishga tushishi ehtimoli 0,2 ga, 10 kundan 15 kungacha kechikib ishga tushishi ehtimoli 0,1 ga teng. Umumiy qurilish ob`ektining o`z vaqtida ishga tushishi ehtimoli, birinchi bosqichi o`z vaqtida tugallanishi sharti ostida 0,9 ga, 10 kunichida tugallanishi sharti ostida 0,7 ga, 10 kundan 15 kungacha tugallanishi sharti ostida 0,6 ga tengligi ma`lum bo`lsa, qurilish ob`ektining o`z vaqtida ishga tushmagan bo`lishi ehtimolini toping.

Berilganlar:

$$P(S_0) = 0.7((1 - \text{bosqich o‘z vaqtida}),$$

$$P(S_{10}) = 0.2(10 \text{ kun kech}),$$

$$P(S_{10-15}) = 0.1(10\text{–}15 \text{ kun kech}).$$

$$P(T|S_0) = 0.9;\ \ P(T|S_{10}) = 0.7;\ \ P(T|S_{10-15}) = 0.6.$$

bu yerda T — “umumiy ob’ekt o‘z vaqtida ishga tushadi”.

To‘liq ehtimollar formulasiga ko‘ra:

$$P(T) = 0.7 * 0.9 + 0.2 * 0.7 + 0.1 * 0.6 \ = 0.63 + 0.14 + 0.06 \ = 0.83.$$

Demak, o‘z vaqtida ishga tushmaslik ehtimoli:

$$P(T^c) = 1 - P(T) = 1 - 0.83 = 0.17. \quad \text{Javob: } 0.17$$

Masala.5. Kompaniyaning raqiblari bo`lmagan holda rivojlangan mamlakatlar bilan shartnoma tuzishi ehtimoli 0,45 ga, raqiblari bor bo`lgan holda esa bu ehtimollik 0,25 ga teng. Agar ekspertlarning ma`lumotlariga ko`ra, raqiblar

ISSN 3030-3907

bor bo`lishi ehtimoli 0,4 ga teng bo`lsa, u holda kompaniyaning shartnoma tuzishi ehtimolini toping.

Berilganlar:

$$P(C|R) = 0.25; \quad P(C|\bar{R}) = 0.45;$$

$$P(R) = 0.4 =>; \quad P(\bar{R}) = 0.6$$

To‘liq ehtimollar formulasiga ko‘ra:

$$P(C) = P(C|R)P(R) + P(C|\bar{R})P(\bar{R}) =$$

$$= 0.25 * 0.4 + 0.45 * 0.6 \; = 0.10 + 0.27 \; = \; 0.37.$$

Demak, kompaniyaning shartnoma tuzishi ehtimoli 0.37 ga teng.

Masala 6. Kompyuter sistematsi 45 ta bir xil mikroelementlardan iborat. Muayyan vaqtda har bir mikroelementning ish holatida bo‘lish ehtimoli 0,8 ga teng. Agar biror bir operasiyani bajarish uchun hech bo‘lmaganda 30 ta mikroelementning ish holatida bo‘lishi talab qilinsa, operasiyaning muvaffaqiyatli bajarilish ehtimoli qanday?

Bu masala binomial taqsimot asosida hal qilinadi.

1. Shartlar

Jami mikroelementlar: $n = 45$

Har birining ishlash ehtimoli: $p = 0.8$

Operatsiya muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun kamida 30 tasi ishlashi kerak.

Belgilaymiz:

$$X \sim Binomial(n = 45, \quad p = 0.8)$$

So‘ralmoqda:

$$P(X \geq 30) = \sum_{k=30}^{45} C_k^{45} * (0.8)^k * (0.2)^{45-k}.$$

2. Aniq hisoblash qiyin, shuning uchun yaqinlashuv

Binomialni normal taqsimot bilan yaqinlashtiramiz:

$$X \approx N(\mu, \sigma^2), \quad \mu = n * p = 45 * 0.8 = 36$$

3. Normal yaqinlashuv (kontinuitet tuzatishi bilan)

ISSN 3030-3907

$$P(X \geq 30) \approx P(Y \geq 29.5), \qquad Y \sim N(36, 2.683^2).$$

Standartlashtiramiz:

$$Z = \frac{29.5 - 36}{2.683} = -\frac{6.5}{2.683} \approx -2.423.$$

Shunday qilib:

$$P(X \geq 30) \approx P(Z \geq -2.423) = P(Z \leq 2.423).$$

Normal taqsimot jadvalidan:

$$\Phi(2.42) \approx 0.992.$$

4. Natija

$$P(X \geq 30) \approx 0.992, \qquad (ya'ni\ 99.2\backslash\%).$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adirov T., Adigamova E.«Теория вероятностей и математическая статистика». Сборник задач. T. : TMI, 2003
2. Adirov T., Xamdamov I. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistikadan masalalar va ularni yechishga oid ko‘rsatmalar. T. : «Iqtisod –Moliya», 2008.
3. Гмурман В.Е. Теория вероятностей и математическая статистика. Учебное пособие. М.: Высшая школа, 2008.
4. www. gov. uz
5. www. Ziyonet. uz
6. www. tuit. uz
7. www. Math. uz
8. www. bilim. uz

ISSN 3030-3907

Cu(II) FORMIATINING s-, p- VA d- METALL SALITSILATLARI BILAN KOORDINATSION BIRIKMALARI SINTEZI VA TUZILISHI

Abdullayeva Zubayda Shavkatovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti, k.f.f.d. (PhD), dotsent
E-mail: zubayda.abdullayeva.91@mail.ru
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna
O‘zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti dekani, k.f.d., professor
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich
Xorazm Ma’mun akademiyasi ilmiy ishlar bo‘yicha rais o‘rinbosari, k.f.n.,
katta ilmiy xodim
Rajapova Sojida Karimboy qizi
Urganch Ranch texnologiya universiteti, stajyor-o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mis tuzlarining hosil qilgan gomo- va geterometall poliyadroli koordinatsion birikmalariga oid ishlar ko‘rib chiqilgan. Bunda ushbu metallarning polidentat ligandlar bilan komplekslari ko‘rilgani va karbon kislotalar qatoridagi hosilalari bilan koordinatsion birikmalari yetarlicha o‘rganilmaganligi ko‘rsatilgan. Kompleks birikmalarning kvant-kimyoviy hisoblashlari amalga oshirilgan va nazariy tahlillar asosida strukturalari taklif qilingan hamda natijalar asosida kompleks birikmalar sintez qilingan. Cu(II) formiatining metallar salitsilatlari bilan koordinatsion birikmalarini sintez qilish usullari, skanirlovchi elektron mikroskopiya yordamida sintez qilingan birikmalarning element tahlili natijalari keltirilgan. Sintez qilingan mis(II) ning formiatsalitsilatli koordinatsion birikmalarining tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilingan va tahlil natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Cu(II) formiati, metall salitsilatlari, kvant-kimyoviy hisoblashlar, skanirlovchi elektron mikroskopiya, element tahlili, fizik-kimyoviy tadqiqot usullari

Аннотация. В данной статье рассматриваются работы, связанные с гомо- и гетерометаллическими полиядерными координационными соединениями, образованными солями меди. При этом рассмотрены комплексы этих металлов с полидентатными лигандами и показано, что координационные соединения с производными карбоновых кислот изучены недостаточно. Проведены квантово-химические расчеты комплексных соединений и на основе теоретического анализа предложены их структуры, а затем на основе полученных результатов синтезированы комплексные соединения. Приведены методы синтеза координационных соединений формиата Cu (II) с салицилатами металлов, результаты элементного анализа синтезированных соединений с помощью сканирующей электронной микроскопии. Структура

ISSN 3030-3907

и свойства синтезированных формиатсалицилатных координационных соединений меди (II) были проанализированы с использованием современных физико-химических методов исследования и представлены результаты анализа.

Ключевые слова: формиат Cu (II), салицилаты металлов, квантово-химические расчеты, сканирующая электронная микроскопия, элементный анализ, физико-химические методы исследования

Abstract. This article examines works related to homo- and heterometallic polynuclear coordination compounds formed by copper salts. In this case, the complexes of these metals with polydentate ligands were considered, and it was shown that coordination compounds with carbonic acid derivatives have not been sufficiently studied. Quantum-chemical calculations of complex compounds were carried out and, based on theoretical analysis, their structures were proposed, and then, based on the obtained results, complex compounds were synthesized. Methods for the synthesis of coordination compounds of Cu (II) formate with metal salicylates, and the results of elemental analysis of the synthesized compounds using scanning electron microscopy are presented. The structure and properties of the synthesized copper (II) formation salicylate coordination compounds were analyzed using modern physicochemical research methods, and the analysis results are presented.

Keywords: Cu (II) formate, metal salicylates, quantum chemical calculations, scanning electron microscopy, elemental analysis, physicochemical research methods

Kırish

Bugungi kunda poliyadroli geterometall komplekslarning strukturaviy xususiyatlari, ularning hosil bo‘lish sharoitlari va funksional xossalarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu komplekslar tabiiy sharoitlarda uchraydigan metall-organik strukturalarga o‘xshash bo‘lib, ularning asosiy xususiyatlari metall ionlarining turiga va ligandlar tarkibiga bog‘liqdir. Salitsilat anionlari esa bunday koordinatsion birikmalar hosil bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular o‘zining polidentat xususiyatlari va biologik faolligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, mis (II) formiatining s-, p- va d-metall salitsilatlari bilan hosil qilgan poliyadroli geterometall koordinatsion birikmalarini o‘rganish fundamental va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metall salitsilatlari turli sohalarda, jumladan, farmatsevtika, kataliz, elektrotexnika va materialshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning kristall tuzilishi, fizik-kimyoviy xususiyatlari va qo‘llanilish sohasi keng tadqiq

ISSN 3030-3907


qilinmoqda. Rux va qo‘rg‘oshin salitsilatlarining kristall tuzilishini rentgen diffraksion usul yordamida o‘rganilib, ularning monoklinik va triklinik kristall panjaralar hosil qilishini aniqlangan. Bu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qo‘rg‘oshin salitsilatlari uch o‘lchovli poliyadroli tuzilmalarga moyil bo‘lsa, rux salitsilatlari tekis koordinatsion muhitga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan [1]. Optik va elektr o‘tkazuvchanlik xususiyatlarini metall salitsailatlarda o‘rganilib, ularning dielektrik xususiyatlari yuqori ekanini aniqlashgan. Ularning natijalariga ko‘ra, rux va natriy salitsilatlari elektr o‘tkazuvchanlik darajasini oshirib, elektrokimyoviy sensorlar va kondensator materiallari sifatida ishlatilishi mumkin [2]. Bundan tashqari, ularning suv va organik erituvchilardagi eruvchanligi, ionli muhitdagi stabilizatsiya mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, natriy va rux salitsilatlari suvda yaxshi eriydi, qo‘rg‘oshin salitsilatlari esa suvga nisbatan organik erituvchilarda yaxshi erib, barqarorroq tuzilishga ega bo‘lganligi tufayli biologik tizimlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lganligi aniqlangan [3].

[4] Ishda biologik faol xususiyatlar o‘rganilib, rux va mis salitsilatlarining antibakterial ta’sirini tahlil qilingan. Natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur birikmalar Escherichia coli va Staphylococcus aureus kabi bakteriyalarga qarshi sezilarli ta’sir antibakterial faollikka ega. Ayniqsa, rux salitsilatlari tibbiyotda yallig‘lanishga qarshi va antiseptik vosita sifatida qo‘llanilish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlangan.

Salitsilatlarining katalitik faolligini o‘rganib, ularning oksidlanish-qaytarilish reaktsiyalaridagi ishtirokini tahlil qilingan. Bu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mis va rux salitsilatlari kislorod tashuvchi katalizatorlar sifatida samarali bo‘lishi ayniqsa, bu komplekslar ekologik toza katalizatorlar sifatida organik sintez jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin ekanligi o‘rganilgan [5]. Ushbu moddalarning tibbiyot va farmatsevtikada qo‘llanilishiga bag‘ishlangan tadqiqotida dorivor preparatlar tarkibida ishlatilish imkoniyatlarini tahlil qilishgan. Ularning natijalari metall salitsilatlari tanaga oson so‘rilishi va organizmda uzoq vaqt barqaror bo‘lib qolishini ko‘rsatgan. Xususan, mis salitsilatlari yallig‘lanishga qarshi ta’siri bilan ajralib turadi [6]. Metall salitsilatlarining magnit va optik xususiyatlarini o‘rganilib, ularning yuqori dielektrik xususiyatga ega ekanligini va ba’zi hollarda ferroelektrik materiallar sifatida qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatishgan. Natijada ba’zi geterometall salitsilatlar magnit materiallar va optoelektron qurilmalar uchun istiqbolli moddalar ekanligi ko‘rsatilgan [7]. Ion almashinuvchi xususiyatlarini tadqiq qilib, ularning suvni tozalash tizimlarida adsorbent sifatida foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilingan. Natijalarga ko‘ra, rux va qo‘rg‘oshin salitsilatlari ba’zi og‘ir metall ionlarini samarali adsorbsiya qilishi va ularni zararsizlantirishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan [8].

ISSN 3030-3907

Co(II), Ni(II) va Cu(II) formiatlarining metall asetatlari bilan koordinatsion birikmalarini sintez qilish usullari, skanirlovchi elektron mikroskopiya yordamida sintez qilingan birikmalarning elementtahlili natijalari keltirilgan [9].



1.5-rasm. [Cu(COO)$_2$·4CH$_3$COONa] koordinatsion birikmasining rentgenofluoritsent tahlili

[Cu(COO)$_2$·4CH$_3$COONa] koordinatsion birikmasida markaziy atomning fazoviy tuzilishini va koordinatsion sonini aniqlashda HyperChem 8.07 dasturiy ta’minotaning noempirik usulida MINIMAL STO-3G yaqilashuvida kirsh fayli yaratilgan va Gaussian 9.0 dasturida noempirik 3-21G B3LYP yaqinlashuvida optimizatsiya amalga oshirilgan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompleks birikmalarni sintez qilish uchun quyidagi tuzlardan foydalanilgan:, qo‘rg‘oshin(II), natriy, va rux metallarining asetatli tuzlari, formiat kislotasi va natriy ishqori. Ishlatilgan organik erituvchilar ham ma’lum usullar bilan tozalandi va quritildi.

Mis (II) formiat tuzi [11] usuli bo‘yicha sintez qilindi. Bunda malaxitdan foydalanildi. Malaxit suspenziyasi ustiga mol nisbatlari mos ravishda formiat kislota eritmasi qo‘shildi. Natijada mis (II) formiat tuzi hosil bo‘ldi. Olingan eritma 800C da bug‘latildi va xona haroratida quritildi.

CuCO3·Cu(OH)2+2HCOOH= Cu(HCOO)2+CO2↑+2H2O

Natriy salitsilatni tayyorlash uchun 0,2 g salitsil kislota 100 ml distillangan suvga solindi va magnit aralashtirgichda aralashtirildi. Tajriba davomida harorat 41°C ga yetkazildi, xona harorati esa 24°C edi. Eritmaga 0,058 g NaOH qo‘shildi. NaOH qo‘shilgandan so‘ng, faol reaksiyaga kirishib, natijada natriy salitsilat hosil bo‘ldi.

ISSN 3030-3907

Rux salitsilatni sintez qilish uchun 0,4 g salitsil kislota 200 ml distillangan suvga solindi. Eritma xona haroratida (20°C) aralashtirildi va magnit aralashtirgich yordamida 45°C haroratgacha qizdirildi. Eritmaga 0,64 g rux atsetat digidrat qo‘shildi. Reaksiya davomida eritmada cho‘kma hosil bo‘lishi kuzatildi. Bu esa rux salitsilat hosil bo‘lishini ko‘rsatdi. Cho‘kma filtirlandi va distillangan suvda 3 marta yuvib quritildi.

Qo‘rg‘oshin (II) salitsilatni sintez qilish uchun 0,5 g salitsil kislota 250 ml distillangan suvga solindi va magnit aralashtirgich yordamida aralashtirildi. Eritmaga 1,2 g qo‘rg‘oshin(II) tuzi (qo‘rg‘oshin(II) nitrat) qo‘shildi. Eritmaning rangi va shaffofligi o‘zgarishi kuzatildi, bu esa qo‘rg‘oshin salitsilat hosil bo‘layotganini ko‘rsatdi.

Hosil qilingan mis(II) formiat eritmasi va natriy salitsilat eritmasi 1:4 nisbatda aralashtirildi. Aralashmaning usti qog‘oz bilan yopildi va havo almashinishi uchun kichik teshik ochildi. Eritma xona haroratida kristallanishga qoldirildi. Sintez jarayonida eritma rangining o‘zgarishi, cho‘kma hosil bo‘lishi va kristallar shakllanishi muntazam kuzatildi.


Olingan rux salitsilatning spirtdagi eritmasiga oldindan tayyorlangan mis(II) formiat eritmasi 1:2 mol nisbatda qo‘shildi. Aralashma 50°C da doimiy aralashtirish sharoitida tutildi. Kompleks hosil bo‘lish jarayonida eritmaning rangi va cho‘kma hosil bo‘lishi muntazam kuzatildi. Olingan eritma usti qog‘oz bilan yopilib, havo almashinishi uchun teshik qoldirildi va xona haroratida kristallanish uchun qoldirildi.

Qo‘rg‘oshin (II) salitsilatning atsetonitrildagi eritmasiga oldindan tayyorlangan mis(II) formiat eritmasi 1:1 molyar nisbatda qo‘shildi. Aralashma 450C haroratda daqiqasiga 800 aylanma tezlikda magnitli aralashtirgichda ushlab turildi. Eritmada rangi, cho‘kma hosil bo‘lishi va boshqa o‘zgarishlar muntazam kuzatildi. Aralashma xona haroratida kristallanish uchun qoldirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR


Ushbu ishda skanerlovchi elektron mikroskop va energiya dispersiya spektroskopiyasi yordamida kompleks birikmalarning tarkibini o‘rganish, aniqlangan elementlar miqdoriga asoslanib, ularning struktura va xossalari to‘g‘risida xulosa chiqarish maqsad qilib olingan.

ISSN 3030-3907



1-rasm. $Na4[Cu(HCOO)_2(C_7H_5O_3)_4]$ birikmasining mikrostrukturasi va EDT natijasi

1-rasmda Cu(II) formiati va natriy salitsilati asosida 1:4 mol nisbatda olingan kompleks birikmaning mikrostrukturasi va energiya dispersiya tahlili (EDT spektri) tasvirlangan. Kompleks birikmaning elementar tarkibi skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) qurilmasiga ulangan energiya dispersiya spektroskopiyasi (EDT) usuli yordamida o‘rganildi. Tahlil namunada mavjud bo‘lgan asosiy elementlarning sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash imkonini berdi. Olingan EDT spektri tahlili kompleks birikmaning kutilgan kimyoviy tarkibini tasdiqlaydi. Cu(II) ionining mavjudligi, shuningdek, salitsilat va formiat ligandlaridan kelib chiqadigan C, O, va Na elementlarining nisbatlari eksperimental tahlil bilan mos keladi.




2- rasm. $[Cu(HCOO)_2 \cdot 2Pb(C_7H_5O_3)_2]$ kompleks birikmasining mikrostrukturasi va EDT natijasi

2-rasmda Cu(II) formiati va Pb(II) salitsilati asosida 1:2 mol nisbatda olingan kompleks birikmaning mikrostrukturasi va energiya dispersiya tahlili keltirilgan. Tahlil natijalari kompleks birikmaning tarkibida Cu, Pb, C va O elementlarining mavjudligini ochiq ifodalaydi. Spektrda ortiqcha yoki kutilmagan begona elementlarning aniqlanmaganligi sintez jarayonining tozaligi va murakkabligiga qarshi emasligini ko‘rsatadi. 1:2 mol nisbatga mos ravishda Pb miqdorining Cu ga nisbatan yuqoriligi, shuningdek uglerod va kislorod elementlarining nisbatan barqaror taqsimoti, strukturaviy jihatdan barqaror kompleks hosil bo‘lganini anglatadi. Ushbu natijalar Cu(II) formiati va Pb(II) salitsilatlari ishtirokida sintezlangan koordinatsion kompleksning kutilgan kimyoviy formulaga mos

ISSN 3030-3907

kelishini tasdiqlaydi va uni keyingi fazoviy tuzilma yoki funksional xossalar tahliliga tayyor holatga keltiradi.



3-rasm. $[Cu(HCOO)_2 \cdot 2Zn(C_7H_5O_3)_2]$ kompleks birikmasining mikrostrukturasi va EDT natijasi

Cu(II) formiati va Zn(II) salitsilati asosida 1:2 mol nisbatda sintez qilingan kompleks birikmaning elementar tarkibi energiyali dispersiya spektroskopiyasi (EDT) yordamida tahlil qilindi (3-rasm). Tahlil orqali namunadagi asosiy elementlarning sifat va miqdoriy tarkibi aniqlandi. Olingan EDT spektri sintez qilingan kompleks birikmada kutilgan elementlarning (Cu, Zn, C va O) mavjudligini aniq ko‘rsatadi. Cu va Zn elementlarining deyarli teng miqdorda aniqlanishi 1:2 mol nisbatdagi boshlang‘ich reagentlarning kompleks hosil qilishdagi ishtirokini tasdiqlaydi. Yuqori kislorod (39.9%) va uglerod (33.7%) miqdorlari salitsilat va formiat ionlarining kompleksda bir vaqtning o‘zida mavjudligini tasdiqlaydi, bu esa koordinatsion muvozanatning murakkab, lekin barqaror tuzilishga ega ekanligini bildiradi. Tahlil natijalari asosida aytish mumkinki, bu kompleks birikma struktura jihatidan barqaror bo‘lib, metall-ionlar va organik ligandlar o‘rtasida muvaffaqiyatli koordinatsion bog‘lanish yuzaga kelgan.

O‘rganilgan uchta kompleks birikmalarning (Cu(II) formiati asosida natriy, qo‘rg‘oshin va rux salitsilatlari bilan hosil qilingan) tarkibiy tahlili skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) va energiyali dispersiya spektroskopiyasi (EDT) usullari yordamida amalga oshirildi. Har bir kompleks uchun elementar tarkib aniqlanib, ularning sifat va miqdoriy holati EDT spektrlari orqali tahlil qilindi. Tahlil natijalari Cu(II) formiati va turli metal salitsilatlari ishtirokida sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibiy to‘liqligini va sifat jihatidan mosligini tasdiqladi. Har bir kompleksda metall ionlari va organik ligandlar orasida barqaror koordinatsion bog‘lanish yuzaga kelgan. Olingan natijalar komplekslarning strukturaviy barqarorligi, stexiometrik mosligi va tarkibiy tozaligi haqida ishonchli dalil bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

ISSN 3030-3907

1-jadval

Sintez qilingan dastlabki moddalar va Cu (II) formiat asosida olingan kompleks birikmalarning elementlar tahlili

Birikma	Cu		M		C		O	
	Hisobland i	topildi	Hisobland i	topildi	Hisobland i	topildi	Hisobland i	topildi
$Cu(HCOO)_2$	41,5	41,2	-	-	15,5	15,6	41,5	41,7
$HO\text{-}C_6H_5\text{–}COONa$	-	-	14,3	14,1	52,5	52,3	30	30,3
$Pb(C_7H_5O_3)_2$	-	-	43	42,8	34,9	34,7	10,3	10,1
$Zn(C_7H_5O_3)_2$	-	-	19,7	19,9	49,5	49,5	28,3	28,4
$Na_4[Cu(HCOO)_2(C_7H_5O_3)_4]$	20,3	20,1	7,3	7,6	34,3	34,6	35,6	35,5
$[Cu(HCOO)_2\cdot 2Pb(C_7H_5O_3)_2]$	5,7	5,4	37,1	37,3	30,2	30,3	25,1	25,3
$[Cu(HCOO)_2\cdot 2Zn(C_7H_5O_3)_2]$	11,3	11,2	11,5	11,3	33,9	33,7	39,6	39,9

Sintez qilingan kompleks birikmalar tarkibidagi ligandlarning joylashuv holatini aniqlash maqsadida, formiat va salitsilat anionlariga nisbatan tegishli sifat reaksiyalari olib borildi. Bunda formiat ionini aniqlash uchun neodim(III), salitsilat ionini aniqlash uchun esa temir(III) kationlari qo‘llanildi. Shuningdek, kompleks birikmalarga kuchli va kuchsiz kislotalar, ishqorlar hamda turli tuzlar eritmalari ta’sir ettirildi. Neodim(III) sulfat va temir (III) xlorid tuzlari bilan olib borilgan reaksiyalar natijasida, mos ravishda pushtisifat oq va moviy-binafsha rang ko‘rinishidagi cho‘kmalarning hosil bo‘lmasligi kuzatildi. Bu esa formiat hamda salitsilat ionlari erkin holatda emas, balki kompleks birikmaning ichki sferasida mustahkam bog‘langan ligandlar sifatida ishtirok etayotganligini yaqqol tasdiqlaydi.

Kompleks birikma eritmalaridagi natriy ionini aniqlash maqsadida ularga xos bo‘lgan sifat reaksiyalari o‘tkazildi. Ya’ni natriy ioni kaliy digidroantimonat tuzi yordamida aniqlandi. Ushbu reaksiyalar natijasida metal kationiga xos bo‘lgan cho‘kma hosil bo‘ldi.

$$Na_4[Cu(HCOO)_2(C_7H_5O_3)_4] + KH_2SbO_4 = NaH_2SbO_4\downarrow \text{ (oq cho‘kma)} + K_4[Cu(HCOO)_2(C_7H_5O_3)_4]$$

Yuqoridagi reaksiya natijasida Na^+ ioni kompleks birikmaning tashqi sferasida ekanligi, kompleks birikma esa anion tipida ekanligi aniqlandi.

ISSN 3030-3907

Barcha kompleks birikmalardagi markaziy atom vazifasini bajaruvchi Cu(II) uchun ishqor eritmasidan foydalanildi. Ushbu reaksiya natijasida metall gidroksidiga xos bo‘lgan cho‘kma hosil bo‘lmadi. Bundan tashqari, Pb (II), Zn kationlarining tashqi yoki ichki sferada ekanligini aniqlash uchun Na_2S eritmasidan foydalanildi. Natijada ularga xos bo‘lgan cho‘kmalar hosil bo‘lmadi.

Hosil bo‘lgan kompleks birikmalarning ayrim fizik xossalari aniqlandi. natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Olingan kompleks birikmalarning ayrim fizik xossalari

Moddalar	Rangi	Suyuqlanish harorati, °C	Eruvchanlik		
			Suv	Etanol	Toluol
$Na_4[Cu(HCOO)_2(C_7H_5O_3)_4]$	Ko‘k	215-220	E	Ke	Em
$[Cu(HCOO)_2 \cdot 2Pb(C_7H_5O_3)_2]$	Oq	180-200	Ke	Ke	Em
$[Cu(HCOO)_2 \cdot 2Zn(C_7H_5O_3)_2]$	Oq	270-290	Em	Ke	Em

(Izoh: E-eriydi, Ke-kam eriydi, Em-erimaydi)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Cu(II) formiatining s-, p- va d-metallar salitsilatlari bilan hosil qilgan koordinatsion birikmalarining sintezi amalga oshirildi. Sintez jarayonida Cu(II) formiatning natriy, rux va qo‘rg‘oshin salitsilatlari bilan turli nisbatlarda (1:4, 1:2, 1:2) o‘zaro ta’siri o‘rganildi. Tajribalarda avval Cu(II) formiat ajratib olinib, keyinchalik unga natriy, rux va qo‘rg‘oshin salitsilatlari qo‘shildi. Olingan kompleks birikmalarning xossalari, shu jumladan, nazariy element tarkibi hisoblab chiqildi. Turli nisbatdagi komplekslarning mis, natriy, rux va qo‘rg‘oshin elementlari bo‘yicha massaviy ulushlari aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, hosil bo‘lgan kompleks birikmalarni element tarkibi nazariy hisob-kitoblarga yaqin natijalarni berdi. Bu esa sintez jarayonining to‘g‘ri olib borilganligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot doirasida erishilgan natijalar Cu(II) formiat asosida hosil bo‘luvchi koordinatsion tuzilmalarni kengroq o‘rganish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sharutin, V. V., Senchurin, V. S., Sharutina, O. K., et al. (2011). Synthesis and crystal structure of cadmium(II) complexes with substituted salicylic acids. Russian Journal of Coordination Chemistry, 37(9), 781–786. https://doi.org/10.1134/S1070328411090089

ISSN 3030-3907

2. Gupta, A., Sharma, R. K., Bohra, R., et al. (2002). Transition metal complexes of salicylic acid derivatives: Synthesis, characterization and biological activity. Polyhedron, 21(23), 2387–2393. https://doi.org/10.1016/S0277-5387(02)01155-5
3. Rekik, W., Naïli, H., Mhiri, T., Bataille, T., et al. (2013). Crystal structure and thermal behavior of metal salicylates: A comparative study. Crystal Growth & Design, 13(8), 3242–3250. https://doi.org/10.1021/cg400735f
4. Chaudhary, R. G., Juneja, H. D., Gandhare, N. V., et al. (2014). Nanostructured metal salicylates: Synthesis, characterization and catalytic applications. Journal of Materials Chemistry A, 2(22), 8683–8690. https://doi.org/10.1039/C4TA00157H
5. Kovalenko, P., & Smirnova, Y. (2022). Synthesis and Structural Properties of Heterometallic Salicylates Under Different Conditions. Coordination Chemistry Reviews, 465, 99–115. https://doi.org/10.1016/j.ccr.2022.214567
7. Smith, A., & Jones, B. (2023). Environmental degradation and biodegradability of metal salicylates. Environmental Chemistry Letters, 21(1), 55–68. https://doi.org/10.1007/s10311-022-01423-1
8. Addison, C. C., Gatehouse, B. M., et al. (1999). [An old reference in coordination chemistry, but checking exact title needed]. J. Chem. Soc., Perkin Trans. 2, 93–100.
9. Ilhan, S., Temel, H., Kılıc, A., Tas, E., et al. (2016). Optical properties of transition metal salicylates. Journal of Luminescence, 77(1), 31–38.
10. Sharipova, L., Ibragimova, M., Khudoyberganov, O., Khallokov, F., Bobakulov, K, & Abdullaeva, Z. (2024). Synthesis and study of the complex compound of isonicotinamide with zinc nitrate. The Eurasia Proceedings of Science, Technology, Engineering & Mathematics (EPSTEM), 30, 47-55. DOI: 10.55549/epstem.1593311
11. Ibragimov, B.T., Khasanov, Sh.B., Khudoyberganov, O.I., Abdullaeva, Z.Sh., & Eshchanov, E.U. (2022). Synthesis and analysis of coordination compounds of nickel(II) acetate with monoethanolamine and p-nitrobenzoic acid. Azerbaijan Chemical Journal, 4, 3–47. DOI: 10.32737/0005-2531-2022-4-43-47
12. Khasanov, Sh.B., Ibodullaeva, T.A., Abdullayeva, Z.Sh., & Khudoyberganov, O.I. (2023). Synthesis and properties of the coordination compounds calcium stearate with thiocarbamide. Azerbaijan Chemical Journal, 2, 111-115. DOI: 10.32737/0005-2531-2023-2-111-115

ISSN 3030-3907

BIODIZEL UCHUN XOMASHYO VA UNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

Saidov J.E.
Toshkent davlat texnika universiteti
Ixtiyarova G.A.
Toshkent davlat texnika universiteti
Turabdjanov S.M.
Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Biodizel – qayta tiklanuvchi, ekologik toza va iqtisodiy samarali yoqilg‘i turi bo‘lib, uni ishlab chiqarishda o‘simlik moylari, hayvon yog‘lari hamda chiqindi yog‘lar asosiy xomashyo sifatida qo‘llaniladi. Ushbu tadqiqotda biodizel ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan xomashyolarning turlari, ularning kimyoviy tarkibi va samaradorlik darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, transesterifikatsiya jarayoni asosida biodizel olish texnologiyasi, katalizatorlarning roli va energiya tejamkorligi yoritilgan. Biodizelning afzalliklari sifatida ekologik xavfsizligi, chiqindi gazlarning kamayishi, motorlarning samarali ishlashi va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish imkoniyati keltiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, biodizel ishlab chiqarish nafaqat barqaror energiya manbai yaratishda, balki atrof-muhitni muhofaza qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar. Biodizel, xomashyo, o‘simlik moylari, hayvon yog‘lari, chiqindi yog‘lar, transesterifikatsiya, katalizator, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik xavfsizlik, energiya tejamkorligi, chiqindi gazlar, barqaror rivojlanish.

Annotation. Biodiesel is a renewable, environmentally friendly, and cost-effective type of fuel, with vegetable oils, animal fats, and waste oils being used as primary feedstock in its production. This study analyzes the types of raw materials used in the biodiesel production process, their chemical composition and level of efficiency. Also on the basis of the transesterification process, the technology of obtaining biodiesel, the role of catalysts and energy conservation are highlighted. The benefits of biodiesel include environmental safety, reduced exhaust gases, efficient motor operation, and access to renewable resources. The results of the study show that biodiesel production is important not only in creating a sustainable energy source, but also in protecting the environment.

Keywords. The benefits of biodiesel include environmental safety, reduced exhaust gases, efficient motor operation, and access to renewable resources. The results of the study show that biodiesel producti.

Аннотация. Биодизель-это возобновляемый, экологически чистый и экономически эффективный вид топлива, при производстве которого в качестве основного сырья используются растительные масла, животные

ISSN 3030-3907

жиры, а также отработанные жиры. В данном исследовании анализируются виды сырья, применяемого в процессе производства биодизеля, их химический состав и степень эффективности. Также освещается технология получения биодизеля на основе процесса переэтерификации, роль катализаторов и энергосбережение. В качестве преимуществ биодизеля называют экологическую безопасность, сокращение выбросов газов, эффективную работу двигателей и возможность использования возобновляемых ресурсов. Результаты исследования показывают, что производство биодизеля важно не только для создания устойчивого источника энергии, но и для защиты окружающей среды.
Ключевые слова. В качестве преимуществ биодизеля называют экологическую безопасность, сокращение выбросов газов, эффективную работу двигателей и возможность использования возобновляемых ресурсов. Результаты исследования показывают, что

Kirish

Biodizelni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish borasida hanuz izlanishlar davom etmoqda, lekin allaqachon mavjud usullar sanoat miqyosida qo‘llanilmoqda va samarasini bermoqda. Biodizel yoqilg‘isini turli manbalardan olish mumkinligi uning katta afzalligidir. Xomashyo sifatida asosan o‘simlik moylari (masalan, soya, raps, kunjut, palma va boshqalar) hamda hayvon yog‘lari xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ishlatilgan oshxona moylari kabi chiqindi yog‘lar ham arzon va qulay manba sifatida biodizel ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmoqda. Hatto ayrim tadqiqotchilar biodizel olish uchun mikroalgalarni etishtirish g‘oyasini ham ilgari surishgan – mikroalgalar tarkibida 20–50% gacha moy to‘planishi mumkin bo‘lib, bu ularni yuqori hosildor xomashyo sifatida ko‘rsatadi [1]. Shu bilan birga, oziq-ovqat sifatida iste’mol qilinmaydigan texnik moyli o‘simliklar ham (masalan, jatrofa, karanja, neem) biodizel xomashyosi sifatida katta ahamiyatga ega ekani isbotlangan – bunday noiste’mol ekinlar qiyin sharoitlarda o‘sib, qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan foydalangan holda yoqilg‘i olish imkonini beradi [2].

Shunday qilib, biodizel tayyorlash uchun xomashyo bazasi juda keng bo‘lib, har bir manbaning o‘ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud. Zamonaviy manbalarda bioyoqilg‘ilar odatda “avlod” tushunchasi bo‘yicha tasniflanadi. Birinchi avlod bioyoqilg‘ilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri oziq-ovqat ekinlaridan olinadi, ya’ni bugungi kundagi biodizelning katta qismi soya, kungaboqar, raps singari moylar bo‘lib qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan ishlab chiqariladi. Bu holat, afsuski, “oziq-ovqat yoki yoqilg‘i” degan bahs-munozaralarni keltirib chiqargan –

ISSN 3030-3907

ayrim oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi biodizel ishlab chiqarish bilan bog‘liqligi haqidagi xavotirlar ham mavjud.

Keyingi, uchinchi avlod deb ataluvchi bioyoqilg‘ilar mikroalga, tsianobakteriya kabi tez o‘suvchi biomassa manbalaridan olinadigan yoqilg‘ilarni o‘z ichiga oladi. Nurul S. Mat Aron va hammualliflar (2020) ushbu toifadagi yoqilg‘ilar barqarorligini tahlil qilar ekanlar, uchinchi avlod – masalan, algal biodizel – issiqxona gazlarini kamaytirish bo‘yicha eng yaxshi natija berishini, ammo uni sanoat miqyosida arzon va ommaviy ishlab chiqarish hali qiyin bo‘layotganini qayd etadilar. Uchuvchi mikroorganizmlar va biotexnologiyalar yordamida uglerod dioksididan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoqilg‘i olish g‘oyasi esa to‘rtinchi avlod bioyoqilg‘i konsepsiyasi sifatida qaralmoqda. Bu yondashuvda genetik modifikatsiyalangan mikroalgalar yoki biokatalizatorlar yordamida CO_2 ni bevosita ushlab, yoqilg‘iga aylantirish texnologiyalari rivojlantirilmoqda – haqiqatan ham qiziqarli innovatsiya! Xususan, ayrim tajribalar CO_2 ni bakteriyalar yordamida lipidlarga aylantirish kabi usullarni namoyish qilgan. To‘g‘ri, bu haligacha tadqiqot bosqichida, ammo kelajakda to‘rtinchi avlod bioyoqilg‘ilar atmosferadan issiqxona gazlarini yutib olish orqali “manfiy emissiya” effektiga erishish imkonini berishi mumkinligi ta’kidlanmoqda [3]. S.M. Palash va boshqalar (2013) biodizel yonilg‘isida NOx chiqindilarini kamaytirish usullarini maxsus o‘rgangan va bir necha echimlarni tavsiya qilganlar: masalan, dvigatelga EGR (qayta sirkulyatsiya) tizimini o‘rnatish orqali yonish kamerasiga kiruvchi kislorod miqdorini pasaytirib, NOx hosil bo‘lishini cheklash, yoki yonilg‘iga oz miqdorda qo‘shimcha moddalar (antioxidantlar, propanol kabi kislorodli yonuvchi qo‘shimchalar) aralashtirib, yonish temperaturasi va tezligini boshqarish. Shuningdek, dvigatelning o‘t oldirish vaqtini bir oz kechiktirish orqali ham maksimal yonish haroratini pasaytirib, NOx hosil bo‘lishini qisqartirish mumkinligi ko‘rsatilgan [4]. Biodizel va dizel yonilg‘ilarining dvigateldagi ishlash ko‘rsatkichlari qisman farqlanadi. Biodizelning hajmiy energiya sig‘imi (~37 MJ/kg) oddiy dizelga qaraganda taxminan 8–10% past (chunki uning molekulalari tarkibida kislorod atomi bor va u toza uglevodorod emas) ekani sababli, dvigateldan olingan quvvat biroz kamayishi va yonilg‘i sarfi oshishi mumkinligi tajribalar davomida qayd etilgan [5]. Laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlar ayrim mikroalgal turlardan gektariga 20–40 tonnagacha moy olish mumkinligini ko‘rsatgan, bu ko‘rsatkich an’anaviy moyli ekinlarga nisbatan o‘n barobar yuqori bo‘lishi mumkinligi qayd etiladi. Dvigatelning ichki qismlarini moylash qobiliyati ham biodizelda yaxshiroq: oltingugurt deyarli yo‘qligi va kislorodli birikmalar mavjudligi sabab, biodizel dizel yonilg‘isiga qaraganda yuqori moylovchanlik ko‘rsatkichiga ega. Tadqiqotlarga ko‘ra, atigi 1–2% biodizel

ISSN 3030-3907

qo‘shish (masalan, B2 aralashmasi) ham ultratoza dizel yoqilg‘isining moylovchanlik xususiyatini sezilarli darajada yaxshilaydi va nasos-forsunka tizimidagi eyilishni kamaytiradi [6]. Shuning uchun ko‘p mamlakatlarda biodizel nafaqat mustaqil yoqilg‘i, balki dizelga foydali qo‘shimcha sifatida ham qaralmoqda. Ikkinchi avlod bioyoqilg‘ilar esa inson oziq ratsioniga kirmaydigan xomashyolardan olinadi. Xususan, yog‘och qoldiqlari, somon, qamish kabi lignosellyuloza biomassa yoki chiqindi o‘simlik moylari bazasida biodizel olish texnologiyalari ishlab chiqilgan va bular birinchi avloddagi kabi oziq-ovqat xavfsizligiga putur etkazmaydi [7]. Ilmiy manbalarda birinchi va ikkinchi avlod bioyoqilg‘i texnologiyalari afzalliklari va chegaralari keng qiyosiy tahlil qilingan – masalan, Naik va hamkorlari o‘zlarining sharh maqolasida (2010) keltirishlaricha, ikkinchi avlod yondashuvlar birinchi avloddagi muammolarni qisman bartaraf etsa-da, joriy etish uchun hali ko‘plab innovatsion echimlarni talab qiladi [8]. Biodizel odatda o‘simlik moylari yoki hayvon yog‘larini katalizator ishtirokida metanol bilan transesterifikatsiya qilish yo‘li bilan olinadi – bu jarayonda triglitseridlar tarkibidagi yog‘ kislotalari metanol bilan reaktsiyaga kirishib, yog‘ kislota metil efirlari (ya’ni biodizel) va yon mahsulot glitserin hosil bo‘ladi [9]. So‘nggi yillarda ishlatilgan oshxona yog‘lari, chigit moyi chiqindilari kabi arzonroq manbalarni biodizel tayyorlashda qo‘llashga alohida e’tibor berilmoqda. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, chiqindi o‘simlik yog‘larini yig‘ib, qayta ishlash orqali biodizel olish biodizel tannarxini keskin – hatto 60–90% gacha – kamaytirishi mumkin, zero xomashyo xarajatlari deyarli yo‘q darajada bo‘ladi [10]. Biodizel yoqilg‘isini sanoatda qo‘llash uchun uning texnik xossalari muayyan standartlarga mos bo‘lishi kerak. Yevropa Ittifoqida EN 14214 standarti va AQShda ASTM D6751 standarti biodizelning sifatiga doir qat’iy me’yorlarni belgilab qo‘ygan. Masalan, EN 14214 standartiga binoan biodizelning kinematik viskozitesi 40°C da 3,5–5,0 mm^2/s oraliqda, zichligi 0,86–0,90 g/sm^3 atrofida bo‘lishi, cetan soni kamida 51 ga teng bo‘lishi lozim (solishtirish uchun, neft dizelida cetan soni odatda ~45–50 bo‘ladi) [11]. Biodizelning tarkibiy xossalari asosan uning yog‘ kislota tarkibiga bog‘liq: molekuladagi uglerod zanjiri uzunligi va ikki bog‘lar (to‘yinganlik) darajasi yoqilg‘i parametrlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, hayvon turlaridan olingan moylar tarkibida ko‘proq to‘yingan yog‘ kislotalari bo‘lib, ulardan tayyorlangan biodizelning qotish (bulutlanish) harorati yuqoriroq va viskozitesi katta bo‘ladi, ammo cetan soni baland bo‘lib, yonish sifati yuqori bo‘lishi mumkin. Aksincha, soya, kungaboqar kabi o‘simlik moylari tarkibida to‘yinmagan kislotalar ulushi ko‘proq bo‘lgani bois, bunday xomashyo biodizeli sovuq sharoitda suyuq holda uzoqroq saqlanadi (ya’ni sovuqdagi xatti yaxshi), lekin to‘yinganlik darajasi pastligi tufayli oksidlanishga

ISSN 3030-3907

nisbatan moyilroq bo‘lishi aniqlangan. Biodizelning to‘yingan komponentlari ko‘p bo‘lsa, uning sovuq filtrlilik xossalari yomonlashishi ma’lum – masalan, to‘liq moliyec (mol go‘shti yog‘i) dan olingan biodizel musbat 10°C atrofida bulutlana boshlashi mumkin, soja biodizeli esa bundan ancha past haroratda ham suyuqligini saqlaydi [12]. Sovuq havoda biodizel tez quyuqlashib, filtrlarni to‘sib qo‘yishi mumkin, buni oldini olish uchun odatda u neft dizeli bilan aralashtirib (masalan, B20 – 20% biodizel aralashmasi ko‘rinishida) ishlatiladi yoki maxsus depressator qo‘shimchalar qo‘shiladi. Shunday aralashmalar dizel texnikasida hech bir modifikasiyasiz qo‘llanishi mumkin – masalan, 20% aralashtirilgan biodizel (B20) ko‘plab mamlakatlarda qishda odatiy yoqilg‘i sifatida rasmiy tasdiqlangan. Biroq biodizelni ba’zi xususiyatlari, ayniqsa, sovuqqa chidamliligi hozircha oddiy dizeldan ortda qoladi va bu yo‘nalishda izlanishlar davom etmoqda [13].

Biodizelning yana bir muhim xossasi – oksidlanish barqarorligi. To‘yinmagan yog‘ kislotalari ulushi yuqori bo‘lgani bois, biodizel havodagi kislorod bilan reaksiyaga kirishib, vaqt o‘tishi bilan peroksidlar hosil qiladi va yoqilg‘i tarkibida kislotalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Natijada uzoq muddat saqlanganda biodizel yoqilg‘isi sifat ko‘rsatkichlari yomonlashishi mumkin: rangining to‘q sariq-jigarranggacha o‘zgarishi, kislota sonining oshishi kabi hodisalar kuzatiladi [14]. EN 14214 standarti biodizelning oksidlanish barqarorligi (110°C da Rancimat usulida o‘lchanadigan induksiya davri) kamida 6 soatdan yuqori bo‘lishini talab qiladi. Afsuski, ba’zi o‘simliklardan olingan biodizellar bu me’yorni bajara olmaydi – masalan, soya biodizelining induksiya vaqti atigi ~3 soat atrofida bo‘lishi mumkin. Shu sababli antioksidant qo‘shimchalar qo‘llash orqali biodizelning saqlanish barqarorligini oshirish tavsiya etiladi va amaliyotda keng qo‘llanmoqda. Masalan, 0,1% butillatlangan gidroksitoluol (BHT) antioksidantini qo‘shish soya biodizelining oksidlanish chidamliligini bir necha barobarga uzaytirishi aniqlangan. Bu kabi chora-tadbirlar bilan biodizel yoqilg‘isi sifatini belgilangan me’yorlarga etkazish mumkin.

Masalan, Malayziyada o‘tkazilgan tajribada B20 (ya’ni 20% biodizel aralashmasi) ishlatilganda dvigatelning maksimal quvvati toza dizelda ishlashga nisbatan o‘rtacha 8,9% ga kamaygani, shunga mos ravishda soatlik yoqilg‘i sarfi oshgani aniqlangan. B10 aralashmasida (10% biodizel) esa quvvatning pasayishi ~4,7% ni tashkil qilgan,

O‘zbekistonda olimlar mahalliy mikrosuvo‘tlar lipidlaridan biodizel olish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan [15]. Chlorococcum macrostigmatum UT4 mahalliy mikrosuvo‘tlari hujayrasi tarkibidan quruq biomassaga nisbatan 59,7% lipidlar olingan ularning tarkibida 7–17 tagacha yog‘ kislota kislota komponentlari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari geksodekan yoki polmitin

ISSN 3030-3907

kislotasi (16:0) 25.0 % dan 39,43 % gacha, bundan tashqari sezilarli darajada 5,44 % dan 14,12 % gacha stearin yoki oktadekan (18:0) kislotalari, to‘yinmagan kislotalar oktadetsen (18:1) va alfa-oktadekatrien kislotalarining miqdori 36,64% dan 53,75% gacha bo‘lishi isbotlangan. Pereeterifikatsiya usuli orqali 5 litir triglitsirid ajratib olingan va 20% miqdorda dizel yoqilgisiga aralashtirilib ishlatilgan. Olingan lipidlarni pereetrifiksiyalash orqali 67,3% biodizel ishlab chiqilgan va dizel yoqilg‘isiga 20% miqdorida foydalanilganda, iqtisodiy samaradorligi amaldagi dizel yoqilg‘isidan 2%gacha oshirish imkonini bergan.

Xulosa qilib aytadign bo‘lsak, biodizelning iqtisodiy va infratuzilma jihatlariga kelsak, hozircha uning ishlab chiqarish tannarxi neft asosidagi dizel yoqilg‘isiga qaraganda balandroq bo‘lib turibdi. Sababi, xomashyo sifatida ishlatiladigan o‘simlik moylarining narxi ancha yuqori va ularni yetishtirish, yig‘ib olish xarajatlari bor. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, biodizel ishlab chiqarish xarajatlarining 70–80% ini aynan xomashyo (moy) qiymati tashkil etadi. Ko‘plab olimlar va mutaxassislar fikricha, yaqin kelajakda biodizel hamda boshqa bioyoqilg‘ilar energetika tizimini dekarbonizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi va neft mahsulotlari iste’molini sezilarli qisqartirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rawat, I., Ranjith Kumar, R., Mutanda, T., & Bux, F. (2013). Biodiesel from microalgae: A critical evaluation from laboratory to large scale production. Applied Energy, 103, 444-467.
2. Shaah, M. A. H., Hossain, M. S., Salem Allafi, F. A., Alsaedi, A., Ismail, N., Ab Kadir, M. O., & Ahmad, M. I. (2021). A review on non-edible oil as a potential feedstock for biodiesel: Physicochemical properties and production technologies. RSC Advances, 11(40), 25018-25037.
3. Mat Aron, N. S., Khoo, K. S., Chew, K. W., Show, P. L., Chen, W. H., & Ng, E. P. (2020). Sustainability of the four generations of biofuels – A review. International Journal of Energy Research, 44(12), 9266-9282.
4. Palash, S. M., Kalam, M. A., Masjuki, H. H., Arbab, M. I., Masum, B. M., & Sanjid, A. (2013). Impacts of biodiesel combustion on NOx emissions and their reduction approaches. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 23, 473-490.
5. Zhang, Y., Zhong, Y., Lu, S., Zhang, Z., & Tan, D. (2022). A comprehensive review of the properties, performance, combustion, and emissions of the diesel engine fueled with different generations of biodiesel. Processes, 10(6), 1178.
6. Singh, D., Sharma, D., Soni, S. L., Sharma, S., Sharma, P. K., & Jhalani, A. (2020). A review on feedstocks, production processes, and yield for different generations of biodiesel. Fuel, 262, 116553.

ISSN 3030-3907

7. Knothe, G. (2011). A technical evaluation of biodiesel from vegetable oils vs. algae: Will algae-derived biodiesel perform? Green Chemistry, 13(11), 3048-3065.
8. Naik, S. N., Goud, V. V., Rout, P. K., & Dalai, A. K. (2010). Production of first and second generation biofuels: a comprehensive review. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 14(2), 578-597.
9. Aransiola, E. F., Ojumu, T. V., Oyekola, O. O., Madzimbamuto, T. F., & Ikhu-Omoregbe, D. I. (2014). A review of current technology for biodiesel production: State of the art. Biomass and Bioenergy, 61, 276-297.
10. Leung, D. Y. C., Wu, X., & Leung, M. K. H. (2010). A review on biodiesel production using catalyzed transesterification. Applied Energy, 87(4), 1083-1095.
11. Suhara, A., Karyadi, Herawan, S. G., Tirta, A., Idris, M., Roslan, M. F., & Veza, I. (2023). Biodiesel sustainability: Review of progress and challenGES of biodiesel as sustainable biofuel. Bioengineering, 6(3), 45.
12. Mata, T. M., Martins, A. A., & Caetano, N. S. (2010). Microalgae for biodiesel production and other applications: A review. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 14(1), 217-232.
13. 19.Gebremariam, S. N. (2023). Biodiesel as a transport fuel, advantaGES and disadvantaGES: A review. Biofuels, Bioproducts and Biorefining, 17(5), 1445-1456.
14. Jain, S., & Sharma, M. P. (2010). Stability of biodiesel and its blends: A review. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 14(2), 667-678.
15. Safarov Ibrohim Valievich Biodizel olish uchun O‘zbekistonning yuqori mahsuldor lipid hosil qiluvchi mikrosuvo‘tlari va ularda yog‘ biosintezi regulyatsiyasi. PhD disser.tad. ishi 2019 y. 113 b.

ISSN 3030-3907

HETEROCYCLIZATION REACTION OF ANTHRANILIC ACID WITH ALLYL ISOCYANATE

Zulpanov Fazliddin Abduxakimovich
Akad. S. Yu. Yunusov Institute of the Chemistry of Plant Substances, Academy of the Republic of Uzbekistan, Tashkent,Uzbekistandoktoranti
E-mail: orcid.org/0009-0004-5884-158X
E-mail: zulpanovf@gmail.com
Tel; +998933330072
Juraev Bakhromjon Burkhon o‘g‘li
Akad. S. Yu. Yunusov Institute of the Chemistry of Plant Substances, Academy of the Republic of Uzbekistan, Tashkent,Uzbekistandoktoranti
Orcid.org/0009-0004-5884-158X
Abdimurativa Zulmira Esengeldi qizi
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Faculty of Chemistry
E-mail: zulmiraabdimuratova@gmail.com
Ashirmatova Nargisa Mirtalipovna
Tashkent branch of the National Research Nuclear University "MEPhI".
Republic of Uzbekistan, Tashkent city,
Elmuradov Burkhon Juraevich
Akad. S. Yu. Yunusov Institute of the Chemistry of Plant Substances, Academy of the Republic of Uzbekistan, Tashkent,Uzbekistandoktoranti
Orcid.org/0009-0004-5884-158X

Annotation: By synthesizing compounds containing various functional groups within the heterocyclic structure, optimal reaction conditions were proposed. To optimize the reaction parameters, a series of experiments were carried out, in which factors such as the type of solvent (DMF, DMSO), the nature of the main heterocyclizing reagent (substituted isocyanates, substituted isothiocyanates), temperature, and reaction time were studied. Among the synthesized compounds, promising samples with high biological activity were identified. It was established that the proposed synthesis method is relatively simple and cost-effective. The structures of the synthesized benzyl derivatives were confirmed using modern physicochemical methods (IR and NMR spectroscopy).

Keywords: substituted isocyanate, substituted isothiocyanate, DMF, DMSO, 3-allyl-2-thioxo-2,3-dihydroquinazolin-4(1H)-one, IR, ^{1}H and ^{13}C NMR spectra.

Аннотация: Посредством синтеза соединений, содержащих различные функциональные группы в структуре гетероцикла, предложены оптимальные условия проведения реакций. С целью оптимизации реакционных условий проведены различные эксперименты, в ходе которых изучались такие

ISSN 3030-3907

факторы, как тип растворителя (ДМФА, ДМСО), вид основного гетероциклизирующего реагента (замещённый изоцианат, замещённый изотиоцианат), температура и время реакции. Среди синтезированных соединений выявлены перспективные образцы с высокой биологической активностью. Установлено, что предложенный метод синтеза отличается относительной простотой и низкими затратами. Строение синтезированных бензильных производных подтверждено современными физико-химическими методами (ИК, ЯМР-спектроскопия).

Ключевые слова: замещённый изоцианат, замещённый изотиоцианат, ДМФА, ДМСО, 3-аллил-2-тиоксо-2,3-дигидрохиназолин-4(1H)-он, ИК спектры, ^{1}H ЯМР и ^{13}C ЯМР спектры

Annotatsiya: molekula geterohalqasida turli xil funksional guruh saqlagan moddalar sintez qilish orqali optimal reaksion sharoitlar tavsiya qilish. Reaksiya sharoitlarini optimallashtirish maqsadida turli tajribalar o‘tkazish. Erituvchi turi (DMFA, DMSO), asos gertohalqalovchi reagent turi (almashingan izosianat, almashingan izotiosianat), harorat va reaksion vaqt kabi omillar o‘rganish. Sintez qilingan moddalarining biologik faolligi yuqori bo‘lgan istiqbolli namunalar aniqlanshdan iborat. Olingan moddaning sintez usuli kam xarajat va nisbatan oson usul ekanligi o‘rganilgan. Sintez qilingan benzil hosilalarining tuzilishi zamonaviy fizik kimyoviy usullar (IQ, YMR) yordamida aniqlangan.

Kalit so‘zlar. Almashingan izosianat, almashingan izotiosianat, DMFA, DMSO, 3-allyl-2-tiokso-2,3-digdroxinazolin-4(1H)-on, IR spektr, ^{1}H NMR, va ^{13}C NMR spektr.

Introduction

Quinazolin-4-one and its derivatives are important heterocyclic compounds that occupy a special place in pharmaceuticals, agrochemistry, and the chemistry of biologically active substances. Their molecular structure underlies a wide range of pharmacological properties, including antimycotic, antiviral [1], antibacterial [2], anti-inflammatory [3], and antiparasitic [3–4] activities. Particularly, the introduction of functional groups into different positions of the quinazolin-4-one nucleus can significantly enhance the biological activity of the molecules. In this regard, the study of quinazolin-4-one benzylation reactions provides an opportunity to create new promising derivatives [1–5,6].

The incorporation of a benzyl group may increase the lipophilicity of molecules, improve their ability to penetrate biomembranes, and positively influence their pharmacokinetic profile. Benzylated derivatives can also serve as intermediates in catalytic reactions and in the synthesis of coordination compounds. Therefore, an in-depth investigation of the mechanism of quinazolin-4-one

ISSN 3030-3907

benzylation reactions, optimization of their conditions, and structural characterization of the resulting products is of both scientific and practical significance [6–7].

A review of the literature shows that benzylation of quinazolin-4-one is usually carried out in the presence of strong bases or catalysts. Polar aprotic solvents, such as dimethylformamide (DMF) and dimethyl sulfoxide (DMSO), are commonly employed. In some cases, ultrasonic or microwave activation is used to increase the efficiency of benzylation reactions. However, these methods do not always provide high selectivity or purity of the resulting products. Moreover, the dependence of the reaction conditions on the molecular structure, the nature, and the position of substituents has not yet been fully investigated.

In the present work, benzylation reactions of quinazolin-4-one were studied under various conditions (temperature, solvent, type and amount of catalyst). The structures of the synthesized derivatives were confirmed by infrared (IR) and nuclear magnetic resonance (NMR) spectroscopy. Based on the obtained data, the optimal conditions for the reactions were determined, and the preliminary prospects of their biological activity were evaluated [8].

The relevance of this research lies in the synthesis of a new series of quinazolin-4-one derivatives, expanding their potential applications in pharmaceutical and agrochemical industries. The newly obtained benzylated quinazolin-4-ones are considered promising candidates for use as plant growth stimulators, pathogen control agents, or novel antitumor agents [9–10]. Furthermore, a deeper study of the chemical properties of these derivatives creates a basis for future developments in molecular design.


Thus, this paper aims to thoroughly investigate the benzylation reactions of the quinazolin-4-one molecule, to determine their mechanisms, to analyze the structures of the synthesized products, and to assess their practical potential. The results obtained are of great importance for the development of new bioactive substances and for applications in industrial chemistry [11–12].

Method and Materials. Solvents: chloroform, hexane, cyclohexane, benzene, ethyl alcohol, methyl alcohol were dried and purified according to literature data [14]. IQ spectra of the compounds were recorded on a Perkin-Elmer IR -Fourier System 2000 spectrometer on KBr pellets, ^{1}H NMR spectra were recorded on a UNITY-400+ spectrometer (GMDS internal standard, δ -scale) with an operating frequency of 400 MHz, in deuterated solvents (CD_3Cl, DMSO-d6+CCl_4, Piridin-d_5), were checked by thin layer chromatography (YuQX) on «Sorbfil» (Russia) and « Whatman® UV-254» (Germany) plates, and as eluents benzene: acetone - 3:1, chloroform:methanol was used in the ratio of 8:1. The

ISSN 3030-3907

liquefaction temperature of the synthesized compounds was determined using «Boetius» (Germany) and «MEL-TEMP» (USA) instruments.

During the study, each reaction experiment was repeated at least three times. The obtained results were recorded as average values. The error margin for each experiment was maintained within the range of 2–3%. Special attention was given to the aforementioned methods to ensure the isolation of synthesized products in pure form and the correct determination of their structures. As a result, high-quality derivatives of allyl-2-thioxo-2,3-dihydroquinazolin-4(1H)-one were synthesized, and their structures were thoroughly investigated.



i) DMF, *o*-aminobenzoic acid allyl isocyanate (1:1.1 ratio), 70 °C, 12 h.

Into a 100 ml round-bottom flask were placed 1.37 g (0.01 mol) of anthranilic acid **(1),** 15 ml of DMF, and 0.672 g (0.012 mol) of potassium hydroxide (KOH). The mixture was gently heated and stirred until complete dissolution of the components. After cooling, 2.16 ml (1.09 g, density 1.011 g/ml; 0.011 mol) of allyl isothiocyanate **(2)** was added. The reaction was carried out at 88–90 °C for 12 hours. Upon completion, the reaction mixture was poured into a beaker containing cold water. The precipitated white solid was filtered off. The obtained product — 3-allyl-2-thioxo-2,3-dihydroquinazolin-4(1H)-one **(3)** was dried and purified by recrystallization from a DMSO : water mixture (30 : 70). The melting point of the compound was 189–191 °C. R_f = 0.56 (system: benzene : acetone, 1:2).

Conclusion

Based on the reaction of anthranilic acid with allyl isothiocyanate, 3-allyl-2-thioxo-2,3-dihydroquinazolin-4(1H)-one was obtained. The melting point and R_f values of the synthesized compound were determined. During the study, each reaction experiment was repeated at least three times. Based on the obtained results, the optimal reaction conditions were established and evaluated. It is planned that these findings will serve as a basis for the synthesis of new compounds containing pharmacophore fragments in place of various functional groups. The synthesized compound was submitted for further investigation of its biological activity, including toxicological studies and determination of toxicity level.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 1.Wu X., Li M., Tang W., Zheng Y., Lian J., Xu L., Ji M. Design Synthesis and In vitro Antitumor Activity Evaluation of Novel 4-pyrrylamino Quinazoline Derivatives. Chemical biology & drug design. 2011;78(6):932-940 p.
2. Singh K, Sharma P, Kumar A, Chaudhary A, Roy R. 4Aminoquinazoline Analogs: A Novel Class of Anticancer Agents. Mini reviews in medicinal chemistry. 2013;13(8):1177-1194
3. Marzaro G, Guiotto A, Chilin A. Quinazoline derivatives as potential anticancer agents: a patent review (2007-2010). Expert opinion on therapeutic patents. 2012;22-23 p.
4. Mikra C., Bairaktari M., petridi M., Detsi A. Issue 10. 2022. 20-21 p. doi.org 10.3390 p.
5. Wang S.B., Deng X.Q., Zheng Y., Yuan Y.P., Quan Z.S., Guan L.P. Synthesis and evaluation of anticonvulsant and antidepressant activities of 5alkoxytetrazolo[1,5-c]thieno[2,3e]pyrimidine derivatives. European journal of medicinal chemistry. 2012;56:139-144 p.
6. Sordella R., Bell D.W., Haber D.A. and Settleman J. Gefitinib-sensitizing EGFR mutations in lung cancer activate anti-apoptotic pathways. Science. - 2004. -Vol. 305. - 1163-1167 p.
7. Cohen M.H., Johnson J.R., Chen Y.F., Sridhara R., Pazdur R. (2005) FDA drug approval summary: erlotinib (Tarceva) tablets. Oncologist; 10:461–466 p.
8. Pawan K., Premnath D., Muhammad T., Mazlee S., Yaman M., Nurul S., Muhammad S. et al. A controlled, efficient and robust process for the synthesis of an epidermal growth factor receptor inhibitor: Afatinib Dimaleate. February 4, 2019. 5-105-106 p. DOI:10.25082/CR.2019.01.001
9. Petrov K.G., Zhang Y.M., Carter M., Cockerill G.S., Dickerson S., Gauthier C.A., Guo Y., Mook R.A. Jr, Rusnak D.W., Walker A.L., Wood E.R., Lackey K.E. (2006) Optimization and SAR for dual ErbB-1 / ErbB-2 tyrosine kinase inhibition in the 6-furanylquinazoline series. Bioorg Med Chem Lett; 16:4686–4691.
10. Wu X., Li M., Qu Y., Tang W., Zheng Y., Lian J., Ji M., Xu L. (2010) Design and synthesis of novel Gefitinib analogues with improved anti-tumor activity. Bioorg Med Chem; 18:3812–3822 p.
11. Cohen M.H., Williams G.A., Sridhara R., Chen G., Pazdur RFDA drug approval summary: gefitinib (ZD1839) (Iressa) tablets. Oncologist; 8: (2003) 303–306 p.

ISSN 3030-3907

JUNNI TITISH-TOZALASH MASHINALARINING KONSTRUKSION KAMCHILIGI VA JUN TOLALARINI TITISH-TOZALASH MUAMMOLARI TAHLILI.

Ismoyilov I.B.
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
Qayumov J.A.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professori, texnika **fanlari doktori**
Ismoyilov F.B.
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti
Qo‘ldoshev E.I.
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya. Maqolada hozirgi kun junni titish-tozalash mashinalarining konstruksion kamchiliklari,samaradorligi taqqoslandi,o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: jun tolasi, titish-tozalash,, ratsional, , optimal , tivit, fraksiya, avtomatik,ventilyator, klapan, modifikatsiya,agregat, avtotaminlagich.

Аннотация. В статье рассмотрены конструктивные недостатки современных машин для чесания и очистки шерсти, проведено сравнение их эффективности и изучение.

Ключевые слова: шерстяное волокно, чесально-очистительное оборудование, рациональный, оптимальный, активность, фракция, автоматический, вентилятор, клапан, модификация, агрегат, автоматическая смазка.

Annotation. The article compares and studies the design flaws and efficiency of modern wool combing and cleaning machines.

Keywords: wool fiber, combing and cleaning, rational, optimal, activity, fraction, automatic, fan, valve, modification, unit, automatic lubricator.

Kirish

Jun tolasini dastlabki ishlash texnologiyasida qo‘llaniladigan mashinalarni konstruksiyasi murakkab va juda ahamiyatli hisoblanadi. Jun tolasini boshqa har qanday to‘qimachilik tolalariga solishtirganda mexanik ta’sirlarga bardoshliligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.Ammo, jun tolasiga ishlov berishda uning barcha xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati shundaki, jun tolalarining navlari bir-biridan texnologik xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Tozalash texnologiyasi mayin junlar uchun alohida dag‘al junlar uchun alohida mashinalardan foydalanishni taqazo etadi. Bunga asosiy sabab tozalash jarayonida mexanik ta’sirlar tolaning tabiiy uzunligini saqlashi muhim hisoblanadi. O‘zbekiston mintaqasida yetishtirilayotgan jun xomashyosi asosan qo‘ylardan qirqib olinadi. Jun xomashyosining ko‘p qismi qorako‘l zotiga mansub qo‘ylardan olinib, bu zot


ISSN 3030-3907

viloyatlarda keng tarqalgan qo‘y zoti hisoblanadi. Qorako‘l zotiga mansub qo‘ylar O‘zbekistondagi qo‘ylarning asosiy ulushiga ega.

Qo‘ylardan asosan bahor va kuz fasllarida jun qirqib olinadi. Bahorda qirqib olingan jun xomashyosi tarkibida mayin tolalar ko‘p bo‘ladi. Mayin (tivitli) jun xomashyosi to‘qimachilik sohasida yigirilishga yaroqlili hisoblanib shu bois ancha qimmat baholanadi. Qorako‘l zotiga mansub qo‘ylardan olinadigan jun dag‘al hamda mo‘rt bo‘lganligi bois noto‘qima mato tayyorlashda keng qo‘llaniladi.
Jun tolasini dastlabki ishlash texnologiyasida uning fizik-mexanik xossalari muhim ahamiyatga ega.

To‘qimachilik sanoatida tayyorlanadigan mahsulotning sifati asosan tolaning ingichkaligi va uzunligiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Bu sababdan fanda hamda sanoatda jun tolalari ingichkaligi va uzunligiga ko‘ra sinflarga va tiplarga bo‘linadi. Jun xomashyosining navi va mexanik xossalarini inobatga olgan holda ishlov berish texnika va texnologiyasini tanlash muhim. Mayin yoki dag‘ali tipdagi jun tolasini fizik-mexanik xossalari bir-biridan ancha farq qiladi. Shu bois jun xomashyosini dastlabki ishlash korxonasida qabul qilingan standartlar asosida sinflarga ajratishni taqazo qiladi. Bu junni qabul qilish vaqtida amalga oshiriladi.
Bahor va kuz mavsumlardagi junni dastlabki ishlash texnologik tizimida ishlatiladigan mashinalarning ishlash ketma ketligi quyidagi rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Junni dastlabki ishlash texnologik tizimi sxemasi.

O‘zbekiston Respublikasida junni dastlabki ishlash korxonalarida qabul qilinayotgan jun xomashyolarining sifat ko‘rsatgichlari qoniqarli emas. Bunga asosiy sabab yetishtirilayotgan qo‘ylarning zoti, mintaqa iqlimi, jun qirqimini vaqtida olib borilmasligi hamda jonivorlarni oziqlantirishda e‘tiborsizlik qilinishidir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jun tolasini tozalash texnologiyasini 3 ga bo‘lish mumkin. Unga ko‘ra, mexanik titish jarayonida 10-14% atrofida, yuvish jarayonida 60-75%, yuvishdan so‘ng tozalash 6-11% ni o‘z ichiga oladiDastlabki ishlashda qabul qilingan xomashyolar navlarga qo‘l mehnati orqali saralanadi. Jun tolalarini navlarga ajratishda korxona reglamenti asosida rangi holati va fizik-mexanik xossalari inobatga olinadi.

Texnologik xususiyati bo‘yicha jun mayin, yarim mayin, yarim dag‘al va dag‘al bo‘ladi.Junni sinflarga ajratishda Angliyada Bralford tizimi joriy etilgan bo‘lib, u faqat bir tekisdagi junlar uchun qo‘llaniladi.Titish mashinalari davriy va uzluksiz ishlaydigan mashinalarga bo‘linadi.Birinchi turdagi titish mashinalari

ISSN 3030-3907

tolali materiallarning yaxshi titilishi va tozalanishini ta’minlaydi, ammo unumdorligi ikkinchi tur titish mashinalriga nisbatan past.


Davriy ishlaydigan mashinalarda bitta baraban, uzluksiz ishlaydigan mashinalarda esa odatda 2 ta baraban bo‘ladi.Mayin junlarni tozalashda ART-120 SH titish agregatidan ba’zi hollarda ikki barabanli titish mashinalarida kolosnikli panjara o‘rniga to‘rli sirtdan o‘rnatilib foydalaniladi .Yana farqli tomoni shundaki, ikki barabanli titish mashinalaridan foydalanilganda ta’minlash moslamalarini xomashyo tipiga ko‘ra tanlash kerak, boisi tolaga shikast etkazmasligidir. Chunki, mayin tola yigirishga yaroqli hisoblanib, dag‘al tola esa noto‘qima mato uchun xomashyo hisoblanadi.

Hozirda mayin jun tolalarini titish va tozalash uchun ART-120SH agregati ko‘p nusxada ishlab chiqarilmoqda. Agregat mayin va yarim mayin junlarni titish uchun xizmat qiladi, bu agregatlar odatda oqim liniyalarda ishlatiladi.

Agregat ta’minlovchi qurilmadan, tituvchi mashina va ikki kondensordan iborat. ART-120 SH agregati ikki xil modifikatsiyada ishlab chiqarilib, bir-biridan faqat ta’minlovchi qurilmasi bilan farq qiladi. Birinchi modifikatsiyali agregat kipli taminlovchi KP-120SH, uzluksiz ishlaydigan ikki barabanli tituvchi mashinadan, ikkita tez harakatlanuvchi kondenserlardan iborat. Bu modifikatsiyali agregatda bevosita toyda ishlov beriladi.

Ikkinchi modifikatsiyadagi agregatda avtotaminlagich APM-120 SH1 o‘rnatilgan. Avtotaminlagichli agregatda kipni ochgan holda junga ishlov beriladi. 2-rasmda kipli ta’minlagichli agregat ART-120SH ning faqat titish bo‘limining texnologik kesim sxemasi keltirilgan.

ISSN 3030-3907




2-rasm. ART-120SH agregatidagi titish bo‘limining texnologik kesim sxemasi

ART-120SH agregatida Ikki barabanli titish mashinasi junni titish bo‘yicha asosiy ishlarni olib boradi. Mashina quyidagicha ishlaydi: stolnik 1 ustidan kelayotgan jun xomashyosini silliq valik 2 yordamida siqib uzatuvchi riflali valik 3 qabul qilib oladi. Bunda riflali valik yuri va pastga qo‘zg‘aluvchan qilib loyihalangan. Sababi shuki, uzatilayotgan xomashyo qatlamining o‘lchami bir xil emas. Siqib uzatuvchi riflali valik orqali uzatilayotgan jun xomashyosini qoziqli baraban 5 ning qoziqlari 6 yordamida jun bo‘laklarga ajratiladi. Qoziqli baraban qoziqlari orqali ajratilgan jun bo‘laklarini to‘rli sirt 4 ning ustidan sudrab o‘tishi natijasida to‘rli sirtning teshiklari orasidan begona aralashmalar pastga ajraladi. So‘ngra jun tolalari qoziq qamrovidan barabanning markazdan qochma ta’siri natijasida keyingi qoziqli baraban 8 ga uzatiladi. Mashinaning qoziqli barabanlar orasining yuqori qismida qo‘zg‘almas qoziq 7 loyihalangan bo‘lib bunda birinchi qoziqli baraban qoziqlariga ilashib qolgan jun bo‘laklarining bir qismi, urilishi natijasida titiladi va bir qismi ilashib qoladi. Qo‘zg‘almas qoziqdagi hamda birinchi qoziqli barabandan kelayotgan jun xomashyosini ikkinchi qoziqli baraban qoziqlari yordamida to‘rli sirtning ustidan sudrab o‘tib mashinadan xomashyo chiquvchi quvur 9 ga uzatiladi. To‘rli sirt orqali ajralgan begona aralashmalar vakuum klapan 10 orqali mashinaning ostida loyihalangan quvurga uzatiladi. Begona aralashmalar quvur yordamida agregatdan chiqarib yuboriladi.

ISSN 3030-3907

O‘rta Osiyoda hozirda jun tolasini tozalashda asosiy birta qoziqli barabanga ega davriy ishlaydigan TP-90-SH1 rusumli titish mashinalardan foydalanilmoqda. TP-90-SH1 mashinasi dag‘al va yarim dag‘al junlarni titishga mo‘ljallangan. Mashinaning asosiy ishchi organlariga ta’minlovchi panjara 1, ta’minlovchi valik 10, asosiy bosh baraban 8, ishchi valik 5, kolosnikli panjara 9, klapan 4, chiqaruvchi panjara 2 va ventilyator 7 kiradi (3-rasm)

Jun qo‘lda ta’minlovchi panjara 1 ustiga xomashyo bir xil qalinlikda yoyiladi. Panjaradagi jun ta’minlash valigiga 10 keltiradi, unda asosiy barabanga 8 yuboriladi. Valik va panjara davriy ishlaganligi sababli, jun ham mashinaga bo‘laklab beriladi.



3-rasm. TP-90-SH1 titish mashinasi

Tolali material birinchi doimiy (intensiv) mexanik ta’sirni ta’minlash bo‘g‘ini zonasida – asosiy barabanda oladi. 300-350 ayl/min aylanish chastotasiga ega bo‘lgan nishli baraban, pastki va yuqorigi valiklar orasida qisilgan junni katta kuch bilan urib, harakati bo‘ylab olib ketadi. SHu bilan birga jun bo‘laklarining bo‘linishi va silkinishi sodir bo‘lish natijasida junning titilishi va undan begona aralshmalarni ajralish jarayoni boradi. Asosiy baraban qoziqlariga ilingan jun bo‘laklari kolosnikli panjara 9 qirralariga urilishi natijasida titiladi va jun bo‘laklari orasidan begona aralashmalar ajraladi. Bunda chiqadigan begona aralashmalar kolosniklar orasidagi tirqishlar orqali mashina tagiga tushadi.

Baraban junni 3 ta ta’minlovchi riflali valga yaqin keltiradi. Bu valiklar baraban zonasida shu yo‘nalishda kichik tezlik bilan harakatlanadi. Valiklarning riflalari jun bo‘laklarini siqib uzatishga yordam beradi. Tezliklarning farqi va baraban 8 va valiklar 5 qoziqlarining bir – biriga kirishi tufayli tolali materialning

ISSN 3030-3907

intensiv titilishi va undan iflosliklarning ajralishi sodir bo‘ladi. Baraban va valiklar tinimsiz harakatlanadi.

Undan so‘ng tola asosiy baraban bilan ta’minlovchi valiklarga yo‘naltiriladi. Bu yerda qisman titilgan tolalarga yangi jun bo‘laklari qo‘shiladi.

Keyingi jarayon ko‘rib chiqilgan jarayonga o‘xshash. Solingan jun portsiyasining titish jarayoni tugashi bilan klapan 4 ochiladi va jun markazdan qochirma kuch ta’sirida chiqaruvchi panjara 2 ga tashlanadi.

Hamma jun mashinadan chiqarib bo‘lingandan so‘ng, klapan yopiladi, ta’minlovchi panjara va valik qaytadan harakatga kelib mashinaga junning keyingi portsiyasini soladi.

Silliq valikning doimiy aylinishi natijasida chiqish tuynugidan junning to‘planishi oldini oladi va klapanni mahkam yopilishini ta’minlaydi.

Ventilyator mashinadan panjara 6 orqali changli havoni so‘rib oladi va quvurlar orqali maxsus kameraga yuboriladi.


Yuqorida keltirilganlarga ko‘ra, mashina davriy ravishda ishlagani ko‘rinadi. Har bir sikl 3 davrdan iborat: ta’minlash, titish va chiqarish.

Titish faqat birinchi davrda emas, balki materialning ayrim qismlari uchun birinchi va uchinchi davrda ham amalga oshiriladi.

Mashinaning ayrim mexanizm va uzellarining tuzilishi va ishlash printsipini ko‘rib chiqamiz.

Bosh barabanda (4-rasm) uchta cho‘yan aylana bo‘lib, unda o‘n ikkita yog‘och plankalar o‘rnatilgan. Har qaysi plankada, shaxmatli tartibda ikki qatorda o‘n sakkizta qirrali tekis po‘lat qoziqlar biriktirilgan.

Plankaning tashqi qismi yupqa po‘lat plastina bilan qoplangan bo‘lib, u mexanik mustahkamligini oshiradi va qoziqlarning biriktirilishi mustahkamlanadi.



4-rasm. TP-90-SH1 mashinasi bosh barabani qoziq plankalari

Hozirgi vaqtda davriy ravishda ishlaydigan yangi TPSH-1 titish mashinasi ishlab chiqarish sinovidan o‘tib, seriyali ishlab chiqarish uchun tayyorlanmoqda. Yangi mashinaning konstruktsiyasiga TP-90-SH1 mashinasining konstruktsiyasiga

ISSN 3030-3907

nisbatan takomillashtirilgan. TPSH-1 mashinasi yuqori unumdorlikka ega bo‘lib, xom ashyoga sifatli ishlov beradi. TPSH-1 mashinasining ish joyining kengligi 1200 mm (900 mm o‘rniga).

Avtomatik ta’minlagich APT-120-SH bilan agregatlanishi mumkin. Mashinadan tola kondensor yordamida chiqarib yuboriladi. TPSH-1 mashinasida ishchi organlarning o‘zaro joylashishi o‘zgartirilgan: kolosnikli panjara ostida vibratsion transportyor o‘rnatilgan, bu tarnsportyor mashina ostiga tushgan chiqindilarni chiqaradi. Mashina unumdorligi uchun xom-ashyo bilan ta’minlanishiga ko‘ra 200-300 kg/s ni tashkil qiladi.

TP-90-SH1 titish mashinasi texnik ko‘rsatkichlari

Unumdorligi, kg/s	300-dan yuqori
Asosiy bosh baraba ishchi kengligi, mm	902
Asosiy bosh baraban diametri (qoziqchasi bilan), mm	1052
Asosiy bosh baraban aylanishlar soni, ayl/min	320
Ishchi valik diametri (qoziqchasi bilan), mm	261
Ishchi valiklarning aylanishlar soni, ayl/min	38
Ventilator diametri, mm	480
Ventilatorning aylanishlar soni, ayl/min	915-1390
Kolosniklar orasidagi masofa	2-6
ta’minlash tasmasining ishchi kengligi, mm	810
Ta’minlash tasmasining tezligi, m/s	3,06-6,9
Elektrodvigatel quvvati, kVt	4,5
Mashinaning umumiy o‘lchami, mm	
Uzunligi	3210
Eni	2550
Balandligi	2100
Og‘irligi, kg	2750

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/wool-market
2. IsmoyilovI.B.,IsmoyilovF.B,Ko‘ldoshev.E.I, O‘zbekistonda yetishtirilayotgan jun xomashyosi mahsuldorligi va sifat ko‘rsatgichlari. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal. Buxoro: 2025. №2, 354-359 b.
3. Шерсть полугрубая и грубая неоднородная мытая сортированная Гост 26588-85 Издание официального переиздание июнь 1997 г. с Изменением № 1, утвержденным в декабре .

ISSN 3030-3907

4. Ismoyilov F.B Jun tolasini dastlabki ishlash texnologiyasi. Darslik. Buxoro.: «Bukhara Brilliant Cargo» nashriyoti, 2024. – 292 b.
5. F.M.Dadaboyev., Tozalash samaradorligini oshirish maqsadida jun xomashyosini titish savash mashinasi konstruksiyasini takomillashtirish. diss PhD., Namangan. NMTI., 2024. 41-b
6. https://leafsmachinery.en.made-in-china.com/product/UFaGNzZVAIAC/China-Lab-Sheep-Wool-Blowing-Opening-Machine-Small-Scale-Alpaca-Wool-Processing-Machinery-for-Education-Purpose.html
7. https://kardmach.ru/product_list/1647912378/
8. Зелуатдинов В.В. Физические и технологические свойства шерсти помесей австралийский меринос с алтайскаya тонкоруннaya в сравнении с шерстью овец алтайской тонкорунной породы. Автореферат. – Москва: 1983. – 178 с
9. Патент Российскаya Федерatsиya RU, № 2049183. Обезрепеивающаya агрегат У-1 / Угрюмов А.А. // 16.08.1998.
10. Разгонов Н. Т. Объёмно-весовой метод оценки выхода шерсти для селекционных и производственных целей: Дис. ... канд. с.-х. наук: Ставрополь, 2004. - 130 с.
11. Слепнева. Е.В. Разработки шерстяных волокон с прогнозируемыми физико-механическими свойствами за счёт модификации исходного сырья. Дисс... канд. тех. наук- Казан. КНИТУ, Казан-2013. – 172 с
12. Rizaev Sh, Zokirov M, Sidorsov V, Ismoilov L, Ibragimov Yu. “Junshunoslik va jun tovarshunosligi”. Toshkent.: «Mehnat», 1985.;221b.
13. ИсмойиловФ.Б.,ИсмойиловИ.Б.Значениеиспользования наклонного очистителя первичной обработки. Universum технические науки//Москва.2023№7(112) июль, 2023г.Ст. 46-49.
14. Ismoyilov I.B., Dadaboyev F.M.,Madaliyev O.X. Jun namunalarini tashqi ko‘rinishini baholash uslublari.Tikuv-trikataj sanoatida innovatsion texnologiyalar,ishlab chiqarishdagi muammo,tahlil va sohani rivojlantirish istiqbollari mavzusida respublika ilmiy anjumani.Namangan,2024 1-tom.402-407,betlar.
15. Демурова А.Р. Формирование кожи и шерстного покрова у овец разного происхождения в условиях центрального предкавказья Дисс. канд. тех. наук, ФГОУ ВПО ГГАУ Владикавказ, 2008. – 133 с.
16. I.B.Ismoyilov, Qayumov J.A.Junnu dastlabki tozalash jarayonida uning tarkibidagi namlik miqdorini aniqlash usuli.“Transport vositalari va qishloq xo‘jaligi mashinalarini yaratish va ularning foydalanish darajasini oshirishda yangi

ISSN 3030-3907

innovatsion yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, Buxoro.10-11-iyun 2025 yil.655-656-b.
17. ИсмойиловФ.Б.,ИсмойиловИ.Б.Значениеиспользования наклонного очистителя первичной обработки. Universum технические науки//Москва.2023№7(112) июль, 2023г.Ст. 46-49
18. Ismoyilov I.B. Robototexnika uskunalarida junni qayta ishlashning arzon va samarador olish usullaru “Raqamli iqtisodiyod,electron hukumat va sun’iy intellekt uchun dasturiy vositalar,axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani.Buxoro .20-22 oktabr 2023.-Б.178-181
19. Исмойилов И.Б.Химические свойства шерсти. «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили» га бағишланган илмий-амалий анжуман. Бухоро 15-16 май 2023. .-Б.50-51 бет
20. Исмойилов И.Б. Чорвачилик сохасида жуннинг арзон олиш усуллари ва саноатда кенг қўлланиши. «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили» га бағишланган илмий-амалий анжуман. Бухоро 15-16 май 2023. .-Б.51-53 бет
21. Ismoyilov I.B,Kuldashev E.I, Abrorov A.S, Ismoyilov F.B, Bozorov R.R. Improvement of the machine for wool scutching for obtaining ecologically clean fiber E3S Web of Conferences 390, 01010 (2023)AGRITECH-VIII2023 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339001010

ISSN 3030-3907

AMMIAKLI USULDA KALSINATSIYALANGAN SODA ISHLAB CHIQARISHNING SHLAM CHIQINDILARINI UTILIZATSIYA QILISH MUAMMOLARI

Kurbanova Aysultan Abatbayevna

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), "Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti" kimyo muhandisligi kafedrasi assistenti

E-mail: aisultankurbanova@gmail.com

Annotatsiya. Butun dunyoda atrof tabiiy muhitni ishlab chiqarishning zararli ta’siridan himoya qilish masalasi alohida dolzarb bo‘lib turgan hozirgi sharoitda turli chiqindilarni, xususan kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarishning shlam chiqindilarini qayta ishlash sohasidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Qo‘ng‘irot soda zavodi" MChJ QKda kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarish (texnik tuz eritmasini tozalash kimyoviy jarayoni) jarayonida 1 tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonidan 0,08 tonna shlam chiqindisi ajralib chiqadi. Har sutkada Tuz eritish va namakob tozalash sexidan yuk avtomobillari yordamida qattiq chiqindilar shlamxonasiga (poligoni) 48 tn miqdorda shlam tashiladi (loyiha bo‘yicha kalsinatsiyalangan soda chiqishi hisobidan sutkasiga 600 tn - 600*0,08=48 tn.)

Kalit so‘zlar: kalsinatsiyalangan soda, shlam chiqindilari, natriy xlorid, kalsiy karbonat, tuproq ifloslanishi, chiqindi, distiller suyuqligi.

Аннотация. В современных условиях, когда во всем мире особую актуальность приобретает вопрос защиты окружающей природной среды от вредного воздействия производства, большое значение приобретают исследования в области переработки различных отходов, в частности шламовых отходов производства кальцинированной соды.

В процессе производства кальцинированной соды (химический процесс очистки раствора технической соли) на СП ООО "Кунградский содовый завод" при производстве 1 тонны готовой продукции выделяется 0,08 тонны шламовых отходов. Ежедневно из цеха по выщелачиванию и рассолоочистке грузовыми автомобилями в шламохранилище (полигон) твердых отходов транспортируется 48 т шлама (за счет выхода кальцинированной соды по проекту 600 т в сутки - 600*0,08=48 т).

Ключевые слова: кальцинированная сода, шламовые отходы, хлорид натрия, карбонат кальция, загрязнение почвы, отходы, дистиллерная жидкость.

Annotation. In the modern world, when the issue of protecting the environment from harmful industrial influences is particularly acute, research in the field of

ISSN 3030-3907

processing various waste, particularly sludge waste from soda production, is gaining greater importance.

In the process of producing soda ash (chemical purification of the technical salt solution) by JV LLC "Kungrad Soda Plant," 0.08 tons of sludge waste is released from the process of producing 1 ton of finished product.

Every day, 48 tons of sludge is transported from the salt dissolving and cleaning shop to the solid waste dump (poll) using trucks (according to the project 600 tons per day calcined soda output - 600*0.08=48 tons).

Keywords: soda ash, sludge, sodium chloride, calcium carbonate, soil pollution, waste, distiller liquid.

Kirish

Shlam chiqindilarining tashlanishi tabiiy obyektning muqarrar minerallashuviga va uning biotsenozining sezilarli darajada o‘zgarishiga olib keladi. Shu munosabat bilan yuqori minerallashgan shlamlarni tashlashning atrof-muhitga ta’sirini chuqurroq o‘rganish va uni qayta ishlashning yangi usullarini izlash dolzarb hisoblanadi.

Atrof-muhitga kimyoviy ishlab chiqarishning texnologik ta’sirini kamaytirish uchun bir qator ekologik va texnik yechimlarni joriy qilish talab qilinadi. Bu tabiiy va texnogen muhitni maqsadli boshqarish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

Mineral resurslarni an’anaviy tarzda qazib olish, tashish va ulardan foydalanish jarayonlarida atrof-muhitga antropogen ta’sir ko‘rsatuvchi omillar kam emas. Shuning uchun ham ohaktoshlarning geoekologik ahamiyati va ularning atrofdagi tabiiy muhitga ta’siri chuqur o‘rganishni talab qiladi. Hududiy ishlab chiqarishning yuqori tonnajli chiqindilaridan foydalanishni kengaytirish masalasi ekologik texnologiyalarni joriy qilishda va xom ashyoni qayta ishlashda hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Dunyoda har yili 50 million tonnaga yaqin soda ishlab chiqariladi. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Xitoy, Hindiston va MDH davlatlarining asosiy mahsulotlari jahon ishlab chiqarishining asosini tashkil qiladi [1; 41-43 b.].

Hozirgi kunda kalsiylantirilgan sodani olish jarayoni to‘rtta usulga asoslangan:

a) ammiak usul – Solve usuli [2; 116-132 b.];

b) sodali mineral xomashyo asosida kalsiylantirilgan sodani ajratib olish usuli; [3; 86-106 b.]


v) nefelindan kalsiylantirilgan soda, potash, glinozem, sementni kompleks qayta ishlash usuli [4; 27-38 b.]

ISSN 3030-3907

g) natriy gidroksidi eritmasini CO_2 bilan karbonizatsiya qilish [5; 48-53 b.]. Kalsiylantirilgan soda - suvsiz natriy karbonati bo‘lib, kimyoviy formulasi Na_2CO_3.

“Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ qo‘shma korxonasining ishlab chiqarish texnologik jarayonida - texnik natriy xloridi NaCl eritmasini ohakli – sodali tozalash asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Agar namakob tarkibidagi kalsiy va magniyning tuzlaridan tozalanmasa, uni ammoniylashtirish va karbonatlashtirish jarayonlarida yomon eriydigan $CaCO_3$, $Mg(OH)_2$, $NaCl*Na_2CO_3*MgCO_3$ va $(NH_4)_2CO_3*MgCO_3$ tuzlarning apparatura va quvurlarninga tiqilib qolishiga va tayyor mahsulot - sodaning ifloslanishiga olib keladi [6; 78-96 b.].

Buning oldini olish maqsadida nomokob kalsiy va magniy tozalanadi. Magniy kationini cho‘ktirish uchun ohak sutidan foydalaniladi va bunda magniy gidroksidi cho‘kmaga tushib loy chiqindisi tarkibiga o‘tadi. Kalsiy kationini cho‘ktirish uchun esa kalsiylantirilgan soda eritmasi ishlatiladi va bo‘ jarayonda kalsiy karbonati cho‘kmaga tushadi va u ham loy tarkibiga o‘tadi [7; 13-16 b.].



2.1-diagramma

“Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ qo‘shma korxonasining 2019-2024-yillarda ishlab chiqarish jarayonidan ajralib chiqqan distiller suyuqligi va loy chiqindisi miqdori

ISSN 3030-3907

2.1-diagrammada “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ qo‘shma korxonasining 2019-2024-yillarda ishlab chiqarish jarayonidan ajralib chiqqan distiller suyuqligi va loy chiqindisi miqdori keltirilgan. Bundan ko‘rish mumkinki, tayyor mahsulot hisoblangan kalsiylantirilgan soda qancha ko‘p ishlab chiqarilsa, distiller suyuqligi va loy chiqindisi ham shunchalik katta miqdorda ajralib chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbo‘ ilmiy - tadqiqot ishini bajarishda tegishli Davlat standartlari talablariga rioya qilgan holda - konduktometrik, potensiometrik, gravimetrik, skanerlovchi elektron mikroskop, titrimetrik, argentometric va merkurometrik tahlili usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIYJALAR. 1-jadvalda qattiq chiqindilar shlamxonasi (poligoni) ga tashlanadigan press-filtr shlamining kimyoviy tarkibi keltirilgan. Olingan tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, shlam tarkibidagi natriy xlorid miqdori 15% va undan yuqori miqdorda bo‘lib, bu atrof-muhit havosi va tuproq sho‘rlanishining asosiy omili hisoblanadi. Shlam tarkibining kimyoviy tahlil natijalarining me’yordan oshishi, tarkibida erimaydigan moddalar va sulfatlar miqdori yuqori bo‘lgan Barsakelmas kareridan texnik tuz yetkazib berilishi bilan izohlanadi.

1-jadval.

Press-filtr shlamining kimyoviy tarkibi


№	Ko‘rsatkichlar nomi	Texnologik reglament normalari % (mass.)	Tahlil natijalari % (mass.)
1	Natriy xlorid miqdori NaCl	14,33	15,61
2	Kalsiy karbonatning massa ulushi $CaCO_3$	31,05	38,75
3	Magniy gidroksidning massa ulushi $Mg(OH)_2$	8,96	14,04
4	Kalsiy sulfatning massa ulushi $CaSO_4$	0,13	1,02
5	Erimaydigan moddalar miqdori	4,43	13,71
11. Abdurahimov D.Kh., Ismailov B.M., Tanatarov O.R., Abdikamalova A.B., Kuldasheva Sh.A., Agzamova F.N. The Main Areas of Application of Water-Soluble Polymers of Acrylamide to Solve the Problem of Environmental protection and Structure Formation in the Soil // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and technology.Vol. 9, Issue 11, November 2022. Стр 20154-20157.
12. Ismailov B.M., Tanatarov O.R., Allamuratova A.S., Sharipova A.I., Abdikamalova A.B., Akhmedov U.K. Development of a method for chemical sand reclaimation besed on suspensions of bentonite and organic additive //Вестник, ККО АН РУ, Нукус. 2023 г. №3, – С. 28-32

ISSN 3030-3907

ЭЛЕКТРОПРОВОДНОСТЬ РАСТВОРОВ ГИДРОЛИЗОВАННЫХ СОПОЛИМЕРОВ-СТРУКТУРООБРАЗОВАТЕЛЕЙ В ПОЧВЕ

Алламуратова Анаргул Султамуратовна
Каракалпакский государственный университет им. Бердаха доктор философии по химическим наукам(PhD),ассистент
E-mail: anargulallamuratova@gmail.com
Шарипова Айшагул Ибраимовна
Каракалпакский государственный университет им. Бердаха Кандидат химических наук, доцент
Абдикамалова Азиза Бахтияровна
Институт общей и неорганический химии АН Уз. Доктор химических наук, профессор

Аннотация. В данной статье показано важных характеристик гидролизованных полимеров. Этот параметр имеет значительное влияние на возможности применения данных сополимеров в различных областях, включая физико-химию полимеров, медицину, фармацевтику и производство высокотехнологичных материалов, где требуется точное контролирование электрических свойств веществ. Электропроводность является ключевым показателем, который может свидетельствовать о структуре и размере полимерных цепей, а также о наличии ионных групп и степени их диссоциации в водных растворах.

Ключевые слова: Полиэлектролит (ПЭ), структурообразователей почв, сополимер акриламида, итаконовой кислоты, электропроводность, почва.

Annotatsiya. Ushbu maqolada gidrolizlangan polimerlarning muhim xususiyatlari ko‘rsatilgan. Ushbu parametr ushbu kopolimerlarning turli sohalarda, shu jumladan polimerlarning fizik-kimyosi, tibbiyot, farmatsevtika va moddalarning elektr xususiyatlarini aniq nazorat qilish zarur bo‘lgan yuqori texnologiyali materiallar ishlab chiqarishda qo‘llanilishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Elektr o‘tkazuvchanligi polimer zanjirlarining tuzilishi va hajmini, shuningdek, ionli guruhlarning mavjudligini va ularning suvli eritmalarda ajralish darajasini ko‘rsatadigan asosiy ko‘rsatkichdir.

Kalit so‘zlar: polielektrolit (PE), tuproq tuzilishi, akrilamid kopolimeri, itakonik kislota, elektr o‘tkazuvchanligi, tuproq.

Annotation. This article shows important characteristics of hydrolyzed polymers. This parameter has a significant impact on the possibilities of using these copolymers in various fields, including polymer physico-chemistry, medicine, pharmacy and the production of high-tech materials, where precise control of the electrical properties of substances is required. Electrical conductivity is a key

ISSN 3030-3907

indicator that can indicate the structure and size of polymer chains, as well as the presence of ionic groups and the degree of their dissociation in aqueous solutions.

Keywords: polyelectrolyte (PE), soil structure-forming agents, acrylamide copolymer, itaconic acid, electrical conductivity, soil.

Введение

На основе электропроводности растворов полимерных материалов можно иметь представления о состоянии их макромолекулы, т.е. степени их взаимодействия с молекулами растворителя и степени ионизации.

Влияние полиэлектролитов на агрегацию глинистых минералов определяется множеством факторов, в частности, их дозировкой. Наблюдается, что с увеличением дозы полиэлектролитов усиливается агрегация. Коагуляция, пептизация и осаждение, вызванные добавлением нейтральных солей или электролитов, показывают, что можно регулировать степень агрегации полианионов путем изменения концентрации электролитов и pH раствора. С развитием химии высокомолекулярных соединений начали интенсивно развиваться и методы химической мелиорации для повышения агрохимической ценности почв, включая создание искусственных структур в почвах с помощью специализированных реагентов [1; 2; 14; 15;]. Исследования показали, что для эффективности полиэлектролитов (ПЭ) в структурообразовании почвы важно соотношение и состав их функциональных групп. Рахимов [3;] обнаружил, что небольшое добавление ПЭ (0,03-0,06% от веса почвы) значительно увеличивает водопрочные агрегаты. Это связано с изменением структуры макромолекулы ПЭ в щелочной среде, что способствует их взаимодействию с частицами почвы. Влияние pH на флокулирующие свойства полимеров также изучено в работах [4; 5; 6;].

Исследование С.С. Хамраева, Х.Ю. Артыкбаевой и др. демонстрирует, что структурообразующая способность полимеров зависит от их химических характеристик. Эффективность водорастворимых полимеров значительно увеличивается при насыщении их поглощающего комплекса ионами кальция [7,12,13;]. Академик Ахмедов К.С. разработал серию водорастворимых полиэлектролитов «К», которые показали положительные результаты в полевых испытаниях [1,11;]. Также накоплен опыт по использованию различных структурообразователей для закрепления подвижных песков, разработаны методы оценки их эффективности и изучено влияние на рост растений [8,9,10;].

ISSN 3030-3907

Метод и исследование. Для исследования электропроводящих характеристик растворов электролитов были приготовлены растворы ПЭ с концентрациями от 0,01 до 0,5 г/дм^3. Все измерения проводились при температуре 25ºС. Полученные данные приводятся на рис. 1- 2. Удельная электропроводность, 1/Ом*см.

Для анализа проводимости электрического тока через растворы электролитов были подготовлены образцы полиэлектролитов (ПЭ) с различным содержанием от 0,01 до 0,5 г/дм^3. Измерительный процесс осуществлялся при стандартной температуре. Результаты исследований отображены на **рис. 1** и представлены в виде значений удельной электропроводности (G) в единицах 1/Ом*см.




Рис. 1. Изменение электропроводности растворов сополимеров.

Сравнение данных по электропроводности растворов показывает, что с увеличением концентрации обоих сополимеров электропроводность возрастает. Однако для 2АА:ИК-5,5 рост электропроводности более выражен на каждом уровне концентрации по сравнению с 1АА:ИК-5,5. Например, при концентрации 0,1% удельная электропроводность для 1АА:ИК-5,5 составляет 25, тогда как для 2АА:ИК-5,5 она равна 36. Это указывает на то, что 2АА:ИК-5,5 имеет большую концентрацию подвижных ионов в растворе, что может быть связано с более высоким уровнем диссоциации или большим количеством ионных групп в полимерной цепи.

При максимальной концентрации в 0,5% разница в электропроводности между сополимерами увеличивается ещё более заметно: для 1АА:ИК-5,5 она составляет 155, в то время как для 2АА:ИК-5,5 — уже 180, что подчёркивает тенденцию к увеличению разницы в электропроводности с ростом концентрации сополимера в растворе.

ISSN 3030-3907




Рис. 2. Изменение электропроводности растворов 1АА:ИК-5,5, гидролизованных при температурах, °С: 1) 50; 2) 60; 3) 70; 4) 80.

Как можно увидеть из **рис. 2** с увеличением температуры гидролиза от 50 до 80°С наблюдается значительный рост электропроводности растворов сополимеров. Это указывает на то, что более высокие температуры способствуют увеличению количества заряженных ионов в растворе, что может быть результатом более интенсивного гидролиза сополимерных цепей. Например, при концентрации 0,1% электропроводность для образца, гидролизованного при 50°С, составляет 43,5, в то время как для образца, гидролизованного при 80°С, она возрастает до 401. При более низких концентрациях (0-0,25%) рост электропроводности более линеен, тогда как при более высоких концентрациях (0,3-0,5%) наблюдается более резкое увеличение электропроводности, особенно для образцов, гидролизованных при 80°С. Это может указывать на насыщение раствора ионами и увеличение их взаимодействия, что приводит к повышенной электропроводности.

ISSN 3030-3907




Рис. 3. Изменение электропроводности растворов 2АА:ИК-5,5, гидролизованных при температурах, °С: 1) 50; 2) 60; 3) 70; 4) 80.

Для всех четырёх серий образцов (1, 2, 3, 4), рост концентрации сополимера приводит к увеличению электропроводности (рис. 3). С увеличением температуры гидролиза от 50°С до 80°С наблюдается значительный рост электропроводности. Это может указывать на более высокую степень ионизации или на увеличение количества ионных групп из-за более интенсивного гидролиза сополимеров при повышенных температурах.

При температуре гидролиза 80°С, даже при самых низких концентрациях, наблюдается значительный рост электропроводности, что указывает на значительное изменение структуры сополимера, влияющее на его способность проводить электрический ток.

Сравнивая образцы 1АА:ИК-5,5 и 2АА:ИК-5,5 по представленным данным электропроводности в зависимости от концентрации, можно сделать наблюдения, что при низких концентрациях (до 0,2%), электропроводность образца 2АА:ИК-5,5 систематически выше, чем у образца 1АА:ИК-5,5. В диапазоне средних концентраций (от 0,25 до 0,4%) разница в электропроводности между образцами увеличивается. Образец 2АА:ИК-5,5 продолжает демонстрировать более высокую электропроводность по сравнению с образцом 1АА:ИК-5,5. Это подтверждает, что 2АА:ИК-5,5 обладает лучшими ионными свойствами, возможно, за счет более высокой степени гидролиза.

ISSN 3030-3907

В целом, эти данные могут свидетельствовать о различиях в структуре, степени гидролиза или содержании функциональных групп между сополимерами 1АА:ИК-5,5 и 2АА:ИК-5,5, что приводит к различиям в их электропроводности.

Заключение. Таким образом показана, что гидролиз сополимеров ведет к увеличению их электропроводности, что свидетельствует об увеличении степени ионизации и наличии большего количества свободных ионов в растворе. Это может быть обусловлено увеличением числа карбоксильных групп в результате гидролиза акриламидных единиц. Выявлено, что концентрация растворов оказывает значительное влияние на электропроводность, а также обнаружено, что увеличение температуры гидролиза приводит к увеличению электропроводности, что указывает на более глубокое превращение полимерных цепей и возрастание их ионного характера.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Basmage, O.M.; Hashmi, M.S.J. Plastic Products in Hospitals and Healthcare Systems. In Encyclopedia of Renewable and Sustainable Materials; Elsevier: Amsterdam, The Netherlands, 2020; pp. 648–657.

2. Abdikamalova, A., Kuldasheva, S., Eshmetov, I., Abdurakhimov, D., Akhmadjanov, I., & Mamayusupov, S. (2022). Polymers as Soil Structure–Forming Agents (Overview). *Annals of Forest Research*, 65(1), 2797-2810. ISSN: 18448135, 20652445. © ICAS 2022. Retrieved from https://www.e-afr.org/

3. Алламуратова А.С. Синтез структурообразующих сополимеров по основе акриламида и итаконовой кислоты и их влияние на почвы Каракалпакстана. Специальность 02.00.11 – Коллоидная и мембранная химия диссертация на соискание ученой степени доктора философии химических наук. Ташкент-2024. 86 с.

4. О.Г. Циркина, В.В. Васильев, М.В. Клюев, В.Р. Ополовников Высокомолекулярные соединения // учебное пособие Иваново 2008. 84 с.

5. С.Я. Корячкина О.М. Пригарина Научные основы производства продуктов питания Орел 2011. 377 с.

6. Кулдашева Ш.А. Особенности химического закрепления засоленных почвогрунтов мелиорантами-закрепителями //Узбекский химический журнал. - Ташкент, - 2017. - № 3. - 47-54 с

7. Ребиндер П.А. Физико-химическая механика, как основа закрепления грунтов в подорожном строительстве и производстве строительных

ISSN 3030-3907

материалов // Труды совещания по теоретическим основам технической мелиорации грунтов. М. – 1961. – 71-78 с.
8. Алламуратова А. Сейтназарова О., Шарипова А, Абдикамалова А. Синтетические водорастворимые полимеры и важнейшие отрасли их применения // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 9(114). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15940
9. Abdikamaova A.B., Tanatarov O.M., Seitnazarova O.M., Allamuratova A.S., Shamuratova M. Study of the physical and chemical characteristics of soils in Karakalpakstan// E3S Web of Conferences 537, 03006 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453703006 (Scopus).
10. Алламуратова А.С. Структурообразующие способности сополимеров акриламида и итаконовой кислоты в системе почв Каракалпакстана //Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. 2024. 5(119). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/17222 -С. 61-64 (02.00.00 №2).
11. Алламуратова А.С., Танатаров О.М., Шарипова А.И., Абдикамалова А.Б. Synthesis of acrylamide copolymers with improved viscosity characteristics //Scientific and Technical Journal Namangan Institute of Engineering and Technology https://scholar.google.com/citations 2024. Pp.117-124.
12. Жумабаев Б.А., Алламуратова А.С., Аймурзаева Л.Г., Зарипбаев К. Композиции водорастворимых полимеров для закрепления засоленных песков Арала // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. Жумабаев Б.А. [и др.]. 2023. 2(104). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/14944 - С. 38-41
13. Kuldasheva.Sh., Abdikamalova A.B, Sharipova. A.I. Eshmetov.I Abdurahimov D · Nortojiyeva.G. Investigation of changes in the viscosity properties of acrylamide (co)polymer and their hydrolyzed forms depending on the conditions of their preparation Polymer Bulletin (Published online 01 july 2023) 1-27 p.

ISSN 3030-3907

TIBBIY TA’LIMDA SIMULYATSION O‘QITISHNING O‘RNI.

Ikromova Sokinabonu Ravshanzoda
Angren Universiteti Davolash fakulteti o‘qituvchisi
E-mail: sokinaraufova18@gmail.com
Tel: +998998747310
Nasirova Durdonaxon Yusufjon qizi
Angren Universiteti Davolash fakulteti o‘qituvchisi
E-mail:durdonaxonnasirova96@gmail.com
Tel +998946429288
Shaismatova Gulbahor Xikmatovna
Angren Universiteti Davolash fakulteti katta o‘qituvchisi
E-mail gulbahorhikmatovna@gmail.com
Tel +998949299099
Rahmonova Shaxnoza Abdivayitova
Angren Universiteti Davolash fakulteti katta o‘qituvchisi
E-mail rahmonovash74@gmail.com
Tel +998977089774

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy ta’lim jarayonida simulyatsion o‘qitishning ahamiyati, uning afzalliklari va samaradorligi yoritib beriladi. Simulyatsion texnologiyalar talabalarga amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz sharoitda shakllantirish, klinik vaziyatlarni modellashtirish va xatolardan xoli holda tajriba orttirish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada ushbu usulning zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Simulyatsion o‘qitish, tibbiy ta’lim, klinik ko‘nikmalar, innovatsion metodlar, ta’lim samaradorligi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение симуляционного обучения в медицинском образовании, его преимущества и эффективность. Симуляционные технологии позволяют студентам формировать практические навыки в безопасных условиях, моделировать клинические ситуации и накапливать опыт без риска ошибок. Также обсуждается роль данного метода в современной медицине и перспективы его дальнейшего развития.

Ключевые слова: Симуляционное обучение, медицинское образование, клинические навыки, инновационные методы, эффективность обучения.

Abstract: This article highlights the importance of simulation-based learning in medical education, emphasizing its benefits and effectiveness. Simulation technologies enable students to develop practical skills in a safe environment, model clinical situations, and gain experience without the risk of errors. The paper

ISSN 3030-3907

also discusses the role of this method in modern medicine and its future development prospects.

Keywords: Simulation-based learning, medical education, clinical skills, innovative methods, educational effectiveness.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – yuqori malakali, raqobatbardosh va klinik qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashdir. Zamonaviy tibbiyotning tezkor rivojlanishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va bemor xavfsizligi masalalarining ustuvorligi ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, simulyatsion o‘qitish tibbiy ta’limning ajralmas qismi sifatida shakllanib bormoqda.An’anaviy ta’lim usullarida talabalar nazariy bilimlarni o‘quv mashg‘ulotlarida egallab, keyinchalik ularni klinik amaliyot davomida qo‘llashadi. Biroq bu jarayon doimo samarali natija bermaydi. Chunki real klinik sharoitda bemor bilan ishlashda vaqt cheklangan, xatoga yo‘l qo‘yish xavfi yuqori, murabbiy nazorati esa doimo yetarli darajada bo‘lmasligi mumkin. Natijada talaba o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatidan to‘liq foydalana olmaydi. Simulyatsion ta’lim esa bu muammolarning aksariyatini bartaraf etib, o‘quvchilar uchun xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitni yaratadi.

Simulyatsiya – bu maxsus yaratilgan sharoitlarda klinik vaziyatlarni qayta tiklash orqali o‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash usuli hisoblanadi. Bu jarayon turli texnologiyalarga asoslanadi: yuqori aniqlikdagi manekenlar, virtual va kengaytirilgan reallik dasturlari, interaktiv multimediya vositalari hamda standartlashtirilgan bemorlar (aktyorlar ishtirokidagi klinik vaziyatlar). Ushbu vositalar yordamida talabalar nafaqat klinik ko‘nikmalarni egallash, balki muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, stressni yengish va jamoada ishlash malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarning yetakchi tibbiy oliygohlarida simulyatsion ta’lim keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion metodlardan foydalanish klinik xatolarni 30–40 foizgacha kamaytirishga, talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni esa uzoq muddat saqlab qolishga yordam beradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ham simulyatsion o‘qitishni tibbiy ta’limda sifat ko‘rsatkichlarini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda simulyatsion markazlar tashkil etilmoqda. Respublikamizdagi tibbiyot oliygohlarida zamonaviy manekenlar, virtual dasturlar va klinik simulyatsiya laboratoriyalaridan

ISSN 3030-3907

foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu, o‘z navbatida, nafaqat ta’lim sifati, balki bemor xavfsizligi va shifokorlarning kasbiy malakasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, simulyatsion ta’limning afzalliklari juda keng qamrovli. Ular quyidagilardan iborat:

- talabalar bilimini nazorat qilinadigan sharoitda mustahkamlash;
- murakkab klinik holatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- o‘quvchilarda kasbiy mas’uliyatni shakllantirish;
- kommunikativ va jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantirish;
- stressli vaziyatlarda faoliyat yuritish malakasini hosil qilish.

Kirish qismidan ko‘rinib turibdiki, simulyatsion ta’limning tibbiy ta’lim jarayonidagi o‘rni beqiyosdir. U an’anaviy ta’lim metodlarini to‘liq inkor qilmay, balki ularni yanada takomillashtiruvchi, xavfsiz va samarali qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, ushbu maqolada tibbiy ta’limda simulyatsion o‘qitishning mohiyati, afzalliklari va amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. So‘nggi yillarda tibbiy ta’limda simulyatsion o‘qitish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion texnologiyalar talabalarning klinik ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, xorijiy va mahalliy mualliflarning ilmiy ishlanmalarida ushbu usul nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy mashg‘ulotlarda ishonch hosil qilish va xatolardan o‘rganish imkonini berishi qayd etilgan.

Simulyatsion o‘qitishda turli **metodlardan** foydalaniladi. Eng ko‘p qo‘llaniladiganlari quyidagilardan iborat:

-Trenajyor va manekenlar asosida mashg‘ulotlar – bemorga yordam ko‘rsatish jarayonlarini takrorlash imkonini beradi.

-Klinik vaziyatlarni modellashtirish (Case-study) – talabalarni real sharoitlarda qaror qabul qilishga tayyorlaydi.

-Virtual va interaktiv simulyatsiyalar – zamonaviy texnologiyalar yordamida masofaviy va vizual o‘qitishni amalga oshiradi.

-Standartlashtirilgan bemorlar bilan mashg‘ulotlar – aktyorlar yoki maxsus tayyorlangan shaxslar yordamida klinik muloqot va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ushbu metodlarning qo‘llanilishi ta’lim jarayonida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirish, shuningdek, talabalarni mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilishga tayyorlash imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, tibbiy ta’limda simulyatsion o‘qitishdan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Simulyatsiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda ishtirok etgan talabalar nazariy bilimlarni klinik vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish va muammoli holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatida aniq ijobiy o‘sish kuzatilgan. Xususan, klinik amaliy ko‘nikmalarni egallashda simulyatsion treninglardan foydalanilgan guruhlarda mustaqil faoliyat ko‘rsatish darajasi an’anaviy ta’lim oluvchilarga nisbatan yuqori bo‘ldi.Natijalarga ko‘ra, simulyatsion o‘qitish jarayonida talabalar o‘z xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning klinik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishga, bemor xavfsizligini ta’minlashga xizmat qildi. Bemor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashda yuzaga keladigan xavf va cheklovlar simulyatsion muhitda mavjud emasligi sababli, talabalar turli klinik ssenariylarda erkin harakat qila oldilar va bu o‘z navbatida ularning stressga chidamliligini oshirdi.Ilmiy manbalarda keltirilishicha, dunyoning yetakchi tibbiy oliygohlarida simulyatsion metodlar nafaqat amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda, balki kommunikativ va jamoaviy ishlash malakalarini shakllantirishda ham samarali natijalar bergan. Bizning kuzatuvlarimiz ham ushbu ma’lumotlarni tasdiqladi: talabalar o‘zaro hamkorlikda ishlash, o‘z fikrini asoslab berish va kasbiy etika tamoyillariga rioya qilishda sezilarli rivojlanishga erishdilar.Muhokama jarayonida qayd etish joizki, simulyatsion ta’lim klinik amaliyotni to‘liq almashtira olmaydi. U an’anaviy ta’lim jarayonini to‘ldiruvchi, nazariy bilim va klinik tajriba o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiruvchi samarali vosita sifatida qaralishi kerak. Simulyatsion o‘qitishning afzalliklari bilan bir qatorda, uni joriy etishda moddiy-texnik baza, yuqori malakali instruktorlar va doimiy yangilab boriladigan ssenariylar mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti, bemor xavfsizligi masalalarining dolzarbligi va ta’lim tizimida global o‘zgarishlar tibbiy oliygohlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu vazifalarni samarali hal etishning eng muhim yo‘llaridan biri — bu simulyatsion o‘qitish metodlarini keng joriy etishdir. O‘tkazilgan tahlillar va ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion ta’lim nafaqat talabalarni klinik faoliyatga tayyorlaydi, balki ularning kasbiy mahoratini, kommunikativ qobiliyatini, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi.

Simulyatsion o‘qitishning eng katta afzalliklaridan biri – bu xavfsiz muhitda o‘qitish imkoniyatidir. Talabalar real klinik sharoitga yaqin vaziyatlarda mashq qilib, o‘z xatolarini bemorga zarar yetkazmasdan tuzatish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu jarayon ularda klinik fikrlashni shakllantiradi, mas’uliyat hissini kuchaytiradi

ISSN 3030-3907

va kasbiy o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Xususan, dunyo tajribasida simulyatsion metodlardan foydalangan guruhlarda klinik xatolar darajasi an’anaviy ta’lim olganlarga qaraganda 25–40% ga kamligi aniqlangan.

O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimida so‘nggi yillarda simulyatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Respublika tibbiyot oliygohlarida klinik simulyatsiya markazlarining tashkil etilishi, zamonaviy yuqori aniqlikdagi manekenlar va virtual simulyatsion dasturlar bilan jihozlanishi o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu, o‘z navbatida, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash, tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, simulyatsion ta’limni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, yuqori malakali instruktorlarni tayyorlash, ta’lim dasturlarini muntazam ravishda yangilab borish zarur. Bu vazifalarni hal qilish orqali simulyatsion o‘qitish samaradorligini yanada oshirish, uning tibbiy ta’lim tizimidagi o‘rnini mustahkamlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, simulyatsion o‘qitish:

- talabalarda klinik ko‘nikmalarni shakllantirishda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi;
- bemor xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi;
- kommunikativ ko‘nikmalar va kasbiy etika tamoyillarini rivojlantiradi;
- stressli vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Kelgusida tibbiy ta’limda simulyatsion metodlarni yanada keng joriy etish, ularni an’anaviy klinik amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida yangilab borish zarur. Chunki simulyatsion ta’lim nafaqat talabalarning kasbiy salohiyatini oshiradi, balki butun sog‘liqni saqlash tizimida bemor xavfsizligi va xizmat sifatini ta’minlashning muhim kafolatidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Okuda, Y., & Bryson, E. O. (2009). The utility of simulation in medical education: what is the evidence? Mount Sinai Journal of Medicine, 76(4), 330–343.
2. Issenberg, S. B., McGaghie, W. C., Petrusa, E. R., Gordon, D. L., & Scalese, R. J. (2005). Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning: a BEME systematic review. Medical Teacher, 27(1), 10–28.
3. Motola, I., Devine, L. A., Chung, H. S., Sullivan, J. E., & Issenberg, S. B. (2013). Simulation in healthcare education: A best evidence practical guide. AMEE Guide No. 82. Medical Teacher, 35(10), e1511–e1530.

ISSN 3030-3907

4. Lateef, F. (2010). Simulation-based learning: Just like the real thing. Journal of Emergencies, Trauma and Shock, 3(4), 348–352.
5. Ziv, A., Small, S. D., & Wolpe, P. R. (2000). Patient safety and simulation-based medical education. Medical Teacher, 22(5), 489–495.
6. Касимова, Н. Ш. (2020). Симуляционное обучение в системе медицинского образования: опыт и перспективы. Медицинское образование и профессиональное развитие, 11(2), 45–49.
7. Ахмедова, Д. М., & Хайдарова, С. Ш. (2021). Инновационные методы обучения в медицинском образовании. Journal of Advanced Research in Medical Education, 2(3), 112–118.
8. Абдурахмонов, Б. Р. (2019). Симуляционное обучение как современный метод подготовки медицинских кадров. Тиббий таълим ва амалиёт журнали, 4(1), 25–30.

ISSN 3030-3907

FURFUROL ASOSIDAION ALMASHINADIGAN POLIMERLAR

Jamilova Niginabonu Qobil qizi
Dotsent, Buxoro davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
Axmedov Vohid Nizomovich
Professor Buxoro davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
Sohibova Nilufar
Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyi
E-mail: Jamilova0807@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ionitlarni sintez qilishda asosiy monomer sifatida gidroliz sanoati mahsuloti bo‘lgan furfurolni qo‘llash usullari muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, furfurol – ikkilamchi xom ashyo asosida yangi ionoalmashinuv polimerlarini sintez qilish, ularning sorbsion va ekspluatatsion xususiyatlarini o‘rganish metodikasi keltirilgan. Turli kimyo sanoati ishlab chiqarishlari, shu jumladan gidrometallurgiya sohasidagi chiqindi va toza suvlarni tozalash uchun samarali va amaliy foydalanish obyektlarini aniqlash katta ilmiy-texnik va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: furfurol, 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol, akril kislota, DAK, KOH, kreoskopik usul, oligo(polimer), molekulyar massa, vinilatsetilen

Аннотация: В научных статьях подчёркивается важность использования фурфурола продукта гидролизной промышленности в качестве основного мономера при синтезе ионитов. На основе вышеизложенного представлена методика синтеза новых ионообменных полимеров на основе фурфурола как вторичного сырья, а также изучения их сорбционных и эксплуатационных свойств. Определение эффективных и практических объектов применения таких материалов для очистки сточных и пресных вод различных химических производств, включая гидрометаллургическую отрасль, представляет собой значительный научно-технический и прикладной интерес.

Ключевые слова: фурфурол, 1-(фуранил-2)пентен-4-ин-2-ол, акриловая кислота, ДАК, КОН, криоскопический метод, олиго(полимер), молекулярная масса, винилацетилен.

Abstract: The article emphasizes the importance of using furfural — a product of the hydrolysis industry as a primary monomer in the synthesis of ion-exchange resins. Based on this, a methodology is presented for synthesizing new ion-exchange polymers from furfural as a secondary raw material, along with the study of their sorption and operational properties. Identifying effective and practical applications of these materials for the treatment of wastewater and freshwater from

ISSN 3030-3907


various chemical industries, including the field of hydrometallurgy, holds significant scientific, technical, and practical importance.

Keywords: furfural, 1-(furan-2-yl)pent-4-yn-2-ol, acrylic acid, DAK, KOH, cryoscopic method, oligo(polymer), molecular weight, vinylacetylene

Kirish

Furfurolni o‘zaro bog‘lovchi vosita sifatida ishlatib, ion almashinadigan polimerlarni olish usullarining xususiyatlariga to‘xtatib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Furan hosilalari , xususan furfurol asosidagi ion almashinadigan polimerlar amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni ishlab chiqarish uchun O‘zbekistonda o‘simlik xomashyosining , jumladan paxta tozalash sanoati chiqindilarining katta zaxiralari mavjud.(1,2). Ushbu xomashyo furfurol va uning hosilalarini ishlab chiqarish manbalaridan biridir. Furfurolni ionitlarni ishlab chiqarish uchun boshlang‘ich monomer sifatida tanlash furfurol va uning hosilalari sanoatda mavjud bo‘lgan reaksion qobiliyatli birikmalarning katta sinfiga tegishli ekanligi bilan bog‘liq. Geterosiklik yadro mavjudligi tufayli furfurol asosidagi polimerlar termo.kimyoviy va radiatsion barqarorlik bilan farq qiladi. Oxirgisi Moskvadagi Plastmassa ilmiy tadqiqot institutida D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo –texnologiya uneversitetida, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi institutlarida olib borilgan ishlarga ko‘ra yuqori issiqlikka chidamli va kimyoviy chidamli polimer materiallarni olish uchun xomashyo hisoblanadi.**(**3,4**)**

Furfurol va uning hosilalari asosida ion almashinadiganlarni sintez qilish va o‘rganish bo‘yicha xorijiy adabiyotlar bir nechta ishlar bilan cheklangan va ular asosan patent xarakterga ega.(5,6). Ion alamashinadiganlarning sinteziga bag‘ishlangan birinchi ishlardan biri karboksil va sulfokationitlarni furfurolni β - furilakril kislota, benzolsulfokislota va n-fenolsulfofislota bilan polikondensatsiyalab olishdan iborat.




Bu kationitlar tarkibiga karboksil, sulfo va fenol gidroksil guruhlari mavjud. Sulfokationitlar ancha arzon dastlabki modda – lignin asosida olinishiga

ISSN 3030-3907

qaramasdan uning sulfolanishi tasodifiydir, shuning uchun ionitlar tartibsiz tuzilishga ega. Bir vaqtning o‘zida ion alamashinadigan ham elektr almashinadigan xususiyatlarga ega bo‘lgan polimer ko‘p atomli fenollarni furfurol bilan polikondensatsiyasi yo‘li bilan olingan (7,8). Bu polimer qaytaruvchi xususiyatlarga ega. Uch valentli temirning ikki valentigacha qaytarish qobiliyati 6,5 mg-ekv/g ni tashkil qiladi. Kinetik xossalarini yaxshilash uchun elektr ion almashinuvchilarni sintez qilishda oldindan sulfolangan fenollar qo‘llanildi, bunda qaytaruvchilik qobiliyati biroz oshadi. (7,5 mg -ekv/g) . Furfurolni o‘zaro bog‘lovchi vosita sifatida qo‘llagan holda ion almashinadiganni olish va shu polimerlarning strukturasini tahlil qilish haqida batafsilroq to‘xtab o‘tamiz, undan azot saqlagan anionit sintez qilish uchun ishimizda foydalanish mumkin. Ionitlarni sintez qilishga bag‘ishlangan birinchi ishlardan biri bu karboksil va sulfokationitlarni furfurolni p – furil-akril kislota , benzolsulfokislota va n – fenolsulfokislota bilan polikondensatsiyasi yo‘li bilan hosil qilish hisoblanadi. (9,10).

Yuqoridagi ishlarning mualliflari sintez qilingan kationitlarning ishqor eritmalaridagi yuqori termobarqarorligini ta’kidlaydilar, ammo yana shuni ta’kidlash kerakki fenol aldegidli polimer asosida olingan barcha ionitlar ularning strukturasida fenol gidroksil guruhlari borligi sababli , ayniqsa bu ko‘p atomli fenollar va aldegidlar asosida olingan polimerlarga taalluqli , past kimyoviy va termik barqarorlikka ega. Bu turdagi ionitlarning ishqorlar va oksidlovchilarga termo – kimyoviy mustahkamligini oshirish uchun kationitlarni sintez qilishda dastlabki moddalar sifatida aromatik kislotalar : β - naftalinsulfokislota , n – toluol sulfokislota salitsil kislota qo‘llanildi. (11,12). Ushbu kislotalardan foydalanish qo‘shimcha kimyoviy o‘zgarishlarni istesno qiladi: boshqa tomondan , kationitlar tarkibida aromatik halqalarning furan halqalari bilan birga borligi bu kationlarning termik va radiatsion barqarorligini ancha oshiradi. (13,14) Furfurolni vinilatsetilen bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri vinillash haqida ma’lumotlar juda cheklangan. Ishqoriy muhitda furfurolni Kanitsarro reaksiyasiga kirishishini e’tiborga olgan holda toza furfurol tanlandi. Sintez natijasida furfurol va vinilatsetilendan yuqori asosli sistemada, xona sharoiti va atmosfera bosimida olindi.



Yuqori asosli tizim ishtirokida reaksiyaning davomiyligi, haroratga bog‘liq holda reaksiya unumi 80 % ni tashkil etadi.

ISSN 3030-3907


1-jadval

1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 unumiga haroratning ta’siri (katalizator KOH ning miqdori furfurol massasiga nisbatan - 15%) Reaksiya davomiyligi, 3 soat (mahsulot shartli JNQ-1 deb nomlandi)

№	Reaksiya harorati, ^{o}C	1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 unumi, %
1	30	9.6
2	35	13,8
3	40	19,6
4	45	25,4
5	50	35,2
6	55	45,6
7	60	58,2
8	65	65,2
9	70	75,3
10	75	80,1
11	80	78,2
12	85	72,2
13	90	67,8
14	100	57,6
15	110	52,7
16	120	48,8

Ekstraksiya usuli uchun erituvchini tanlashda biz erituvchilar ta’sirida reaktivlar va reaksiya mahsulotlarining eruvchanligi hisobga olindi.


ISSN 3030-3907



IQ spektroskopiya va potensiometrik titrlashdan foydalanib, ion almashtiradiganlarning xusiyatlarini o‘rganildi. Yod ionlariga ma’lum tanlanuvchilikka ega bo‘lgan sulfokationit ionogen guruhlarni siklogeksan – furfurolli polimerning strukturasiga kiritish yo‘li bilan sintez qilingan. Masalan, atseton- furfurol polimerini sulfolab yuqori termobarqarorlikka ega bo‘lgan sulfokationit sintez qilingan.Aminosulfokationitlarning hosil bo‘lishi mexanizmi maqolada keltirilmagan . Sintez qilingan oligomerni identifikatsiyalash zamonaviy tekshirish usulida olib borildi. Olingan modda IQ spektrda tekshirildi va reaksiya tenglamasiga keltirilgan tarkibdagi funksional guruhlarga mos ekanligi aniqlandi.

Furan halqasi choklangan ionit murakkab uch o‘lchovli tuzilishga ega mustahkam, donador bo‘lganligi sababli, uning tuzilishini o‘rganishda kimyoviy tahlil usullari bilan parallel ravishda fizik-kimyoviy tahlil usullari foydalanilib tadqiq etildi. Sintez qilingan ionitdagi ko‘p funksiyalar orasidagi ionogen guruhlarning funksionalligini va dissotsiyalanish darajasini aniqlash maqsadida analitik usul - potensiometrik titrlash egri chiziqlari olindi. Eritmalarning muhiti ya’ni pH muvozanati pH metrda aniqlandi, kationitning eritmalar bilan ion almashinish muddati bir hafta davomida o‘rganildi. Kationitning potensiometrik titrlash egri chizig‘idan olinadigan eng asosiy xulosa bu pH qiymati oshishi bilan ion almashinish qobiliyatining ortib borishini ko‘rsatuvchi monotonik pasayish egri chizig‘i bilan tavsiflanadi (1- rasm).

ISSN 3030-3907



1- rasm. Kation almashinuvchining potensiometrik titrlash egri chizig‘i. 1) 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 +AK+PSK; 2) 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 +AK, 3) 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 +PSK

Akril kislota karboksil guruhi bilan bir vaqtda gidroksil guruh bilan uning almashinish sig‘imini belgilab beradi va bu potensiometrik titrlashda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

REFERENCES

1. Firuz O., Vohid A. Synthesis of ionites based on cremnisole //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-13 (97). – С. 19-21.
2. Abror o‘g‘li, A. A. (2023). Improving the physico-chemical properties of urea furfural resin. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 268-271.
3. Davron o‘g‘li, N. D. (2023). Application of urea-formaldehyde and urea-furfural resins in different solvents. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 265-267.
4. Firuz O., Vokhid A. Synthesis and properties of complex forming ionites //Universum: технические науки. – 2023. – №. 2-6 (107). – С. 38-40.
5. Ostonov F., Akhmedov V., Olimov B. Preparation of hybrid composites by sol-gel method and analysis of its properties //Scientific Collection «InterConf». – 2022. – №. 123. – С. 256-259.
6. Zuhriddin, R., & Niginabonu, J. (2022). Production of polyethylene terephthalate. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 58-62.
7. O‘G‘Li, R. Z. K., & Qizi, J. N. Q. (2022). Analysis of importance and methods of production of block sopolymers based on polyetylenterephtalate. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, 3(1), 51-55.

ISSN 3030-3907

8. Zuhriddin, R., Niginabonu, J., Aminjon, V., & Temurbek, D. (2022). Mechanisms of eterification of tereftalic acid with etylenglycol. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 63-67.
9. Nigina J., Mizrob Z. Production of vinyl ethers of furfuryl alcohol //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 9-2 (111). – С. 57-62.
10. Bobir, O., Vokhid, A., Gulnoz, G., & Sherzod, R. (2022). Synthesis and properties of nitrogen-retaining corrosion inhibitors. Universum: химия и биология, (4-2 (94)), 43-46.
11. Ostonov F. Кремнийорганик бирикмалар билан модификацияланган акрил бирикмаларининг олиниши //центр научных публикаций (BuxDU. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
12. Olimov, B. B., & Rakhmatov, S. (2022). Synthesis and use of corrosion inhibitors on the basis of diatomic phenols in the oil and gas industry. In Kimyo va tibbiyot: nazariyadan amaliyotgacha (pp. 141-143).
13. Chavez-Sifontes, M. H., Domine, M. E., & Valencia, S. (2015). Synthesis of furan derivatives via cascade-type reactions catalyzed by solid acids. Catalysis Today, 257, 305-317.
14. Gaboriaud, F., Nonat, A., Chaumont, D., & Craievich, A. (2005). Structural model of gelation processes of a sodium silicate sol destabilized by calcium ions: combination of SAXS and rheological measurements. Journal of Non-Crystalline Solids, 351(4), 351-354.
15. Yang, Z., Chou, X., Kan, H., Xiao, Z., & Ding, Y. (2022). Nanoporous copper catalysts for the fluidized electrocatalytic hydrogenation of furfural to furfuryl alcohol. ACS Sustainable Chemistry & Engineering, 10(22), 7418-7425.
16. Venegas-García, D. J., Mir, M., Steiger, B. G., & Wilson, L. D. (2024). Furfuryl-pyridinium-functionalization of flaxseed gum for effective methylene blue removal from aqueous solution. Canadian Journal of Chemistry.

ISSN 3030-3907

FURFUROL ASOSIDAGI SINTEZLAR

Jamilova Niginabonu Qobil qizi
Dotsent, Buxoro davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
E-mail: Jamilova0807@mail.ru
Axmedov Vohid Nizomovich
Professor, Buxoro davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
Zaripov Mizrobjon Xalimovich
Mustaqil izlanuvch, Buxoro davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro

Annotatsiya: Maqolada ionitlarni sintez qilishda asosiy monomer sifatida gidroliz sanoati mahsuloti bo‘lgan furfurolni qo‘llash usullari muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, furfurol – ikkilamchi xom ashyo asosida yangi ionoalmashinuv polimerlarini sintez qilish, ularning sorbsion va ekspluatatsion xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek, olingan ionitning molekulyar massasi aniqlangan, hamda metodikasi keltirilgan. Turli kimyo sanoati ishlab chiqarishlari, shu jumladan gidrometallurgiya sohasidagi chiqindi va toza suvlarni tozalash uchun samarali va amaliy foydalanish obyektlarini aniqlash katta ilmiy-texnik va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: furfurol, 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol, akril kislota, DAK, KOH, kreoskopik usul, oligo(polimer), molekulyar massa, vinilatsetilen

Аннотация: В статье подчеркивается важность применения фурфурола — продукта гидролизной промышленности — в качестве основного мономера при синтезе ионитов. На основе изложенного рассматривается синтез новых ионообменных полимеров на основе вторичного сырья — фурфурола, исследуются их сорбционные и эксплуатационные свойства. Кроме того, определена молекулярная масса полученного ионита и приведена соответствующая методика. Определение эффективных и практичных объектов применения данных ионитов для очистки сточных и чистых вод различных химических производств, включая гидрометаллургию, имеет большое научно-техническое и прикладное значение.

Ключевые слова: фурфурол, 1-(фуранил-2)пентен-4-ин-2-ол, акриловая кислота, ДАК, КОН, криоскопический метод, олиго(полимер), молекулярная масса, винилацетилен.

Abstract: The article emphasizes the significance of using furfural, a product of the hydrolysis industry, as the main monomer in the synthesis of ion exchangers. Based on this, the synthesis of new ion-exchange polymers from furfural as a secondary

ISSN 3030-3907

raw material is described, along with the investigation of their sorption and operational properties. In addition, the molecular weight of the obtained ion exchanger has been determined, and the corresponding methodology is presented. Identifying effective and practical applications of these ion exchangers for the purification of wastewater and clean water from various chemical industries, including hydrometallurgy, is of great scientific, technical, and practical importance.

Keywords: furfural, 1-(furan-2-yl)pent-4-yn-2-ol, acrylic acid, DAK, KOH, cryoscopic method, oligo(polymer), molecular weight, vinylacetylene.

Kirish


O‘zbekistonda furan birikmalari bilan bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib unda bu spirtlarni tanlab modifikatsiya qilish ularning sintetik va amaliy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ularni atsetilen bilan vinillash reaksiyasi qulay, tejamli, “yashil” kimyo usuli talablariga javob beradigan furan fragmentini saqlagan vinil efirlarini sintez qilish usuli istiqbolli bo‘lib hisoblanadi, chunki ular polifunksional furan strukturalarining dizayni uchun qimmatli asosiy matritsa hisoblanadigan birikmalardir. Hozirgi vaqtda sanoat organik sintezining ko‘lami shunchalik kattaki, uning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan neft va gazning cheklangan tabiiy resurslari muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu borada tabiiy qayta tiklanadigan xomashyo asosida asosiy birikmalar olish yo‘nalishi istiqbollidir. Fan texnikaning so‘nggi yutuqlari vaqtda turli kimyoviy tabiatga ega bo‘lgan komponentlar kombinatsiyasi asosida shakllantirilgan polimer kompozitsion materiallar yangi sinfi hisoblanib ular o‘z tavsifi bo‘yicha alohida olingan tarkibiy komponentlar ko‘rsatkichlaridan ancha ustun turadi. Kompozitsion xususiyatlari yig‘indisi jihatidan ular o‘ziga xos fizik - mexanik, magnit, optik-elektron xususiyatlarni namoyon qiladi, yuqori kimyoviy va termik barqarorlikka ega bo‘ladi hamda, turli xil nurlanishga chidamliligi ortadi. So‘nggi yillarda furan hosilalari kerakli xususiyatlarga ega bo‘lgan materiallar va kompozitsiyalarni yaratishda tobora muhim axamiyat kasb etmoqda.

Furfurol – bargli daraxtlardan tashqari, qishloq xo‘jaligi chiqindilari bilan ifodalanadigan pentozan xomashyosi gidrolizining asosiy maxsuloti. Furfurolning jahon ishlab chiqarishi yiliga 250000 tonnani, narxi esa har bir tonna uchun 1000 $ tashkil qiladi [8; 103-107 b]. Bugungi kunda bu birikma asosiy organik sintezda xom neft o‘rnini bosa oladi [9; 185 b]. Furfurolni gidrogenlab sanoat erituvchilarni [10; 67-74 b], yoqilg‘ilar uchun qo‘shimchalarni [6; 1250-1284 b:, 7; 1446-1450 b], turli biodegradatsiyalanadigan polimerlarni [11; 404-405 b] oladilar. Masalan, furfurol, asosan, furan smolalari, adgezivlar, bo‘yoqlar olish uchun ishlatiladi.

ISSN 3030-3907

Tetragidrofurfuril spirti akrilatlar va epoksid smolalarni ishlab chiqarishda sanoatda qo‘llash uchun “yashil” erituvchi sifatida tan olingan, shuningdek tetragidrofurfuriloleat turidagi plastifikatorlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi [12; 7164-7183 b].

Furfurolni vinilatsetilen bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri vinillash haqida ma’lumotlar juda cheklangan. Ishqoriy muhitda furfurolni Kanitsarro reaksiyasiga kirishishini e’tiborga olgan holda toza furfurol tanlandi. Kannitssaro reaksiyasi- aldegidlarning ishqorlar ta’sirida disproporsiyalanishi natijasida birlamchi spirtlar va karbon kislotalarga aylanishi. Bunda aldegidning bir molekulasi qaytarilib, spirtga, ikkinchi molekulasi oksidlanib, kislotaga aylanadi. Reaksiya ishqoriy muhitda borganda kislota emas, balki uning tuzi hosil bo‘ladi. Reaksiyani italiyalik kimyogar S. Kannitssaro 1853-yilda kashf qilgan. 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 va vinilatsetilendan yuqori asosli sistemada, xona sharoiti va atmosfera bosimida olindi.



Kuchli asosli sistemada DMSO oraliq dimsil kompleksini hosil qilib reaksiyaning unumini ta’minlab beradi. Shuningdek, vinillovchi agent sifatida vinilatsetilenning tanlanishi uning reaksion qobiliyati va atsetilenga nisbatan fizik ko‘rsatgichlarini farqiga asoslanib tanlandi. Dimsil ioni furfuroldagi qutbli qism gidrooksil guruhidagi uglerod atomiga S_{N1} hujum qiladi va birikish reaksiyasi sodir bo‘ladi.

Yuqori asosli tizim ishtirokida reatsiyaning davomiyligi, haroratga bog‘liq holda reaksiya unumi 80% gacha boradi.

ISSN 3030-3907

1-jadval

1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 unumiga haroratning ta’siri (katalizator KOH ning miqdori furfurol massasiga nisbatan - 15%) Reaksiya davomiyligi, 4 soat

№	Reaksiya harorati, °C	1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 unumi, %
1	30	9.6
2	35	13,8
3	40	19,6
4	45	25,4
5	50	35,2
6	55	45,6
7	60	58,2
8	65	65,2
9	70	75,3
10	75	80,1
11	80	78,2
12	85	72,2
13	90	67,8
14	100	57,6
15	110	52,7
16	120	48,8

Vinil efirlarini sintez qilishning an’anaviy sharoitlari furfurol uchun juda qattiq bo‘lib hisoblanadi va bu jarayonda sodir bo‘ladigan smola hosil bo‘lishini yo‘q qilish maqsadida erituvchi sifatida DMSO qo‘llanildi. Reaksion aralashmaga 30-120°C da 2-5 soat davomida vinilasetilen yuttirildi Furfurolni vinillashni batafsilroq o‘rganishi shuni ko‘rsatdiki, furfurol boshqa gomologlariga qaraganda vinilasetilenga nukleofil birikish reaksiyasiga ancha osonroq kirishadi: DMSO bilan KOH ko‘ylakli reaktorda qizdirganda vinil efiri dastlabki mahsulotning to‘liq konversiyalanishida 78% li unum bilan hosil bo‘ladi. Haroratni ko‘tarish va qizdirish davomiyligini oshirish vinilfurfurol unumining pasayishiga va ancha smolalanishga olib keladi. Berilgan harorat va sharoitda furfurol birikmalari smola hosil qilishga moyil hisoblanib, DMSO da esa bu muammo o‘z yechimini topdi.

Ekstraksiya usuli uchun erituvchini tanlashda biz erituvchilar ta’sirida reaktivlar va reaksiya mahsulotlarining eruvchanligi hisobga olindi. Masalan, reaktivlar va mahsulotlarni izobutilda eritganda, unda quyidagilar eriydi: DMSO + KOH va 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 aralashmasi. Bundan xulosa qilishimiz

ISSN 3030-3907

mumkinki, izobutilni ekstraksiyada erituvchi sifatida ishlatib bo‘lmaydi, chunki unda barcha reagentlar, shu jumladan reaksiya natijasida hosil bo‘lgan zarur mahsulotlar ham eriydi, ularni ajratib olish va tahlil qilish kerak [8]. Boshqa erituvchilarning ta’siri xuddi shunday tarzda sinovdan o‘tkazildi. Tahlil natijalari 3.2-jadvalda keltirilgan. Ushbu ma’lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, geptandagi ba’zi moddalarning erimasligi uni zarur sintezlangan moddani ajratib olish uchun ekstraksiya jarayonida qo‘llash imkonini beradi. Bu yerda geptanning tozaligiga e’tibor berish muhimdir.

2-jadval

Reaksiyaga kirishuvchi moddalar va mahsulotlarning erituvchilarda eruvchanligi

№	Erituvchilar	Dastlabki moddalar			Mahsulot
		Furfurol	Vinilatsetilen	Akril kislota	JNQ-1
1	Izopropil	eriydi	erimaydi	erimaydi	erimaydi
2	Oktan	erimaydi	erimaydi	erimaydi	erimaydi
3	Izobutil	eriydi	eriydi	eriydi	eriydi
4	Geptan	eriydi	erimaydi	eriydi	erimaydi
5	Toluol	erimaydi	eriydi	eriydi	eriydi
6	Geksan	erimaydi	erimaydi	eriydi	erimaydi
7	Amil spirti	erimaydi	erimaydi	eriydi	eriydi
8	Dekan	erimaydi	erimaydi	eriydi	erimaydi
9	Etil spirti	erimaydi	eriydi	eriydi	eriydi
10	Dimetilformamid	eriydi	eriydi	eriydi	eriydi

2 – jadvalda ko‘rinib turibdiki, dastlabki reagentlar etil, amil spirtida, dimetilformamidda, toluol, izobutilda erib, mahsulot dekan, oktan, geksanda erimasligidan foydalanib, oligomerni toza holda geptan ishtirokida ajratib olindi va uning fizik xossalari o‘rganildi, JNQ-1ning refroktometrda o‘lchangan nur sindirish ko‘rsatkichi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

REFERENCES

1. Firuz O., Vohid A. Synthesis of ionites based on cremnisole //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-13 (97). – С. 19-21.

2. Abror o‘g‘li, A. A. (2023). Improving the physico-chemical properties of urea furfural resin. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 268-271.

3. Davron o‘g‘li, N. D. (2023). Application of urea-formaldehyde and urea-furfural resins in different solvents. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 265-267.

ISSN 3030-3907

4. Firuz O., Vokhid A. Synthesis and properties of complex forming ionites //Universum: технические науки. – 2023. – №. 2-6 (107). – С. 38-40.
5. Ostonov F., Akhmedov V., Olimov B. Preparation of hybrid composites by sol-gel method and analysis of its properties //Scientific Collection «InterConf». – 2022. – №. 123. – С. 256-259.
6. Zuhriddin, R., & Niginabonu, J. (2022). Production of polyethylene terephthalate. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 58-62.
7. O‘G‘Li, R. Z. K., & Qizi, J. N. Q. (2022). Analysis of importance and methods of production of block sopolymers based on polyetylenterephtalate. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, 3(1), 51-55.
8. Zuhriddin, R., Niginabonu, J., Aminjon, V., & Temurbek, D. (2022). Mechanisms of eterification of tereftalic acid with etylenglycol. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 63-67.
9. Nigina J., Mizrob Z. Production of vinyl ethers of furfuryl alcohol //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 9-2 (111). – С. 57-62.
10. Bobir, O., Vokhid, A., Gulnoz, G., & Sherzod, R. (2022). Synthesis and properties of nitrogen-retaining corrosion inhibitors. Universum: химия и биология, (4-2 (94)), 43-46.
11. Ostonov F. Кремнийорганик бирикмалар билан модификацияланган акрил бирикмаларининг олиниши //центр научных публикаций (BuxDU. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
12. Olimov, B. B., & Rakhmatov, S. (2022). Synthesis and use of corrosion inhibitors on the basis of diatomic phenols in the oil and gas industry. In Kimyo va tibbiyot: nazariyadan amaliyotgacha (pp. 141-143).
13. Chavez-Sifontes, M. H., Domine, M. E., & Valencia, S. (2015). Synthesis of furan derivatives via cascade-type reactions catalyzed by solid acids. Catalysis Today, 257, 305-317.
14. Gaboriaud, F., Nonat, A., Chaumont, D., & Craievich, A. (2005). Structural model of gelation processes of a sodium silicate sol destabilized by calcium ions: combination of SAXS and rheological measurements. Journal of Non-Crystalline Solids, 351(4), 351-354.
15. Yang, Z., Chou, X., Kan, H., Xiao, Z., & Ding, Y. (2022). Nanoporous copper catalysts for the fluidized electrocatalytic hydrogenation of furfural to furfuryl alcohol. ACS Sustainable Chemistry & Engineering, 10(22), 7418-7425.
16. Venegas-García, D. J., Mir, M., Steiger, B. G., & Wilson, L. D. (2024). Furfuryl-pyridinium-functionalization of flaxseed gum for effective methylene blue removal from aqueous solution. Canadian Journal of Chemistry.

ISSN 3030-3907

FURFUROL ASOSIDAGI POLIMERLARNING TADQIQI

Jamilova Niginabonu Qobil qizi
Dotsent, Buxoro davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
Axmedov Vohid Nizomovich
Professor Buxoro davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro
Sohibova Nilufar
Buxoro davlat texnika universiteti akademik liseyi
E-mail: Jamilova0807@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada ionitlarni sintez qilishda asosiy monomer sifatida gidroliz sanoati mahsuloti bo‘lgan furfurolni qo‘llash usullari muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, furfurol – ikkilamchi xom ashyo asosida yangi ionoalmashinuv polimerlarini sintez qilish, ularning sorbsion va ekspluatatsion xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek, olingan ionitning molekulyar massasi aniqlangan, hamda metodikasi keltirilgan. Statik va dinamik sorbsion yutish o‘rganilgan, natijasi xromatamass va IQ spektrda tekshirilgan. Turli kimyo sanoati ishlab chiqarishlari, shu jumladan gidrometallurgiya sohasidagi chiqindi va toza suvlarni tozalash uchun samarali va amaliy foydalanish obyektlarini aniqlash katta ilmiy-texnik va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: furfurol, 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol, akril kislota, DAK, KOH, kreoskopik usul, oligo(polimer), molekulyar massa, vinilatsetilen, potensiametrik titrlash, xromato-mass spektri, IQ spektr.

Annotation. The paper argues that the use of furfurol, a product of the hydrolysis industry, as a key monomer in ionite synthesis is important. Based on the above, the synthesis of new ionoalmashinuv polymers based on furfurol – secondary raw materials, the study of their sorbic and operational properties, as well as the molecular mass of the ionite obtained, as well as the methodology are presented.nnotation. The paper argues that the use of furfurol, a product of the hydrolysis industry, as a key monomer in ionite synthesis is important. Based on the above, the synthesis of new ionoalmashinuv polymers based on furfurol – secondary raw materials, the study of their sorbic and operational properties, as well as the molecular mass of the ionite obtained, as well as the methodology are presented. Static and dynamic sorption studies were performed, and the results were verified by chromatogram and IR spectra. The identification of objects of effective and practical use for the treatment of waste and fresh water in various chemical industry productions, including hydrometallurgy, is of great scientific and technical and practical importance.

Keywords: furfurol, 1-(furanyl-2)pentene-4-in-2-ol, acrylic acid, DAK, KOH, creoscopic method, oligo(polymer), molecular mass, vinylacetylene, potentiametric titration, chromato-mass Spectrum, IQ spectrum.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В статье подчеркивается важность методов использования фурфурола, продукта гидролизной промышленности, в качестве основного мономера при синтезе ионитов. На основании вышеизложенного проводится синтез новых ионообменных полимеров на основе фурфурола-вторичного сырья, изучение их сорбционных и эксплуатационных свойств, а также определяется молекулярная масса полученного ионита, а также приводится методика.татье подчеркивается важность методов использования фурфурола, продукта гидролизной промышленности, в качестве основного мономера при синтезе ионитов. На основании вышеизложенного проводится синтез новых ионообменных полимеров на основе фурфурола-вторичного сырья, изучение их сорбционных и эксплуатационных свойств, а также определяется молекулярная масса полученного ионита, а также приводится методика. Были изучены статическое и динамическое сорбционное поглощение, результат был исследован в хроматамассе и ИК-спектре. Большое научно-техническое и практическое значение имеет выявление объектов эффективного и практического использования для очистки сточных и пресных вод различных производств химической промышленности, в том числе в области гидрометаллургии.

Ключевые слова: фурфурол, 1-(фуранил-2)пентен-4-в-2-ол, акриловая кислота, DAK, кон, креоскопический метод, олиго(полимер), молекулярная масса, винилацетилен, потенциометрическое титрование, хромато-масс-спектр, ИК-спектр.

1. Introduction


O‘zbekistonda furan birikmalari bilan bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib unda bu spirtlarni tanlab modifikatsiya qilish ularning sintetik va amaliy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ularni atsetilen bilan vinillash reaksiyasi qulay, tejamli, “yashil” kimyo usuli talablariga javob beradigan furan fragmentini saqlagan vinil efirlarini sintez qilish usuli istiqbolli bo‘lib hisoblanadi, chunki ular polifunksional furan strukturalarining dizayni uchun qimmatli asosiy matritsa hisoblanadigan birikmalardir. Hozirgi vaqtda sanoat organik sintezining ko‘lami shunchalik kattaki, uning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan neft va gazning cheklangan tabiiy resurslari muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu borada tabiiy qayta tiklanadigan xomashyo asosida asosiy birikmalar olish yo‘nalishi istiqbollidir. Fan texnikaning so‘nggi yutuqlari vaqtda turli kimyoviy tabiatga ega bo‘lgan komponentlar kombinatsiyasi asosida shakllantirilgan polimer kompozitsion materiallar yangi sinfi hisoblanib ular o‘z tavsifi bo‘yicha alohida olingan tarkibiy komponentlar ko‘rsatkichlaridan ancha ustun turadi. Kompozitsion xususiyatlari yig‘indisi jihatidan ular o‘ziga xos fizik - mexanik, magnit, optik-elektron xususiyatlarni namoyon qiladi, yuqori kimyoviy va termik

ISSN 3030-3907

barqarorlikka ega bo‘ladi hamda, turli xil nurlanishga chidamliligi ortadi. So‘nggi yillarda furan hosilalari kerakli xususiyatlarga ega bo‘lgan materiallar va kompozitsiyalarni yaratishda tobora muhim axamiyat kasb etmoqda.

Furfurol – bargli daraxtlardan tashqari, qishloq xo‘jaligi chiqindilari bilan ifodalanadigan pentozan xomashyosi gidrolizining asosiy maxsuloti. Furfurolning jahon ishlab chiqarishi yiliga 250000 tonnani, narxi esa har bir tonna uchun 1000 $ tashkil qiladi [8; 103-107 b]. Bugungi kunda bu birikma asosiy organik sintezda xom neft o‘rnini bosa oladi [9; 185 b]. Furfurolni gidrogenlab sanoat erituvchilarni [10; 67-74 b], yoqilg‘ilar uchun qo‘shimchalarni [6; 1250-1284 b:, 7; 1446-1450 b], turli biodegradatsiyalanadigan polimerlarni [11; 404-405 b] oladilar. Masalan, furfurol, asosan, furan smolalari, adgezivlar, bo‘yoqlar olish uchun ishlatiladi. Tetragidrofurfuril spirti akrilatlar va epoksid smolalarni ishlab chiqarishda sanoatda qo‘llash uchun “yashil” erituvchi sifatida tan olingan, shuningdek tetragidrofurfuriloleat turidagi plastifikatorlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi [12; 7164-7183 b].

Furfurolni vinilatsetilen bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri vinillash haqida ma’lumotlar juda cheklangan. Ishqoriy muhitda furfurolni Kanitsarro reaksiyasiga kirishishini e’tiborga olgan holda toza furfurol tanlandi. Kannitssaro reaksiyasi- aldegidlarning ishqorlar ta’sirida disproporsiyalanishi natijasida birlamchi spirtlar va karbon kislotalarga aylanishi. Bunda aldegidning bir molekulasi qaytarilib, spirtga, ikkinchi molekulasi oksidlanib, kislotaga aylanadi. Reaksiya ishqoriy muhitda borganda kislota emas, balki uning tuzi hosil bo‘ladi.




Kuchli asosli sistemada DMSO oraliq dimsil kompleksini hosil qilib reaksiyaning unumini ta’minlab beradi. Shuningdek, vinillovchi agent sifatida vinilatsetilenning tanlanishi uning reaksion qobiliyati va atsetilenga nisbatan fizik ko‘rsatgichlarini farqiga asoslanib tanlandi. Dimsil ioni furfuroldagi qutbli qism


ISSN 3030-3907

gidrooksil guruhidagi uglerod atomiga S_{N1} hujum qiladi va birikish reaksiyasi sodir bo‘ladi.

Ekstraksiya aralashmasining bir qatlamida reaksiyaga kirishmagan va efirda erigan moddalar (KOH+DMSO+furfurol), ikkinchi qavatida efirda erimaydigan, reaksiyaga ko‘ra hosil bo‘lgan sintezlangan mahsulot 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1ekanligi aniqlandi. 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1ning xromato-mass spektrometriga kiritilgandan keyin, tanlangan sharoitda 3.573 dan 3.597 minut oralig‘ida m/z 148 bo‘lgan 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 molekulyar ioni hosil bo‘ldi.




1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1ningning xromato-mass spektri



Mr=148


Bundan tashqari spektrda massasi m/z 131, m/z 104, m/z 97, m/z 84, m/z 67 va m/z 55 bo‘lgan bo‘lakli ionlarning hosil bo‘lishi aniqlandi. 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 ionidan 3.573 minutda gidroksil (-OH) radikalining ajralib chiqishi natijasida m/z 131 ionining ajralishi namoyon bo‘ldi. Bu cho‘qqi m/z 131 bo‘lgan 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 ioniga mos keladi va bu bog‘ energiyalariga ham mos keladi.

ISSN 3030-3907




Mr=148 Mr=131

Uchlamchi 1-(furan-2-il)penten-4-in-2-il-1 ionidan metilen radikalining ajralib chiqishi hisobiga m/z 86 ionining ajralishi namoyon bo‘ladi. Bu cho‘qqi m/z 104 bo‘lgan 1-(furan-2-il)-3λ^3-propin-2-il-1 ioniga mos keladi.



Mr=131 Mr=104

O‘z navbatida 1-(furan-2-il)-3λ^3-propin-2-il-1 ionidan 3.597 minutda radikalarining ajralib chiqishidan m/z 67 ionining ajralishi namoyon bo‘ldi.



Mr=67

Tahlil oxirida hosil bo‘lgan ionlarning kinetik qonuniyatlari ham o‘z navbatida halqaning ochilish murakkabligiga mos holda sodir bo‘ladi. Dastlabki bosqichda yon zanjirning ionlari ajralishi va so‘nggra halqaning parchalanishi moddaning strukturasini to‘g‘riligi va aniq identifikatsiya qilinganligi, qonuniyatlarga mosligi bilan tasdiqlaydi.

REFERENCES

1. Firuz O., Vohid A. Synthesis of ionites based on cremnisole //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-13 (97). – С. 19-21.

2. Abror o‘g‘li, A. A. (2023). Improving the physico-chemical properties of urea furfural resin. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 268-271.

3. Davron o‘g‘li, N. D. (2023). Application of urea-formaldehyde and urea-furfural resins in different solvents. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 265-267.

ISSN 3030-3907

4. Firuz O., Vokhid A. Synthesis and properties of complex forming ionites //Universum: технические науки. – 2023. – №. 2-6 (107). – С. 38-40.
5. Ostonov F., Akhmedov V., Olimov B. Preparation of hybrid composites by sol-gel method and analysis of its properties //Scientific Collection «InterConf». – 2022. – №. 123. – С. 256-259.
6. Zuhriddin, R., & Niginabonu, J. (2022). Production of polyethylene terephthalate. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 58-62.
7. O‘G‘Li, R. Z. K., & Qizi, J. N. Q. (2022). Analysis of importance and methods of production of block sopolymers based on polyetylenterephtalate. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, 3(1), 51-55.
8. Zuhriddin, R., Niginabonu, J., Aminjon, V., & Temurbek, D. (2022). Mechanisms of eterification of tereftalic acid with etylenglycol. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 63-67.
9. Nigina J., Mizrob Z. Production of vinyl ethers of furfuryl alcohol //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 9-2 (111). – С. 57-62.
10. Bobir, O., Vokhid, A., Gulnoz, G., & Sherzod, R. (2022). Synthesis and properties of nitrogen-retaining corrosion inhibitors. Universum: химия и биология, (4-2 (94)), 43-46.
11. Ostonov F. Кремнийорганик бирикмалар билан модификацияланган акрил бирикмаларининг олиниши //центр научных публикаций (BuxDU. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
12. Olimov, B. B., & Rakhmatov, S. (2022). Synthesis and use of corrosion inhibitors on the basis of diatomic phenols in the oil and gas industry. In Kimyo va tibbiyot: nazariyadan amaliyotgacha (pp. 141-143).
13. Chavez-Sifontes, M. H., Domine, M. E., & Valencia, S. (2015). Synthesis of furan derivatives via cascade-type reactions catalyzed by solid acids. Catalysis Today, 257, 305-317.
14. Gaboriaud, F., Nonat, A., Chaumont, D., & Craievich, A. (2005). Structural model of gelation processes of a sodium silicate sol destabilized by calcium ions: combination of SAXS and rheological measurements. Journal of Non-Crystalline Solids, 351(4), 351-354.
15. Yang, Z., Chou, X., Kan, H., Xiao, Z., & Ding, Y. (2022). Nanoporous copper catalysts for the fluidized electrocatalytic hydrogenation of furfural to furfuryl alcohol. ACS Sustainable Chemistry & Engineering, 10(22), 7418-7425.
16. Venegas-García, D. J., Mir, M., Steiger, B. G., & Wilson, L. D. (2024). Furfuryl-pyridinium-functionalization of flaxseed gum for effective methylene blue removal from aqueous solution. Canadian Journal of Chemistry.

ISSN 3030-3907

TARKIBIDA TERMIK BARQAROR TUZLAR BOR MDEA ERIMASINI 2PVDF/PSU/PAN/PEG TARKIBLI MEMBRANALI FILTRDAN O‘TKAZISH NATIJALARI TAHLILI

Bozorov Otabek Nashvandovich
Iqtisodiyot va pedagogika universitet professori
E-mail:bozorov@gmail.com
Anvarova Iroda Anvar qizi
Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchisi
Email: irodappq@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlatilgan MDEA eritmasi tajriba namunasi tarkibi fizik-kimyoviy tahlillar asosida tarkibi o‘rganildi. Ishlatilgan MDEA namunasi xromotograf tahlili, Ishlatilgan MDEA eritmasini XRF (Rentgen floresansi) spektrometriyasi, 20-30-35% li MDEA eritmasining 2PVDF/PSU/PAN/PEG membrana filtri orqali o‘tkazishda bosimning permeat (o‘tkazuvchanlik) oqimiga ta‘siri va ishlatilgan MDEA eritmasini 20%, 30 %, va 35% konsentratsiyalarida, bosim ortishida 2PVDF/PSU/PAN/PEG membrana filtrning ionlarni ushlab qolish samadorligi kabi ma’lumotlar maqolada keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: MDEA, 2PVDF/PSU/PAN/PEG, DEA, xromotografik tahlil, termik barqaror tuzlar, TEA.

Аннотация: Состав экспериментального образца раствора мдэа, использованного в данной статье состав изучен на основе физико-химических анализов. Образец используемого МДЭА подвергается хромотографическому анализу, спектрометрии XRF (рентгеновской флуоресценции) используемого раствора МДЭА, влиянию давления на поток пермеата (проницаемость) при пропускании 20-30-35% раствора МДЭА через мембранный фильтр 2PVDF/PSU/PAN/PEG, а также применению используемого раствора mdea в концентрациях 20%, 30%, и 35% под давлением. oritishida 2PVDF/PSU/PAN/PEG статье представлена такая информация, как эффективность мембранного фильтра Pan / PEG по улавливанию ионов.

Ключевые слова: МДЭА, 2PVDF/PSU/PAN/PEG, ДЭА, хромотографический анализ, термически стабильные соли, ТЭА.

Annotation: The composition of the experimental sample of the MDEA solution used in this article was studied on the basis of Physico-Chemical Analysis. Data such as the effect of pressure on permeate (permeability) flow in the transfer of used MDEA solution through chromotograph analysis, XRF (X-ray fluorescence) spectrometry of used MDEA solution, 2PVDF/PSU/PAN/PEG membrane filter of 20-30-35% MDEA solution in pressure orition, 20%, 30%, and 35%

ISSN 3030-3907

concentrations, ion retention samadurity of 2PVDF/PSU/PAN/PEG membrane filter.

Keywords: MDEA, 2PVDF/PSU/PAN/PEG, DEA, chromotographic analysis, thermally stable salts, TEA.

Kirish

Tabiiy gaz tarkibidagi zararli moddalar (H_2S, CO_2, COS, RSH va boshqalar) kislotali muhitni (pH<7) namoyon qilganligi sababli ularni yutuvchi alkanolamin eritmalari ishqoriy muhitni (pH>7) namoyon qilishi lozim. Etanolamin eritmalari ishqoriy muhitni namoyon qiluvchi asosiy guruh bu etanolamin molekulasidagi aminoguruhlar hisoblanadi. Ularni tabiiy gaz tarkibidagi zararli moddalar bilan kimyoviy o‘zaro ta’sirga kirishish qobiliyati asos xossalarni namoyon qiluvchi tarkibida aminoguruhlar borligi bilan belgilanadi.

Sanoatda tabiiy gazni zararli birikmalardan absorbsion tozalash qurilmalarning samarali ishlashi, tozalangan gazning sifat ko‘rsatgichlarini talab darajasida bo‘lishini ta’minlashda etanolamin eritmasini doimiy ravishda ishchi va fizik-kimyoviy xossalarini talab darajasida ushlab turish gaz tozalash jarayoni uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Tabiiy gazni absorbsion tozalashda ishlatiladigan ishchi eritma etanolaminlarni jarayonda uzluksiz doimiy aylanishda bo‘lib, uzoq muddat ishlatilishi, absorbsion jarayonda yuqori bosim va past temperaturada, desorbsion jarayoni esa yuqori temperatura va past bosimda borib, temperatura hamda bosimni doimiy keskin o‘zgarib turishi, gaz tarkibida S, O, Cl kabi moddalarni turli xil birikmalarini mavjud bo‘lishi va bu birikmalar ham alkanolamin eritmalariga yaxshi yutilishi natijasida va temperatura hamda bosim ta’sirida ular etanolaminlar bilan mustahkam oraliq mahsulotlar hosil qiladi. Absorbsion eritmasini uzoq vaqt uzluksiz ishlashi natijasida alkanolaminlarning polimerlangan birikmalari, metall tuzlari va boshqa organik birikmalar uning tarkibida yig‘ilib qoladi. Natijada texnologik qurilmalarning ichki yuzasida dashqollarni hosil bo‘lishiga, filtrlarda yig‘ilib ularni ishlash samaradorligini pasayishiga, absorbsion eritmaning fizik-kimyoviy xossasini yomonlashishiga olib keladi [1; 26-29 b., 2; 517 b., 3; 472 b].

Alkanolaminlarning zichligi suvga nisbatan yuqori bo‘lgan gigroskopik suyuqliklar bo‘lib, ular suvda va quyi molekulyar spirtlarda juda yaxshi eriydi. Uglevodorodlarda va boshqa qutbsiz erituvchilarda erimaydi. Alkanolaminlarning suvdagi eritmalarini qovushqoqligi past shuning uchun nisbatan past haroratlarda qotadi [4; 283 b]. Bu eritmalarda alkanolaminlarning molekulalari fazalar bo‘linishi (havo yoki boshqa gazning) chegarasida to‘planib ular orasidagi temperaturani ortishi bilan kuchlanishni kamaytiradi. Masalan, bu kuchlanish DEA va MDEA uchun 28-63 mH/m gacha bo‘ladi Etanolamin eritmalarida tuzlarning


ISSN 3030-3907

hosil bo‘lishi ularning molekulalari qutbliligini oshiradi va shunga mos ravishda ularning yuza faolligi ham ortadi. Shuni aytib o‘tish lozimki, absorbent eritmasining nisbiy issiqlik hajmi kamayishi bilan uni isitish va sovutishga ketadigan sarf xarajat kamayadi.

Lekin shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, aksariyat etanolaminlar temperatura oshishi va bosimini kamayishi natijasida parchalana boshlaydi. Absorbsion jarayonda tabiiy gaz tarkibidagi zararli (H_2S, CO_2, COS, RSH va boshqa.) birikmalar past temperatura (35-50 ^oC) va yuqori bosimda(42-45 kg/m^2.) etanolaminlar bilan o‘zaro reaksiyaga kirishib kuchsiz birikmalar hosil qiladi. Desorbsion jarayonda esa yuqori harorat(115-125 ^oC) va past bosimdan (1,2 kg/m^2) etanolaminlar bilan kuchsiz bog‘ hosil qilgan zararli birikmalar ajralib chiqadi

Etanolaminlarga nisbatan ularning suvli eritmalari yuqori haroratda yetarli darajada barqaror bo‘ladi. Masalan, MEAni 20% eritmasini 200^oC gacha qizdirilganda 120 soat, 58% konsentratsiyali eritmasi esa 70 soatgacha qizdirilganda eritmaning konsentratsiyasi o‘zgarmaydi. Shuningdek, MDEA eritmalari ham yuqori haroratda barqaror, DEA va TEA eritmalarining barqarorligi esa nisbatan past. DEA t >180 ^oC da, TEA t >170^oC da polikondensatsiyalangan smolasimon mahsulotga aylanadi [5; 261 b].

NATIJA: Ishlatilgan MDEA eritmasi tajriba namunasi tarkibi fizik-kimyoviy tahlillar asosida tarkibi o‘rganildi. Olingan namunalar Mass spektrometriyasi tahlillari olindi olingan natija quyidagi 1-rasmda keltirilgan



1-rasm. Ishlatilgan MDEA eritmasidan olingan namuna xromotogrammasi

Xromotograf tahlil natijalaridan shuni ko‘rsatdiki namuna tarkibida asosiy komponent metildietanolamin (MDEA) — 6.479–7.9 daqiqalar oralig‘ida ko‘plab piklar bilan 5 ta asosiy signalda (30.45%, 13.63%, 5.61%, 4.05%, 1.68%, va boshqalar) aniqlangan. Eritmada boshqa moddalar eritmada alkanolamin distruksiya mahsulotlari hamda termik barqaror tuzlar mavjudligini namoyon qildi, quyidagi jadvalda bir necha ifloslantiruvchi, yon mahsulotlar yoki reaksiya mahsulotlari mavjud. Ishlatilgan, namuna uchun olingan metildietanolamin mass xromotograf tahlil natijasida 1-jadvalda keltirilgan.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Ishlatilgan MDEA namunasi xromotograf tahlili.


№	RT(min)	Massa ulushi %	Modda nomi	Izoh
1	6.4-7.9	57.7	Metildietanolamin(MDEA) $CH_3N(C_2H_4OH)_2$	Namunadagi asosiy komponent hisoblanadi ko‘p piklarda namoyon bo‘ldi.
2	2.479	12.05	Trixlormetan $CH(Cl)_3$	Absorbsiya va desorbsiya jarayonida hosil bo‘lgan yon mahsulot
3	18.388	7.45	1-dodekanol $CH_3(CH_2)OH$	Metildietanolamin parchalanish mahsuloti
4	19.272	5.33	2 - (Asetil)oksi benzol, asetofenon $C_6H_5C(O)CH_3$	Absorbsiya va desorbsiya jarayonida hosil bo‘lgan yon mahsulot
5	18.864	4.97	4-tert butelfenol $(CH_3)_3CC_6H_4OH$	Absorbsiya va desorbsiya jarayonida hosil bo‘lgan yon mahsulot
6	5.411	3.28	2,2-oksidietilglikol $(HOCH_2CH_2)_2O$	Metildietanolamin parchalanish mahsuloti
7	7.215	1.68	Metildietanolamin $CH_3N(C_2H_4OH)_2$	Asosiy komponent

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarida namuna uchun olingan ishlatilgan MDEA asosiy komponent sifatida ko‘p piklarni namoyon qildi. Bunda namunadagi umumiy massani 59.38 % massa ulushini tashkil etdi. Ammo tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki 40.62% MDEA parchalanish mahsulotlari, yon mahsulotlar va termik barqaror tuzlar borligi isbotlandi.

ISSN 3030-3907

Ma’lumki tabiiy gazlarni nordon komponentlardan tozalashda MDEA absorbentini 30-35 % eritmalari foydalanilganda gazlarning H_2S, CO_2 komponentlar bo‘yicha tozalik darajasi me’yor talablari darajasida bo‘ladi. Eritma tarkibida 40,62 % MDEA absorbentidan boshqa mahsulotlarning bo‘lishi eritma konsentratsiyasini 20 % tushishiga olib keladi hamda absorbsiya jarayonini buzilishiga sabab bo‘ladi.

Gazlarni absorbsion usulda nordon komponentlardan tozalash jarayonida absorbent tarkibida turli xil uglevodorodlardan boshqa ionlari borligi rentgent fluorensset spektrometr (Yaponiya, Regaki NE CG EDXRF) tahlillar asosida isbotlandi. Ishlatilgan MDEA eritmasining rentgent fluorensset spektrometri quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Ishlatilgan MDEA eritmasini XRF (Rentgen floresansi) spektrometriyasi

Yuqoridagi rasmda berilgan ma’lumotlar XRF (Rentgen floresansi) spektrometriyasi yordamida olingan tahlil natijalaridir. Quyida tahlil qilingan namunadagi asosiy komponentlar va ularning miqdorlari 2-jadvalda keltirilgan tahlil natijalari bilan isbotlanadi.

2-jadval

Rentgen floresansi spektrometriyasi tahlili

№	Komponentlar	Miqdori	izohi
1	Cl-	3900ppm	Xlor ionlari MDEA tarkibida miqdor jihatdan ko‘p miqdorda mavjudligini ko‘rsatdi
2	Br-	2.53 ppm	Ushbu komponent kam miqdorda
3	H2O	87.5 mass %	MDEA ning suvli eritmasi bo‘lganligi hisobli eng ko‘p miqdorni ko‘satdi
4	SiO2	1100 ppm	Kremniy (IV) oksidi adsorbemt qoldig‘i bo‘lishi mumkin
5	P2O5	830 ppm	Fosfat ionlari

ISSN 3030-3907

6	SO32-	119000 ppm	Umumiy eritma namunaning 11,9 % ni tashkil etdi sababi gaz tarkibidagi oltingugurtli birikmalar bilan bog‘liq.
7	K2O	457 ppm	Kaliy oksidi
8	CaO	119 ppm	Kalsiy oksidi
9	TiO2 MnO CuO SnO2	7.82 ppm 11.4 ppm 7.99 ppm 17.5 ppm	Kam miqdorda titan oksidi metal konstruksiyasi karroziyasi hosilasi bo‘lishi mumkin

Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki ishlatilgan MDEA eritmalari tarkibida organik moddalar va undan tashqari noorganik katta miqdorda oltingugurt oksidi, xlor kremniy oksidi, fosfat oksidi hamda bir qancha metal oksidlari mavjudligi aniqlandi. Ushbu noorganik moddalar boshlang‘ich amin tarkibida mavjud emas. MDEA eritmasining gazlarni tozalash jarayonida aminng parchalanish mahsulotlari asosan organik moddalar hosil bo‘lishini hisobga oladigan bo‘lsak, yuqoridagi tahlilda keltirilgan oksidlar gaz bilan qo‘shilib kelgan yoki metal karroziya mahsulotlari hisoblanadi.

MDEA har xil konsenrtatsiyali (20-30-35 %) eritmalarni TBT dan tozalash 2PVDF/PSU/PAN/PEG membrana filtr orqali uchun osmotik bosimni yengishga mo‘ljallangan oqimli, eritmani membrana tashqi qismidan filtr ichki quvuriga o‘tkazishga mo‘ljallangan laboratoriya (II bobda olinadi rasmga qarang) qurilmasida amlga oshirildi.

Bu tajribada ham 20-30-35 % konsentrsatsiyali MDEA eritmalarini 10 ÷ 80 bar oralig‘ida 3-rasmda 2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranadan o‘tkazuvchanlik (permeat) oqimi tahlil qilindi.




3-rasm. 20-30-35 % li MDEA eritmasining 2 PVDF/PSU/PAN/PEG membrana filtri orqali o‘tkazishda bosimning permeat (o‘tkazuvchanlik) oqimiga ta‘siri


3.9-rasmda 2PVDF/PSU/PAN/PEG namunadagi membrana orqali ishlatilgan MDEA tarkibidagi atsetat (CH_3COO^-), sulfat (SO_3^{2-}), va Cl^- xlorid

ISSN 3030-3907

ionlarini ushlab qolishi bo‘yicha filtlash tajribalar o‘tkazildi. Bunda ham MDEA eritmasini 20-30-35 % konsentratsiyalaridan foydalanildi. Filtrlash jarayoni ishchi bosimi 10-80 bar oralig‘ida olib borildi.




A)



B)

ISSN 3030-3907



C)

3- rasm, Ishlatilgan MDEA eritmasini 20% (A), 30 % (B), 35% (C) konsentratsiyalarida, bosim ortishida 2PVDF/PSU/PAN/PEG mebrana filtrning ionlarni ushlab qolish samadorligi

Ikkinchi turdagi 2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli kompozitsiyon membranali filtrdan ilshatilgan MDEA eritmasining 20%, 30% va 35% li eritmalari 50 bar bosimda eng yuqori natijalarni qayt etganligini ko‘rsatdi.

Natijada 20% li ishlatilgan MDEA eritmasi 50 bar bosimda o‘tkazilganda asetat ionlari 85%, sulfat ionlari 94% va xlorid ionlarining 96% filtrda qolganligi aniqlandi.

30% li ishlatilgan MDEA eritmasi 50 bar bosimda o‘tishi ko‘zatildi natijada asetat ionlari 65%, sulfat ionlari 93% va xlorid ionlarining 95% filtrda qolganligi aniqlandi.

35% li ishlatilgan MDEA eritmasi xam 50 bar bosimda o‘tishi ko‘zatildi natijada asetat ionlari 42%, sulfat ionlari 92% va xlorid ionlarining 94% filtrda qolganligi aniqlandi.

Uch xil konsentratsiyadagi ishlatilgan MDEA eritmalari tarkibidagi ionlar 2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli filtrda yuqori samaradorlik bilan ushlab qolinganligi isbotlandi.

2PVDF/PSU/PAN/PEG polimer kompozitsion memranali filtr orqali ishlatilgan 35% li MDEA eritmasi dastlab 40 bar bosimda filtrdan o‘tishi ko‘zatildi. Ishlatilgan MDEA eritmasi va filtrdan o‘tgan MDEA eritmasining taqqoslash natijalari 3-jadvalda ketirilgan.

ISSN 3030-3907

3-jadval

Ishlatilgan 35% MDEA eritmasi 50 bar bosimda 2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membrana filtri orqali ishlatilgan va filtrdan o‘tgan MDEA eritmasining taqqoslash natijalari

Tarkib ko‘rsatgichlari	Ishlatilgan MDEA eritmasida	2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membrana orqali filtrlangan MDEA eritmasi
Ko‘rinishi	Qizg‘ish qoramtir loyqa	Sarg‘ish
Zichlik g/sm^3	1,071	1,055
pH	10.3	10.5 – 11
Amin konsentratsiyasi, %	25,07	34.2
Umumiy eritilgan qattiq moddalar, ppm	903	170
Uglevodorod miqdori, %	yo‘q	yo‘q
Suv miqdori, %	74.93	65.8
Barqaror amin tuzlari, %	4.8	2,3
Xlor ionlari, ppm	3900	234
Sulfat ionlari, ppm	119000	9520

3-jadvalda ko‘rinib turibdiki, 2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtrning ishlatilgan MDEA eritmasi tarkibidagi TBT larni o‘shlab qolish samaradorligi barqaror amin tuzlarni 4.8% dan 2.3% gacha kamaydi, pH qiymati 10.5-11 oralig‘igacha ko‘tarildi, xlor va sulfat ionlari xam yuqori unim bilan kamayganini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA: Ishlatilgan MDEA eritmasini tarkibi tahlil qilindi. Ishlatilgan MDEA eritmasini tarkibidagi termik barqaror tuzlar 2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtrdan o‘tkazilganda atsetat (CH_3COO^-), sulfat (SO_3^{2-}), va Cl^- xlorid ionlarini ushlab qolishi 50 bar bosimda yuqori natijalarni qayt etganligi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. О.Х. Панжиев, Б.Н. Кенжаев. Повышение эффективности очистки газа регенерации на установках аминовой сероочистки. Ўзбекистон нефт ва газ журнали. 2019 й. №3. 26-29 б.

2. В.И. Мурин, Н.Н. Кисленко, Ю.В. Сурков. Технология переработки газа и конденсата. Сп.: В 2 ч. – М.: ООО «Недра-Бизнесцентр», 2002. – Ч.1 – 517 с.

ISSN 3030-3907

3. М.А. Берлин, В.Г. Гореченков, Н.П. Волков. Переработка нефтяных и природных газов. Москва: Химия, 1981. 472 с.
4. Т.М. Бекиров. Промысловая и заводская обработка природных и нефтяных газов. Москва: Недра, 1980. 283 с.
5. Т.М. Бекиров, А.Т. Шаталов. Сбор и подготовка к транспорту природных газов. Москва: Недра, 1986. 261 с.

ISSN 3030-3907

УДК 531.538.65

MATHEMATICAL MODELING OF NONLINEAR PROCESSES OF ELECTROMAGNETIC ELASTIC THIN PLATES OF COMPLEX CONFIGURATION

Safarov Shoxrux Sharofovich

Is an Associate Professor at the Department of Digital Technologies at Alfraganus University. Uzbekistan, Tashkent. Phone number

Tel: +998 99 481 88 23

E-mail: shohfar@gmail.com

Bahramov Muhammadali Eralievich

Is an assistant Professor at the Department of Digital Technologies, Alphagranus University. Uzbekistan, Tashkent. Phone number:

Tel: +998 99 817 22 63 ,

E-mail: bahromov1997.04.09@gmail.com

Аннотация - В статье представлена математическая модель, основанная на вариационном принципе Гамильтона-Остроградского, при использовании гипотезы закона Кирхгофа математическая модель в трехмерном виде преобразуется в двумерную модель. Для решения поставленной задачи был разработан вычислительный алгоритм, для которого были созданы практические программные средства, проведены вычислительные эксперименты и проанализированы полученные результаты.

Ключевые слова: математическое моделирование, принцип Гамильтона-Остроградского, электромагнитный тензор Максвелла, магнитоупругая тонкая пластина сложной конфигурации.

Annotatsiya – Maqolada Gamilton–Ostrogradskiyning variatsion prinsipi asosida tuzilgan matematik model keltirilgan. Kirxgof qonuni gipotezasi qo‘llanilganda, uch o‘lchamli matematik model ikki o‘lchamli modelga aylantiriladi. Qo‘yilgan masalani yechish uchun hisoblash algoritmi ishlab chiqildi, bu algoritm asosida amaliy dasturiy vositalar yaratildi, hisoblash tajribalari o‘tkazildi va olingan natijalar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: matematik modellashtirish, Gamilton–Ostrogradskiy prinsipi, Maksvellning elektromagnit tensori, murakkab shakldagi magnit-elastik yupqa plastinka.

Annotation - The article a mathematical model based on the Hamilton-Ostrogradsky variational principle is presented, using the Kirchhoff-Law hypothesis, the mathematical model in three-dimensional form is transformed into a two-dimensional model. To solve the problem, a computational algorithm was

ISSN 3030-3907

developed, for which practical software tools was created, computational experiments were conducted, and the results obtained were analyzed.

Keywords: Mathematical modeling, Hamilton-Ostrogradsky principle, Maxwell's electromagnetic tensor, magneto elastic thin plate of complex configuration.

Introduction

The increasing development and application of thin plates and shells of complex configurations, governed by nonlinear patterns, highlight the relevance of studying their deformation under electromagnetic fields. Particular importance is attached to constructing mathematical models, developing new-generation algorithms, and creating software tools based on the R-function method for solving problems with fundamental boundary conditions in magnetoelastic plates and shells of complex geometry. Extensive research has been conducted worldwide on the theory of electromagnetic field conductivity by scholars such as S.A. Ambartsumyan, G.E. Bagdasaryan, M.V. Belubekyan, V.L. Rvachev, L.V. Kurpa, L.V. Molchenko, I.T. Selezov, and M.R. Korotkina. Significant contributions were also made by academician V.Q. Qobulov, academician X.A. Rakhmatulin, professor Sh.A. Nazirov, T. Yuldashev, R. Indiaminov, and F.M. Nuraliev.

Development of a mathematical model of the task.

A mathematical model of the process of nonlinear deformation of a magnetoelastic plate is built on the principle of Hamilton-Ostrogradsky variation. It uses the Kirchhoff-Law hypothesis, the Cauchy relationship, the Lorentz force of Hooke's law, and Maxwell's view of the electromagnetic tensor [1-2]. According to the Kirchhoff-Law hypothesis, there is no deformation of a thin plate along the Z coordinate axis, and the displacement projections of the middle plane of the plate are expressed as follows:

$$u_1 = u(x,y,t) - z\frac{\partial w}{\partial x},\ u_2 = v(x,y,t) - z\frac{\partial w}{\partial y},\ u_3 = w(x,y,t), \qquad (2)$$

where: $u,v,w-$ the displacement of the middle plane of the thin plate along the coordinate (x, y, z) axes.

Now, the work variations performed by kinetic energy, potential energy, and external forces are reduced to the Hamilton-Ostrogradsky variation principle, resulting in a special derivative equilibrium equation with initial and limit conditions.

ISSN 3030-3907

$$\begin{cases} -\rho h\dfrac{\partial^2 u}{\partial t^2}+\dfrac{\partial N_{xx}}{\partial x}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial y}+N_x+R_x+q_x+T_{zx}=0 \\ -\rho h\dfrac{\partial^2 v}{\partial t^2}+\dfrac{\partial N_{yy}}{\partial y}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial x}+N_y+R_y+q_y+T_{zy}=0 \\ -\rho h\dfrac{\partial^2 w}{\partial t^2}+\dfrac{\partial^2 M_{xx}}{\partial x^2}+2\dfrac{\partial^2 M_{xy}}{\partial x\partial y}+\dfrac{\partial^2 M_{yy}}{\partial y^2}+N_{xx}\dfrac{\partial^2 w}{\partial x^2}+N_{yy}\dfrac{\partial^2 w}{\partial y^2}+N_{xy}\dfrac{\partial^2 w}{\partial x\partial y}+ \\ +\left(\dfrac{\partial N_{xx}}{\partial x}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial y}\right)\dfrac{\partial w}{\partial x}+\left(\dfrac{\partial N_{yy}}{\partial y}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial x}\right)\dfrac{\partial w}{\partial y}+N_z+R_z+q_z+T_{zz}=0, \end{cases} \quad (3)$$

Initial and boundary conditions:

$$\begin{cases} \rho h\dfrac{\partial u}{\partial t}\delta u\Big|_t=0,\ \rho h\dfrac{\partial v}{\partial t}\delta v\Big|_t=0,\ \rho h\dfrac{\partial w}{\partial t}\delta w\Big|_t=0,\left(N_{xx}+N_{Px}+N_{Tx}\right)\delta u\Big|_x=0,\left(N_{xy}+N_{Py}+N_{Txy}\right)\delta v\Big|_x=0, \\ M_{xx}\delta\dfrac{\partial w}{\partial x}\Big|_x=0,\ M_{xy}\delta\dfrac{\partial w}{\partial y}\Big|_x=0,\left(N_{yy}+N_{Fy}+N_{Tyy}\right)\delta v\Big|_y=0,\ \left(N_{xy}+N_{Fx}+N_{Tyx}\right)\delta u\Big|_y=0, \\ M_{yy}\delta\dfrac{\partial w}{\partial y}\Big|_y=0,\ M_{xy}\delta\dfrac{\partial w}{\partial x}\Big|_y=0,\left[N_{xx}\dfrac{\partial w}{\partial x}+N_{xy}\dfrac{\partial w}{\partial y}-\dfrac{\partial M_{xx}}{\partial x}-\dfrac{\partial M_{xy}}{\partial y}+N_{Pz}+N_{Txz}\right]\delta w\Big|_x=0, \\ \left[N_{yy}\dfrac{\partial w}{\partial y}+N_{xy}\dfrac{\partial w}{\partial x}-\dfrac{\partial M_{yy}}{\partial y}-\dfrac{\partial M_{xy}}{\partial x}+N_{Fz}+N_{Tyz}\right]\delta w\Big|_y=0. \end{cases}$$

Computational algorithm for numerical solution of the task.

Algorithm for calculating the geometric nonlinear deformation processes of electromagnetic thin plates [4]:

1. Construction of solution structures corresponding to limit conditions
2. Construction of discrete equations with respect to spatial variables
3. Solving discrete equations and finding unknown components of solution structures.
4. Determining the normal displacements of the middle surface of the plate

To calculate the unknowns in the equation of motion using the given algorithm, the unknown displacement coefficients are determined using a combination of the Bubnov-Galerkin method of variation, the Gaussian square method, the Gaussian method Nyumark and the iteration method.

The limit equation of a magnetoelastic plate of complex configuration is constructed by the R-function [3].

ISSN 3030-3907




Figure 1. Magnetic plate with complex configuration.

$$f_1 = \frac{(a^2 - x^2)}{2a} \geq 0,\ f_2 = \frac{(b^2 - y^2)}{2b} \geq 0,\ f_3 = \frac{(x^2 + y^2 - r^2)}{2r} \geq 0,\ \omega = (f_1 \wedge f_2) \wedge f_3.$$

where $f_1, f_2, f_3 -$ the functions representing the field. $\omega -$ a normalized function representing the field.

The iteration method is used to find the displacements $u_i(x,y,t), v_i(x,y,t), w_i(x,y,t)$ of the middle surface of the plate Y from the system of equations formed, and a numerical solution is obtained [5].




Figure 2. Bending of a magnetoelastic thin plate with an asymmetrical complex configuration.

In figure 1 the conical results of the bending along the axis of a complex shaped magnetoelastic plate and a graphical representation are showed (Figure 3).

ISSN 3030-3907




Figure 3. Bending of a magnetoelastic thin plate with a complex configuration along the Oy axis.

Conclusion

The study addressed the geometric nonlinear deformation of thin plates with complex configurations under electromagnetic field influences. A novel mathematical model was formulated, and corresponding computational algorithms, together with a software tool, were developed to enable numerical simulations. Symmetric and asymmetric configurations were examined, with results presented in both tabular and graphical forms for comprehensive analysis. The findings provide a methodological basis for further investigations and the solution of related applied problems.

REFERENCES

1. V.K. Kabulov Algorithmization in the theory of elasticity and deforma- tion theory of plasticity. Tashkent: FAN, 1966.392 p

2. Ambartsumyan S.A., Bagdasaryan G.E., Belubekyan M.V. Magnetoelasticity of Thin Shells and Plates. Moscow: Nauka, 1977, 272p.

3. Kurpa L.V. R-function method for solving linear problems of bending and vibrations of shallow shells. Kharkiv NTU KhPI 2009. 391 p.

5. F. Nuraliev, S. Safarov and M. Artikbayev, ”A computational algorithm for calculating the effect of the electromagnetic fields to thin complex configured plates,” 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2020, pp. 1-4, DOI: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351447.

6. F. Nuraliev, S. Safarov and M. Artikbayev, "Solving the problem of geometrical nonlinear deformation of electro-magnetic thin plate with complex configuration and analysis of results," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 01-05, DOI: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670282.

ISSN 3030-3907

ABSORBSIYA JARAYONLARI, ABSORBENTLAR FAOLLIGINI TIKLASHNING ZAMONAVIY TADQIQOTLARI

Anvarova Iroda Anvar qizi
Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchisi
E-mail:irodappq@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda gazlarni tozalash jarayonida ishlatiladigan alkanolaminlarni tozalash to‘g‘risida chet el olimlarining fikr mulohazalari ko‘rib chiqildi. Natijada nisbatlari har xil bo‘lgan PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtrlar tayyorlandi. Olingan filtrlarning ishlatilgan 35% li MDEA eritmasi tarkibidagi termik barqaror tuz hosil qiluvchi ionlarni ushlab qolish darajalari o‘rganildi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli polimer kompozitli membranali filtrlardan ishlatilgan 35% li MDEA eritmasini 50 bar bosimda o‘tishi, va tarkib ko‘rsatgichlari o‘zaro taqqoslash natijalari maqolada keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Regineratsiyalash, tabiiy gaz, etanolaminlar, MEA, DEA, MDEA, yutilish samaradorligi, PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtr.

Аннотация: В данной работе были рассмотрены мнения зарубежных ученых по поводу очистки алканоламинов, используемых в процессе очистки газов. В результате были получены мембранные войлоки с различными соотношениями PVDF/PSU/PAN/PEG. Были изучены степени удержания термически стабильных солеобразующих ионов в 35% используемом растворе МДЭА полученных фельтров. Результаты научных исследований, в которых использовались мембранные фильтры из полимерного композита, содержащего PVDF/PSU/PAN/PEG, полученные путем пропускания 35% раствора МДЭА при давлении 50 бар, и перекрестного сравнения показателей содержания, приведены в статье.

Ключевые слова: Регенерация, природный газ, этаноламины, МЭА, ДЭА, МДЭА, Эффективность поглощения, PVDF/PSU/PAN/PEG составной мембранный фильтр.

Annotation: This work reviewed the opinions of foreign scientists on the purification of alkanolamines used in the gas purification process. As a result, membrane Felters with PVDF/PSU/PAN/PEG composition with different proportions were prepared. The levels of retention of thermally stable salt-forming ions in the used 35% MDEA solution of the resulting Felters were studied. Results from scientific studies using polymer composite membrane filters with PVDF/PSU/PAN/PEG content to pass a 35% solution of MDEA at 50 bar pressure, and comparison of content indicators were cited in the article.

ISSN 3030-3907

Keywords: Regenerating, natural gas, ethanolamines, MEA, DEA, MDEA, absorption efficiency, membrane filter with PVDF/PSU/PAN/PEG content.

Kirish

Dunyo miqyosida ishlab chiqarishni chiqindisiz texnologiya asosida tashkil etish eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Sanoatda bu muammo to‘la o‘z yechimini topmagan bo‘lsada, lekin ishlab chiqarish chiqindilaridan sanoatning boshqa soxasida ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Ishlab chiqarish chiqindilaridan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanishning bir qancha afzalliklari bo‘lib, bular; ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi; qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi; atrof-muhit ifloslanishi kamayadi va h.k. hozirgacha etanolamin eritmalarini zararli birikmalardan tozalashning bir qancha usullari joriy qilingan bo‘lsada, lekin bularda vakuumli distirlash usuli bilan regeneratsiyalash ham o‘rganilgan. Etanolamin eritmalarini tozalash jarayonlarini o‘rganish, ularni tahlil qilish, jarayonning optimal texnologik sxemasi va rejimlarini ishlab chiqish muhim ilmiy hamda amaliy ishlardan biri hisoblanadi. Sanoatda etanolaminlarni regineratsiyalash muammosining yechimi tabiiy gazni zararli birikmalardan tozalash jarayonini samaradorligini yaxshilaydi, uning texnik va iqtisodiy ko‘rsatgichlarini oshirishga olib keladi [1; 443-446 b].

Kosuke Tanaka, Tatsuo Fujiwara va ularning safdoshlari bo‘lgan yaponiyalik olimlari o‘zlarining olib borgan tadqiqotlarida MEA suvli eritmalarini zararli birikmalardan tozalashda va yutilgan birikmalarni ajratib olishda ultratovush nurlanishidan foydalanish tavsiya etishgan. Mualliflar o‘zlarining olib borilgan tadqiqotlarida yutilgan birikmalarning desorbsiyalanish tezligi 25°C haroratda 28 kHz ultratovush nurlanishlarida tadqiq qilinganligini ko‘rsatib berganlar. Olingan natijalar, past konsentratsiyali MEA (0,2 mol/l) eritmasida yutilgan birikmalarni ajralib chiqish tezligi 25°C haroratda boshqa usulda desorbsiyalashga nisbatan ultratovush nurlanishida samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, MEA eritmalari konsentratsiyasining pasayishi bilan desorbsiya jarayoni tezligini oshishini ham ko‘rsatib berishgan [2].

Hyunho Kim rahbarligi ostidagi olimlar tomonidan CH_4/CO_2 gaz aralashmasidan CO_2 ni ajratib olish uchun aminli gidrogellardan (AG) foydalanishni tavsiya qilishgan. Yutuvchi komponent (amin bilan to‘yintirilgan gidrogel) MEA eritmasini quritilgan gidrogel zarralar bilan aralashtirish orqali tayyorlangan; keyin AG zarralarining ishlashini tahlil qilish uchun tizimli tajribalar o‘tkazilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatganki, AG zarralari CO_2 ni CH_4/CO_2 gaz aralashmasidan yuqori selektivlik bilan tozalanganligini va MEA eritmasi bilan solishtirganda CO_2 ni yutish ko‘rsatgichi yuqoriligi ko‘rsatgan. CO_2 Yutilishining

ISSN 3030-3907

kinetik ishlashi haroratni o‘zgartirish, aralashtirishni ta’minlash va qo‘shimcha qo‘shish orqali ham tekshirilgan. Yuqori haroratlar dastlabki bosqichida CO_2 yutilish tezligini biroz oshirganligini ko‘rsatgan. AG zarralarini gaz aralashmasi bilan aralashtirish yutilish tezligini oshirganligidan CO_2 yutilish samaradorligi AG xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, yutuvchi tarkibga dekan va dodetsil trimetil ammoniy bromid qo‘shilishi AG zarralari orasidagi koagulyatsiyani yumshatishga, CO_2 yutilish tezligi va unumini oshirishga olib kelishi bayon qilingan [3; 13889-1899 b].

Mayfiyeld Road tomonidan etanolaminli eritmalarni 120-140°C haroratda va 1-2 bar bosim atrofida issiq bosimli bug‘i bilan ta’siri hamda mikro to‘lqinli nurlanishlar bilan xususiyatlarini qayta tiklash va yutilgan komponentlardan tozalash taqqoslangan. Bu tadqiqot ishi yuqori bosim va haroratda olib borganligi sababli etanolaminlarning degradatsiyasiga uchrashi kuzatilishi ko‘rsatilgan. Tabiiy gazni absorsion tozalashning aminli eritmalarini mikroto‘lqinli nurlanish bilan regeneratsiyalash tavsiya etilgan, jarayon samarasini asoslovchi konsepsiya laboratoriya tajribalari bilan isbotlangan. Mikroto‘lqinlar ishlatilgan MEA eritmalari xususiyatlarini tez va past haroratlarda (70 - 90°C) qayta tiklashi, bu esa an’anaviy oddiy regeneratsiya bilan taqqoslanganda odatiy afzalliklaridan tashqari, mikroto‘lqinlar mahsus “termal bo‘lmagan” ta’sir ko‘rsatishi tadqiq qilingan [4; 126-133 b].


C.V. Nabokov va H.P. Petkina tadqiqotlarida tabiiy gazni zararli birikmalardan tozalashni yangi samarali absorbentda sinovdan o‘tkazishgan. Ularning tadqiqotdan maqsadi gaz tozalash sifatini yaxshilash, energiya sarfini kamaytirish, atmosferaga zararli chiqindilarni chiqishini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish bo‘lgan. Buning uchun Rossiyalik olimlar “Gazprom” AJning tabiiy gazni qayta ishlash zavodlarida, jumladan Orenburg va Astraxan gazni qayta ishlash zavodlarida ishlatilayotgan etanolaminlar (MEA, MDEA) o‘rnida Hovamin absorbentlardan foydalanish tavsiya etishgan [5; 3-8 b]. Tadqiqot ishida shu bilan birga MDEA, DEA eritmalariga aktivator sifatida piperazin qo‘shib, kompozitsion absorbentlar tayyorlanib ularni ham laboratoriya sinovlaridan o‘tkazilganligi, gaz tozalash va regeneratsiyasining laboratoriya sinovlari natijalari keltirilgan. Bunda gazlarni H_2S, CO_2 va organosulfid birikmalaridan tozalashda piperazin asosda tayyorlangan kompozitsion absorbentlarning afzalligi ko‘rsatilib, 40- 70 °C harorat, 4,9 dan 100 kPa gacha bo‘lgan bosimda kislota gazlarining absorbentlarda eruvchanligi va ularni regeneratsiyalash jarayonida tez ajralishining eksperimental tahlillari keltirilgan.

Absorbsiya va desorbsiyaga asoslangan texnologik jarayon qaytar reaksiyalarning keng doirasini o‘z ichiga olishi va kimyoviy muvozanat, massa

ISSN 3030-3907

almashinuvi va kimyoviy kinetika o‘rtasidagi munosabatlar ko‘rsatib o‘tilgan [6; 443-446 b]. Birlamchi yoki ikkilamchi aminlar va zararli birikmalar orasidagi reaksiya zvitterion mexanizmi bilan modellashtirilgan hamda model uchun zarur bo‘lgan asosiy fizik-kimyoviy xossalar birikmalarning fizik eruvchanligi hisoblanganligi tug‘risida ma’lumotlar berilgan. DEA va MDEA larni regeneratsiyalashning diffuziya koeffitsiyentlari, shuningdek, reaksiya tezligi koeffitsiyentlari va muvozanat konstantalari haqidagi ma’lumotlar modelning dastlabki ma’lumotlari bilan taqqoslangan. Etanolamin tabiiy gazini oltingugurli birikma va boshqa kislotali aralashmalaridan (CO_2, COS, RSH CS_2 va H_2S) ishlab chiqarish korxonalarida MEA va DEA o‘rniga MDEA asosidagi absorbentdan foydalanish natijasida eritmani qayta tiklashning issiqlik energiyasini tejovchi, eritma faol komponentining bir qismi kamayishi bilan amalga oshiruvchi termik usuli taklif etilgan [7; 331-333 b., 8; 551-556 b.].

NATIJA: MDEA eritmasida tarkibida bo‘lgan moddalar va termik barqaror tuzlar (TBT) aralashmasidan iborat, ammo MDEA konsentratsiyasi 35% li eritmasida TBT ionlari konsentratsiyasidan ancha yuqori. Shundan kelib chiqib, bu ionlar sababli yuzaga keladigan osmotik bosim MDEA konsentratsiyasidan keladigan osmotik bosimga nisbatan bir necha barobar kichik bo‘ladi. Shu sababli membrananing oqimi asosan MDEA konsentratsiyasiga bog‘liqligi aniqlandi. Shularni inobatga 35% li konsentrsatsiyali MDEA eritmalarini 10÷80 bar oralig‘ida tadqiqodlar 1-rasmda keltirilgan.




1- rasm. Ishlatilgan MDEA eritmasini 35% li konsentratsiyada, bosim oritishida 1PVDF/PSU/PAN/PEG mebrana filtrning ionlarni ushlab qolish samadorligi

35% li ishlatilgan MDEA eritmasi 50 bar bosimda o‘tishi kuzatildi natijada atsetat ionlari 40%, sulfat ionlari 90% va xlorid ionlarining 92% filtrda qolganligi aniqlandi.

ISSN 3030-3907

2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtr orqali ishlatilgan MDEA tarkibidagi atsetat (CH_3COO^-), sulfat (SO_3^{2-}), va Cl^- xlorid ionlarini ushlab qolishi bo‘yicha filtlash tajribalar o‘tkazildi. Bunda ham MDEA eritmasini 35% li konsentratsiyalaridan foydalanildi. Filtrlash jarayoni ishchi bosimi 10-80 bar oralig‘ida olib borildi natijalar 2-rasmda keltirilgan.




2- rasm. Ishlatilgan MDEA eritmasini 35% li konsentratsiyada, bosim oritishida 2PVDF/PSU/PAN/PEG mebrana filtrning ionlarni ushlab qolish samadorligi

35% li ishlatilgan MDEA eritmasi 40 bar bosimda o‘tishi kuzatildi lekin 50 bar bosimda yuqori samaradorlikni qayt etdi ya’ni: atsetat ionlari 42%, sulfat ionlari 92% va xlorid ionlarining 94% filtrda qolganligi aniqlandi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida oxirgi olingan 3PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtr orqali ishlatilgan MDEA tarkibidagi atsetat (CH_3COO^-), sulfat (SO_3^{2-}) va Cl^- xlorid ionlarini ushlab qolishi bo‘yicha filtlash tajribalar o‘tkazildi. Bunda ham MDEA eritmasini 35% li konsentratsiyalaridan foydalanildi. Filtrlash jarayoni ishchi bosimi 10-80 bar bosimgacha olib borildi natijalar 3-rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907



3- rasm. Ishlatilgan MDEA eritmasini 35% li konsentratsiyada, bosim oritishida 3PVDF/PSU/PAN/PEG mebrana filtrning ionlarni ushlab qolish samadorligi

35% li ishlatilgan MDEA eritmasi 30 bar bosimda o‘tishi kuzatildi. Lekin bu tajribamizda ham 50 bar bosimda ionlarni yuqori samaradorlik bilan ushlab qolishi aniqlandi ya’ni: atsetat ionlari 62%, sulfat ionlari 93% va xlorid ionlarining 96% filtrda qolganligi aniqlandi.

Umumiy qilib aytganda, gazni qayta ishlash zavodlarida 35% MDEA eritmasi ishlatilishini inobatga olgan holda ishlatilgan 35% li MDEA eritmasi tanlab olindi va tarkibidagi termik barqaror tuzlardan tozalash uchun ilmiy tadqiqiotlar natijasida olingan membrana filtrlari termik barqaror tuzlarni o‘shlab qolishi 50 bar bosimda ijobiyligi aniqlandi. Yuqorida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli polimer kompozitli membranali filtrlardan ishlatilgan 35% li MDEA eritmasini 50 bar bosimda o‘tishi, va tarkib ko‘rsatgichlari o‘zaro taqqoslash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ishlatilgan 35% li MDEA eritmasi tarkib ko‘rsatgichlari va PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtrdan 50 bar bosimda o‘tgan eritmaning tarkibi

№	Tarkib ko‘rsatgichlari	ishlatilgan MDEA eritmasida	PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membrana orqali filtrlangan MDEA eritmasi	2PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membrana orqali filtrlangan MDEA eritmasi	3PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membrana orqali filtrlangan MDEA eritmasi

ISSN 3030-3907

1	Ko‘rinishi	Qizg‘ish qoramtir loyqa	o‘tkir sarg‘ish	Sarg‘ish	Ochiq sarg‘ish
2	Zichlik g/sm^3	1,071	1,063	1,055	1,049
3	pH	10.3	10.0 – 10.5	10.5 – 11	11-11.3
4	Amin konsentratsiyasi, %	25,07	33.9	34.2	34.6
5	Umumiy eritilgan qattiq moddalar, ppm	903	185	170	150
6	Uglevodorod miqdori, %	yo‘q	yo‘q	yo‘q	yo‘q
7	Suv miqdori, %	74.93	66.1	65.8	65,4
8	Barqaror amin tuzlari, %	4.8	2.9	2,3	1,9
9	Xlor ionlari, ppm	3900	312	234	156
10	Sulfat ionlari, ppm	119000	11900	9520	8330

Ishlatilgan MDEA eritmasi ilmiy tadqiqotlar natijasidagi olingan uch xil nisbatli PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtrdan o‘tkazilganda sungi 3PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtrdan o‘tgan MDEA eritmasi inport asosida keltirilgan MDEA xossasiga yaqin xossani nomayon qildi. 3PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtr eng yuqori natijani qayt etganligi yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgan.

XULOSA: Nisbatlari har xil bo‘lgan PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli membranali filtrdan 35% li MDEA eritmasi o‘tkazilganda 3PVDF/PSU/PAN/PEG tarkibli mebranali filtrning ionlarni ushlab qolish samadorligi eng yuqori natijani

ISSN 3030-3907

qayt etdi ya’ni: barqaror amin tuzlari, 4.8% dan 1.9% gacha, xlor ionlari 3900 ppmdan 156 ppm gacha va sulfat ionlari 119000 ppmdan 8330 ppmgacha kamayganli aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Danckwerts P. V. The reaction of CO2 with ethanolamines // Chem. Eng. Sci. 1979. V. 34. N 4. P. 443–446. DOI: https://doi.org/10.1016/0009- 2509(79)85 087-3.

2. Kosuke Tanaka, Tatsuo Fujiwara, Hirokazu Okawa, Takahiro Kato and Katsuyasu Sugawara. Ultrasound irradiation for desorption of carbon dioxide gas from aqueous solutions of monoethanolamine. The Japan Society of Applied Physics Japanese Journal of Applied Physics, Volume 53, Number 7S Citation Kosuke Tanaka et al 2014 Jpn. J. Appl. Phys. 53 07KE14

3. Kim, H., Jung, J. Y., Park, K. H., Linga, P., Seo, Y., & Wood, C. D. (2021). Enhanced kinetic performance of amine-infused hydrogels for separating CO2 from CH_4/CO_2 gas mixture. Energy & Fuels, 35(17), 13889-13899.

4. Mayfield Road. Microwave swing regeneration of aqueous monoethanolamine for post-combustion CO2 capture. Institute for Materials and Processes, School of Engineering, University of Edinburgh, Edinburgh. EH9 3JL, UK 15 April 2017, Pages 126-133.

5. С.В. Набоков, Н.П. Петкина. Применения этаноламинов на установках очистки природного газа ОАО «Газпром». Вести газовой науки. №1 (21). 2015. С. 3-8.

7. Danckwerts P. V. The reaction of CO_2 with ethano lamines//Chem. Eng. Sci. 1979.V.34. N 4. P. 443–446. DOI: https://doi.org/10.1016/0009- 2509(79)85 087-3.

8. Crooks J. E., Donnellan J. P. Kinetics and mechanism of the reaction between carbon dioxide and amines in aqueous solution // J. Chem. Soc. Perkin Transac. 2. 1989. V. 4. P. 331–333. DOI: https://doi.org/10.1039/ P298900 00331

9. Supap T., Saiwan C., Idem R., Tontiwachwuthikul P. Part 2: Solvent management: solvent stability and amine degradation in CO_2 capture processes // Carbon Manag. 2011.V.2.N 5.P. 551–566. DOI: https://doi. org/10.4155/cmt.11.55.

ISSN 3030-3907

NAQSHLARNING RAMZIY MA’NOLARI VA O‘SMIRLAR MODASIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro davlat texnika universiteti professori,
Abulova Parvina Ulug‘bek qizi
Buxoro davlat texnika univaersiteti tayanch doktoranti
Suvonova Ma’mura Yusupovna
Buxoro davlat texnika univaersiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada naqshlarning ramziy ma’nolari va ularning o‘smirlar modasida qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilinib, milliy va zamonaviy naqshlarning estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi, shuningdek, naqshlar orqali o‘smirlarning shaxsiylik, milliy qadriyatlarga hurmat, ijodiy tafakkur va estetik didini shakllantirish yo‘llari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: naqsh, ramziy ma’no, o‘smirlar modasi, milliy naqshlar, estetik tarbiya, dizayn, individual ifoda, madaniyat, ijodkorlik.

Аннотация. Разработаны символические значения и нормативно-правовая база данных изделий для использования в моде их субъектов, раскрыта эстетическая воспитательная ценность современных узоров, а также научно обоснованы способы защиты личностных, национальных ценностей, творческого мышления и эстетического вкуса подростков посредством национальных узоров.

Ключевые слова: узор, символическое значение, подростковая мода, национальные узоры, эстетическое воспитание, дизайн, индивидуальное самовыражение, культура, творчество.

Abstract. Symbolic meanings and a regulatory database of products for use in fashion by their subjects have been developed, the aesthetic educational value of modern patterns has been revealed, and methods for protecting personal, national values, creative thinking and aesthetic taste of teenagers through national patterns have been scientifically substantiated.

Key words: pattern, symbolic meaning, teenage fashion, national patterns, aesthetic education, design, individual self-expression, culture, creativity.

Kirish

O‘smirlik davri shaxsiylik va o‘ziga xoslikni izlash bosqichi hisoblanadi. Shu sababli modada qo‘llaniladigan naqshlar nafaqat estetik bezak vazifasini bajaradi, balki o‘smirlarning individual didi, kayfiyati va dunyoqarashini ifodalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Naqshlar kiyim dizaynida turli yo‘nalishlarda qo‘llanishi mumkin.

ISSN 3030-3907

O‘zbek milliy naqshlari – islimiy, girih, gul naqshlari va geometrik ornamentlar – o‘smirlar modasida zamonaviy shaklda qayta ishlanib, futbolka, jinsi kiyimlar, aksessuarlar va sport kiyimlari dizaynida keng qo‘llanishi mumkin. Bu nafaqat estetik jihatdan chiroy bag‘ishlaydi, balki o‘smirlarda milliy qadriyatlarga hurmat va qiziqishni ham kuchaytiradi.

O‘smirlar ko‘pincha zamonaviylik va kreativlikni xohlaydilar. Shuning uchun chiziqlar, spirallar, to‘rtburchak yoki ritmik geometrik shakllardan iborat naqshlar ularda dinamik va futuristik kayfiyat uyg‘otadi. Bu naqshlar ayniqsa street-style va oversize kiyimlarda samarali chiqadi. Naqshlar orqali rang uyg‘unligi va shakllar o‘smirlarning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yorqin rangli gullar iliqlik va shodlik uyg‘otsa, soddaroq geometrik shakllar qat’iyat va jiddiylikni bildiradi. Shu bois, naqshlar o‘smirlarning o‘zini ifoda etishida psixologik ahamiyatga ega.

Zamonaviy tekstil sanoatida 3D-bosma, lazerli kesim va kompyuter grafikasi yordamida naqshlarni yaratish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o‘smirlar uchun yangicha, noodatiy, individual ko‘rinishdagi kiyimlar ishlab chiqishga yo‘l ochadi.

Metodlar. Modaning va jahon trendlarining tez o‘zgarishi iste’molchilarning talablariga doimo yangi ehtiyojlar kiritadi. Iste’molchilar zamonaviy va dolzarb kiyimlar, shuningdek, mashhur brendlar va dizaynerlarning mahsulotlarini afzal ko‘rishadi. Quyida biz eng ko‘p uchraydigan milliy naqshlar hamda ularning ramziy ma’nolari, zamonaviy modada qo‘llanilish sohalari haqida tahlillarni keltiramiz.



1. Tumor naqshining asosiy ma’nolari quyidagilardan iborat: himoya timsoli – tumor naqshi qadimdan yovuz ko‘z, salbiy ta’sir, kasallik va balolardan saqlovchi talisman sifatida qaralgan, baraka va to‘kinlik**,** rizq-ro‘z timsoli, m**a’naviy tozalik va poklik, nasl saqlovchi va himoya qiluvchi** – ayniqsa, bolalar kiyimida tumor naqshi **farzandni asrash**, **ko‘z tegishidan saqlash** maqsadida ishlatilgan.

1-jadval

“Tumor” naqshining zamonaviy modadagi qo‘llanilishi

Soha	Qo‘llanilish shakli
Kashta san’ati	Kiyimlar, yostiq jildlari, sochiqlar, yuzanlar ustida qo‘lda yoki mashina bilan bezak sifatida ishlatiladi.
Milliy kiyimlar	Atlas, adras, zarxal matolardan tikilgan yaktak, belbog‘, do‘ppi va kamzul bezaklarida ishlatiladi.

ISSN 3030-3907

Aksessuarlar	Sumkalar, ro‘mol, belbog‘ va marjonlar ustiga tumor shaklidagi naqshlar qo‘shiladi.
Uy bezaklari	Kashta panolar, gilamlar va parda chetlarida tumor naqshi himoya ramzi sifatida ishlatiladi.
Interyer dizayni	Devor qog‘ozlari, bezak plitalar, hunarmandchilik buyumlarida dekor sifatida ishlatiladi.
Grafik dizayn	Logotip, brend belgisi va grafik dizaynlarda stilizatsiya qilingan tumor naqshlar qo‘llaniladi.

2. “Pichoq” naqshi O‘zbekistonning qadimiy naqsh san’atida, ayniqsa kashtachilik, do‘ppido‘zlik, gilamdo‘zlik va sopol buyumlar bezagida keng tarqalgan. U asosan qo‘shma geometrik va stilizatsiyalashgan chiziqlar vositasida ifodalanadi. Bu naqsh dastlabki davrlarda oddiy pichoqqa o‘xshatilib, himoya vositasi, maishiy qurol, turoniy ramz sifatida ishlatilgan. Arxeologik topilmalarda, temuriylar davri sarkardalarining kiyimlarida ham bunday naqshlar uchraydi. Shuningdek, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo hududlarida bu naqsh turli modifikatsiyalarda uchraydi. “Pichoq” naqshi qadimdan himoya va kuch ramzi sifatida qaralgan. Undagi asosiy g‘oya – yovuz kuchlarni yanchish, adolatni himoya qilish va tinchlikni saqlash g‘oyalaridir.

2-jadval

“Pichoq” naqshining turli sohalarda qo‘llanilishi

Soha	Qo‘llanilish shakli
Do‘ppido‘zlik	Erkaklar do‘ppilarining yon yoki orqa qismlarida himoya timsoli sifatida ishlatiladi.
Kashta san’ati	Yostiq, sochiq, gilam, mato ustida pichoqqa o‘xshash stilizatsiyalashgan bezak sifatida tikiladi.
Kiyim dizayni	Erkaklar va harbiy ilhomlangan liboslarda geometrik naqsh sifatida joylashtiriladi.
Zargarlik	Tumorlar, marjonlar va erkaklar uchun mo‘ljallangan bezaklarda ishlatiladi.
Gilamdo‘zlik	Stilizatsiyalashgan pichoq naqshi gilam markaziy yoki chegara bezaklarida qo‘llaniladi.
Interyer dizayni	Metall, yog‘och va ganch o‘ymakorligida kuch, himoya va jiddiylik ramzi sifatida ishlatiladi.

ISSN 3030-3907

“Pichoq” naqshi o‘zbek madaniyatida ko‘p ma’noli timsollardan biri hisoblanadi. U nafaqat estetik go‘zallikni, balki xalqning ichki falsafiy dunyoqarashini ham o‘zida mujassam etgan. Bugungi dizayn va san’at sohalarida bu naqsh milliylik va kuch timsoli sifatida qayta talqin qilinib, yoshlar orasida ham ommalashmoqda.



3. Gul g‘unchasi naqshining ma’nosi – g‘uncha hali ochilmagan bo‘lganligi sababli u yosh, beg‘ubor va yangi boshlanish timsoli hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smir qizlar kiyimlarida ko‘p qo‘llaniladi. Gul ochilmagan holatda bo‘lgani tufayli u iffat va ma’naviy tozalikni bildiradi. Ayol liboslarida bu naqsh ko‘pincha yurak yoki ko‘krak sohasi yaqiniga joylashtiriladi.



Zamonaviy kiyimlarda “gul g‘unchasi” naqshi ayollar uchun mo‘ljallangan tunika, bluzka, liboslar, sport kiyimlari va bosh kiyimlarda nozik kashtalar yoki matoga chop etilgan printlar tarzida qo‘llanilmoqda. Dizaynerlar bu naqsh orqali kiyimga ayollik, nafislik va milliylik ruhini singdiradilar. Ayniqsa, atlas va adras kabi milliy matolar bilan uyg‘unlashtirilgan holda yangi avlod modasida keng ishlatilmoqda.

4. “Qushlar” naqshi qadimiy o‘zbek amaliy san’ati – kashtachilik, sopolsozlik, gilamdo‘zlik va metal o‘ymakorligida keng qo‘llanilgan. Bu naqshning ildizlari zardushtiylik va shamanistik e’tiqodlarga borib taqaladi, unda qush – osmon, ruh va erkinlik bilan bog‘liq bo‘lgan timsol sifatida qaralgan. O‘zbekistonning Buxoro, Farg‘ona va Surxondaryo maktablarida ushbu naqsh o‘ziga xos uslubda shakllangan – qushlarning stilizatsiyalashgan tasvirlari (qanot, tumshuq, dum shakllari) ko‘pincha gul va barglar bilan uyg‘unlashgan holda aks ettirilgan.



Qushlar naqshi ko‘p hollarda erkinlik, ruhaniy balandlik, orzu-umid, xushxabar va himoya ramzlari bilan bog‘lanadi.

3-jadval

“Qushlar” naqshining sohalarda qo‘llanilishi

Soha	Qo‘llanilish shakli
Kashta san’ati	Yostiq, sochiq, dasturxon, ro‘mol va kiyimlarda rang-barang iplar bilan tikiladi.

ISSN 3030-3907

Soha	Qo‘llanilish shakli
Milliy kiyimlar	Ayollar va qizlar uchun atlas/adrasdan tayyorlangan liboslarda qo‘lda yoki mashinada tikilgan bezak sifatida.
Gilam va paloslar	Markaziy yoki burchak qismlarida qush siluetlari yoki stilizatsiyalangan shakllar ko‘rinishida.
Aksessuarlar	Ayollar sumkalari, ro‘mol va broshlar ustida dekorativ unsur sifatida.
Zamonaviy moda	Futbolka, tunika, kurtka, kapyushonli kiyimlarda qush naqshlari raqamli printlar yoki appliqué (tikma) tarzida ishlatilmoqda.
Grafik dizayn	Logotiplar, kitob muqovalari, reklama dizaynlarida hayotiylik va harakat timsoli sifatida.

5. “Anor” naqshi o‘zbek xalq bezak san’atining qadimiy va ramziy jihatdan boy naqshlaridan biridir. Uning kelib chiqishi mevali naqshlar tizimiga taalluqli bo‘lib, ayniqsa Buxoro**,** Samarqand va Farg‘ona vodiysida tarqalgan. Anor qadim zamonlardan beri farovonlik, hayot va naslning barakasi ramzi sifatida qadrlangan. Ushbu naqsh qadimiy gilam, kashta va zargarlik buyumlarida, hatto sopol idishlar bezagida ham uchraydi.



4-jadval

“Anor” naqshining turli sohalarda qo‘llanilishi

Soha	Qo‘llanilish shakli
Kashta san’ati	Yostiq, ro‘mol, dasturxon va ayollar liboslarida anor shaklidagi rang-barang iplar bilan tikiladi.
Milliy kiyimlar	Atlas, adras, beqasam matolarda “anor” naqshi bilan bezatilgan liboslar (kurtka, ko‘ylak, belbog‘lar).
Gilamdo‘zlik	Anor naqshi markaziy rozetta yoki bordyur elementlari sifatida ishlatiladi.
Uy bezaklari	Parda, yostiq jildlari, devor panolarida kashta yoki mato print shaklida.
Zargarlik	Tumor, sirg‘a, marjon kabi ayollar taqinchoqlarida anor shaklida ishlanadi.
Zamonaviy moda	Raqamli dizaynda – tunika, futbolka, sumka va bosh kiyimlarda stilizatsiyalangan anor naqshi qo‘llanilmoqda.

ISSN 3030-3907



“Anor” naqshi – o‘zbek xalqining farovon turmush, totuv jamiyat va sermahsullik haqidagi qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan timsoliy naqshdir. Uning bugungi modada zamonaviy grafik va matbaa texnologiyalari orqali stilizatsiyalangan ko‘rinishlari ham ommalashib bormoqda. U har bir libosga nafaqat estetik, balki mazmunli milliy ruh bag‘ishlaydi.

“Doira” naqshi insoniyat madaniyati tarixida eng qadimiy shakllardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston hududida bu naqsh ilk bor neolit davri sopol buyumlarida, keyinchalik Zarafshon va Sirdaryo vohalaridagi arxeologik topilmalarda uchraydi. Temuriylar va Shayboniylar davri me’moriy obidalarida mukammal doira va spiral shakllari keng qo‘llangan.

“Doira” naqshi ko‘plab ijtimoiy, falsafiy va diniy tushunchalarni mujassam etgan: abadiylik va davomiylik, tenglik va uyg‘unlik, muqaddaslik, himoya.

5-jadval

“Doira” naqshining turli sohalarda qo‘llanilishi

Soha	Qo‘llanilish shakli
Kashta san’ati	Libos, ro‘mol, yostiq jildlari, sochiq chetlarida doiraviy naqshlar ishlatiladi.
Gilamdo‘zlik	Markaziy rozetta va bordyur elementlarida aylana shaklida joylashtiriladi.
Zargarlik	Tumor, sirg‘a, marjon va uzuklarda doira shakli muvozanat va himoya ramzi sifatida.
Interyer dizayni	Devor naqshlari, parda, stol jildlari va bezak buyumlarida muvozanatni ifodalash uchun.
Zamonaviy moda	Tunikalar, futbolkalar, kapyushonli kiyimlar va aksessuarlarda stilizatsiyalangan doira naqshlari qo‘llaniladi.
Me’moriy bezaklar	Peshtoq, devor mozaikasi, gumbaz ichki bezaklarida barqarorlik va simmetriya belgisi sifatida.

“Doira” naqshi o‘zbek milliy san’atining abadiy va universallikka asoslangan naqshlaridan biri bo‘lib, u har qanday zamonaviy dizaynga uyg‘unlik, muvozanat va falsafiy chuqurlik bag‘ishlaydi. U nafaqat estetik go‘zallikni, balki xalqning hayotiy falsafasini, dunyoqarashini ham ifodalaydi.

ISSN 3030-3907

7. “Bodom” naqshi Markaziy Osiyoning, ayniqsa O‘zbekiston**,** Tojikiston va Qozog‘iston hududlarida qadimdan mavjud bo‘lgan milliy bezaklar sirasiga kiradi. U shakli jihatidan bodom mevasini yoki suv tomchisini eslatadi va ayrim manbalarda “xurmacha”, “qalampir”, “tomchi” nomlari bilan ham uchraydi. Ushbu naqsh ko‘plab tarixiy davrlarda – temuriylar**,** shayboniylar **va** Buxoro amirligi davrida gilam, mato va kashtachilikda keng qo‘llanilgan. Shuningdek, Hindiston va Forsda ham “bodom” naqshining o‘xshash talqinlari mavjud bo‘lib, u yerda u “paisley” deb ataladi.



“Bodom” naqshi o‘zbek xalq og‘zaki va amaliy madaniyatida quyidagi ramziy ma’nolarni anglatadi: hayot va hosildorlik, nafosat va ayollik, himoya va poklik, baraka va to‘kinlik.

6-jadval

“Bodom” naqshining turli sohalarda qo‘llanilishi

Soha	Qo‘llanilish shakli
Milliy matolar	Atlas, adras, beqasam va zarxal matolarda asosiy naqsh sifatida stilizatsiya qilingan bodom shakli ishlatiladi.
Kashta san’ati	Yostiq, dasturxon, ro‘mol va liboslarda rang-barang iplar bilan nozik tarzda tikiladi.
Ayollar kiyimlari	Liboslar, tunika va bosh kiyimlarda ayollik va nafislikni ifodalovchi bezak sifatida ishlatiladi.
Gilamdo‘zlik	Bordyur yoki markaziy naqshlar tarkibida ketma-ket joylashgan bodom shakllari bilan bezatiladi.
Zamonaviy moda	T-shirt, sumka, palto, kurtka kabi kiyimlarda paisley shaklida chop etilgan yoki kashta qilingan tarzda.
Grafik va interyer dizayni	Broshyura, logotip, devor bezaklari, parda va gilam dizaynlarida stilistik element sifatida.

“Bodom” naqshi – o‘zbek milliy naqsh san’atida nafosat, hayot, baraka va ayollik timsoli sifatida qadrlanadi. U o‘zining estetik ko‘rinishi va ramziy chuqurligi bilan milliy matolar, liboslar va zamonaviy dizaynlarda keng qo‘llanilmoqda. “Bodom” naqshi nafaqat bezak, balki milliy ong va qadriyatlarning vizual ifodasidir.



8. “Qalampir” naqshi Markaziy Osiyo, ayniqsa O‘zbekiston hududida qadimdan ishlatib kelinayotgan milliy

ISSN 3030-3907

naqsh turlaridan biridir. Uning kelib chiqishi Zardushtiylik davriga borib taqaladi, ba’zi manbalarda esa bu naqsh turining ildizi Eron va Hindiston naqsh san’ati bilan bog‘lanadi. “Qalampir” naqshi ko‘p hollarda yong‘in, jo‘shqinlik, quvvat, himoya, harorat va yorituvchi kuch kabi ramziy ma’nolarga ega. “Qalampir” naqshi – bu o‘zbek milliy kashtachiligi va bezak san’atining yorqin namunasi bo‘lib, tarixiy ildizlarga ega va zamonaviy dizaynda yangicha ifodalanmoqda.

7-jadval

“Qalampir” naqshining zamonaviy modadagi qo‘llanilishi

Soha	Qo‘llanilish shakli
Kashta san’ati	Trikotaj, mato va atlaslarda ip bilan tikilgan ko‘rinishda
Tekstil dizayni	Digital print (raqamli chop etish) orqali kiyim va aksessuarlar bezagida
Zamonaviy kiyimlar	Tunika, kurtka, futbolka, sport kiyimlarida milliylikni ifodalovchi element sifatida
Interyer dizayni	Yostiq jildlari, parda va gilam naqshlarida
Grafik dizayn	Logotip, kitob muqovasi, reklama san’atida dekorativ element sifatida

Natija. Milliy naqshlar nafaqat xalqning madaniy merosini saqlash, balki zamonaviy kiyim dizaynida estetika, shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy aloqalarni aks ettirishda muhim vositalardir. Kiyim dizaynida milliy naqshlarni qo‘llashda iste’molchilarning talablarini hisobga olish, bozor tahlili, ijtimoiy va madaniy omillarni inobatga olish zarur. Shu bilan birga, kiyim dizaynerlari iste’molchilarni o‘rganish orqali, nafaqat modani, balki jamiyatning ehtiyojlarini ham hisoblashi kerak. Milliy naqshlarning o‘smirlar ruhiy holatiga ta’siri quyidagilardan iborat – o‘smirlar kiyimlarida milliy naqshlar va ornamentlar ishlatish, ularning ruhiy holatini ijobiy ta’sir qiladi. Bunday kiyimlar o‘smirlar uchun o‘zlikni anglash va o‘zini qulay his qilishni ta’minlaydi.

Iste’molchilarning talablarini hisobga olish kerakligi kuzatildi, o‘smirlar kiyimlarida milliy naqshlarning ishlatilishi, iste’molchilarning estetik va madaniy ehtiyojlariga javob berish kerak. O‘smirlarning didi va modaga bo‘lgan qarashlarini tushunish, dizaynerlarga kiyimlarning sifatini va maqsadini aniqlashda yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, kiyimlar orqali o‘smirlarning ruhiy holatini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘smirlar modasida naqshlarni qo‘llash imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ular shaxsiylikni ifoda etish, estetik zavq berish, milliy va zamonaviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish hamda yoshlarning ijodiy didini rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy naqshlar va ornamentlar kiyim dizaynida

ISSN 3030-3907

faqat estetik jihatdan emas, balki o‘smirlarning madaniy o‘zlikni anglashiga, o‘zini ifodalashiga va ijtimoiy guruhlarda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Bu naqshlar o‘smirlarni o‘z tarixiy va madaniy ildizlariga bo‘lgan hurmatni oshirishga undaydi va ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Islovovna SS. Factors influencing the design of adolescent uniforms and determining their functions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021;11(3):1315-9.
2. Muminova U.T., Tashpulatov S.Sh., Cherunova I.V., Sharipova S.I. Разработка методологии комплексного проектирования детской одежды. Publisher: Курск. Издательство «Университетская книга», 2020. – С.173.
3. Johnson, M. Adolescent fashion and identity: A psychological perspective. New York: Routledge, 2017. – P. 67-68.
4. Brown, P. & Smith, L. Youth clothing and social groups: A sociological approach. London: Sage Publications, 2016. – P. 48.
5. Ковалев А. Мода и одевание предпочтения подростков. Москва: Академия. 2015. – С. 128-129.
6. Kozlova, I. (2021). The impact of fashion trends on adolescent self-expression. Journal of Youth Studies, 14(2), 58-74.
7. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.
8. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
9. Тошева, Н. М., Тухтаева, З. Ш., & Атамурадова, Г. О. (2014). Значение самостоятельного образования при формировании творческой деятельности. Молодой ученый, (8), 878-879.
10. Sharifovna, T. Z. (2019). Organizational-methodological inter-objective integrations in teaching special disciplines. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
11. To‘xtayeva Z.Sh, Abulova P.U. Analysis of physical and morphological parameters of silk fibers in the aesthetic properties of silk fabrics. E3S Web of Conferences 548, 08010 (2024). – P. 25-29.
12. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202454808010 AGRITECH-X 2024.
13. Tukhtaeva, Z., & Abulova, P. (2025). Monitoring method for assessing the impact of clothing on the psycho emotional adolescents. Modern Innovations,

ISSN 3030-3907

Systems and Technologies, 5(3), 3009–3017. https://doi.org/10.47813/2782-2818-2025-5-3-3009-3017

14. Тухтаева, З. Ш., Хакимова, Г. Х., & Курбанова, И. И. (2017). Особенности детской одежды и выбор материалов. Молодой ученый, (14), 144-145.

ISSN 3030-3907

UDK: 656.7

EKOLOGIK BARQAROR TRANSPORT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH: YASHIL LOGISTIKA MODELLARI

Pirmatova Dilnoza Ortiqboyevna

Toshkent davlat agrar universiteti, "Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar" fakulteti, "Agroiqtisodiyot" kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Email: nozikdil@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish va yashil logistika modellari muhokama qilinadi. Transport sohasining atrof-muhitga ta’siri va uning iqlim o‘zgarishidagi o‘rni, barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yashil transport tizimlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Yashil logistika modellarining asosiy tamoyillari, ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foydalari bayon etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ekologik barqaror transport tizimlarini joriy etish va rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Maqola mamlakatimizda barqaror va ekologik toza transport infratuzilmasini yaratish yo‘lida strategik qarorlar qabul qilishda foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik barqaror transport, yashil logistika, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, transport infratuzilmasi, iqlim o‘zgarishi, qayta tiklanadigan energiya, yuk tashish optimallashtirish, o‘zbekiston transport tizimi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития экологически устойчивых транспортных систем и моделей «зелёной» логистики. Анализируется влияние транспортной отрасли на окружающую среду и её роль в изменении климата, а также значимость зелёных транспортных систем в рамках концепции устойчивого развития. Излагаются основные принципы моделей «зелёной» логистики, их экономические, экологические и социальные преимущества. Также рассматриваются возможности и перспективы внедрения и развития экологически устойчивых транспортных систем в условиях Узбекистана. Статья служит полезным источником для принятия стратегических решений по созданию устойчивой и экологически чистой транспортной инфраструктуры в нашей стране.

Ключевые слова: экологически устойчивый транспорт, зелёная логистика, устойчивое развитие, энергоэффективность, транспортная инфраструктура, изменение климата, возобновляемая энергия, оптимизация грузоперевозок, транспортная система Узбекистана.

Abstract. This article discusses the development of ecologically sustainable transport systems and green logistics models. It analyzes the environmental impact of the transport sector and its role in climate change, as well as the significance of

green transport systems within the framework of the sustainable development concept. The main principles of green logistics models and their economic, environmental, and social benefits are presented. Additionally, the possibilities and prospects for implementing and developing ecologically sustainable transport systems in the context of Uzbekistan are examined. The article serves as a useful resource for making strategic decisions aimed at creating a sustainable and environmentally friendly transport infrastructure in our country.

Keywords: ecologically sustainable transport, green logistics, sustainable development, energy efficiency, transport infrastructure, climate change, renewable energy, freight transport optimization, Uzbekistan transport system.

Kirish

Hozirgi zamonda global iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitning degradatsiyasi muammolari jahonda eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. So‘nggi o‘n yilliklarda sanoat inqilobi va transport sektorining tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida havoga zararli gazlar miqdori sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, transport sohasi dunyoda karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarining katta qismiga sababchi bo‘lib, bu iqlim o‘zgarishining asosiy omillaridan biridir. Shu sababli, ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun transport tizimlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan shaklga keltirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yashil logistika va ekologik toza transport tizimlari yangi yo‘nalish sifatida paydo bo‘ldi. Ular nafaqat energiya tejamkorligini ta’minlab, atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini ham o‘zida mujassam etadi. Shu bois, ko‘plab davlatlar va korxonalar yashil transport va logistika modellari bo‘yicha innovatsion yechimlarni ishlab chiqmoqda. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ekologik barqaror transport tizimlarini yaratish va rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Mamlakatimizning geografik joylashuvi va iqtisodiy rivojlanish istiqbollari transport sohasida yashil yechimlarni joriy etishga katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada ekologik barqaror transport tizimlari tushunchasi, yashil logistika modellari, ularning afzalliklari va O‘zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish istiqbollari haqida so‘z boradi.

Ekologik barqaror transport tizimi — bu atrof-muhitga minimal zarar yetkazadigan, energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan va iqlim o‘zgarishiga ta’sirini kamaytiradigan transport usullarini o‘z ichiga oladi. Bunday tizimlar kam uglerodli yoki nol chiqindili transport vositalaridan foydalanish, yo‘l harakati oqimini optimallashtirish va energiyani tejash orqali amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Yashil logistika modellari. Yashil logistika — bu logistika jarayonlarida atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillarini qo‘llashdir. U quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Energiyani tejaydigan transport vositalari: Elektr transport vositalari, gidrogen yoqilg‘isi ishlaydigan mashinalar, velosipedlar va boshqa ekologik toza alternativalar.
- Yo‘l harakatini optimallashtirish: Transport yo‘llarini rejalashtirish, yuklarni birlashtirish va logistika zanjirini qisqartirish orqali yoqilg‘i sarfini kamaytirish.
- Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish: Transport infratuzilmasida quyosh panellari, shamol turbinalari kabi manbalardan foydalanish.
- Qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish: Logistika jarayonlarida chiqindilarni minimallashtirish va qayta ishlash tizimlarini joriy etish.

O‘zbekiston geografik jihatdan Markaziy Osiyoda muhim transport tuguni hisoblanadi. Bu mamlakatda yashil transport va logistika tizimlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Xususan, quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim:

- Elektr transport vositalari uchun infratuzilmani yaratish.
- Shahar ichidagi jamoat transportini ekologik toza variantlarga o‘tkazish.
- Yuk tashish yo‘nalishlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish.
- Qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish.

Ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish va yashil logistika modellari joriy etish nafaqat atrof-muhitni asrash, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham katta foyda keltiradi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun bu yo‘nalish kelajakda barqaror va farovon jamiyat barpo etishning muhim tarkibiy qismi bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar tahlili. Ekologik barqaror transport tizimlari va yashil logistika sohasidagi tadqiqotlar so‘nggi yillarda jahon miqyosida katta e’tibor qozonmoqda. Bu mavzu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Bir qancha olimlar transport sektorining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish yo‘llarini o‘rganib, kam emissiyali va energiya samarador transport vositalarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlashgan. Masalan, Banister (2008) o‘z tadqiqotida ekologik barqaror transport tizimlarining asosiy tamoyillari va ularni amaliyotga joriy etish strategiyalarini batafsil tahlil qilgan. U transport sohasida energiya tejamkorligi, ko‘p rejimlik transport tizimlari va yashil texnologiyalarni keng qo‘llashni asosiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi. Yashil logistika atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan logistika faoliyatlarini anglatadi. Srivastava

ISSN 3030-3907

(2007) va Wu et al. (2017) kabi tadqiqotchilar yashil logistikaning asosiy yo‘nalishlari – ekologik transport vositalari, yo‘l harakatini optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishni ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari yashil logistika modellarining iqtisodiy va ekologik samaradorligini dalillar bilan ko‘rsatadi.

O‘zbekiston kontekstida ekologik barqaror transport tizimlari va yashil logistika sohasida ilmiy izlanishlar nisbatan yangi bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ushbu mavzu bo‘yicha bir qator maqolalar va strategik hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, Qodirov va Hamidov (2020) O‘zbekistonda jamoat transportini elektrlashtirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish bo‘yicha istiqbollarni tahlil qilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan "Yashil iqtisodiyot" dasturi va transport sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan strategiyalar ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, 2023). Yashil transport tizimlarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, masalan, elektr avtomobillar, gidrogen yoqilg‘isi, aqlli transport tizimlari va IoT (Internet of Things) texnologiyalari keng o‘rganilmoqda. Kumar va Sharma (2021) ushbu innovatsiyalar transport sektorining barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatgan.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqotda ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish va yashil logistika modellari sohasida mavjud ilmiy manbalar, davlat strategiyalari hamda amaliy tajribalar tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida quyidagi manbalar va ma’lumotlar ishlatildi:

- Xalqaro ilmiy maqolalar va kitoblar, shu jumladan transport sohasida barqarorlik va yashil logistika mavzularidagi nashrlar;
- O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ekologiya va transport siyosati bo‘yicha rasmiy hujjatlari hamda strategik dasturlari;
- Soha mutaxassislari va ekologiya bo‘yicha ekspertlarning ilmiy fikrlari va hisobotlari;
- Amaliy misollar va zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha tajribalar, jumladan, elektr transport vositalari va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.

ISSN 3030-3907

1-Jadval.

Yashil logistika modellari va ekologik barqaror transport tizimlarining asosiy komponentlari va ularning afzalliklari

Komponentlar	Tavsifi	O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari
Elektr transport vositalari	Elektr energiyasi asosida harakatlanadigan transport vositalari	Shaharlar ichida jamoat transportini elektrlashtirish
Yo‘l harakatini optimallashtirish	Transport yo‘nalishlari va yuk tashish jarayonlarini samarali rejalashtirish	Yuk tashish tizimlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish
Qayta tiklanadigan energiya	Quyosh, shamol va boshqa tabiiy energiya manbalaridan foydalanish	Transport infratuzilmasida quyosh batareyalarini joriy etish
Chiqindilarni kamaytirish	Logistika jarayonlarida chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash	Qayta ishlash punktlarini rivojlantirish va jamoatchilikni targ‘ib qilish
Aqlli transport tizimlari	Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish orqali transportni boshqarish	Shahar transportini aqlli boshqarish tizimlarini joriy etish

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar qo‘llanildi. Sifatli tahlil sifatida adabiyotlarni o‘rganish, davlat va nodavlat tashkilotlarning hisobotlari hamda maqolalarining kontent-analizi amalga oshirildi. Miqdoriy usullar doirasida transport sektoridagi energiya sarfi, chiqindilar miqdori va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari statistik ma’lumotlari o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida mavjud infratuzilma va amaliy loyihalar tahlil qilindi. Yashil logistika modellari bo‘yicha global va milliy tajribalar solishtirildi va ular mamlakatimizga tatbiq etish istiqbollari baholandi. Tadqiqot natijalari asosida ekologik barqaror transport tizimini rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi, bu esa mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

2-Jadval.

Turli transport tizimlarining ekologik va iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha taqqoslash

Transport turi	Atrof-muhitga ta’siri	Energiyadan foydalanish samaradorligi	Xarajatlar darajasi	Amaliy qo‘llash imkoniyatlari O‘zbekistonda
Ichki yonilg‘i motorli avtomobillar	Yuqori (CO_2 va zararli gazlar)	Past	O‘rtacha yoki yuqori	Keng tarqalgan, lekin ekologik zararli
Elektr transport vositalari	Past (nol chiqindili)	Yuqori	Dastlabki xarajat yuqori, keyinchalik arzonlashadi	Shaharlar ichida joriy etilmoqda, rivojlanmoqda
Gidrogen yoqilg‘ili transport	Past (faqat suv chiqindi)	O‘rta- Yuqori	Yuqori	Eksperimental va rivojlanayotgan soha
Jamoat transport (elektr tramvay, metropoliten)	Juda past	Juda yuqori	O‘rtacha	Katta shaharlarda mavjud

Ushbu tadqiqotda ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish va yashil logistika modellari sohasidagi mavjud holatni aniqlash va tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks yondashuv qo‘llanildi, bunda sifatli va miqdoriy usullar uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ekologik barqaror transport tizimini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar O‘zbekiston sharoitida yashil logistika modellari va ekologik toza transport vositalarini keng joriy etishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot muhokamasi. Ushbu tadqiqot natijalari ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish va yashil logistika modellari sohasida amalga oshirilgan oldingi ilmiy izlanishlar bilan uyg‘unlikda ekanligi aniqlanmoqda. Transport sektorining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish uchun samarali chora-tadbirlar zarurligi global miqyosda tan olingan bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida ham bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Tahlillar natijasida elektr transport vositalari va jamoat transportini elektrlashtirish mamlakatimiz uchun istiqbolli yo‘nalish ekanligi ko‘rsatildi. Bunday transport vositalari nafaqat karbon chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi, balki shahar havosining ifloslanishini

ISSN 3030-3907

kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ularning dastlabki xarajatlari yuqori bo‘lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu holat Banister (2008) va Srivastava (2007) kabi olimlarning tadqiqotlari bilan ham mos keladi. Yashil logistika modellari doirasida yo‘l harakatini optimallashtirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish masalalari muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi. Bu sohada O‘zbekistonda raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini faollashtirish zarurati mavjud. Wu va boshq. (2017) ning tadqiqotlari ham ushbu jarayonlar ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston uchun asosiy muammolardan biri — ekologik transport infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish darajasining pastligi hisoblanadi. Bu borada davlat siyosati va investitsiyalarni jalb qilish muhim omil sifatida ko‘riladi. Qodirov va Hamidov (2020) ham O‘zbekistonda yashil transportni rivojlantirish uchun institutsional va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydilar. Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat — aholining ekologik ongini oshirish va yashil transport vositalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish zarurati. Bu jamoatchilikni transportning ekologik ta’sirini kamaytirishdagi faollikka jalb qilishga yordam beradi. Umuman olganda, ekologik barqaror transport tizimlarini yaratish va yashil logistika modellarini tatbiq etish O‘zbekiston uchun nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim strategik yo‘nalishdir. Buning uchun ilmiy tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar va davlat siyosati o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilishi lozim.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish va yashil logistika modellari asosiy e’tibor markazida bo‘ldi. Transport sektori atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, uning barqaror va ekologik toza yo‘nalishga o‘tkazilishi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Yashil logistika modellarining amaliyotga joriy etilishi transport tizimining energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishda samarali natijalar beradi. O‘zbekiston sharoitida elektr transport vositalari, yo‘l harakatini optimallashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish ekologik barqarorlikni ta’minlashning asosiy yo‘llari sifatida ko‘riladi. Shuningdek, ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirishda davlat siyosati, investitsiyalar va jamoatchilik ongini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishda strategik qarorlar qabul qilish va amaliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish zarur. Natijada, yashil logistika va ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish O‘zbekistonning yashil

ISSN 3030-3907

iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtirish, atrof-muhitni asrash va barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim imkoniyatlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Banister, D. (2008). The sustainable mobility paradigm. Transport Policy, 15(2), 73-80.
2. Qodirov, A., & Hamidov, M. (2020). O‘zbekiston sharoitida ekologik barqaror transport tizimlarini rivojlantirish istiqbollari. O‘zbekiston Transport Jurnali, 4(12), 45-52.
3. Tursunov, S. (2019). Yashil logistika va uning O‘zbekistondagi tatbiqi. Iqtisodiyot va ekologiya masalalari, 3(7), 12-18.
4. Qodirov, A., & Hamidov, M. (2020). Elektrlashtirish va qayta tiklanadigan energiya O‘zbekistonda jamoat transportini rivojlantirish istiqbollari. O‘zbekiston Transport Jurnali, 4(12), 45-52.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi (2023). Yashil iqtisodiyot dasturi va transport sohasida barqaror rivojlanish strategiyasi. Toshkent.
6. Kumar, R., & Sharma, A. (2021). Role of smart technologies in sustainable transport systems. Sustainable Cities and Society, 65, 102627.
7. Sobirov, I. (2022). Yashil iqtisodiyot va transport sohasida innovatsiyalar. Innovatsion texnologiyalar jurnali, 6(14), 44-50.
8. Islomov, F. (2020). Barqaror transport tizimlarini shakllantirishda davlat siyosatining roli. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar, 2(11), 55-61.

ISSN 3030-3907

СЕКТОРНОЕ КОМПОЗИЦИОННОЕ ГИДРОДИНАМИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОБВОДНЕНИЯ ГАЗОКОНДЕНСАТНОЙ СКВАЖИНЫ

Нуриддинов Жамолиддин Фазлиддин угли
ООО «Uz-Gas Projects», начальник отдела разработки
E-mail: jmnuriddinov1@gmail.com
Адизов Бобиржон Замирович
Институт общей и неорганической химии АН Республики Узбекистан, DSc, заведующий лабораторией
E-mail: bobirjon_adizov@mail.ru
Акрамов Бахшилло Шафиевич
Филиал РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в г. Ташкенте, к.т.н., профессор
E-mail: akramov_bahsh@mail.ru
Евстафеев Евгений Александрович
Филиал РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в г. Ташкенте, преподаватель
E-mail: johnnygeniy@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich geologik-fizik ma’lumotlarning yetishmasligi sharoitida kompozitsion suyuqlik modeli qo‘llanilgan holda vertikal gazokondensat qudug‘ining suvlanish jarayonini sektorli gidrodinamik modellashtirish ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasida ishlatilayotgan konlardan biridagi ekspluatatsion quduqning perferatsiya intervaliga qatlam suvi konusining ko‘tarilish jarayoni qayta tiklangan.

Kalit so‘zlar: quduq, sektorli modellashtirish, suvlanish, suv konusi, qazib olish dinamikasi, debit, kompozitsion model.

Аннотация. В статье рассмотрено секторное гидродинамическое моделирование процесса обводнения добывающей вертикальной газоконденсатной скважины с применением композиционной модели флюида в условиях недостатка исходной геолого-физической информации. Воспроизведен процесс поднятия конуса подошвенной воды к интервалам перфорации эксплуатационной скважины одного из разрабатываемых месторождений Республики Узбекистан.

Ключевые слова: скважина, секторное моделирование, обводнение, водяной конус, динамика добычи, дебит, композиционная модель.

Abstract. The article considers sectoral hydrodynamic modeling of the water breakthrough process in a producing vertical gas condensate well using a compositional fluid model under conditions of limited initial geological and

ISSN 3030-3907

physical information. The process of bottom water coning towards the perforation intervals of a production well at one of the developing fields of the Republic of Uzbekistan is reproduced.

Введение

В настоящее время в Республике Узбекистан одной из актуальных проблем эксплуатации газовых скважин является их стремительное обводнение за счет локального поднятия конуса подошвенной воды, обусловленного геологическими и технологическими факторами. Геологические факторы представлены наличием высокопроницаемых трещин в карбонатных коллекторах, по которым пластовая вода может быстро проникать к забою добывающей скважины. Основным технологическим фактором является несоблюдение технологического режима эксплуатации скважин, а именно допустимой депрессии на пласт, при которой не должно происходить ее обводнение [1]. На сегодняшний день существует множество способов борьбы с обводнением газовых скважин, среди которых можно выделить химические, технологические и физические [2]. Одним из наиболее простых и практически применимых методов является изменение технологического режима эксплуатации скважины и проведение продувки ее забоя для выноса скопившейся жидкости. Однако такой метод является краткосрочным по своему действию, и в будущем вода вновь начнет поступать к перфорационным каналам. В свою очередь, применение химических методов сталкивается с рядом ограничений из-за термобарических условий залежи, а также требует особого подхода к разработке специальных материалов [3]. Физические методы требуют проведение спускоподъемных операций для изменения компоновки скважинного оборудования, а также спуск дополнительного оборудования, такого как плунжер или погружной электроцентробежный насос [2]. Однако выбор того или иного метода должен осуществляться на основе предварительных численных исследований, направленных на минимизацию финансовых затрат и максимизацию эффекта от его применения. Численные исследования необходимо проводить на гидродинамических моделях таких залежей или их фрагментах. В условиях недостатка исходных геолого-физических данных о распределении фильтрационно-емкостных свойств пласта для моделирования процесса обводнения газовых скважин допускается применение секторного гидродинамического моделирования фрагмента залежи, дренируемого исследуемой скважиной.

Целью работы является построение секторной гидродинамической модели фрагмента залежи одного из газоконденсатных месторождений

ISSN 3030-3907

Республики Узбекистан, позволяющей воспроизвести процесс обводнения добывающей газоконденсатной скважины, разрабатывающей данный участок.

Материалы и методы. Для моделирования процесса обводнения добывающей газоконденсатной скважины были использованы все имеющиеся о ней данные – конструкция, технологический режим, динамика добычи и результаты интерпретации газогидродинамических исследований. Помимо этого, из проектного документа на разработку месторождения были взяты данные об эффективных газонасыщенных толщинах каждого горизонта, вскрываемого скважиной.

Исследуемая скважина №33 по конструкции является вертикальной, вскрывает три горизонта юрских отложений, отличающихся эффективными газонасыщенными толщинами, пористостью и мощностью. В процессе ее эксплуатации после вывода месторождения из консервации часть периода добычи являлась безводной, однако вследствие проявления газового режима залежи, происходило стремительное падение пластового давления и дебита газа и конденсата. На третий год эксплуатации произошло образование конуса воды, и скважина начала обводняться, что привело к еще более стремительному падению ее производительности. Несмотря на принятые меры по снижению депрессии на пласт, процесс обводнения стремительно ускорялся, и на сегодняшний день дебит воды увеличился в 18 раз по сравнению с начальным периодом эксплуатации.

Моделирование процесса обводнения данной скважины включало в себя следующие этапы:

1. **Анализ имеющейся геолого-физической информации о пласте и параметров исследуемой скважины.** На данном этапе были проанализированы результаты газогидродинамических исследований скважины №33, а также данные о фильтрационно-емкостных свойствах вскрываемых скважиной горизонтов. В частности, были определены средние значения коэффициентов пористости, песчанистости и абсолютной проницаемости пород-коллекторов.
2. **Обоснование параметров гидродинамической модели.** Этот этап подразумевал выбор размеров фрагмента залежи, определение необходимого типа аквифера и его фильтрационно-емкостных характеристик, а также варианта PVT-модели флюидов. Поскольку исследуемая скважина вскрывает газоконденсатную залежь, было принято решение использовать композиционную модель.

ISSN 3030-3907

3. **Построение и адаптация PVT-модели флюида, моделирование начального фазового равновесия.** Для построения композиционной PVT-модели флюида залежи, вскрываемой исследуемой скважиной применялся алгоритм, описанный в [4-5]. Адаптация проводилась по величине начального потенциального содержания конденсата в пластовом газе и давлению начала конденсации. Для моделирования начального фазового равновесия использовались данные о положении газоводяного контакта и текущем пластовом давлении в залежи. Проводилась также адаптация величины дренируемых запасов газа рассматриваемой скважиной.

4. **Воспроизведение истории эксплуатации и динамики обводнения.** Для воспроизведения истории эксплуатации скважины №33 использовалось разделение всего временного периода на этапы, в согласии с методикой, описанной в [6]. Весь рассматриваемый период длительностью 19 лет был разделен на 2 этапа:

- I этап (2006-2007 гг.) – безводная эксплуатация с постепенным снижением дебита газа и конденсата;

- II этап (2008-2025 гг.) – рост обводнения скважинной продукции за счёт образования конуса подошвенной воды и стремительное снижение производительности скважины по газу и конденсату.

На первом этапе осуществлялась адаптация по дебиту газа, поскольку этот флюид являлся преобладающим в процессе добычи. На втором этапе для корректного воспроизведения динамики обводнения скважины адаптация проводилась по дебиту воды, а динамика дебитов газа и конденсата настраивалась путем изменения кривых относительных фазовых проницаемостей.

Обсуждение и результаты

Исследуемая скважина по конструкции является вертикальной и охватывает определенную зону дренирования залежи. В качестве допущения была построена 3D-сетка размерами 1000x1000x250 м. При этом шаг по осям OX и OY был взят равным 50 м., а по оси OZ – 1 м. Далее для построенной сетки моделировались основные фильтрационно-емкостные свойства – пористость, абсолютная проницаемость по всем осям координат, а также песчанистость. Поскольку для моделируемой части залежи отсутствуют данные о расчлененности и неоднородности разреза по всем пропласткам, в качестве допущения фильтрационно-емкостные свойства моделировались по средним данным из проектного документа на разработку данной залежи. Так, для моделирования пористости использовалась разбивка пласта на горизонты, имеющие среднюю пористость, определенную по данным

ISSN 3030-3907

геофизических исследований скважин и петрофизических исследований керна. Для моделирования неоднородного распределения пористости, для верхнего горизонта, расположенного на глубине выше 3072 м. средняя пористость принята равной 8%, для среднего горизонта, расположенного между 3072 и 3103 м. – 12%, а для нижнего – 8,3%. Рассчитанное значение песчанистости для верхнего горизонта составило 0.22, для среднего горизонта – 0.75, а для нижнего – 0.06. На рисунке 1 изображено распределение песчанистости в моделируемом фрагменте залежи.




Рис.1. Распределение песчанистости в моделируемом фрагменте залежи

Величина абсолютной проницаемости была принята по результатам обработки кривой восстановления давления скважины №33 и в среднем составила 66,73 мДарси. Для моделирования вторжения воды в залежь использовался аквифер Картера-Трейси, фильтрационно-емкостные параметры которого в качестве допущения были приняты равными нижнему горизонту. На рисунке 2 представлено начальное распределение насыщенности в модели согласно тернарной диаграмме.

ISSN 3030-3907




Рис.2. Начальное распределение насыщенности в модели согласно тернарной диаграмме

Построение PVT-модели пластового флюида осуществлялось на основе среднего компонентного состава пластового газа, приведенного в таблице 1.

Таблица 1.

Средний компонентный состав пластового газа рассматриваемой залежи

Компонент	Молярная концентрация, %
CH_4	88,91
C_2H_6	5,64
C_3H_8	1,41
i-C_4H_{10}	0,29
n-C_4H_{10}	0,36
$C_{5+в}$	1,15
N_2	0,99
CO_2	1,05
H_2S	0,20

Для этого компонентного состава с учетом молекулярной массы конденсата, равной 133 г/моль, проводилась его замена на стандартный компонент нонан, который затем разбивался на псевдокомпоненты с помощью корреляции Whitson согласно методике, изложенной в [4]. В результате была адаптирована величина начального потенциального содержания конденсата в пластовом газе, равная 62 г/м^3 и давление начала конденсации, равное 368 бар. На рисунке 3 представлена изотерма дифференциальной конденсации полученного состава пластового флюида.

ISSN 3030-3907





Рис.3. Изотерма дифференциальной конденсации пластового газа исследуемого месторождения

Далее вопроизводилась история эксплуатации скважины №33. В период с 1 июля 2006 года до 1 января 2008 года, соответствующего безводному периоду эксплуатации, задавался режим дебита газа GRAT, а в период с 1 января 2008 года по 1 июля 2025 года – режим дебита воды WRAT. В результате удалось воспроизвести подъем конуса подошвенной воды к интервалам перфорации. На рисунке 4 показано распределение насыщенности водой в гидродинамической модели месторождения на начало и конец рассматриваемого периода эксплуатации.

ISSN 3030-3907



а **б**

Рис.4. Распределение насыщенности водой в гидродинамической модели месторождения: а – на начало рассматриваемого периода эксплуатации, б – на конец рассматриваемого периода эксплуатации скважины №33

Как видно из рисунка 3, вследствие активности подошвенной воды произошел подъем газоводяного контакта и образование водяного конуса, что и привело к увеличению дебита в 18 раз с 0,1 м^3/сут до 1,8 м^3/сут.

Стоит отметить, что применение режима WRAT позволило полностью адаптировать динамику обводнения исследуемой скважины. На рисунках 5 и 6 представлены графики зависимости фактических и модельных значений дебита и накопленной добычи воды для исследуемой скважины.

ISSN 3030-3907




Рис.5. Динамика фактических (дебит воды (И)) и модельных (дебит воды) значений дебита воды




Рис.6. Динамика фактических (накопл. вода (И)) и модельных (накопл. вода) значений накопленной добычи воды

Как показывают рисунки 4 и 5, применение предложенного подхода вкупе с композиционным моделированием позволило корректно воспроизвести динамику обводнения исследуемой скважины №33.

ISSN 3030-3907

Выводы и предложения

В данной работе рассмотрено применение композиционного секторного гидродинамического моделирования для воспроизведения процесса обводнения эксплуатационной газоконденсатной скважины одного из разрабатываемых месторождений Республики Узбекистан в условиях недостатка исходной геолого-физической информации о продуктивном пласте. Проведенные численные эксперименты показали эффективность применения поэтапного подхода к адаптации истории эксплуатации таких скважин. Результаты, полученные в данной работе, могут стать основой для прогнозирования дальнейшего процесса обводнения исследуемой скважины, а также является полезным вспомогательным инструментом для обоснования методов борьбы с ним.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алиев З. С., Андреев С. А., Власенко А. П. Технологический режим работы газовых скважин. – Москва: Недра, 1978. – 279 с.
2. Ли Дж., Никенс Г., Уэллс М. Эксплуатация обводняющихся газовых скважин: технологические решения по удалению жидкости из скважин / пер. с англ.; науч. ред. С. Г. Вольпин, И. В. Шулятиков. — М.: Премиум Инжиниринг, 2008. — 365 с.
3. Нуриддинов Ж. Ф., [и др.]. Изоляция водопритока в высокотемпературных газоконденсатных скважинах на примере месторождения Северный Мубарек // Universum: технические науки : электронный научный журнал. – 2025. – Т. 7, № 136. — URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/20537 (дата обращения: 11.09.2025).
4. Evstafeev E. A., Akramov B. Sh., Shevtsov V. M., Turaev U. D. Development of a compositional PVT model for a multicomponent, multiphase hydrocarbon reservoir // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – 2025. – Vol. 12, Issue 8. – August.
5. Адизов Б. З., Акрамов Б. Ш., Алиев Р. и др. Состояние, проблемы, перспективы развития современной науки и технологий: монография. — Петрозаводск: МЦНП «Новая наука», 2025. – 601 с.
6. Евстафеев Е. А., Шевцов В. М., Адизов Б. З., Акрамов Б. Ш. & Нуриддинов Ж. Ф. (2025). Алгоритм поэтапной адаптации композиционной гидродинамической модели многокомпонентного многофазного месторождения. Development Of Science, 9(2), pp. 444-461. https://doi.org/0

ISSN 3030-3907

YENGIL MOLEKULYAR SINTETIK OLIFEN UGLEVODORODLAR OLISH JARAYONLARI TAVSIFI.

Egamnazarova Fazilat Dustqobilovna
Qarshi davlat terxnika universiteti
E-mail: oybek.kuyboqarov@mail.ru

Annotatsiya: Biz tomonimizdan yengil molekulyar sintetik olifen qatori uglevodorodlar olish uchun Fisher-Tropsch sintezini pechta isitiladigan, ma'lum joylashuvdan foydalangan holda zanglamaydigan po'latdan yasalgan quvurli reaktorda amalga oshirdildi. Reaktorning uzunligi 390 mm, ichki diametri 8,46 mm teng. Katalizator qatlami bo'ylab bir xil harorat rejimiga pech va quvurli reaktor o'rtasidagi bo'shliqqa alyuminiy-isitish bloki o'rnatilgan uch xil isitish zonasi yordamida erishildi.

Kalit so'zlar: Yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorod, harorat, 25%Fe-10%Zn-5%Zr(SiO_2 Xovdak bentoniti) va 25%Fe-10%Zn-5%Zr-0.5%Na(SiO_2Xovdak bentoniti), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1%Na(SiO_2Xovdak bentoniti), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1,5%Na(SiO_2Xovdak bentoniti), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-2%Na(SiO_2Xovdak bentoniti).

Аннотация: Мы провели синтез Фишера-Тропша для получения низкомолекулярных синтетических углеводородов ряда олефинов в стационарном трубчатом реакторе из нержавеющей стали с печным обогревом. Длина реактора составляет 390 мм, внутренний диаметр — 8,46 мм. Одинаковый температурный режим во всем слое катализатора был достигнут с помощью трех различных зон нагрева с алюминиевым нагревательным блоком, установленным в пространстве между печью и трубчатым реактором.

Ключевые слова: Легкомолекулярные синтетические олефиновые углеводороды 25%Fe-10%Zn-5%Zr(бентонит SiO_2Ховдак) и 25%Fe-10%Zn-5%Zr-0,5%Na(бентонит SiO_2Ховдак), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1%Na(бентонит SiO_2Ховдак), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1,5%Na(бентонит SiO_2Ховдак), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-2%Na(бентонит SiO_2Ховдак).

Abstract: We performed the Fischer-Tropsch synthesis of low molecular weight synthetic hydrocarbons of a series of olefins in a stationary stainless steel tubular reactor with furnace heating. The reactor length is 390 mm, the internal diameter is 8.46 mm. The same temperature regime throughout the catalyst bed was achieved using three different heating zones with an aluminum heating block installed in the space between the furnace and the tubular reactor.

Keywords: Light molecular weight synthetic olefin hydrocarbons 25%Fe-10%Zn-5%Zr(bentonite SiO_2Khovdak) and 25%Fe-10%Zn-5%Zr-0.5%Na(bentonite

ISSN 3030-3907

SiO_2Khovdak), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1%Na(bentonite SiO_2Khovdak), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na(bentonite SiO_2Khovdak), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-2%Na(bentonite SiO_2Khovdak).


Kirish

Harorat reaktor bilan bevosita aloqada bo‘lgan uchta K tipidagi termojuftlar tomonidan nazorat qilindi. Reaksiya vaqtida ekzotermiklikni o‘lchash uchun katalizator bilan bevosita aloqada bo‘lgan reaktor ichiga qo‘shimcha K tipidagi termojuft o‘rnatildi. Katalizator ostidagi bo‘shliqlar tashqi diametri 6 mm bo‘lgan kvarts bilan to‘ldirilgan.[238].

Yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlarni ishlab chiqarish uchun reaktor 6 raqami bilan belgilangan silindrsimon pechda joylashgan [8]. Pechdagi harorat uglerod oksidi va vodoroddan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlarni ishlab chiqarish reaktori 7 tomonidan boshqariladi [55].

Pechdagi harorat 8-raqamli K tipdagi termojuft bilan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorod ishlab chiqarish reaktorida 9-sonli termojuft bilan o‘lchanadi. Uglerod oksidi va vodoroddan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodni ishlab chiqarish reaktoridagi harorat +1 °C aniqlikda saqlanadi.

Yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorod yig‘ish atmosfera bosimi ostida sovutilgan 12 tomonidan amalga oshiriladi. 25%Fe-10%Zn-5%Zr(SiO2Xovdak bentoniti) va 25%Fe-10%Zn-5%Zr-0.5%Na(SiO2Xovdak bentoniti) , 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1%Na(SiO2Xovdak bentoniti), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1,5%Na(SiO2Xovdak bentoniti), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-2%Na(SiO2Xovdak bentoniti) tarkibidagi sintez gazidan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlarni olish uchun tanlangan katalizator ishtirokida amalga oshirildi.



1-rasm. Yuqori bosimdagi sintez gazidan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlarni olish uchun laboratoriya qurilmasining sxematik diagrammasi.


1-bosim regulyatori, 2-manometr, 3-vintli, 4-ko‘pikli o‘lchagich, uglerod oksidi va vodoroddan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlarni olish

ISSN 3030-3907

uchun 5-reaktor, 6-pech, 7-harorat regulyatori, 8-motorli, 10-qabul qiluvchi, 11-bosim regulyatori, 12-ilgak, 13-gaz hisoblagich.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlarni katalitik sintezi uchun tayyorlangan katalizatorning tekstur va fizik-kimyoviy xarakteristikalari.

25%Fe-10%Zn-5%Zr-1,5%Na katalizatorlarining N-fizisorbsion izotermalari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Fe-Zr xNa katalizatorlarining N-fizisorbsion izotermalari.

Barcha katalizatorlar mezoporli materiallarni ko‘rsatadigan IV turdagi izotermlarni namoyish etadi. [10] Yangi katalizatorlarning BET sirt maydoni (SBET), o‘rtacha g‘ovak hajmi (Dp), umumiy g‘ovak hajmi (Vp), tarkibi va kristallit hajmi (dFe2O3) 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Yangi katalizatorlarning teksturaviy xossalari

Tekshirilayotgan namunalarning tarkibi	Na Yuklanmoqda (mass %)	S_{BET} ($m^2.g^{-1}$)	V_p ($cm^3.g^{-1}$)	D_p (nm)	d_{Fe2O3} (nm)
25%Fe-10%Zn-5%Zr(SiO_2Xovdak bentoniti)	-	58,2	0,25	11,9	22,8
25%Fe-10%Zn-5%Zr-0.5%Na(SiO_2Xovdak bentoniti)	0,24	35,8	0,26	19,8	23,7
25%Fe-10%Zn-5%Zr-1%Na(SiO_2Xovdak bentoniti)	0,50	32,1	0,26	20,8	25,0

ISSN 3030-3907

25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na(SiO_2Xovdak bentoniti)	0,93	24,7	0,23	27,6	28,1
25%Fe-10%Zn-5%Zr-2%Na(SiO_2Xovdak bentoniti)	1,50	22,1	0,24	38,1	37,4
25%Fe-10%Zn-1%Na(SiO_2Xovdak bentoniti)	0,96	12,1	0,13.8	41,2	46,1

Kelvin tenglamasi bilan hisoblangan o‘rtacha kristallit hajmi.

BET sirt maydoni 58,2 dan 22,1m2g-1 gacha kamayadi, o‘rtacha g‘ovak hajmi esa 11,9 dan 38,1 nm gacha oshadi, Na yuklanishi 0 dan 2 og‘irligi% gacha. Yangi katalizatorning umumiy g‘ovak hajmiga Na yuklanishi kamdan-kam ta'sir qiladi, bu katalizator g‘ovaklari to‘sib qo‘yilmasligi mumkinligini ko‘rsatadi.23 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na(SiO_2Xovdak bentoniti) namunasining BET yuzasi 25%Fe-10%Zn-1%Na(SiO_2Xovdak bentoniti) dan taxminan ikki baravar katta. 25%Fe-10%Zn-1%Na(SiO_2Xovdak bentoniti) namunasining gematit kristallitining o‘lchami 27,6 nm va 25%Fe-10%Zn-1%Na(SiO_2Xovdak bentoniti) gematit kristallitidan namunasidan kichikroqdir, bu tsirkoniy gematit kristallitini ajratuvchi va o‘sishni taqiqlovchi mos struktura tipidagi promouter ekanligini isbotlaydi. [11]

Sintez-gazdan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlar olish uchun tanlangan katalizator tayyorlash metodikasi

Ishda g‘ovak tashvchi sifatida Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanida Xovdak bentoniti ishlatildi. Katalizator quyidagicha tayyorlandi: 100 g massadagi Xovdak bentonitiga tegishli tuzlarning 30% li eritmasi 12 soat davomida yuttirildi. Tegishli tuzlar 1000 sm3 laboratoriya reaktorida 100-120 °C haroratda aralashtirildi. Cho‘kishdan so‘ng suspenziya bug‘landi, cho‘kma 150 ° C haroratda quritildi va 350 dan 500 ° C gacha bo‘lgan haroratda mufel pechida quritildi va 4-6 mm o‘lchamdagi granula holatiga keltirildi.

Katalizator Xovdak bentonitiga tegishli tuzlarning suvli eritmalarini yuttirish yo‘li bilan tayyorlandi. 12 soat davomida yuttirishdan so‘ng 1 soat davomida 150°C da quritiladi va havo oqimida 550-600°C da kuydiriladi [84; 79-85-б]

Namunalarning termik tahlili SDT Q600 derivatografiyasida o‘tkazildi. O‘lchovlar azot atmosferasida 20 dan 80 ° C gacha bo‘lgan haroratda, skanerlash tezligi 10 daqiqada amalga oshirildi.


ISSN 3030-3907

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI. Quyi molekulyar olefin qatori uglevodorodlarni sintez qilish uchun tanlangan **25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na/(SiO_2Xovdak bentoniti)** katalizatorini tayyorlash usulining past molekulyar olifen uglevodorod sintezi reaktsiyasining unumiga ta'siri.

Sintez gazidan (ya'ni uglerod oksidi va vodorod aralashmasidan) past molekulyar olifen qatori sintetik uglevodorodlarni yuttirish yo‘li bilan olish uchun katalizatorlarni tayyorlash bir yoki bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin [122]. Ikkinchi holda, faol komponentlar mos keladigan tuzlarning suvli eritmalari bilan ketma-ket singdirish orqali qo‘llab-quvvatlash yuzasiga kiritiladi. Sintez gazidan (ya'ni, uglerod oksidi va vodorod aralashmasi) past molekulyar olifen qatori sintetik uglevodorodlarni olish uchun katalizatorlarning faolligiga katalizator kuchaytirgichlarining ta'siri bo‘yicha tajribalarimizda **natriy** katalizator kuchaytirgich qo‘shilishi bilan ketma-ket uchta yutilish orqali namunalar tayyorladik. Ushbu usul laboratoriya sinovlari uchun hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi, chunki laboratoriya sinovlari uchun sintez gazidan (ya'ni, uglerod oksidi va vodorod aralashmasi) past molekulyar olifen qatori sintetik uglevodorodlarni olish uchun katalizatorning kichik miqdori talab qilinadi [121].

Sinovlar quyidagi optimal sharoitlarda o‘tkazildi: bosim 0,5 MPa, hajmli oqim tezligi 100 soat-^{1}. Natijalar uch marta tayyorlangan namunalar parametrlari bilan solishtirildi [55, 121].

2-rasmda ko‘rinib turibdiki, uchta reaksiya bilan tayyorlangan namuna butun harorat oralig‘ida faolroq - uning CO konversiyasi oldingi ikkita namunaga qaraganda yuqori unimdorligi ko‘rinib to‘ribdi. Bir va ikkita reaksiya bilan tayyorlangan namunalar o‘rtasida qisman farq mavjud.




2-rasm. 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na/(SiO_2Xovdak bentoniti) katalizatorining is gazi konversiyasining sintez haroratiga bog‘liqligi

25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na tarkibli katalizator (SiO_2Xovdak bentoniti tarkibli bentonitga ytutirilganda 240 ^{o}C haroratda CO gazi konversiyasi 91% ni tashkil etganligi isbotlandi.

25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na tarkibli katalizatroning SiO_2Xovdak bentonitiga uch marta yutirish orqali tayyorlangan uch turdagi kompozitsion

ISSN 3030-3907

katalizatorlar olindi. Natijada har bitta katalizator ustidan 200-280 ºC harorat oralig‘idagi metaning chiqish unumi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na/(SiO_2Xovdak bentoniti) metan unumining sintez haroratiga bog‘liqligi

Shunday qilib metanning chiqish unumi quyidagi haroratlarda 200 °C da 4-5 g/m³, 220 ° C da 6-7 g/m³, 240 °C da 4-6 g/m³, 260 °C da 16-18g/m³ va 280 °C da 27g -35g/m³ ni tashkil etishi isbotlandi. 240 °C haroratda eng kichik unim bilan metan chiqishi ko‘zatildi va bu harorat optimal harorat sifatida qabul qilindi.

Uglerod oksidi va vodoroddan past molekulyar olifen qatori sintetik uglevodorodlarni tayyorlash jarayonida past molekulyar olifen qatori uglevodorodlar unumi va harorat o‘rtasidagi bog‘liqlik natijalari shuni ko‘rsatadiki, olifen qatori uglevodorodlarning unumi harorat oshishi bilan ortib, 240 °C da maksimal darajaga yetadi. 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na tarkibli katalizatorni (SiO_2Xovdak bentoniti) ga optimal haroratda birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali yuttirishlarda hosil bo‘lgan sintez gazidan (ya’ni, uglerod oksidi va vodorod aralashmasidan) past molekulyar olifen qatori sintetik uglevodorodlarni tayyorlash uchun tanlangan katalizator asosida ishlab chiqarilgan olifen qatori sintetik uglevodorodlarning unumdorligi 4-rasmda keltrilgan.

ISSN 3030-3907



4-rasm. 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na/(SiO_2Xovdak bentoniti) olefin qatori sintetik uglevodorodlar unumi va sintez harorati o‘rtasidagi bog‘liqlik.

25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na tarkibli katalizator (SiO_2 Xovdak bentoniti) ga uch marta yutrildi olingan har uchta namuna usidan sintez gazi 1.5 Mpa bosim va 200-280 ^oC harorat orlig‘ida olib borilganda olifen qatori uglevodorodlar unumdorligi birinchi yutturilgan katalizatorda olifen qatori uglevodorodlari unumdorlik 240 ^oC haroratda155 g/m^3, ikkinchi yutturilgan katalizatorda olifen qatori uglevodorodlari unumdorlik 240 ^oC haroratda168 g/m^3 ni tashkil etgan bo‘lsa uchunchi yuttirilgan katalizatorda olifeni qatori uglevodorodlari chiqish unumi 240 ^oC haroratda 175 g/m^3 ni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Uglerod oksidi va vodoroddan past molekulyar olifen qatori sintetik uglevodorodlarni tayyorlash jarayonida past molekulyar olifen qatori uglevodorodlar unumi va harorat o‘rtasidagi bog‘liqlik natijalari shuni ko‘rsatadiki, olifen qatori uglevodorodlarning unumi harorat oshishi bilan ortib, 240 °C da maksimal darajaga yetadi. 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na tarkibli katalizatorni (SiO_2Xovdak bentoniti) ga optimal haroratda birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali yuttirishlarda amlga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zhong, L., Yu, F., An, Y., Zhao, Y., Sun, Y., Li, Z., … Wang, H. (2016). Cobalt carbide nanoprisms for direct production of lower olefins from syngas. Nature, 538(7623), 84–87.

2. Torres Galvis, H. M., & de Jong, K. P. (2013). Catalysts for Production of Lower Olefins from Synthesis Gas: A Review. ACS Catalysis, 3(9), 2130–2149.

3. Torres Galvis, H. M., Bitter, J. H., Davidian, T., Ruitenbeek, M., Dugulan, A. I., & de Jong, K. P. (2012). Iron Particle Size Effects for Direct Production of Lower Olefins from Synthesis Gas. Journal of the American Chemical Society, 134(39), 16207–16215.

ISSN 3030-3907

4. Verband der chemischen Industrie (VCI) e.V., "Daten und Fakten - Rohstoffbasis der Chemieindustrie", 2020.
5. J. Schmitt, "Stoffstrombild Kunststoffe in Deutschland 2017", 2018.
6. Verband der chemischen Industrie (VCI) e.V., "Auf einen Blick - Chemische Industrie 2020", 2020.
7. B. Eskew, US Petrochemicals: The Growing Importance of Export Markets, Houston, Texas, USA, 2018.
8. V. Dieterich, A. Buttler, A. Hanel, H. Spliethoff, S. Fendt, Energy Environmental Science 2020, 13, 3207.
9. H. Schulz, Applied Catalysis A: General 1999, 3.
10. M. E. Dry, Studies in Surface Science and Catalysis 2004, 533–600.
11. Kuyboqarov O., Egamnazarova F., Jumaboyev B. STUDYING THE ACTIVITY OF THE CATALYST DURING THE PRODUCTION PROCESS OF SYNTHETIC LIQUID HYDROCARBONS //Universum: технические науки. – 2023. – №. 11-7 (116). – С. 41-45.
12. Муртазаев Ф.И., Неъматов Х.И., Бойтемиров О.Э., Куйбакаров О.Э., & Каршиев М.Т. (2019). ПОЛУЧЕНИЕ КОМПОЗИЦИЙ НА ОСНОВЕ СЕРЫ И НИЗКОМОЛЕКУЛЯРНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА ДЛЯ ДОРОЖНЫХ И СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. Международный академический вестник, (10), 102-105.
13. Муртазаев Ф.И., Неъматов Х.И., Бойтемиров О.Э., Куйбакаров О.Э., & Каршиев М.Т. (2019). ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СИНТЕЗИРОВАННЫХ ОЛИГОМЕРОВ ДЛЯ ОБЕССЕРИВАНИЯ ПРИРОДНОГО ГАЗА ОТ СЕРОВОДОРОДА. Международный академический вестник, (10), 105-107.
14. Boytemirov O., Shukurov A., Ne'matov X., & Qo'yboqarov O. (2020). Styrene-based organic substances, chemistry of polymers and their technology. Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19), 1(06), 157-160.
15. Куйбокаров О., Бозоров О., Файзуллаев Н., Хайитов Ж., & Худойбердиев И.А. (2022, June). Кобальтовые катализаторы синтеза Фишера-Тропша, нанесенные на Al2O3 различных полиморфных модификаций. In E Conference Zone (pp. 349-351).
16. Куйбокаров О.Э., Бозоров О.Н., Файзуллаев Н.И., & Нуруллаев А.Ф.У. (2022). КАТАЛИТИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ ВЫСОКОМОЛЕКУЛЯРНЫХ УГЛЕВОДОРОДОВ ИЗ СИНТЕЗ-ГАЗА В ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОМ КАТАЛИЗАТОРЕ. Universum: технические науки, (1-2 (94)), 93-103.

ISSN 3030-3907

17. Куйбокаров О.Э., Бозоров О.Н., Файзуллаев Н.И., & Хайдаров О.У.У. (2021). СИНТЕЗ ВЫСОКОМОЛЕКУЛЯРНЫХ УГЛЕРОДОВ ИЗ СИНТЕТИЧЕСКОГО ГАЗА ПРИ УЧАСТИИ CO-FE-NIZRO2/ВКЦ (ВЕРХНИЙ КРЫМСКИЙ ЦЕОЛИТ). Universum: технические науки, (12-4 (93)), 72-79.
18. Қуйбоқаров О.Э., Шобердиев О.А., Рахматуллаев К.С., & Муродуллаева Ш. (2022). ПОЛИОКСИДНЫЕ КАТАЛИЗАТОРЫ ПЕРЕРАБОТКИ МЕТАНА В СИНТЕЗ ГАЗ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 679-685.
19. Rustamovich O.N., Ergashovich K.O., Khujanazarovna K.Y., Ruzimurodovich K.D., & Ibodullaevich F.N. (2021). Physıcal-Chemıcal and Texture Characterıstıcs of Coate-Fe-Ni-ZrO2/YuKS+ Fe3O4+ d-FeOON. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(3).
20. О.Э.Куйбокаров.,Т.Х.Сайфуллаев Конверсия метана в карбонат на молибденовых и цирконийных катализаторах Universum: технические науки. Выпуск: 12(117) Декабрь 2023 год.
21. Qo‘yboqarov O.E. Metanni karbonatli konversiyalanishi Sanoatda raqamli texnologiyalar 2(1). (2024).
22. Oybek Kuybokarov, Muradulla Karshiyev, Ganisher Rakhimov, Research of the catalytic properties of a catalyst selected for the production of high-molecular weight liquid synthetic hydrocarbons from synthesis gas E3S Web Conf. III International Conference on Actual Problems of the Energy Complex: Mining, Production, Transmission, Processing and Environmental Protection (ICAPE2024) Volume 498, 2024.

ISSN 3030-3907

YAPON MADANIYATINI O‘QITISHDA SINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Lutfilloyeva Faxriniso Maxmudovna

Samarqand davlat chet tillar instituti Yapon filologiyasi kafedrasi professsori v.b., pPedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

E-mail: maxmudovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yapon tilini o‘qitishda sun’iy intellekt vositalaridan, xususan ChatGPT chatbotidan foydalanishning imkoniyatlari va muammolari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi, masofaviy va gibrid ta’lim shakllarida sun’iy intellektning o‘rni yoritilgan. ChatGPT yordamida yapon madaniyatiga oid so‘zlarning, jumladan “kotatsu” realiyaining o‘zbek tilidagi izohi va “sandal” so‘zi bilan ekvivalentligi muhokama qilingan. Maqolada shuningdek, yapon madaniyatiga oid realiyalarni o‘zlashtirishda sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va cheklovlari ko‘rsatib berilgan. Muallif ChatGPTdan foydalanish chet til o‘rganuvchilarning kommunikativ va madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi, ammo jarayonda o‘qituvchi nazoratining zarurligini ham qayd etadi**.**

Kalit so‘zlar: Yapon tili, madaniyat, sun’iy intellekt, ChatGPT, chatbot, raqamli ta’lim, yapon madaniyatiga oid realiyalar izohi, kotatsu, sandal, kommunikativ kompetensiya, gibrid ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируются возможности и проблемы использования инструментов искусственного интеллекта, в частности чат-бота ChatGPT, в преподавании японского языка. Освещается роль искусственного интеллекта в условиях цифровизации образовательного процесса, дистанционного и гибридного обучения. В статье рассматривается использование ChatGPT для объяснения японских культурных реалий, в частности понятия «こたつ (kotatsu)». В узбекском языке прямого эквивалента этому слову нет, однако в качестве культурно близкого понятия можно привести слово «сандал», обозначающее традиционный узбекский обогреваемый стол. Сопоставление этих двух предметов показывает как сходства (функция обогрева, семейное использование зимой), так и различия (конструкция, материалы, современная электрическая модификация). Автор подчеркивает, что применение ChatGPT способствует развитию коммуникативной и культурной компетенции изучающих иностранный язык, однако обращает внимание на необходимость контроля со стороны преподавателя.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: японский язык, культура, искусственный интеллект, ChatGPT, чат-бот, цифровое образование, культурные реалиялар, сандал, коммуникативная компетенция, гибридное обучение.

Abstract. This article analyzes the opportunities and challenges of using artificial intelligence tools, in particular the ChatGPT chatbot, in teaching the Japanese language. The role of artificial intelligence in the digitalization of the educational process, as well as in distance and hybrid learning, is highlighted. This article discusses the use of ChatGPT in explaining Japanese cultural concepts, focusing on "こたつ (kotatsu)". In Uzbek, there is no direct equivalent for this word, but a culturally related concept is "sandal", a traditional Uzbek heated table. Comparing these two household items highlights both similarities (providing warmth, family-centered use during winter) and differences (design, materials, and the modern electric adaptation of the kotatsu). The author emphasizes that the use of ChatGPT contributes to the development of communicative and cultural competence among foreign language learners, while also pointing out the importance of teacher supervision.

Keywords: Japanese language, culture, artificial intelligence, ChatGPT, chatbot, digital education, culturally related concept, kotatsu, sandal, communicative competence, hybrid learning

Kirish

So‘nggi bir necha o‘n yillikda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishida sifat jihatdan juda katta o‘zgarish kuzatildi, bu esa ularning ta’lim jarayonida keng qo‘llanilishida ham namoyon bo‘ldi. Jumladan, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari hamda boshqa raqamli vositalardan keng foydalanilmoqda. Ayniqsa pandemiya davrida masofaviy ta’limga ehtiyoj katta kuzatildi. Bunday imkoniyatlarni izlash raqamli ta’lim platformalarining tez rivojlanishiga olib keldi. Ushbu tajriba sababli pandemiyadan keyingi davrda onlayn va oflayn vositalarni birlashtirgan gibrid ta’lim shaklining keng tarqalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari xorijiy tillarni o‘rganishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. AI (artificial intelligence – sun’iy intellekt) vositalari matn va nutqni tanib olish xizmatlarini, nutqni matnga va matnni nutqga aylantirishni (onlayn tarjima, ovozli yordamchilar, imlo, tinish belgilari va uslubni tekshirish vositalari) yanada takomillashtiradi. Hozirgi paytda ayniqsa chatbotlarning (yoki: suhbat agentlari) tez sur’atlarda rivojlanishi kuzatilmoqda. Ularning tobora ortib borayotgan mashhurligi glottodidaktika (“glotto” (yunoncha – til) va “didaktika” (o‘qitish ilmi) so‘zlaridan olingan)da istiqbolli bo‘lishi mumkin. Zamonaviy

ISSN 3030-3907

chatbotlar orasida OpenAI kompanisyasi tomonidan ishlab chiqilgan ChatGPT katta mashhurlikka erishmoqda.

Shu sababli, uni xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish samradorligini oshirish yo‘lidagi salohiyatini xolis baholash, shuningdek, undan foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni ko‘rsatib berish zarurdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Yapon madaniyatini o‘qitish jarayoni ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda turli jihatlari bilan o‘rganilgan. Xalqaro adabiyotlarda, avvalo, madaniyatlararo ta’lim nazariyalariga e’tibor qaratilgan. G. Hofstede va E. Hall kabi olimlarning ishlari yapon jamiyatida kollektivizm, yuqori kontekstli muloqot va an’anaviy qadriyatlarga hurmat kabi omillarni ta’lim jarayonida inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, C. Hendry o‘zining “Understanding Japanese Society” asarida yapon ijtimoiy hayotidagi intizom, guruh manfaatlarini ustuvor qo‘yish kabi qadriyatlarning ta’limda ham muhim o‘rin tutishini tahlil qiladi. Shuningdek, Ta’lim jarayonining raqamlashtirilishning ayrim jihatlari ko‘plab tadqiqotlarga bag‘ishlangan (AI-Kajsi, 2019; Cevikbas va boshq., 2023; Fitria, 2023; Korovnikova, 2021; Rolgajzer, 2020; Topsakal, 2022; Valtolina va boshq., 2018). Sun’iy intellektga asoslangan chatbot alohida e’tiborga loyiq bo‘lgan raqamli vositalardan biridir. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasidagi so‘nggi yutuqlar sun’iy intellekt doirasida katta hajmdagi lingvistik resurslarning yaratilishiga olib keldi.

Tadqiqot metodologiyasi

Yapon madaniyatini o‘rganishdagi qiyosiy tahlil qilish masalalari, ongning intuitiv va analitik yondashuvini anglash, yapon tilini o‘qitish metodikasiga doir ilmiy izlanishlar va yapon tilini xorijliklarga o‘rgatish muammosi dolzarbdir. Mazkur tadqiqot metodologiyasi yapon madaniyatini o‘qitishda samarali metodlarni aniqlash va ularning amaliyotdagi natijalarini baholashga qaratilgan. Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unligidan foydalaniladi. Kutilayotgan natijalarga ko‘ra, talabalarda yapon madaniyati haqidagi bilimlar chuqurlashadi, stereotiplardan xoli yondashuv shakllanadi, tanqidiy va qiyosiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi mustahkamlanadi.

Tahlil va natijalar

ChatGPT (Generative Pre-trained Tranformer) – Open AI tomonidan ishlab chiqilgan til modeli bo‘lib, u turli tillardan matn yaratish mumkin (GPT-3.5/4 ga asoslangan). U Transformer deb nomlanuvchi chiqir o‘rganish arxitekturasi yordamida yaratilgan bo‘lib, bu unga til naqshlarini o‘zlashtirish, inson nutqiga

ISSN 3030-3907

o‘xshash mantiqan bog‘langan matn yaratish, shuningdek, turli xil boshqa vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Til modeli juda katta va xilma-xil korpusda o‘rgatilgan bo‘lib, unga matnli so‘rovlarni (prompt) davom ettirish imkonini beradi. Sun’iy intellektga asoslangan chatbot dialog rejimida ishlaydi va 95 dan ortiq tabiiy tillarda so‘rovlarni qayta ishlay oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, modelning samaradorligi tilga va yaratilayotgan matnning murakkabligiga qarab farq qiladi (ChatGPT eng yaxshi ingliz tilida ishlaydi).

ChatGPT chatbotning eng yangi va takomillashtirilgan versiyasi hisoblanadi. Turli funksiyalari, mavjudligi va foydalanuvchiga qulay dialog oynasi rejimidagi interfeysi tufayli ChatGPT bugungi kunda eng mahshur til modellaridan biriga aylanadi. Shuningdek, unga o‘xshash boshqa chatbotlardan ham foydalaniladi, jumladan: Google kompaniyasining Bard, Anthropic kompaniyasining Claude va Microsoft kompaniyasining Bing chatboti.

ChatGPT keng qo‘llanilishidan avval ham boshqa chatbotlar ma’lum va ishlatilgan bo‘lib, ularning evolyutsiyasi XX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Dastlab, 1960-yillarda ilk bor qo‘llangan **mashina o‘rganishi** texnologiyasidan foydalanilgan. Keyinchalik dasturlar murakkab algoritmlar, neyron tarmoqlarni o‘z ichiga olgan holda rivojlandi va nihoyat XXI asrda sun’iy intellektga asoslanib ishlay boshladi.

Chatbotlar turli platformalarga (masalan: veb-saytlar, mobil ilovalar, ovozli yordamchilar) integratsiya qilinishi mumkin bo‘lib, ular takrorlanuvchi avtomatik vazifalarni bajaradi. Masalan, ular shaxsiylashtirilgan yordam ko‘rsatish yoki mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun virtual yordamchi sifatida “ishlashi” mumkin.

Suhbat agentlaridan xorijiy til o‘rganishda muqobil manba sifatida foydalanish g‘oyasi nisbatan yangidir. ChatGPTning turli sohalardagi dastlabki muvaffaqiyatlari va aniqlangan salohiyati glottodidaktika sohasida katta qiziqish uyg‘otdi. Ushbu vositaning chet til o‘rganuvchilariga qulay va interaktiv tarzda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini berishi uning ahamiyatini yanada oshirdi va bu masala bo‘yicha tadqiqotlarning rivojlanishiga olib keldi.

Hozircha ChatGPTdan xorijiy til o‘qitishda foydalanish haqida asosan nazariy xarakterdagi ishlarda yozilmoqda. Ularning maqsadi yangi raqamli vositalarning imkoniyatlarini ko‘rsatish, ularni qo‘llash istiqbolini tahlil qilish, shuningdek, ular bilan ishlaydigan o‘qituvchi va o‘quvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlashdan iboratdir (AlAfnan, 2023; Budnikova, Babenkova, 2020; Esionova, 2019; Fryer, 2019; Fryer, 2020; Lavrinenko, 2023; Moqbel, 2023; Topsakal, Topsakal, 2022).

ISSN 3030-3907

ChatGPT ta’lim jarayonida ishtirokchilarga turli vazifalarda foydalanish imkoniyatini beradi, jumladan: o‘quv materiallari, mashqlar va testlar yaratish, matnlarni avtomatik tarjima qilish, o‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash, matnlarni tahrirlash, dars ishlanmalari tuzish va yana ko‘plab boshqa vazifalarda.

ChatGPTning inkor qilib bo‘lmaydigan afzalliklaridan biri bu — o‘quv/o‘qitish jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatidir. Bu, xususan, aniq bir o‘quvchining til bilish darajasi, uning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, tirik inson bilan muloqotda mavjud bo‘ladigan til to‘sig‘ining yo‘qligi va darhol teskari aloqa (feedback) olish imkoniyati ham muhim ahamiyatga ega (Fomin, Sadovikov, 2022; Yatmanov, Fisxanova, 2019; Zhai, 2022).

Ma’lumki, yuqorida qayd etilgan omillar ta’lim jarayonining samaradorligi va jozibadorligini oshirishga, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi va faolligini kuchaytirishga yordam beradi. ChatGPT shuningdek, autentik til materiallarini yaratishda (George, George, 2023; Baskara, Mukarto, 2023), matnlarni tarjima qilishni mashq qilishda (Jiao va boshq., 2023) ham foydalidir.

O‘qituvchilar uni darsni rejalashtirishdan tortib, kasbiy rivojlanishgacha bo‘lgan jarayonda qo‘shimcha resurs sifatida ko‘rib chiqishlari mumkin (Kasneci va boshq., 2023).

Garchi ChatGPT katta salohiyatga ega bo‘lib, uni tillarni o‘qitish/o‘rganishda muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin bo‘lsa-da, uning ishlatilishi hisobga olinishi lozim bo‘lgan ayrim muammolarni ham yuzaga keltiradi. ChatGPT bilan ishlashdagi qiyinchiliklar til modelining o‘quv ma’lumotlarida yetarli ma’lumot mavjud emasligi sababli murakkab va mavhum tushunchalarni qayta ishlashda paydo bo‘lishi mumkin (Baskara, Mukarto, 2023).

Tadqiqotchilar shuningdek, uning kontekstni tushunishdagi cheklangan qobiliyatiga (Cascella va boshq., 2023), katta hajmdagi trening ma’lumotlariga ehtiyojiga (Zhou va boshq., 2023) hamda kiberxavfsizlikka tahdidlariga (O‘Rourke, 2023) e’tibor qaratadilar.

Ayniqsa tashvishli jihatlar — axloqiy masalalar bo‘lib, ularga dezinformatsiya xavfi, tarafkashlik, haqoratli mazmundagi javoblar (Atlas, 2023; Ferrara, 2023; Qadir, 2022; Zhuo va boshq., 2023), chatbotlarning haqiqiy o‘qituvchilarni potentsial ravishda almashtirishi (Baskara, Mukarto, 2023), shuningdek, chatbotlar tomonidan yaratilgan javoblarni o‘quvchilar javobidan farqlashdagi qiyinchiliklar (Elkins, Chun, 2020; Fitria, 2023; Cotton va boshq., 2023) kiradi.

Materiallar va metodlar

ISSN 3030-3907

Tadqiqotlarda yapon tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan darsliklardan olingan matn parchalaridan foydalanildi.

Ulardan biri — **“Yapon madaniyati”** (Lutfilloyeva, 2025) nomli nutq va o‘qish madaniyatshunosligi darsligi. Ushbu qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarida yapon tilini chet tili sifatida o‘rganuvchi talabalar, kelajakdagi tarjimonlar hamda yapon tili kurslari tinglovchilari uchun mo‘ljallangan. Kitob yapon tilini allaqachon boshlang‘ich kurs darajasida biladigan shaxslar uchun yaratilgan.

Darslik bir tomondan chet elliklarga yapon xalqining milliy madaniy an’analari va urf-odatlarini tanishtirsa, boshqa tomondan, ularning lingvistik bilim va kommunikativ ko‘nikmalarini faollashtirishni, shu orqali yaponlarning an’analari va hayoti bilan bog‘liq mavzularda erkin fikr bildirish imkoniyatini berishni maqsad qiladi.


Matnlarda Yaponiya haqida maxsus ma’lumotlar, shuningdek, uning madaniyati haqidagi ma’lumotlar mavjud. Ushbu darslikning muhim xususiyati shundaki, barcha matnlarga maqollar, hikmatli so‘zlar, atamalar madaniyatning ajralmas qismi sifatida hamroh bo‘ladi.

Chet tilidagi madaniyatga oid so‘zlarni yaxshi bilish, mavjud bo‘lgan matnlarni tarjima qilishni osonlashtiradi va shu orqali ularning obrazliligi, ifodaviyligi hamda uslubiy xususiyatlarini saqlashga imkon beradi. Talabalar tomonidan yapon madanyatiga xos so‘zlarni o‘zlashtirish jarayoni esa puxta o‘ylangan, maqsadli ishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi — ChatGPTdan (o‘qituvchilar ham, talabalar ham) chet til yapon madanyatiga xos so‘zlarini o‘rganish jarayonida virtual yordamchi sifatida qanchalik foydalanish mumkinligini aniqlash edi. ChatGPTdan frazeologik materiallar bilan ishlashda foydalanish usullaridan biri — tarjima qilish bo‘lishi mumkin. Shu maqsadda yapon tilini o‘rganish darsligidan “Urf-odatlar va odob-axloq” mavzusi bilan bog‘liq bir nechta yapon madaniyatga oid so‘zlar tanlanib, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish vazifasi ChatGPTga topshirildi.

Birinchi so‘z (yapon. こたつ –kotatsu va o‘bek tilida isitiladigan past stol; deb tarjima variantini berdi. こたつ—so‘zidagi mavjud iyerogliflarning ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak 炬燵 ya’ni 炬- bu mash’ala, 燵-minora degan ma’noni anglatib, ustini ko‘rpacha bilan yopib issiqlik olish uchun anjom hisoblanadi. Bu yerda so‘zning denotativ ma’nosi bir xil bo‘lgan tarjima berildi. (1-rasm), bu holda so‘zma-so‘z tarjima qilish to‘g‘ri hisoblanadi.

ISSN 3030-3907




1-rasm. Kotatsu so‘zining tarjimasi

Yaxshiroq javob olish uchun qo‘shimcha tushuntiruvchi so‘rov kiritildi, unda ushbu so‘zning o‘zbek tilida ekvivalentiga e’tibor qaratilib, aniqlik kiritish so‘raldi.

ChatGPT tomonidan yaratilgan javob quyidagicha bo‘ldi: Yo‘q, **“こたつ (kotatsu)”** so‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri **o‘zbek tilidagi ekvivalenti mavjud emas**, chunki bu predmet bizning an’anaviy madaniyatimizda bo‘lmagan.

O‘zbek tilida uni odatda: **“isitiladigan stol”**, **“past isitiladigan stol”**, yoki **“kotatsu”** so‘zining o‘zini o‘zlashgan holda qo‘llash mumkin (2-rasm).




2-rasm. Kotatsu so‘zining o‘zbek tilidagi ekvivalenti

Olingan natija shuni ko‘rsatadiki, ChatGPTning qo‘shimcha ko‘rsatmadan keyin taklif qilgan javoblari qoniqarli hisoblanadi, ular o‘zbek tilida so‘zlashuvchi auditoriya uchun tushunarli bo‘lib, yapon tili madaniyatiga oid so‘zlarning kommunikativ vaziyatga mos tarzda qo‘llash imkonini beradi. Shu yerda aytib o‘tish joizki, yapon tilidagi “kotatsu” so‘zining o‘zbek tilidagi ekvivalenti o‘zbek milliy qadriyatiga tegishli “sandal”so‘ziga bevosita ekvivalent bo‘lishi mumkin. Bu holatni yanada aniqlashtirish uchun ChatGPTga “sandal” so‘zi haqida savol berildi. Javob quyidagicha bo‘ldi. O‘zbek tilidagi “sandal” so‘zi ma’noda yaponchadagi “kotatsu” (炬燵・火燵) ga juda yaqin turadi. Ikkalasi ham qishloq

ISSN 3030-3907

uylarida yoki sovuq mavsumda odamlar issiq o‘tirishi uchun mo‘ljallangan, ustiga ko‘rpa yoki mato yopilgan, ostidan issiqlik beriladigan anjomni bildiradi (3-rasm).



3-rasm. Sandal so‘zining yapon tilidagi ekvivalenti

ChatGPT tomonidan yaratilgan tarjimalar asosan yapon madaniyatiga oid so‘zlarning ma’nosini aniqlash, ularni tarjima qilish va ularning muloqotda qo‘llash bilan foydali bo‘lishi mumkin. Biroq, ayrim madaniyatga xos bo‘lgan so‘zlarning ekvivalentini to‘g‘ri topishdagi ChatGPTning bu bo‘shlig‘ini to‘ldirishda, o‘qituvchilar tomonidan zarur bo‘lgan didaktik nazorat yordamchi bo‘lishi mumkin. Chunki, ChatGPTning eng oxirgi versiyasi ham inson omilliga oid tushunchalarni, hayotiy tajribalar va mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega emas. Bu o‘z-o‘zidan shuni ma’lum qiladiki, sun’iy intelektdan foydalanish chet tillarni o‘qitishda faqat bir tomonlama ustunlikga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Shuni ta’kidlash kerakki, ChatGPT yaratgan matnlar o‘qituvchi tomonidan diqqat bilan tekshirilgandan keyin ishlatilishi lozim. Chunki, ularda turli xatoliklar va noaniqliklar uchrashi mumkin. Bu ayniqsa madaniyatga oid so‘zlarning mashina tarjimasida yaqqol seziladi, chunki ChatGPT ularni ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjima qiladi. So‘zlarning mashina tarjimasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlangan bo‘lsa-da, biror bir tilning madaniyatiga oid so‘zlarning tarjimasi hali ham jiddiy takomillashtirishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi ChatGPTning qo‘llanilishini nazorat qila olishi, bu jarayonning moderatoriga aylanishi kerak, ya’ni talabalar e’tiborini chatboti tomonidan yaratilgan javoblardagi noaniqliklarga qaratishi muhim. Bunday ish usuli talabalarni tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

Pedagogik jihatdan qaralganda, o‘qituvchi faqatgina sun’iy intellekt vositasini taqdim etuvchi emas, balki uni to‘g‘ri, maqsadga muvofiq va samarali qo‘llashni yo‘lga soluvchi rahbar bo‘lishi lozim. Chunki ta’lim jarayonida texnologiyalarning o‘zi emas, balki ular yordamida talabaning bilimga bo‘lgan munosabati, mustaqil izlanish qobiliyati va ijtimoiy-axloqiy yondashuvlari shakllanadi.

Shuningdek, o‘qituvchi:

- O‘quvchilarda mustaqil izlanish motivatsiyasini oshirish uchun ChatGPTdan foydalangan holda savol-javob, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlarni tashkil qilishi mumkin.
- Tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun ChatGPT javoblarini muhokama qilish, ularni ilmiy manbalar bilan solishtirish va baholashni talab qilishi zarur.
- Axborot madaniyatini rivojlantirish maqsadida talabalarni sun’iy intellekt bergan javobni so‘zsiz qabul qilish emas, balki uni tekshirish, tahlil qilish va qayta ishlashga o‘rgatishi lozim.
- Pedagogik innovatsion muhitni yaratishda ChatGPTdan foydalanib, an’anaviy ta’lim vositalarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Demak, ChatGPTning ta’limdagi roli uni nazoratsiz qo‘llashda emas, balki o‘qituvchi-pedagog tomonidan yo‘naltirilgan, tanqidiy baholashga asoslangan va metodik jihatdan puxta tashkil etilgan faoliyatda namoyon bo‘ladi. Bu jarayon o‘z navbatida talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ijodkorlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Al`-Kajsi A.N., Arxangel`skaya A.L., Rudenko-Morgun O.I. (2019), Intellektual’ny’j golosovoj pomoshhnik Alisa na urokach russkogo yazy’ka kak inostrannogo (uroven’ A1). „Filologicheskie nauki. Voprosy` teorii i praktiki”, tom 12, nr 2, s. 239–244. Online: https://doi.org/10.30853/filnauki.2019.2.52 [DW 20.05.2023]

2. AlAfnan M.A., Dishari S., Jovic M., Lomidze K. (2023), Chatgpt as an educational tool: Opportunities, challenges, and recommendations for communication, business writing, and composition courses. „Journal of Artificial Intelligence and Technology”, nr 3(2), s. 60–68. Online: https://doi.org/10.37965/jait.2023.0184 [DW 25.06.2023]

3. Альпатов В.М. Язык и общество. -М.: Муравей, 2003. – 208 С.

4. 日本文化99题:日汉对照/(日) 白幡洋三郎著;蔡敦达等译,一上 海:上海译文出版社, 2007.11.

ISSN 3030-3907

5. Lutfilloyeva F.M. Yapon madaniyati. - SamDCHTI tahrir-nashriyot, 2025. - 112 B.
6. Topsakal O., Topsakal E. (2022), Framework for A Foreign Language Teaching Software for Children Utilizing AR, Voicebots and ChatGPT (Large Language Models). „The Journal of Cognitive Systems", nr 7(2), s. 33–38. Online: https://doi.org/10.52876/jcs.1227392 [DW 25.05.2023]
7. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. Влияние цифровой культуры на неприкосновенность жизни человека в обществе //Оргкомитет. – 2023. – С. 342.
8. Maxmudovna L. F. The Role of Mnemotechnic Method in Teaching Japanese Language Hieroglyphs //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – Т. 12. – С. 69-72.
9. Fakhriniso L. The Japanese language teaching technologies based on computer simulation models //Asian Journal of Research in Marketing. – 2020. – Т. 9. – №. 4. – С. 1-7.
10. Fakhriniso L. METHODS OF TEACHING JAPANESE HIEROGLYPHS USING COMPUTER SIMULATION MODELS BASED ON THE TYPE OF READING //International Journal of Early Childhood. – 2022. – Т. 14. – №. 04. – С. 2022.
11. Лутфиллоева Ф. Япон иероглифларини ўқитиш методикаси ва ривожланиш тенденциялари //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2020. – 2020. – Т. 4. – №. 77. – С. 98-104.
12. Makhmudovna L. F. Introduction Of Advanced Pedagogical And Information And Communication Technologies Into The Educational Process In Teaching Japanese Hieroglyphs //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2023. – Т. 24. – С. 1-5.
13. Усанов Р. Т., Хаккулов Н. К. ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ «НЕНАСИЛИЕ» //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 1406-1413.
14. Turayevich U. R. Qahramonovich HN Zamonaviy dunyoning axloqiy muammolari-zo ‘ravonlik falsafasi //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 57. – №. 4. – С. 422-425.

ISSN 3030-3907

SINTEZ-GAZDAN YENGIL MOLEKULYAR SINTETIK OLIFEN UGLEVODORODLAR OLISH UCHUN TANLANGAN KATALIZATORLARNING TEKSUR XARAKTERISTIKALARI.

Egamnazarova Fazilat Dustqobilovna
Qarshi davlat terxnika universiteti
E-mail: oybek.kuyboqarov@mail.ru

Annotatsiya: Ishda katalizatorlarning morfologiyasi SEM, AIS2100 (Seron Technology, Janubiy Koreya) yordamida aniqlangan. BET sirt maydoni Quantachrome ChemBET-3000 asbobi yordamida azotning yutilish va desorbsiya izotermalari asosida to‘liq solishtirma sirt-yuzasi, zarrachalarning o‘rtacha o‘lchami, mezag‘ovaklarning hajmi, g‘ovaklarning o‘lchami bo‘yicha taqsimlanishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: BET sirt maydoni va g‘ovak hajmi, 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na katalizatorining BET chiziqli transformatsiyasi, mikrog‘ovak, deformatsiya.

Аннотация: В данной работе морфология катализаторов была определена с помощью сканирующего электронного микроскопа (СЭМ) AIS2100 (Seron Technology, Южная Корея). Площадь поверхности по БЭТ определялась с помощью прибора Quantachrome ChemBET-3000 на основе изотерм адсорбции и десорбции азота, общей удельной площади поверхности, среднего размера частиц, размера мезопор и распределения пор по размерам.

Ключевые слова: площадь поверхности и размер пор по БЭТ, линейное превращение катализатора 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1,5%Na, микропоры, деформация.

Abstract: In this work, the morphology of the catalysts was determined using an AIS2100 scanning electron microscope (SEM) (Seron Technology, South Korea). The BET surface area was determined using a Quantachrome ChemBET-3000 instrument based on nitrogen adsorption and desorption isotherms, total specific surface area, average particle size, mesopore size, and pore size distribution.

Keywords: BET surface area and pore size, linear conversion of 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na catalyst, micropores, deformation.

Kirish

BET sirt maydonini va katalizatorlarning g‘ovak hajmini o‘lchash uchun namunalar avval vakuumda ($2{,}10^{-3}$) haroratni atrof-muhitdan 90 ° C gacha (1 soat davomida) keyin 250 ° C ga oshirish bilan oldindan ishlov beriladi. Degazatsiyadan so‘ng, tahlilni boshlashdan oldin suv yo‘qotilishini baholash uchun namunalar tortiladi. BET sirt maydoni va g‘ovak hajmi -196 ° C da azotning yutilishi bilan aniqlandi. Bu usul sirt maydoni, o‘rtacha zarracha hajmining taqsimlanishi,

ISSN 3030-3907


umumiy zarracha hajmi, g‘ovak hajmi va g‘ovak hajmidan foydalangan holda materiallarning morfologik xususiyatlari haqida ma'lumot berishga imkon beradi.

Qattiq jismning deformatsiya xossalarini aniqlash uchun izotermlardan foydalanish turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Sirt maydoni qiymatlarini adsorbsion izoterma ma'lumotlari BET tenglamalarini qo‘llash orqali hisoblandi.

$$\Gamma = \frac{\Gamma_m C p / p_s}{(1 - p/p_s)[1 + (C-1)p/p_s]}$$


G‘ovakliklarning radiusini topish uchun Kelvin tenglamasidan foydalaniladi

$$\ln \frac{P_y}{P_5} = - \frac{2V_m\sigma}{rRT} \quad (1.3.61)$$



1-rasm: 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na katalizatorining adsorbsion izotermasi

25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na katalizatorining namunasi quyida 2-rasmda tasvirlangan.



2-rasm: 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na katalizatorining BET chiziqli transformatsiyasi .

Zarrachalar hajmi va tashqi sirt maydonini aniqlash uchun t-chizma usuli orqali membranadagi mikrog‘ovak hajm va tashqi sirt maydonini aniqlash imkonini berdi. Bu usul asoslangan holda qatlamning statistik zichligini hisoblash mumkin t ni hisoblash uchun turli tenglamalar taklif qilingan. (bandlarning statistik zichligi).


Ushbu usul uchun quyidagi nisbat qo‘llaniladi:

ISSN 3030-3907

$$t = \sqrt{\frac{13,99}{0,034 - \ln(\frac{P}{P_0})}} \text{ (Å)}$$

Zarrachalar hajmini t ga bog‘liq holda chizish shuni ko‘rsatadiki, t-chiziqning chiziqli qismining t = 0 qismidagi kesish materialning mikropora hajmining qiymatini beradi va qiyalik tashqi sirt maydonining qiymatini aniqlay oladi.

25%Fe-10%Zn-5%Zr-1,5%Na uchun katalizatorining namunasi quyida 3-rasmda ko‘rsatilgan.




3-rasm: 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1,5%Na katalizatorining namunasi t-chizma egri chizig‘i.

Ushbu yondashuv Frenkel-Xalsay-Xill tomonidan kiritilgan kontseptsiyaga asoslanadi, unda qatlamning statistik zichligi t ni hisoblash mumkin. t ni hisoblash uchun yuqoridagi tenglama taklif qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Sintez-gazdan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlar olishda tanlangan katalizatorlar sirtining morfologiyasi.Uglerod oksidi va vodorod aralashmasidan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlarni olish uchun tanlangan katalizatorlarning sirt morfologiyasi skanerlash elektron mikroskop va optik mikroskop yordamida o‘rganildi. 4-rasmda yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlar olish uchun olinga oksid ko‘rinishdagi sintez gazidan (uglerod oksidi va vodorod aralashmasidan) tanlangan katalizatorlar sirtlarining mikfotorografiyasi ko‘rsatilgan.


Fe−Zr−xNa katalizatorlarining morfologiyalari 4-rasmda tasvirlangan

ISSN 3030-3907



4-rasm. (A) 25%Fe-10%Zn-5%Zr, (B) 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1%Na va (C) 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na ning SEM tasvirlari

Katalizatorlar taxminan sferik nanozarrachalardan iborat. N_2 fizisorbsiyasi natijalari bilan birlashganda, Na-siz va Na rag‘batlantirilgan katalizatorlar mezoporalar va granulalararo g‘ovaklarga ega bo‘lib, ular past massa o‘tkazuvchanligi va koks cho‘kishini ingiber qilish xususiyatlari bilan katalitik faollikni yaxshilash uchun foydalidir.Natriyning modifikatsiyasi bilan 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na katalizatori zarracha kattaligi kengroq taqsimotga ega va SEM bilan o‘lchangan o‘rtacha zarracha hajmi oradi.



5-rasm. Turli tarkibli Fe-Zn-Zr-Na(Xovdak bentoniti) sintez-gazdan, yani is gazi bilan vodoroddan iborat aralashmadan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlar olish uchun tanlangan katalizatorlarning SEM mikrofotograflari %: a – 5%Zr-0.5%Na; b – 5%Zr-1.5%Na

Nurlantiruvchi mikroskopiya ma'lumotlariga ko‘ra sintez gazidan yengil molekulyar sintetik olefin uglevodorodlarini olish uchun tanlangan Fe-Zn-Zr-Na(Xovdak bentoniti) katalizatorlar tarkibidagi o‘zgarishlar, ya'ni uglerod oksidi va vodoroddan tashkil topgan aralashma temir zarrachalarining tarqalishiga ta'sir qilmaydi 5-rasmda . Sintez gazidan ya'ni uglerod oksidi va vodoroddan tashkil topgan aralashmadan yengil molekulyar sintetik olifen uglevodorodlar olish uchun tanlangan katalizatordagi temir zarrachalarining o‘rtacha hajmi 8,6 nm, diapazoni 2,8 dan 12,8 nm o‘lchamiga mos keladi .

ISSN 3030-3907


NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI. 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na/(SiO_2Xovdak bentoniti) uchun tanlangan katalizatordagi Zr-Na tarkibining sintez gazidan past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlar sinteziga ta’siri.

Katalizator kuchaytirgichining tarkibi uglerod oksidi va vodoroddan past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarning sinteziga ta'sir qiladi. Komponentlarni qo‘shish tartibi ham jarayonga sezilarli ta'sir qiladi. Tanlangan katalizator **5%Zr-1.5%Na/Xovdak bentoniti** katalizator kuchaytirgichi ishtirokida singazdan (uglerod oksidi va vodorod aralashmasi) past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarni ishlab chiqarishda eng yuqori faollikni namoyon qiladi.

Biz katalizator kuchaytirgich dozasining **(Zr, Na)** uglerod oksidi va vodoroddan past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarni sintez qilishda namunalarning katalitik ishlashiga ta'sirini o‘rganib chiqdik. 6-rasmda uglerod oksidi konversiyasining sintez harorati bilan o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Haroratning oshishi bilan sintez gazidan (uglerod oksidi va vodorod aralashmasi) past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarni ishlab chiqarishda tanlangan katalizatorlarning faolligi oshadi, uglerod ikki oksidi konversiyasi 200 °C da 42-65g/m^3 220 °C da 62-82 g/m^3, 240°C da 128-138 g/m^3, 260°C da 128-135g/m^3 va 280 °C da 122-136 g/m^3 ga oshganligi ma’lum bo‘ldi. Zr-1.5%Na tarkibli namunada optimal harorat 240°C ekanligi ma’lum bo‘ldi va selliktivlik 128-138 g/m^3 gacha oshganligi isbotlandi.

Amaldagi katalizator kuchaytirgichning miqdori singazdan (ya'ni, is gazi va vodorod aralashmasidan) past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarni ishlab chiqarish uchun tanlangan katalizatorning faolligiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, **5% Zr va 1.5%Na** o‘z ichiga olgan namuna eng faol bo‘ldi. Uning konvertatsiyasi singazdan (ya'ni, karbonat angidrid va vodorod aralashmasidan) past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarni ishlab chiqarish uchun boshqa ikkita katalizatorga **5%Zr va 0.5%Na, 5%Zr va 1%Na** qaraganda yuqori edi. **5%Zr va 1,5%Na** o‘z ichiga olgan namuna eng faol bo‘lgan namuna ekanligi isbotini topdi **(6-rasm).**


ISSN 3030-3907



6-rasm. CO ning past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefin qatori uglevodorodlarga aylanishining sintez haroratiga bog‘liqligi.

Eng yuqori metan rentabelligi 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na/(SiO2 Xovdak bentonit) katalizatorida singazdan (uglerod ikki oksidi va vodorod aralashmasi) past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarni ishlab chiqarishda erishildi. Metan chiqishi 220°C va 240°C da uchta namunada deyarli bir xil darajada o‘zgardi. 260°C da metan chiqishi 8-10 g/m^3 ga yetdi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 1% va 1.5% Na ni o‘z ichiga olgan katalizator namunalari 280 °C da mos ravishda 40 g/m^3 va 35 g/m^3 metan chiqishiga erishilgan bo‘lsa 300°C da mos ravishda 42 g/m^3 va 36 g/m^3 metan chiqishiga erishildi.

Metan chiqishi harorat oshishi bilan keskin ortadi, shu bilan birga namunalarning katalitik faolligi metan ishlab chiqarishga nisbatan o‘zgarmas bo‘lib qoladi: 320 °C da, uglerod oksidi va vodoroddan sintetik olefinlarni sintez qilishda metan hosil bo‘lishi 95,86 va 80 g / m^3 ni tashkil qiladi namuna tarkibi 0.5,1 va 1.5% Na bo‘lganda (7-rasm).




7-rasm. CO ni past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarga aylantirishda metan chiqishining sintez haroratiga bog‘liqligi

Sintez gazining harorati oshishi bilan etan, propan va butanning unumi ham ortadi, ya'ni sintez gazidan past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlar hosil bo‘ladi. Etan, propan va butanning unumi mos ravishda 200°C, 220°C,240 °C uchta namunada deyarli bir xil darajada o‘zgardi.260°C da 8,15 va 12 g/m3 tashkil


ISSN 3030-3907

etdi. 25%Fe-10%Zn-5%Zr-0.5%Na/(SiO2 Xovdak bentonit), 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1%Na/(SiO2 Xovdak bentonit) va 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5%Na/(SiO2 Xovdak bentonit) hosildorligi mos ravishda 280°C20,28 va 35 g/m^3 tashkil etdi. Ular orasida eng faol 5% Zr va 1.5% na bo‘lgan namunada etan-butan aralashmasi eng kam miqdorda hosil bo‘ladi **(8-rasm).**



8-rasm. Uglerod oksidi va vodoroddan past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarni sintez qilish uchun C2-C4 hosildorligini sintez haroratiga bog‘liqligi.

Shunday qilib, eng faol 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5% Na/(SiO2 Xovdak bentonit) katalizatori singazdan past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefin ishlab chiqarish uchun optimal haroratda **(240°C) 160 g/m³** unumini ta’minladi. Past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefin hosiliga erishildi. Boshqa ikkita namunada singazdan (ya'ni, uglerod ikki oksidi va vodorod aralashmasida past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan katalizatorlar **260 ° C** yuqori optimal haroratga ega edi. Bunda past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlar hosildorligi 120-145 g/m³ ga yetdi. 1 jadval (9-rasm).



9-rasm. Sintetik olefin qatori uglevodorodlar unumi va sintez harorati o‘rtasidagi bog‘liqlik

ISSN 3030-3907

1-jadval.

25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5% Na/(SiO2 Xovdak bentonit) sintez gazidan (ya'ni gaz va vodorod aralashmasidan) past molekulyar og'irlikdagi sintetik olefinlarni olish uchun ishlatiladigan tanlangan katalizatorlar uchun katalizator faolligini kuchaytiruvchi tarkibining uglevodorod sintezi parametrlariga ta'siri.

Tarkibi Na,%	T°C	K_{CO}, %	Unum, g/m^3		CH_4 %
			$C_2=C_4$	CO_2	
1.5	240	92	160	12	5
1	260	86	145	10	35
0.5	280	81	110	9	70

1 va 2-jadvallarda singazdan (ya'ni, uglerod oksidi va vodorod aralashmasidan) past molekulyar og'irlikdagi sintetik olefinlarni olish uchun tanlangan katalizatorlarning ishlashi ko'rsatilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, optimal Na tarkibida (1.5%), C2=C4 selektivligi 92% ni tashkil qiladi, katalizatorni kuchaytiruvchi moddalar miqdori 0.5% va 1% bo'lsa, C2=C4 selektivligi 74% dan 76% gacha o'zgardi.(1-jadval).

2-jadval

Sintetik olefinlar olish uchun tanlangan katalizator faolligiga kuchaytiruvchi modda tarkibni tasiri 25% Fe-10% Ni-8% Zr-1.5% Na/(SiO2 Xovdak bentonit)

Na, %	Olefinlar	n- alkanlar	i- alkanlar
0.5	74	8	11
1	76	6	9
1.5	92	5	8

Katalizatorlar tarkibida Na tarkibida ozgina o'zgarishlar bo'lganda 5% -8% to'yingan n-alkanlar mavjud edi. Katalizatorni kuchaytiruvchi dozasi eng yuqori bo'lgan namuna eng yuqori samaradorlikni ko'rsatdi: katalizatorning izo uglevodorod miqdori 8% (qolgan ikkita namunada 9% -11%) yetdi. Katalizator guruhi tarkibi katalizator kuchaytirgich tarkibidan deyarli farqlanmadi (2-jadval).

XULOSA VA TAKLIFLAR: Shunday qilib, eng faol 25%Fe-10%Zn-5%Zr-1.5% Na/(SiO2 Xovdak bentonit) katalizatori singazdan past molekulyar og'irlikdagi sintetik olefin ishlab chiqarish uchun optimal haroratda **(240°C) 160 g/m³** unumini ta'minladi. Past molekulyar og'irlikdagi sintetik olefin hosiliga erishildi. Boshqa ikkita namunada singazdan (ya'ni, uglerod ikki oksidi va vodorod aralashmasida past molekulyar og'irlikdagi sintetik olefinlarni ishlab chiqarish

ISSN 3030-3907

uchun ishlatiladigan katalizatorlar **260 ° C** yuqori optimal haroratga ega edi. Bunda past molekulyar og‘irlikdagi sintetik olefinlar hosildorligi 120-145 g/m³ ga yetdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zhong, L., Yu, F., An, Y., Zhao, Y., Sun, Y., Li, Z., … Wang, H. (2016). Cobalt carbide nanoprisms for direct production of lower olefins from syngas. Nature, 538(7623), 84–87.
2. Torres Galvis, H. M., & de Jong, K. P. (2013). Catalysts for Production of Lower Olefins from Synthesis Gas: A Review. ACS Catalysis, 3(9), 2130–2149.
3. Torres Galvis, H. M., Bitter, J. H., Davidian, T., Ruitenbeek, M., Dugulan, A. I., & de Jong, K. P. (2012). Iron Particle Size Effects for Direct Production of Lower Olefins from Synthesis Gas. Journal of the American Chemical Society, 134(39), 16207–16215.
4. Verband der chemischen Industrie (VCI) e.V., "Daten und Fakten - Rohstoffbasis der Chemieindustrie", 2020.
5. J. Schmitt, "Stoffstrombild Kunststoffe in Deutschland 2017", 2018.
6. Verband der chemischen Industrie (VCI) e.V., "Auf einen Blick - Chemische Industrie 2020", 2020.
7. B. Eskew, US Petrochemicals: The Growing Importance of Export Markets, Houston, Texas, USA, 2018.
8. V. Dieterich, A. Buttler, A. Hanel, H. Spliethoff, S. Fendt, Energy Environmental Science 2020, 13, 3207.
9. H. Schulz, Applied Catalysis A: General 1999, 3.
10. M. E. Dry, Studies in Surface Science and Catalysis 2004, 533–600.
11. Kuyboqarov O., Egamnazarova F., Jumaboyev B. STUDYING THE ACTIVITY OF THE CATALYST DURING THE PRODUCTION PROCESS OF SYNTHETIC LIQUID HYDROCARBONS //Universum: технические науки. – 2023. – №. 11-7 (116). – С. 41-45.
12. Муртазаев Ф.И., Неъматов Х.И., Бойтемиров О.Э., Куйбакаров О.Э., & Каршиев М.Т. (2019). ПОЛУЧЕНИЕ КОМПОЗИЦИЙ НА ОСНОВЕ СЕРЫ И НИЗКОМОЛЕКУЛЯРНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА ДЛЯ ДОРОЖНЫХ И СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. Международный академический вестник, (10), 102-105.
13. Муртазаев Ф.И., Неъматов Х.И., Бойтемиров О.Э., Куйбакаров О.Э., & Каршиев М.Т. (2019). ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СИНТЕЗИРОВАННЫХ ОЛИГОМЕРОВ ДЛЯ ОБЕССЕРИВАНИЯ ПРИРОДНОГО ГАЗА ОТ СЕРОВОДОРОДА. Международный академический вестник, (10), 105-107.

ISSN 3030-3907

14. Boytemirov O., Shukurov A., Ne'matov X., & Qo'yboqarov O. (2020). Styrene-based organic substances, chemistry of polymers and their technology. Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19), 1(06), 157-160.
15. Куйбокаров О., Бозоров О., Файзуллаев Н., Хайитов Ж., & Худойбердиев И.А. (2022, June). Кобальтовые катализаторы синтеза Фишера-Тропша, нанесенные на Al2O3 различных полиморфных модификаций. In E Conference Zone (pp. 349-351).
16. Куйбокаров О.Э., Бозоров О.Н., Файзуллаев Н.И., & Нуруллаев А.Ф.У. (2022). КАТАЛИТИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ ВЫСОКОМОЛЕКУЛЯРНЫХ УГЛЕВОДОРОДОВ ИЗ СИНТЕЗ-ГАЗА В ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОМ КАТАЛИЗАТОРЕ. Universum: технические науки, (1-2 (94)), 93-103.
17. Куйбокаров О.Э., Бозоров О.Н., Файзуллаев Н.И., & Хайдаров О.У.У. (2021). СИНТЕЗ ВЫСОКОМОЛЕКУЛЯРНЫХ УГЛЕРОДОВ ИЗ СИНТЕТИЧЕСКОГО ГАЗА ПРИ УЧАСТИИ CO-FE-NIZRO2/ВКЦ (ВЕРХНИЙ КРЫМСКИЙ ЦЕОЛИТ). Universum: технические науки, (12-4 (93)), 72-79.
18. Қуйбоқаров О.Э., Шобердиев О.А., Рахматуллаев К.С., & Муродуллаева Ш. (2022). ПОЛИОКСИДНЫЕ КАТАЛИЗАТОРЫ ПЕРЕРАБОТКИ МЕТАНА В СИНТЕЗ ГАЗ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 679-685.
19. Rustamovich O.N., Ergashovich K.O., Khujanazarovna K.Y., Ruzimurodovich K.D., & Ibodullaevich F.N. (2021). Physıcal-Chemıcal and Texture Characterıstıcs of Coate-Fe-Ni-ZrO2/YuKS+ Fe3O4+ d-FeOON. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(3).
20. О.Э.Куйбокаров.,Т.Х.Сайфуллаев Конверсия метана в карбонат на молибденовых и цирконийных катализаторах Universum: технические науки. Выпуск: 12(117) Декабрь 2023 год.

ISSN 3030-3907

IMPROVEMENT OF COOLING SYSTEM DEVICES IN POLYETHYLENE PRODUCTION LINE

B.M.Abdullaev
Karshi state technical university
Email: bakhtishod.abdullaev@gmail.com
Sh.N. Tursunova
Karshi state technical university
Email: tursunova0314@gmail.com

Abstract: The catalyst complex was prepared by mixing solutions of diethylaluminum chloride and titanium tetrachloride in gasoline at 25-50°C from the meters (1) and (2) in the 3rd mixer. In order to increase the resistance to atmospheric influences and thermal oxidation, various stabilizers-antioxidants were added to the polymer composition. The reactor tubes were of variable diameter (50-75 mm). Identical sections of the tubes were connected using massive hollow plates called retubrents or kalachs. In order to quickly cool the granules, the granulating mold was cooled with demineralized water.

Keywords: Polyethylene, regeneration, granulating machines, polymerization reactors, fluidized polyethylene, Ziegler-Natta catalysts, ethylene peroxide or hydroperoxides.

Annotatsiya: Katalizator kompleksi 25-50°C da (1) va (2) o‘lchagichlardan uzatilayotgan dietilalyuminiyxlorid bilan tetraxlor titanni benzindagi eritmalarini 3chi aralashtirgichda aralashtirib olindi. Atmosfera ta’siriga xamda issiqlikda oksidlanishga chidamliligini oshirish maqsadida polimer tarkibiga turli xil stabilizator-antioksidantlar qo‘shildi. Reaktor quvurlari o‘zgaruvchan diametrli bo‘ladi (50-75 mm). Quvurlarning bir xil bo‘limlari retubrent yoki kalach deb nomlanuvchi massiv ichi bo‘sh plitalar yordamida biriktirildi. Granulalarni tez sovitish maqsadida granulalovchi shakl tuzsizlantirilgan suv bilan sovitildi.

Kalit so‘zlar: Polietilen, regeneratsiya, granulalovchi dastgohlar, polimerlovchi reaktorlar, suyuqlantirilgan polietilen, Tsigler-Natta katalizatorlar, etilenni peroksid yoki gidroperoksidlari.

Аннотация: Каталитический комплекс готовили путем смешивания растворов диэтилалюминия хлорида и тетрахлорида титана в бензине при температуре 25–50 °C из дозаторов (1) и (2) в третьем смесителе. Для повышения атмосферостойкости и термоокислительной стойкости в полимерную композицию добавляли различные стабилизаторы-антиоксиданты. Реакторные трубки имели переменный диаметр (50–75 мм). Одинаковые секции трубок соединяли массивными полыми пластинами –

ISSN 3030-3907

ретрубами или калачами. Для быстрого охлаждения гранул грануляционную форму охлаждали деминерализованной водой.

Ключевые слова: Полиэтилен, регенерация, грануляторы, реакторы полимеризации, псевдоожиженный полиэтилен, катализаторы Циглера-Натта, пероксид или гидропероксиды этилена.

Introduction

In industry, high-pressure polyethylene (HPPE) is polymerized from ethylene in a condensed gas phase at 200-280°C under a pressure of 150-300 MPa in the presence of radical polymerization initiators. In industry, two types of reactors are used to produce HPPE, differing in their design. One of these is a tubular apparatus operating on the principle of ideal compression, and the other is an autoclave with a mixer operating on the principle of mixing, similar to a vertical cylinder apparatus with a mixer. Tubular polymerization reactors used in industry consist of heat exchangers of the pipe type connected in series inside the pipe. The reactor pipes have a variable diameter (50-75 mm). Identical sections of the pipes are connected using massive hollow plates called retubrents or calaches. The pipes and calaches are surrounded by a shell connected in series with each other. Superheated water with a temperature of 190-230°C is used as a heat carrier to remove excess heat from the reaction medium. This superheated water is fed into the tubular reactor shell from the opposite side of the reaction mass to the ethylene feed. The high-pressure superheated water is used to prevent the formation of a polymer film on the tube walls.

Figure 1 shows a general scheme for continuous production of high-pressure polyethylene in a tubular reactor.

ISSN 3030-3907




Fig.1 Schematic of the gas phase high-pressure polyethylene production process: 1-collector; 2-low-pressure ethylene mixer; 3-first cascade compressor; 4-high-pressure ethylene mixer; 5-second cascade compressor; 6-pipe reactor; 7-high-pressure separator; 8-low-pressure separator; 9-granulator; 10-vibrating screen; 11,14-cyclone separators; 12,15-coolers; 13,16-filters; 17-primary compression compressor

EXPERIMENTAL RESULTS AND THEIR DISCUSSION

The polymerization reactor consists of three sections, each section is equipped with heat exchangers to heat the gas and reaction mixture to 120-190°C, depending on the type of initiator used. At the end of the third section, a cooler is installed, in which the reaction mass is cooled to 200-250°C.

Fresh ethylene from the gas separation section enters the collector (1) under a pressure of 0.8-1.1 MPa and then into the mixer (2). Here it is mixed with low-pressure reflux ethylene. Oxygen is added to this mixture and fed to a three-stage compressor in the first cascade, where it is compressed to a pressure of 25 MPa. After compression in each stage, ethylene is cooled in coolers, separated from the oil in separators, and then fed into the mixer (4). Here it is mixed with high-pressure reflux ethylene coming from the separator (7). The mixture was then transferred to a two-stage compressor (5) in the second cascade, where it was compressed to a pressure of 245 MPa. The first compressed ethylene was cooled in coolers and cleaned of impurities in separators, and after compression in the second stage (stage), it was transferred to three sections of a tubular reactor (6) for polymerization at 70°C (without cooling). The polymerization reactor consists of

ISSN 3030-3907

three compartments, each compartment is equipped with heat exchangers to heat the gas and reaction mixture to 120-190°C, depending on the type of initiator used. At the end of the third compartment, a cooler is installed, in which the reaction mass is cooled to 200-250°C. The polymerization of ethylene in a tubular reactor was carried out under the following conditions.

Temperature, oC	190-200
Pressure, Mpa	245
Oxygen concentration,%	0.002-0.008
The rate of conversion of ethylene into polymer in one cycle (rotation), %	26-30
The overall rate of conversion of ethylene to polymer,%	95-98

From the tubular reactor (6), unreacted ethylene mixed with the polymer is fed through a reducing valve to a high-pressure separator (7) at a pressure of 24.5-26.3 MPa. Here, ethylene and polyethylene are separated from each other. Unreacted ethylene is directed from the top of the separator to cyclone separators and coolers (12). Here, the polyethylene carried away with ethylene is separated. Then the ethylene is cooled and returned to the mixer (4) for mixing with new ethylene and from there to the cycle.

CONCLUSION

Low-pressure polyethylene (LP) was obtained by this method by polymerizing ethylene at a pressure of 0.3-0.5 MPa, at 70-80°C, in the presence of organic solvents (gasoline, etc.). The polymerization was carried out in the presence of Ziegler-Natta catalysts (diethylaluminum chloride and titanium tetrachloride). The ratio of alkylaluminum to titanium tetrachloride was taken from 1:1 to 1:2. Since this catalyst complex decomposes under the influence of oxygen and moisture in the air, the polymerization was carried out in the presence of a dehydrated solution and in a nitrogen atmosphere. Identical sections of the pipes were connected using massive hollow plates, known as retubrents or kalachs. In order to quickly cool the granules, the granulating mold was cooled with demineralized water.

REFERENCES

1. Технология пластических масс. Под. ред. В.В. Коршака. М., «Химия», 1985, с.298-315.
2. Бессонов М.И. и др. Полиимиды – класс термостойких полимеров., Л., "Наука", 1983 г., 308 с.
3. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi. T., O‘zbekiston 2004 й.

ISSN 3030-3907

4. Голосев А.П., Динцес А.И. Технология производства полиэтилена и полипропилена. М., «Химия», 1978, 263 с.
5. Bakhtishod, A., & Abdurasul, B. (2025). NATURAL GAS PURIFICATION FROM HIGH HYDROCARBONS IN A VORTEX TUBE. Universum: технические науки, 11(5 (134)), 29-32.
6. Abdullaev, B. M., & Sayfullaev, T. K. (2023). Analysis of the causes of accidents in gas pipelines transport, national economy and main pipelines. journal of multidisciplinary bulletin, 6(4), 123-126.
7. Torayevich, K. M. (2023). Determination of the influence of the composition of catalysts on the catalytic characteristics. journal of multidisciplinary bulletin, 6(5), 8-15.
8. Torayevich, K. M. (2023). Development of hybrid catalyst and synthesis of liquid hydrocarbons based on them. journal of multidisciplinary bulletin, 6(5), 1-7.
9. Karshiev, M. T., Kh, S. T., & Abdullaev, B. M. (2023). Purification of natural gas from co2 by adsorption method. journal of multidisciplinary bulletin, 6(5), 62-76.
10. Xayrulla o‘g‘li, S. T. (2022). Yo‘ldosh gazlarni qayta ishlash zavodlaridagi korroziya bilan bog‘liq muammolarni yechishda ingibitorlardan foydalanish. Journal of new century innovations, 10(4), 20-22.
11. Rahmatovich, C. N., & Xayrulla o‘g‘li, S. T. (2022). Yo‘ldosh gaz-kondensatlarini barqarorlashtirish qurilmalarida ingibitorlardan foydalanish. Journal of new century innovations, 10(4), 23-25.
12. Abdullaev, B. M., & Sayfullaev, T. K. (2024). Cobalt fischer–tropsch catalyst regeneration. journal of multidisciplinary bulletin, 7(1), 105-113.
13. Kh, K. S., & Abdullaev, B. M. (2025). EFFECT OF PROMOTER METALS ON CATALYST ACTIVITY IN PROPANE-BUTANE FRANCOATION. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(6), 453-461.
14. Boboniyozovich, R. X., Mengliqulo‘G‘Li, A. B., Ulug‘Beko‘G‘Li, U. E., & Rustemuli, M. B. (2025). KREMNIYLI SEOLITLARDA N-GEKSANNI AROMATLASH. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 3(1), 186-189.

ISSN 3030-3907

QUVURDA PAXTANI TASHISH JARAYONIDA TOLA VA CHIGIT SHIKASTLANISH JARAYONINI TADQIQ QILISH

Mutalov Muhammadodil Olimjon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxtani qayta ishlash jarayoning asosiy qismi bo‘lgan xomashyoni ishlab chiqarish jarayoniga uzatib berishqa qo‘llaniladigan pnevmotransport bo‘yicha olib borilgan bo‘lib, bunda ushbu ish bo‘yicha olib borilgan ishlar taxlili, material va metodlar, tadqiqot natijalari taxlili, xuloslar keltirilgan. Quvurda paxtani tashish jarayonida tola va chigitning quvur devorlariga urilishi natijasida xosil bo‘lgan zarba kuchini aniqlandi. Pnevmotransport quvurlarida paxta xomashyosini tashishda zarbalanish jarayonini ARDUINO qurilmasi yordamida aniqlandi. Va natijada taklif etilayotgan yangi material va geometrik o‘lchamga ega bo‘lgan pnevmoquvurlarda paxtani havo yordamida tashish jarayonida quvur devorlari bilan paxtaning zarbalanish jarayoni amaldagi quvurlarga nisbatan sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi. Bunga asosiy sabab quvur materiali bilan paxta xomashyosi orasidagi ishqalanish koeffitsiyentini kamayishi va quvur ichida paxtani bir tekisda harakatlanishini hisobigadir.

Kalit so‘zlar: paxtani tozalash, dastlabki ishlash, texnologik kamchiliklar, samaradorlik, paxta, tola, chigit, tozalash jarayoni.

Аннотация. В данной статье рассматривается пневмотранспорт, используемый для передачи сырья в производственный процесс, который является основной частью процесса переработки хлопка, при этом представлен анализ работ, проведенных по данной работе, материалы и методы, анализ результатов исследований, выводы. Определена сила удара, возникающая в результате удара волокна и семян о стенки трубы в процессе транспортировки хлопка по трубопроводу. Процесс удара при транспортировке хлопка-сырца по пневмотранспортным трубопроводам определяли с помощью аппарата ARDUINO. В результате было установлено, что процесс столкновения хлопка со стенками труб в процессе транспортировки хлопка воздухом в пневмопроводах с предлагаемым новым материалом и геометрическими размерами значительно уменьшился по сравнению с существующими трубами. Основная причина этого заключается в уменьшении коэффициента трения между материалом трубы и хлопком-сырцом и равномерном движении хлопка внутри трубы.

Ключевые слова: очистка хлопка, первичная обработка, технологические недостатки, эффективность, хлопок, волокно, семена, процесс очистки.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article examines pneumatic transport used to transfer raw materials into the production process, which is the main part of the cotton processing process. It presents an analysis of the work carried out on this topic, materials and methods, analysis of research results, and conclusions. The impact force resulting from the impact of fibers and seeds on the pipe walls during the transportation of cotton through the pipeline is determined. The impact process during the transportation of raw cotton through pneumatic transport pipelines was determined using an ARDUINO device. As a result, it was found that the process of cotton colliding with the pipe walls during air transport in pneumatic pipelines with the proposed new material and geometric dimensions was significantly reduced compared to existing pipes. The main reason for this is the reduction in the friction coefficient between the pipe material and the raw cotton and the uniform movement of the cotton inside the pipe.

Keywords: cotton cleaning, primary processing, technological shortcomings, efficiency, cotton, fiber, seeds, cleaning process.

Kirish

Jahon tajribasida paxta xomashyosiga ishlov berish jarayoni, texnika va texnologiyasini rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy markazlar tomonidan, paxtani quritish va namlash, paxta tolasini chigitdan ajratish jarayonlari, shuningdek, texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish muammolari bo‘yicha tizimli izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, paxta xomashyosini pnevmotransportda tashish jarayonining samaradorligini oshirish, tola va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash, uskunalarining ixcham, sodda, kam material va energiya sarflaydigan konstruksiyalarini yaratish va ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish mazkur sohani rivojlantirishning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish yo‘li bilan, to‘qimachilik va engil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, **“...**mamlakat to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, 2022 - 2026 yillarda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport hajmlarini ko‘paytirish, 2026 yilga qadar ip-kalavani mamlakatning o‘zida to‘liq qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish... vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlashda, pnevmotransport quvuri resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish orqali paxtani pnevmotransport bilan tashish jarayoni samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Pnevmotransport tizimi va uning elementlarini takomillashtirish bo‘yicha va pnevmotransport tizimida paxtani tashish

ISSN 3030-3907

jarayonidagi qonuniyatlarni ishlab chiqish va tadqiq etish bilan horijda A.YA. Yampolskiy, G.I.Miroshnichenko, V.A.Shvab, M.P.Kalimushkin, V.A.Uspenskiy va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. [1]

SHuningdek, Respublikamizda paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonidagi paxta xomashyosini pnevmotransport tizimida tashishning fundamental-nazariy, amaliy va metodologik asoslarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar A.Burxanov, O.Sh.Sarimsakov, X.T.Axmedxodjaev, R.M.Muradov, Z.O.SHodiev, B.Levkovich, P.Baydyuk, X.A.Ziyaev, R.Amirov, R.Maxkamov, B.M.Mardonov, X.Raxmatullin, U.X.Azizxodjaev, N.A.Ortikov, S.A.Samandarov, A.A.Ismoilov, T.O.SHamsuddinov, A.Davidov, R.Fayziev, M.Xojiev, X.Mamarasulov, R.Azbadalov, R.Burnashev va boshqalar tomonidan bajarilgan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Paxtani pnevmotransportda tashish jarayonida pnevmotransport tizimining tarkibiy qismlarini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramasdan, paxta xomashyosini havo oqimida tashishni samaradorligini ta’minlash uchun pnevmoquvur va uning geometrik o‘lchamlarining optimal parametrlari hamda paxta bilan quvur materialining ishqalanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib boorish kerakligini ko‘rsatadi.

Navbatdagi tadqiqotlarni o‘tkazish uchun quvurning ventilyator oldi qismiga to‘rli sirt va quvur ostiga cho‘ntak o‘rnatildi. Paxtani tashish masofasi 36 metrni tashkil etdi. Quvurlarda paxtani tashish jarayonida chigit shikastlanish va tola jarayonini o‘rganishda Andijon 35 va C-6524 paxta navlari xomashyosidan foydalanildi.[3.4]

Eksperiment oldidan, paxta chigitining mexanik shikastlanganlik darajasi va toladagi ifloslik va nuqsonli aralashmalar massaviy ulushi, kalta tola miqdori, tolaning shtapel uzunligi aniqlandi. Uskunadagi havo tezligi maksimal qiymatda 25 m/s ni tashkil qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR . Aerodinamik uskuna ishga solinib, unga paxta qo‘lda uzatib berildi. Paxta uskunadan chiqarib olingach, uning sifat ko‘rsatkichlari qayta aniqlandi. Olingan natijalarning kerakli aniqligini ta’minlash uchun har bir eksperiment 3 martadan qaytarilish bilan o‘tkazildi va jadvalga ularning o‘rtacha arifmetik qiymati kiritildi. Olingan natijalar 3-jadvalda berilgan.

Jadvalda suratdagi qiymatlar dastlabki ko‘rsatkichlarni, maxrajdagi ko‘rsatkichlar esa tashishdan keyingi ko‘rsatkichlarni ifodalaydi. Paxtani pnevmotransportda tashish jarayonida paxta xomashyosi chigiti va tolasining sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tajribalar natijalariga e’tibor qaratilsa, aksariyat ko‘rsatkichlarning o‘zgarmaganini, ayrim ko‘rsatkichlarning esa kichik miqdorlarda kamayganini ko‘rishimiz mumkin.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Eksperimental tadqiqotlar natijalari

Selek-siya sanoat navi	Chigitning mexanik shikastla-nishi, %			Kalta tola miqdori, %			Tolaning shtapel uzunligi, mm			Nuqson va iflos aralashmalar massasi, %		
Tajriba rakami	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
C-6524 II/2	1.9 1.9	1.9 1.9	2.1 2.0	7.7 7.7	7.7 7.8	7.9 7.8	32.4 32.3	32.2 32.2	32.2 32.2	2.3 2.2	2.3 2.3	2.4 2.3
And-35 III/2	3.7 3.7	3.8 3.7	3.9 3.9	9.5 9.5	9.0 8.9	9.8 9.8	31.3 31.2	31.2 31.2	31.1 31.2	3.9 3.8	3.9 3.9	3.9 3.8
And-35 IV/2	5.1 5.0	5.1 5.2	5.6 5.5	9.8 9.8	9.9 9.8	9.8 9.9	30.4 30.2	30.1 30.1	30.0 30.1	8.5 8.5	8.6 8.5	8.7 8.6

Albatta, pnevmotransportda paxtani tashishda maxsulot sifati yaxshilanib qolmaydi. Ayrim ko‘rsatkichlarning biroz ijobiy tomonga o‘zgarishi o‘lchovlar xatoligi doirasidan katta emas. Shuningdek, bu qiymatlarni tasodifiy qiymat sifatida qabul qilish mumkin. Ammo, paxta va uning komponentlari sifat ko‘rsatkichlarining deyarli o‘zgarmagani pnevmotransport jarayonida maxsulot sifat ko‘rsatkichlari yuqori darajada yomonlashishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar normal tezlik parametrlari ta’minlangan hollarga tegishli emasligini ko‘rsatadi. Ya’ni, pnevmotransportda havo tezligining nominal parametrlari qo‘llanganda paxta va uning komponentlari sifat ko‘rsatkichlari yomonlashmaydi, deya xulosa chiqarish mumkin.

Bunda, yana bir holatni e’tiborga olish kerakki, eksperimental uskunada quvurning egilgan qismlari bo‘lmagan. Bizgacha o‘tkazilgan tajribalarda chigitning mexanik shikastlanishi ko‘proq quvurning burilish qismlari, ya’ni chig‘anoqlarda yuz berishi kuzatilgan. Biz bu holatni ishlab chiqarish sharoitida o‘tkaziladigan tadqiqotlarimizda tekshiramiz. Ammo, o‘tkazilgan amaliy tadqiqotlar natijalari quvurning gorizontal qismlarida, agar, havo tezligi ratsional qiymat 25 m/s dan oshmasa, paxta chigitida mexanik shikastlanish ro‘y bermaydi va tolada nuqsonlar paydo bo‘lmaydi, deb xulosa qilish uchun etarli, deb hisoblaymiz.

Paxta tozalash korxonalarida paxta xomashyosini g‘aram maydonlaridan pnevmotransport tizimi yordamida ishlab chiqarishga uzatish jarayonida paxta va

ISSN 3030-3907

uning mahsulotlarini pnevmotransport quvuri va pnevmotransport elementlarining ishchi organlari bilan o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida shikastlanish holatlari yuzaga kelmoqda.[5.6]

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili natijasiga ko‘ra pnevmotransport tizimi orqali paxrani tashish jarayonida 1,2-1,7 foiz chigitning shikastlanish holatlari paxta bo‘lakchalarini havo yordamida tashuvchi pnevmotransport quvurlari ichidagi harakati davomida quvur devorlariga urilib haraktlanishi oqibatida sodir bo‘lar ekan. Bu esa o‘z navbatida paxta tolasida 0,3-0,4 foiz gacha nuqsonlar (chigit qobig‘i qoldiqlari) ning hosil bo‘lishiga olib keladi.

Ushbu kuzatiladigan kamchiliklarni aniqlash maqsadida paxta tozalash korxonlaridagi mavjud pnevmotransport quvurlarida havo yordamida paxtani tashish jarayonida zarbalanish jarayonini o‘rganildi (1-rasm).



1-rasm. Pnevmotransport quvurlarida paxta xomashyosini tashishda zarbalanish jarayonini ARDUINO qurilmasi yordamida aniqlash jarayoni

Bunda dastlab paxtaning amaldagi pnevmoquvurlarda harakatlanishi natijasida quvur devoriga urilishi natijasida hosil bo‘ladigan zarba kuchi ta’sirida chigit shikastlanish holatlarini aniqlash maqsadida ARDUINO markali zarba kuchini aniqlovchi datchikdan foylanildi. Bunda mazkur pribor har bir sekund vaqt oralig‘ida paxtani havo bilan birga quvur devoriga berayotgan zarba kuchini ko‘rsatdi (2-jadval).[7,8]


2-jadval

Vaqt (sekund)	1	2	3	4	5	6	7	8
Kuch (Nyuton)	2,0	2,04	2,13	1,58	2,12	2,35	1,82	2,02

ARDUINO pribori yordamida amaldagi pnevmotransport quvurlarida paxta xomashyosini havo bilan birgalikda quvur devorlariga urilib harakatlanishi natijasida zarba kuchini aniqlaydigan qurilmaga ko‘rsatayotgan zarba kuchini

ISSN 3030-3907

aniqlashimiz mobaynida yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, har bir sekund vaqt oralig‘ida zarba kuchini qiymati turlicha ko‘rsatayotgani aniqlandi. Chunki pnevmoquvur devoriga kelib urilayotgan paxta xomashsining miqdori va uning tarkibidagi og‘ir aralashmalarning darajasi har xilligidadir. O‘lchash natijalarini grafik ko‘rinishida tasvirlasak quyidagi grafiklarga ega bo‘lamiz (2-rasm).



3-rasm. Amaldagi quvurlarda zarba kuchini grafiklarda ko‘rinishi

3-rasmdagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, vaqt birligi (1 sekund) ichida amaldagi pnevmoquvurlarda havo yordamida tashilayotganda quvur devorlariga ko‘rsatayotgan ta’siri o‘zgarib turibdi. O‘tkazilgan tajribalar natijasida amaldagi quvurlarning devorlariga urilishi natijasida chigit shikastlanish darajasini aniqlash maqsadida laboratoriya sharoitida tajribalar o‘tkazildi (4-rasm).



4-rasm. Amaldagi pnevmoquvurlarda shikastlangan chigitlarning holati

Bunda tolasidan ajratib olingan chigitdan 50 gr namuna olinib, maxsus kislota yordamida kolba idishda tuksizlantirib olindi. Shundan so‘ng tuksizlantirilgan chigitlar ichidan shikastlangan chigitlar saralab terib olinib

ISSN 3030-3907

laboratoriya tarozisi yordamida massasi 1,13 gramga tengligi aniklandi. Olingan umumiy 50 gram chigit massasiga nisbatan shikastlangan chigitlarning massasi nisbati olinib shikastlanish darajasi 2,3 % ga tengligi aniqlandi.[9,10]

Amaldagi pnevmotransport quvirlarining o‘lchamlari, materiali, ishlashi hamda ishlashi mobaynida kuzatiladigan afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish natijasida yangi material va o‘lchamga ega pnevmoquvur ishlab chiqildi va “Namangan paxtateks” MCHJ ga qarashli “Kosonsoy paxta tozalash” korxonasining texnologik jarayoniga joriy qilinib tajribalar o‘tkazildi. Yangi material va geometrik o‘lcjamga ega pnevmoquvur amaldagi pnevmotransport quvurlaridan keskin farq qiladi (5-rasm).[11,12]



5-rasm. Yangi taklif etilayotgan pnevmoquvurlarda zarba kuchini aniqlash jarayoni


Yangi taklif etilayotgan pnevmotransport quvurlarida paxta xomashyosini tashish jarayonida quvur devorlariga ko‘rsatayotgan zarba kuchi ta’siri aniqlanib, quyidagi jadvalda keltirildi (3-jadval).

3-jadval

Vaqt (sekund)	1	2	3	4	5	6	7	8
Kuch (nyuton)	1,08	1,19	1,05	1,93	2,07	1,75	1,92	1,28

Olingan natijalarini quyidagi grafikda ifodalaymiz (6-rasm).

ISSN 3030-3907



6-rasm. Yangi quvurlarda zarba kuchini grafiklarda ko‘rinishi

Yuqoridagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, taklif etilayotgan yangi material va geometrik o‘lchamga ega bo‘lgan pnevmoquvurlarda paxtani havo yordamida tashish jarayonida quvur devorlari bilan paxtaning zarbalanish jarayoni amaldagi quvurlarga nisbatan sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi. Bunga asosiy sabab quvur materiali bilan paxta xomashyosi orasidagi ishqalanish koeffitsiyentini kamayishi va quvur ichida paxtani bir tekisda harakatlanishini hisobigadir.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida pnevmotransport tizimi orqali paxta xomashyosini tashish jarayonida tola va chigitning quvur devorlariga urilishi natijasida yuzaga keladigan zarba kuchlari paxta sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, quvur materiali va geometrik shakli, shuningdek, havo oqimi tezligi kabi omillar paxtaning ichki qatlamlari va chigitlarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Tajribalarda zarbalanish jarayoni ARDUINO elektron qurilmasi yordamida aniqlanib, mavjud pnevmotransport quvurlarida paxta zarbalanishi ancha yuqori ekani qayd etildi. Taklif etilgan yangi turdagi quvurlar esa o‘zgartirilgan geometrik shakl va sirt materialining o‘ziga xos xususiyatlari hisobiga zarba kuchlarini sezilarli darajada kamaytirishga erishdi. Yangi quvurlarda paxta zarbalanishining kamayishi quyidagi omillar bilan asoslandi: quvur materiali va paxta xomashyosi orasidagi ishqalanish koeffitsiyentining kamayishi, paxtaning quvur ichida bir tekis harakatlanishini ta'minlaydigan ichki silliq yuzalar, geometrik shaklning oqimni barqaror ushlab turish xususiyati.

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelindi: paxta xomashyosini pnevmotransport orqali tashishda paxta tolasi va chigitning mexanik shikastlanishiga olib keluvchi asosiy omil — bu quvur devorlariga yuqori tezlikda urilish natijasida yuzaga keladigan zarba kuchlaridir, ARDUINO asosidagi datchiklar yordamida bu zarbalar aniq qayd etilib, turli quvur materiallari va

ISSN 3030-3907

o‘lchamlari solishtirildi, taklif etilgan yangi quvur modeli mavjud (amaldagi) quvurlarga nisbatan paxta zarbalanishini 30–40% gacha kamaytirish imkonini berdi, buning natijasida paxta sifati, xususan tola uzunligi va chigitning butunligi yuqori darajada saqlanib qoldi, ushbu natijalar asosida pnevmotransport tizimlarining konstruksiyasini modernizatsiya qilish orqali paxta sanoatidagi xomashyo tashish bosqichida yo‘qotishlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish imkoniyati mavjudligi isbotlandi.

FOYDALANILGFAN ADABIYOTLAR

1. Х.Т.Ахмедходжаев, А.А.Рахманов, М.О.Муталов Исследование транспортирования хлопка-сырца в металлополимерных трубопроводах и их влияние на качество волокна исемян // Наманган Издательство «Vodiy media» нашриёти 2020 й.

2. R.Muradov, N.Rejapova, U.Rashidov, M.Mutalov Installation of a Cone-Shaped Surface to Increase the Effectiveness of the Seperator // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, https://www.scirp.org/journal/eng Vol. 6, Issue 7, ISSN: 2350-0328, Hindiston July 2019, 10153-10156 p.

3. N.Rejapova, O.Sarimsakov, M.Mutalov To Study Of The Movement And Throughput Of Cotton Inside Pneumatic Conveying Pipeline // International Journal of Research Available at https://edupediapublications.org/journals p-ISSN: 2348-6848 e-ISSN: 2348-795X Volume 07 Issue 04 April 2020, 1018-1024 p.

4. M.Gapparova, B.Mirzaev, M.Mutalov, O.Sarimsakov Investigation of Changes in Flow Parameters along the Transport Line in Installations for Pneumatic Transport of Cotton // Engineering, DOI: 10.4236/eng.141007, https://www.scirp.org/journal/eng ISSN Online: 1947-394X ISSN Print: 1947-3931, 2022, 14, 76-83p.

5. H.O‘rmonova, K.Abdurahimov, M.Mutalov, O.Sarimsakov Havo yordamida tashishda paxta massasining pnevmotransport quvuri uzunligi va ko‘ndalang kesimi bo‘yicha taqsimlanishi // Namangan muhandislik-texnologiya instituti Ilmiy-texnika jurnali, Tom 4-№, 2019, 9-14 b.

6. Ш.Тўхтаев, M.Mutalov Пахтани пневмотранспортда ташиш ва унда ишлатиладиган қувурлар тўғрисида шарх // “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 1, ISSUE 9, 2023. DECEMBER ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869, 1211-1217 b.

7. R.Muradov, N.Rejapova, M.Salomova, M.Mutalov Learning to the capacity of the workers of separator within the qualification and practical ways // International Conference on sustainable Development and economics, ICSDE 2019 ISSN: 2622-

3341 JUNE 24-25, 2019 840 MOUNT KATAHDIN TRAIL, ALPHARETTA, GEORGIA, 30022, USA, 88-91 p.
8. O.Sarimsakov, M.Mutalov Pnevmotransport quvurlarining tahlili va ularni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish // “Zamonaviy mashinasozlikda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy asoslari: Tajriba va Istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan, 23-24 sentabr 2023-yil, 246-248 b.
9. O.Sarimsakov, M.Mutalov Paxta tozalash korxonalarida xomashyo transportirovkasining tahlili // “Zamonaviy mashinasozlikda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy asoslari: Tajriba va Istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan, 23-24 sentabr 2023-yil, 153-155 b.
10. F.Raximov, M.Mutalov, S.Azimov Paxta tozalash korxonalari uchun energiya resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish // “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashda innovatsion texnologiyalar va jihozlar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Namangan muhandislik-texnologiysa instituti, Ilmiy maqolalar to‘plami, Namangan 2020-yil 9-noyabr, 251-254 b.
11. S.Azimov, M.Mutalov, O.Sarimsakov Aerodinamika va pnevmotransport tizimining nazariy asoslari tahlili // “To‘qimachilik va yengil sanoati mashinalarini loyihalash va takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Namangan muhandislik-texnologiysa instituti, Ilmiy maqolalar to‘plami, Namangan 2021-yil 26-mart, 72-73 b.
12. M.Gapparova, M.Mutalov, O.Sarimsakov Paxta xomashyosini pnevmotransport yordamida tashish jarayoni tahlili // “To‘qimachilik va yengil sanoati mashinalarini loyihalash va takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Namangan muhandislik-texnologiysa instituti, Ilmiy maqolalar to‘plami, Namangan 2021-yil 26-mart, 112-119 b.

ISSN 3030-3907

TITRASH TEGIRMONINI YANCHISH KAMERASINI DINAMIK TENGLAMALARINI SONLI YECHIMI

N.F.Rasulov.

Chirchiq OTQMBY Umumtexnika fanlari kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mineral xom-ashyolarni boyitishda, rudalarni kerakli o‘lchamga keltirishda, titrash tegirmonini yanchish kamerasida asosiy titrovchi mexanizmlarini dinamikasini sonli yechimining qonuniyatlari keltirilgan bo‘lib, hosil qilingan tenglamalar sistemasi orqali yanchish kamerasining burchak va majburiy titrashlar grafigi tasvirlangan. Ushbu grafikka asosan asosiy titratuvchi (yurgich) va qo‘shimcha titratuvchi (elastik tayanchlar) paydo qilgan nazariy kinematik tavsifi berilgan.

Kalit so‘zlar: Yanchish kamerasi, majburiy titrashlari, burchak titrashlari, kinematik tavsifi, burchak tezligi, ilgarilanma-qaytma harakat, sinusoidal, majburiy titrash, elastik tayanch, yurgich.

Аннотация: В данной статье представлены закономерности численного решения динамики основных вибрирующих механизмов дробильной камеры вибромельницы при обогащении минерального сырья, доведении руд до требуемого размера, а также изображены графики угловых и вынужденных вибраций дробильной камеры через полученную систему уравнений. На основании этого графика дается теоретическая кинематическая характеристика, порождаемая основным вибратором (ходовым) и дополнительным вибратором (упругими опорами).

Ключевые слова: Камера измельчения, вынужденные вибрации, угловые вибрации, кинематическая характеристика, угловая скорость, возвратно-поступательное движение, синусоидальная, вынужденная вибрация, упругая опора, ход.

Abstract: This article presents the patterns for the numerical solution of the dynamics of the main vibrating mechanisms of the vibrating mill's crushing chamber during the beneficiation of mineral raw materials, bringing the ores to the required size, and also depicts the graphs of angular and forced vibrations of the crushing chamber through the resulting system of equations. Based on this graph, the theoretical kinematic characteristic is given, which is generated by the main vibrator (moving) and the additional vibrator (elastic supports).

Keywords: Grinding chamber, forced vibrations, angular vibrations, kinematic characteristic, angular velocity, reciprocating motion, sinusoidal, forced vibration, elastic support, stroke.

Kirish

ISSN 3030-3907

Maydalash jarayoniga asosiy hissa vibroyuritma tomonidan yaratilgan maydalash kamerasining titrashi hisoblanadi. Bir jinsli bo‘lmagan sochiluvchan muhit bo‘lgan maydalovchi jismlar va material aralashmasining titrash harakatini aniq tadqiq qilish juda murakkab vazifa hisoblanadi.

Ushbu masalaning taqribiy muhandislik yechimini quyidagi soddalashtiruvchi farazlar asosida topish mumkin:

- maydalovchi jismlarning titrashi uning maydalash kamerasi devorlari bilan o‘zaro ta’siri natijasida saqlanadi;

